

# TARBIYA FANLARIM O'QITISH METODIKASI

S.A.Toshtemirova, G.G'.Gaffarova  
N.M.Koshanova



Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot,  
yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S.A. Toshtemirova, G.G. Gaffarova, N.M. Koshanova

## **TARBIYA FANLARINI O`QITISH METODIKASI**

60112100 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi  
talabalari uchun darslik

UDK-37.013;37.02  
KBK-74.00  
T-26

**S.A.Toshtemirova, G.G. Gaffarova, N.M. Koshanova. / Tarbiya fanlarini o'qitish metodikasi** [Matn]: darslik / – Toshkent: "Olmaliq kitob business", 2024. – 388 b.

**Mas'ul muharrir:**

**U.N. XODJAMQULOV** - pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Taqrizchilar:**

**N.N. NAZAROV** - tarix va falsafa fanlari doktori, professor

**T.A. EGAMBERDIYEVA** - pedagogika fanlari doktori, professor  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

Mazkur darslikda Tarbiya fanlarini o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari umumlashtirilgan bo'lib, unda asosan Tarbiya fanini o'qitishga qo'yiladigan talablar, globallashuv sharoitida tarbiya mazmunini milliy qadriyatlар, boy tarixiy meros, zamonaviy yondashuvlar asosida samaradorligini oshirish imkoniyatlari keltirib o'tilgan. Darslik pedagogika sohasidagi oliy o'quv yurtlari Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi (60112100), Tarix (60111100) va Pedagogika (60110100) ta'limi yo'nalishi bakalavrят bosqichi talabalari, shuningdek umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarini o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17 iyuldagi 314-soni buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

**ISBN 978-9943-8822-5-6**

© «Book trade 2022» nashriyoti, Toshkent, 2024 y.

©S.A.Toshtemirova, G.G. Gaffarova, N.M. Koshanova.

**KIRISH**

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlari uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yemoqda<sup>1</sup>. To'xtovsiz va shiddatli, axborot almashinuvni tezkor davom etayotgan tahlikali davrda tarbiya masalasi har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globalashuv jarayonida dunyoning manzarasi tez o'zgarayotgan zamonda o'quvchi-yoshlarning tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fanlarni o'qitish borasida yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlarni tarbiyalashda dunyoda yuz berayotgan murakkab siyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish ko'nikmasini shakllantirish, mayjud hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, loqaydlik, huquqbuzarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash va saqlanish imkoniyati yaratiladi. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda zamon talablariga mos avlodni tarbiyalashda, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama muvaffaqiyatlari ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagি nutqida O'zbekistonda yangi

<sup>1</sup>Узбекистон Республикасининг 2020 йил 7 июндан "Умумий ўрта таълим муассасаларида "Тарбия" фанини босқичма-босқич амалийтга жорий этини чора-тадбирлари түгрисида"ги 422-сон карори. <http://lex.uz/ru/docs/4885018>

bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotganini alohida ta'kidlab o'tdi. Yurtboshimiz "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish - Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoxda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Farzandlarimizning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rinn egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qoladi. Shu maqsadda biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etmoqdamiz" - deb ta'kidlab o'tgan edi. Darhaqiqat, uzoq yillar davomida tarbiya ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga, ikkinchi darajali ishga aylanib, tizimsiz jarayon bo'lib kelganligi hamda jamiyatning pedagogik madaniyati pasayib, maktabgacha ta'lim, maktab pedagoglari, ota-onalarning tarbiyaga oid pedagogik-psixologik bilimlari zamon talablariga javob bermay qoldi.

Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'ldi. Masalaning yana bir tomoni oliy ta'lim muassasalarida zamon talablariga javob beradigan, yuqori malakali pedagoglarni tayyorlash ishining sustashib ketgani bilan bog'liq. Chunki, yosh avlodni tarbiyalashda ma'lum malaka va kompetensiyalarni egallamay turib, bunday mas'uliyatli ishga kirishishning o'zi maqsadga muvofiq emas. Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 3 maydag'i PQ 4307-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi

bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy vogelik bo'ldi.

Ma'lumki, tarbiya masalasi insoniyat paydo bo'lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Garchi tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo'lishiga qaramasdan ibtidoiy to'da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzlusiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur al Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Forobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug' mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtida dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligini ta'minlaydi.

"Tarbiya" atamasi XVII-XIX asrlarda hozirgi bizning davrimizga qaraganda boshqacha ma'noga ega edi. Bu davrlarda bolalarning tabiiy o'sishi va rivojlanishini ta'minlash deb tushinilgan bo'lsa, XX asrda ushbu atama yangi mazmun bilan to'ldirilib, bunda barcha rivojlanish omillari (tasodifiy, stixiyali va maqsadli) ta'sirida shaxsning shakllanishi, natijada esa madaniyatni egallashi va jamiyat a'zosiga aylanishi sifatida talqin etildi. "Tarbiya" tushunchasi "shakllanish", "ijtimoiylashish" tushunchalari bilan birlashib, pedagogik tushunchadan ko'ra ko'proq psixologik va sotsiologik tushunchaga aylandi.

Tarbiya - bu ma'lum madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yosh avlodni hayotga tayyorlash shaxsni rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan bolalar va kattalar o'rtasidagi ta'limning maqsadli boshqariladigan ochiq tizimidir. Har bir xalq va davlatda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak

mamlakatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya jarayoni ham umumbasharish ehtiyojlardan kelib chiqishi lozim. Sababi insoniyat tamadduni taqdiri barcha xalqlar uchun bir xil qimmatlidir. Dunyoda ijobjiy xususiyatlaridan ko'ra ko'proq milliy tarbiya asoslariga tobora ko'proq xavf solayotgan globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari, global muammolar: giyohvandlik; ekstremizm va terrorizm xavfi; turli ekologik muammolar butun insoniyat oldida tarbiya masalasini global muammolardan biriga aylantirmoqda. Ushbu jarayonlar xavf va tahdidlarga qarshi millatlararo pedagogik birlikni taqozo qilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi tamoyil va yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qiladi. Mamlakat yoshlarini ma'nан va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yogga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda qabul qilingan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan xujjatlari, xususan "Bola huquqlari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasida ham dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta'kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSH tajribasidan shaxs erkinligi,

tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim", Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o'r ganilgan. Konsepsiya O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamонавија asosda ilmiy texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlар va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko'tariladi.

Tarbiya fanining o'qitilishi, samaradorligi masalasi umumxalq ishi darajasiga ko'tarilishi zarur. O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning istiqboli uchun astoydil va hamkorlikda ishlashimiz kerak, degan ma'naviy talabni umumxalq harakatiga aylantirilsa va har bir pedagog o'qituvchi o'ziga qat'iy vazifa sifatida belgilasa, Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari konseptual g'oyani amalga oshirish imkoniyati oshadi.

Ushbu darslik mavjud amaldagi "Tarbiya" fani o'quv dasturiga tayanilgan holda ushbu fanni o'qitishning mazmun-mohiyati, dars turlari, dars o'tishning tashkiliy shakllari, didaktik ta'minoti, dars o'qtish metodlari va klassifikatsiyasi, dars o'tish xonasining metodik jihozlanishi, "Tarbiya" fani darslarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni haqida fikr mulohazalarni talabalarga yetkazishga harakat qildik.

<sup>2</sup> Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси Вазирлар Мажмасининг 2019 йил 31-декабрдаги И 059-сонин карорига 1-илова. КХММБ: 09/20/1059/0017-сон 03.20.2020.

## **1-MAVZU: "TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI" FANINING MAQSAD VA VAZIFASI**

**Reja:**

1. Globallashuv jarayonida inson tarbiyasi ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida
2. Mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohatlar mazmuni va samarasi
3. "Tarbiya" fani me'yoriy asoslari va ularning mazmuni
4. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanining predmeti, maqsad-vazifalari

**Tayanch so'z va iboralar:** insoniyat tarbiyasi, fan-texnika taraqqiyoti, mafkuraviy ta'sir, milliy qadriyatlar, tarbiya, ta'lim sifati, modernizatsiya, uzlusiz ta'lim, ta'lim va tarbiya, integratsiya, tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlar, tizimli islohotlar, konsepsiya, yangicha tamoyillar

### **1. Globallashuv jarayonida inson tarbiyasi global muammo sifatida**

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yemoqda. Globallashuv - tarixiy jarayon bo'lib, butun dunyo mamlakatlarini yagona bir insoniyat tizimi sifatida yashashi uchun zamin yaratadigan, ya'ni dunyodagi hech bir mamlakat bu jarayondan chetda turib bo'lmaydigan jarayon sifatida uning keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his qilish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar ishchi kuchining harakati uchun qulayliklarning vujudga kelishi, ko'plab yangi ish

o'rinalining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi" uning ijobjiy natijalaridir<sup>3</sup>. Ammo, jarayon bugungi kunda borgan sari ijtimoiylashib, madaniy va ma'naviy hayotga ham kirib bormoqda. Globallashuvning yoshlarga bo'lgan salbiy, buzg'unchi mafkuraviy ta'sirini biz quyidagi jarayonlarda ko'rishimiz mumkin:

- yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi;
- yoshlarning mehnatga bo'lgan munosabati;
- yoshlarning qadriyatlarga bo'lgan munosabati;
- yoshlarni islam dini ma'naviyatini bilmasligi;
- yoshlar ruhiyatidagi begonalashuv;
- yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazishida va h.z.<sup>4</sup>

Hozirgi kunda globallashuv jarayoni yangi hudud va mintaqalarni inson faoliyatining barcha sohalarini o'z domiga tortmoqda. Ayniqsa, mafkuraviy va ma'naviy sohada o'z g'oya hamda mafkuralarini singdirish, ta'sir doiralarini kengaytirishda globallashuv jarayonlari muhim xalqa bo'lib xizmat qilayotganini hammamizga ayon. Birgina axborot-kommunikatsiya sohasidagi globallashuv jarayonini kuzatar ekanmiz, uning ta'siri jahonda g'oyaviy va madaniy gegemonlik uchun asosiy qurolda aylanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Axborot texnologiyalari yuksalgan davlatlar esa, bu jarayonning harakatga keltiruvchi kuchi bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiyati bilan o'zaro bog'laydi. Bugungi kunda globallashuv jamiyat taraqqiyotidagi qonuniy tarixiy jarayon bo'lib, insoniyat jamiyatini yangi sivilizatsiyaviy sifat o'zgarishlarini o'zida ifoda etmoqda. Ma'naviy hayotdagi globallashuv jarayonlari ommaviy axborot vositalari, internet, radio, televideniye, uyali aloqa vositalari orqali axborotni yetkazishning

<sup>3</sup> Каримов И. Юқсак мальнивият – сингилмас куч. –Т.: Малънивият 2008. –Б.112.

<sup>4</sup> Аминова М.М. Хозирги давр ёшлар тарбиясининг долзарб муоммолови //ЎЗМУ хабарлари. 2018.12-сон. Б.12-13.

faollashuvi asosida ham ijobjiy ham salbiy oqibatlarini keltirib chiqarib, bir tomonidan hayotimizga kirib kelayotgan ilm-fan, madaniyat va san'at, ma'naviy meros ijobjiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tomondan, turli zararli g'oyalar va mafkuralarning jamiyatimiz hayotiga kirib kelishi barkamol avlodni tarbiyalash, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash vazifasini dolzARB masala sifatida kun tartibiga qo'yemoqda. Globallashuv jarayoni bilan bog'liq ziddiyatlar, avvalo madaniy - ma'rifiy sohada namoyon bo'lmoqdaki, u yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma'naviy bo'shilqni to'ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy kuchlar va markazlar o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda foydalanmoqda. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma'naviy yo'qotishlar, milliy qadriyatlar, milliy tafakkur, til va turmush tarzi izdan chiqayotganini, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etishimiz lozim. Ma'naviy tahdid inson erkinligiga xavf solib, uni g'oyaviy qaram qilish, ruhiy dunyosini izdan chiqarishga qaratilgan bo'lib, xavfli jihatli jozibali shiorlar va g'oyalar ostida yashirinadi, xalqning millatning diniy rishtalariga bolta uradi. Ularning qalbini va ongini egallashga qaratilib, dunyoqarashiga zararli fikrlarni tiqishtiradi, oxir-oqibatda tinchlik, xavfsizlikga hamda milliy manfaatlarga tahdid solib, jamiyatni inqiroz ko'chasiga olib keladi. Bizga ma'lumki, ma'naviy qurolsizlantirilgan va buning oqibatida ma'naviy ildizlari zaiflashgan xalq eng oddiy xatar oldida ham ojiz bo'lib qoladi<sup>5</sup>.

Globallashuv jarayonida informatsion vositalarning yuksak darajada rivojlanishining salbiy natijalari o'laroq yoshlarning milliy qadriyatlardan, axloq normalaridan uzoqlashuvi yuz bermoqda. Ikkinchidan, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlari yoshlar orasida keng tarqalmoqda. Jumladan, g'arbona individualizm, egotsentrizm, nigelizm, andishasizlik,

behayolik va zo'ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish illatlarini keltirib chiqarmoqda.

XX asrning o'rtalaridan ommaviy madaniyatga axborot vositalari kuchli ta'sir o'tkaza boshlagan bo'lsa, asr oxiriga kelib va XXI asrning boshlarida bu ta'sir yanada kuchaydi. Ommaviy madaniyat yoki G'arbda aytilganidek, "populyar kultura" bugungi kunda xalq va millatlarning mumtoz madaniyatiga, san'atiga, uning boyliklariga qarshi kurashib, uning yutuqlarini inkor qilib kelmoqda. Shuning uchun bugungi kunda ommaviy madaniyatning ma'naviy-axloqiy tubanliklaridan davlatimiz fuqarolari, eng avvalo, yoshlarni asrab-avaylash, o'sib kelayotgan yosh avlodimizni ogohlilikga da'vat etish, ruhiyatini, aql-idroki va umuman ma'naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparaslik xataridan tashqari, ayni paytda, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manfaatlar yo'nalishidagi kurashlarning xatarli ta'siridan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi<sup>6</sup>. O'zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoev, "**Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. "Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikga tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z otanolaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq."**" Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, ommaviy madaniyat, odam savdosi, noqonuniy migratsiya degan baloqazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosи va ahamiyati yaqqol ayon

<sup>5</sup> Арзиматова И.М. Глобаллашувнинг ёшлар маънавий тарбиясига салбий таъсири // Мураббий илмий - маърифий журнали. 2021 №2. 2021.-Б.48-51.

<sup>6</sup> Ханимов, Ш.Ж., Хашимова С.Х. Маънавий глобаллашув ахборотлашган жамият ва ёшлар тарбияси // Мураббий илмий - маърифий журнали. 2021 №2. 2021.-Б.145-148.

**bo'ladi**<sup>7</sup>. Yurtboshimiz ushbu fikrlari orqali har bir oqibat tarbiya sababli yuzaga kelishini alohida ta'kidlaydilar. G'arb dunyosida shaxsiy erkinlik, va individual huquqlar, shuningdek, o'zligini namoyon qilish, shaxs erkinligi masalasiga ustivor qaralsa, Sharq madaniyatida jamoa manfaatlari, oila sha'ni va muqaddasligi, ijtimoiy an'ana va tartibotlar, kattalarga hurmat kabi qadriyatlar e'zozlanadi.

Globallashuv sharoitida madaniyatlararo integratsiya eng avvalo, ma'naviy-axloqiy, ma'rifiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida "**Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot kommunikatsiya manzarasida chuqr o'zgarishlar ro'y berayotgan turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda**"<sup>8</sup>, deya ta'kidlaganlari ham bejiz emas. To'xtov bilmas jarayonning salbiy ta'sirlaridan himoyalanishning yagona yo'li milliy tarbiya asoslarini mustahkamlash bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarbiya jarayoni ijtimoiy-madaniy jarayon bo'lib, shaxsni va ayniqsa yoshlarni jamiyatda yashashi va faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish, ya'ni yoshlarni o'zi yashayotgan jamiyatning asosiylablariga mos keladigan tarzda tarbiyalashdir. Tarbiya berish deyilganda, kimnidir maxsus xonaga o'tqazib pand-nasihat berishni emas, balki hatto o'yin, uy yumushlari jarayonida, ta'lim berish, ilm o'rgatish va turmush saboqlarini berish, shaxsiy o'rnatish jarayonida ham tarbiya ishlari amalga oshadi. Yoshlar tarbiyasi ma'lum bir maqsadga qaratilgan, rejali, shaxsni ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga olib keladigan jarayon. U

<sup>7</sup> Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqi. Samarqand gazetasи, 2016 йил, -Б.З. 07.12.2016.

<sup>8</sup> Karimov I.A. Юксак маънавият-енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008.-Б.119.

buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Farobiy aytganlaridek, vorisiylik tamoyiliga asoslanishi kerak. Mazkur jarayonda katta avlod butun ma'naviy-madaniy merosini yosh avlodga singdirib borishi lozim bo'ladi. Globallashuv davri yoshlari eski nasihatbozlikdan iborat, keksalar xizmatini ta'na qiluvchi tarbiya usullarini qabul qila olmaydi. Chunki, hozirgi davrda yoshlar tarbiyasiga "rag'batlantirish" orqali salbiy ta'sir ko'rsatishning xilma-xil yo'llari mavjud. Ma'naviy-axloqiy, milliy tarbiya asoslarini singdirib borish orqali mazkur salbiy holatlarning oldini olish mumkin.

## 2. Mamlakatmizda ta'lim sohasidagi islohatlar mazmuni va samarasи

Mamlakatimiz demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama barkamol rivojlangan insondir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratishdan iborat. Bu sohada ta'lim tizimida juda keng imkoniyatlarga yo'l ochilmoqda. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash tizimida hozirgi yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, turli dasturlar va darsliklar, shuningdek, o'quv metodik qo'llanmalarni milliy tarbiya asosida qurish yo'riqlari keltirilgan. Kadrlar tayyorlash tizimida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo, uzluksiz ta'lim tizimining barcha shakldagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni sifatini ta'minlovchi ilg'or ilmiy metodik jihatdan asoslangan uslublarni amalda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Fan, texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash pedagogika

fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi<sup>9</sup>. Ayni paytda bu yo`nalishda ta`lim sifati va samaradorligini ta`minlashga qaratilgan bir qator me`yoriy-huquqiy qoidalar ishlab chiqildi va ularni amaliyatga kiritish oly ta`lim tizimini tubdan modernizatsiya qilishni kafolatlaydi<sup>10</sup>. Intellektual kamolot va ta`lim-tarbiya tizimi o`zaro dialektik aloqadorlikda rivojlanadi, ta`lim-tarbiya tizimini o`zgartirmasdan turib, ongni o`zgartirib bo`lmaydi. Ongni, tafakkurni o`zgartirmaslan turib esa, ko`zlangan oly maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etish mumkin emas. "Ta`lim-tarbiya islohati haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo`nda qilib ifoda etish mumkin, bizga bitiruvchilar emas, maktab ta`lim va tarbiyasini ko`rgan shaxslar kerak"<sup>11</sup>, deb bildirilgan ta`kidlar ham bejizga emas. Darhaqiqat, ta`lim-tarbiya yosh avlodga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi, bu jarayonda uning imkoniyat va qobiliyatlari namoyon bo`ladi, kasb-kori, mahorati takomillashib boradi. Ajdodlarning dono tajribalari anglaniladi va o`zlashtiriladi. Insonning kelajak hayotda kim bo`lib yetishishi, ijtimoiy faolligi, Vatan taqdriga befarq bo`lmasligi, insonning kelajak hayotida kim bo`lib yetishishi, ijtimoiy faolligi, islohatlardagi ishtiroki ta`lim-tarbiya tizimidagi holat, shart-sharoitlar, imkoniyatlar bilan bevosita bog`liq holda amalgalashdi. Kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, davlat va jamiyat, uzuksiz ta`lim, fan, ishlab chiqarish yaxlit tizimni gavdalantiradiki, o`zaro dialektik aloqadorligi fan taraqqiyotining obyekti va subyekti, shaxsiy va ijtimoiy omillari, intellektual madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi maqomini huquqiy jihatdan kafolatlaydi<sup>12</sup>.

Tarbiya - ijtimoiy xodisa, u kishilik jamiyatni paydo bo`lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal mavjudot bo`lishi uchun avvalo tarbiyalanishi zarur. Yunon mutafakkiri Arastuning yozishicha, davlatning

<sup>9</sup> Атаева Т.К. Олий таълим тизимида талабаларга инглиз тили фанини ўқитишнинг замонавий асослари. //ЎЗМУ хабарлари. Тошкент 2018. 12-сон. Б.26.

<sup>10</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 27 июндан "Олий маълумотли мутахассислар тайёрлана сифатини оширишди иктисадиди соҳалари ва тармокларининг иштироқини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3151-сонли Каорори.

<sup>11</sup> Каримов И.А. Хавсизлик ва баркарор тараққиёт нўйлидан. 6-жилд. – Тошкент, "Ўзбекистон", 1998. – Б. 331.

<sup>12</sup> Кодиров Х.О. Ўқувчиларда миллий ментал хусусиятларни шакллантиришининг инновацион механизmlarini takomillashirishni зарурити // ЎЗМУ хабарлари. Тошкент 2018. 12-сон. -Б. 66.

bitta muhim vazifasi bor, ya`ni u hamma fuqarolariga tarbiya berilishini ta`minlashi lozim. Tarbiya xususiy tashabbus emas, balki davlatning eng dolzarb vazifasi sifatida qaralishi kerak. Ta`lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo`lmaydi. Bu ikki jarayon o`zaro uyg`un, uzuksiz asosda tashkil etilgandagina odobi, yuksak ma`naviyatlari, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog`lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo`lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan, mamlakatimizga nisbatan ham turli xil shakl va mazmundagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy tahdidlarni kuchaytirdi. O'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma`naviyat, keng dunyoqarash, tafakkurni shakllantirish, ogohlik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylandi. Sababi fikrlash, tahlil qilish, idrok qilish qobiliyatiga ega bo`laman yosh avlod faqat topshiriqni bajaruvchi manqurtga aylanishi ehtimoli mavjud. Manqurtlar esa, kechagi, bugungi, kelgusi kun haqida o`ylamaydi. Ular inson uchun zarur bo`lgan erk, haq-huquq va qadriyatlarning qadriga yetmaydi. Shu o'rinda o'sib kelayotgan yosh avlodni mamlakatimiz va o`z kelajagiga bo`lgan ishonch odobini tarbiyalash ta`lim olishida, shaxsiy hayotida, kelgusi ish faoliyatida, jamoa orasida qat'iy harakat qilishida katta ahamiyatga ega. Har bir ma`naviyatlari, ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg`usini bo`lishi, unga munosib bo`lishga harakat qilishi lozim. Uni rivojlanтирish, shakllantirish va yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida to`g`ri tarbiyalash har bir davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifadir. Bolalarda vatan tuyg`usini tarbiyalash, ajdodlar o`tmishi, kechinmalari, madaniyati jahon fan va madaniyati sohasida tutgan o`rnini haqida ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. O`zbekiston fuqarolik jamiyatini qurayotgan davrda fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasi yuqori darajasi yuqori bo`lgan, o`z mustaqil fikriga ega yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Shaxsni tarbiyalash eng dolzarb ijtimoiy va pedagogik muammo hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat

talablari asosida tarbiyalashda ta'lim subyektlari o'rtasidagi uzlusizlikni hamda fan predmetlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash zaruriyati mavjud. Inson o'zi o'zida ezgulikni yaratish, ma'naviy yuksalish uchun mas'ul, ammo shu bilan birga insonning yuksalishida ta'limning roli niyoyatda katta ekanligini inkor etib bo'lmaydi<sup>13</sup>.

Tarbiya fanlarini o'qitishda muhim bo'lgan **"tarbiya"** va **"tarbiyat"** so`zlari mazmuniga e'tibor qaratadigan bo`lsak, u parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rgatish, navozish, mehribonlik ko`rsatish, ko`z-quloq bo'lish, himoya qilish, kabi ko`p qirali ma'nolarga ega<sup>14</sup>. Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir<sup>15</sup>. Inson asosan ikki xil yo'l bilan tarbiyalanishi mumkin: boshqalarning bevosita ta'siri, ya'ni o'rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali. Shuningdek, inson o'zining fiklashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi, tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkin<sup>16</sup>. Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni<sup>17</sup> ham hisoblabadi. Tarbiyalash - jamoaviy ijodiy faoliyat bo`lib, tarbiyanuvchida mehnatga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, insonparvarlik va bag'rikenglik ruhidagi munosabatni shakllantirish, bolalar va yoshlarning ijtimoiy harakatlarga birlashtirish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, muzeylar, teatrlar va boshqa ijtimoiy muassasalar bilan birlgilikda faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ijodiy faoliyat bilan shug`ullanishini ta'minlash jarayoni sanaladi. Ota-bobolarimiz "Agar kishiga hayotning o'zi berolmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim", deya juda asosli fikr aytishgan.

<sup>13</sup> Бердисев Н.А. Философия свободного духа. М.: 1994. 480 с.

<sup>14</sup> Узбек тилининг изоҳли лугати. 2 жицдик. II том. -М.: «Рус тили нашириёти», 1991. -Б. 1254.

<sup>15</sup> Ўзбекистон миляллий энциклопедияси. 8-Том. -Т., 2004. -Б. 270.

<sup>16</sup> Сафо Очиғ. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент "Ўқитувчи", 1995. -Б. 3.

<sup>17</sup> Умумий педагогика. Ўқув-услубий- мажмуя. ЎЗМУ Т., 2018.-Б. 24.

Birinchi prezidentimiz haqli ravishda "Tarbiyachi- ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo'lishi kerak"<sup>18</sup>-degan edilar. Mashhur rus pedagogi Makarenko esa, bu borada: "Hamma narsani tarbiyalashadi, odamlar, narsalar, hodisalar, hammasidan ko'ra ko'proq – odamlarni tarbiyasi muhim. Ulardan, birinchi navbatda esa, ota-onalar va o'qituvchilar....". Olim bolalarni tarbiyalovchi insonlarni tarbiyalamasdan turib maqsadga erishib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Tarbiyachi-pedagog o'zi tarbiyalangan, axloq-odobli, xush xulq-atvorli bo'lishi, ya'ni o'quvchiga har tomonlama namuna bo'la olishi lozim. Tarbiyani amalga oshirishning vosita, usullari va omillari ko'p. Bular: xalq ta'limi tizimi, ommaviy axborot vositalari, targ'ibot va tashviqot guruhlari va h.z. Tarbiya doimiy, izchil va maqsadli bo'lishi lozim, yo'qsa tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Ta'lim maqsadga muvofiq va ongli ravishda amalga oshiriladigan jarayon. Pedagogikaning ta'lim va tarbiya deb nomlanuvchi ikkita bo'limi bir-biriga uyg'un holatda amalga oshiriladi. Pedagogikada "ta'lim ustuvor bo'lishi kerakmi yoki tarbiyami"? - degan bahsli munozaralar mavjud. Sababi ta'lim orqali tarbiyalaymiz, tarbiya vositasida esa, ta'limga rag'batini oshiramiz. Ammo aksariyat pedagoglar va faylasuflar tarbiyani ustuvor sanashadi. Boisi atom bombasini yaratgan inson ta'limi yuqoriligi sababli bombani yarata oldi. Ammo ushbu ixtironing insoniyat boshiga naqadar ko'p kulfat yog'dirishini bilib turib yaratganligi, uning tarbiyasi pastligidan dalolat beradi. Demak, kuchli berilgan tarbiya olingan ta'limni ijobjiy tomonlarga yo'naltirilishiga sabab bo'ladi. Hozirgi davrda tarbiya masalasi har davrdagidan ham yetakchi masala sifatida maydonga chiqmoqda. Bizga ma'lumki, insonning turli kasalliklarga qarshi kurasha olishida biologik emlash dastlab XVIII asrda

<sup>18</sup> Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳакиқий кафолоти, Тошкент, "Шарқ" нашириёт- матбаа компаниинин боми таҳриристи, 1993. -Б. 27-28.

kashf qilingan. Mahatma Gandhi o'z asarlarida ilk bora "ijtimoiy emlashlar" atamasini qo'llaydi, u buni bolaning ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini asta-sekin anglashi va salbiy hodisalardan o'ziga xos immunitetning rivojlanishi tarzida tushuntiradi. U bolani har tomonlama hayotga tayyorlashda quyidagilarni taklif qiladi: jismoniy azob - uqubatlar, ruhiy bo'shliq, kasallikni yengish hamda qo'rquv, zo'ravonlik bilan yovuzlikka qarshilik ko'rsatmaslik<sup>19</sup>. Shu o'rinda tarbiya jarayoni uzluksiz davom etadigan kechiktirib bo'lmas jarayonligini xitoyliklarning bambuk daraxtiga qiyoslashgani juda o'rinci. Bambuk yerga ekilgach 4 yilgacha faqat nimjon nihol bo'y ko'rsatadi. Ammo yer ostida popukchalar ko'payib boradi. 5-yili daraxt kutilmaganda 25 metrga bo'y ko'rsatadi. Tarbiyadagi nuqsonlar biz kutmaganimizda o'z natijasini ko'rsatishi mumkin<sup>20</sup>. Taniqli rus pedagogi Makarenko ham aytganidek, materialni, jonsiz narsalarni ham tarbiyalaymiz, jumladan, uyimizni pardozlaymiz ularga rang va bezak beramiz. Ammo inson tarbiyasi hammasidan ham muhim va jiddiy qaralishi lozim. Barqaror axloqiy xulq-atvorga ega, qobiliyatli shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'z taqdirini o'zi belgilash, jamiyatda o'zini o'zi moslashtirish, vatanparvarlik, fuqarolik va ma'naviy-axloqiy tarbiya, sog'lom turmush tarzini o'quvchilarga singdirish tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi, chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga "kirishadi" va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma)lar orttiradi, ya'ni, ijtimoiylashadi. Maktab o'quvchilarini kelajakka yo'naltirish: o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o'ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o'rgatish, o'zini xolis baholash, o'z qobiliyatlarini, malakalarini hisobga

<sup>19</sup> Комаров Э. Я., Литман А. Д. Мировоззрение М. К. Ганди. - М., 1969. -С. 174-175.

<sup>20</sup> Ўзаро ракобат ва назорат мухитини шакллантиришда таълим кластерининг асосий хусусиятлари. Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар. Халкарко илмий-амалий конференция. Чирчик, 2021. Б-103-108.

olgan holda kelajak uchun real rejalar tuzish, o'z-o'zini anglashi, o'zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o'qituvchilar bilan o'zaro aloqalarini faollashtirish lozim. Tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo'lishi, ya'ni bolaning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirilgan maqsadga muvofiq tizim bo'lgandagina haqiqiy bo'ladi.

XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog'lom, ma'naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo'lishi, shu bilan birga dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarga loqayd bo'lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning asosiy maqsadi ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, unda quyidagi asosiy tamoyillar keltirib o'tilgan:

- ◆ ta'lim ustuvorligini tan olinishi;
- ◆ ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ◆ ta'lim sohasida kansitishlarga yo'l qo'ymaslik;
- ◆ ta'lim olishga doir teng imkoniyalarning ta'minlanishi;
- ◆ ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ◆ ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ◆ ta'limning uzlusizligi va izchilligi;
- ◆ o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiyo o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- ◆ davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ◆ o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

- ◆ insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- ◆ jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ◆ ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ◆ bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ◆ ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ◆ ta'lim faoliyat sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Bu tamoyillarning barchasi tarbiya masalasida ustuvor ahamiyatga ega. Tarbiya fanlarini o'qitishda talabalar olgan bilim, ko'nikma va malakalari asosan umumiy o'rta ta'limda foydalaniladi. Shu sababli talaba aynan ta'limning barcha turlaridagi asosiy xususiyatlarga e'tibor qaratishi muhim. Ma'lumki, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, ta'limning uzviyligi, uzluksizligi va izchilligi asosidagi bosqichlarda tashkil qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bosqichlari bevosita 3 bosqichdan, ya'nı I - IV sinflardan iborat boshlang'ich ta'lim, V - IX sinflardan iborat tayanch o'rta ta'lim hamda X - XI sinflardan iborat bo'lgan o'rta ta'lim tashkil etadi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan, tarbiyalangankik tashxislari rivojlantiriladi va muvofiq holda amalga oshiriladi. Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahsil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, tarbiyaviy tizim integratsion amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berilgan:**

- ◆ 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarini baholash dasturi reytingi bo'yicha jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;
- ◆ uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- ◆ o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- ◆ xalq ta'limi sohasiga zamонавиј axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarini joriy etish;
- ◆ xalq ta'limi muassasalarining moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag` bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;
- ◆ yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamонавиј usullari va yo'nalishlarini joriy etish;
- ◆ davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta'lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;
- ◆ yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;
- ◆ xalq ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish.

Konsepsiya doirasida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Shuningdek, yangi o'quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratilmoqda. O'quvchilarning ma'naviy, estetik va ahloqiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamонавиј kasblarni egallashi

uchun sharoitlar tashkil qilinmoqda. Shu bilan birga konsepsiya ko`ra o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish, o'quv tarbiya jarayoniga ta'limga innovatsion shakllari va usullari joriy etish muhim ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Darhaqiqat, uzuksiz ta'limga tarbiya tizimi mazmuni sifat jihatdan yangilanib, kadrlar malakasi oshiriladi. Shuningdek, o'qitish metodikasi takomillashtirilib, ta'limga tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillari tatbiq etiladi. Xususan, maqsadli ko'rsatkichlar asosida ta'limga mazmuni samaradorligi oshirilib, kadrlarning sifat tarkibi yaxshilanadi. Jamiyatda o'qituvchilar maqomi oshiriladi. Yoshlar ta'limga tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etiladi. Yoshlar o'rtaida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish yo'lda qo'yildi. O'g'il-qizlar ma'naviyati yuksaltirilib, ular o'rtaida kitobxonlik keng targ'iboti amalga oshirilib o'quvchi-qizlarning kasbiy ko'nikmalari rivojlantiriladi.

### **3. "Tarbiya" fani me'yoriy asoslari va ularning mazmuni**

Bolaning shaxs sifatida shakllanish va ijtimoiylashuv davri asosan maktab tizimida yuz beradi. Shu bois mamlakatimizda umumta'limga maktablarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda bir qancha tizimli islohatlar amalga oshirildi. Jumladan, umumiy o'rta ta'limga muassasalarida "**Odobnomalar**", "**Vatan tuyg'usi**", "**Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari**" hamda "**Dunyo dinlari tarixi**" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1 -9-sinflarda 2020-2021 o'quv yilidan, 10-11-sinflarda esa, 2021-2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi belgilandi.

2020-2023 yillarda respublika oliy ta'limga muassasalarining "Boshlang'ich ta'limga", "Tarix" (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha), "Tarix o'qitish metodikasi", "Filologiya va tillarni o'qitish: O'zbek tili", "O'zbek tili va

adabiyoti", "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi", "Pedagogika va psixologiya", "Dinshunoslik (Islam tarixi va manba shunosligi)", "Psixologiya (Din sotsiopsixologiyasi)" ta'limga yo'nalishlari hujjatlariga umumiy o'rta ta'limga muktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish huquqi berilishi yuzasidan zarur choralarни ko'riliishi belgilab berildi<sup>21</sup>. Umumiy o'rta ta'limga muassasalarini o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik surʼiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlari va yuksak ma'naviyatni yanada chuqr singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'limga muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviv ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori asosida 4 ta ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagagi fanlar integratsiyasidan iborat "Tarbiya" fani bosqichma-bosqich joriy qilinishi belgilandi. 2020 yilda "Tarbiya" fani konsepsiysi qabul qilinib konsepsiya davlatning ta'limga tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo'naltirildi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi<sup>22</sup>. Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'limga to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan "Bola huquqlari to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasining ta'limga to'g'risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi. Konsepsiya belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi talablari, Uzuksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi, milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, mamlakatimizdagagi ijtimoiy-

<sup>21</sup> Узбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 7 июндаги 422-сонли карорига <https://lex.uz/ru/docs/4885018>

<sup>22</sup> Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 7 июндаги 422-сонли карорига 3-илюва Умумий ўрта таълим ўзгурунчалири учун "Тарбия" фани концепцияси. <https://lex.uz/ru/docs/4885018>

siyosiy o`zgarishlar bilan uyg`un ravishda amalga oshiriladi. Konsepsiya umumiylor o`rtalim tizimida o`quvchilarning yoshiga mos ma`naviy rivojlanishini ta`minlash va faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida umumiylor o`rtalim maktablarida o`qitilayotgan "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlar "Odobnoma", "Vatan tuyg`usi", "Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari", "Ma`naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan yagona Tarbiya fanining asosiy yo`nalishlarini belgilab beradi. Fan dasturlari va darsliklarini ishlab chiqishda milliy tarbiya tizimi, ajdodlarning ma`naviy tarbiya bo`yicha qarashlari hamda bir qancha ta`limi rivojlangan mamlakatlar tajribasi, jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi, Singapur, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Avstraliya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarning tajribalari o`rganildi, amaldagi fanlarning o`quv dasturlari har tomonlama qiyosiy tahlil qilindi.

"Tarbiya" fani o`quv dasturlari va qo'llanmalarini ishlab chiqishda amaldagi "Sog`lom avlod asoslari", "Salomatlik", "Yo'l harakati qoidalari", "Hayot xavfsizligi asoslari", "Salomatlik darslari", "Huquqiy tarbiya", "Ekologik tarbiya", "Media madaniyat", "Iqtisod va soliq saboqlari" kabi bir qancha maxsus o`quv kurslari dasturlari birlashtirildi. Ushbu konsepsiya umumiylor o`rtalim davlat ta`lim standartlarida belgilangan talablarning negizi hisoblanadi. Konsepsiya "Tarbiya" fanini o`rganish bosqichlari, o`quv fani bo`yicha ta`lim mazmuni va malaka talablarining tuzilishini belgilab berdi. Ushbu fanni o`qitishning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llashga doir ko`plab amaliy ishlar qilinmoqdaki, shiddat bilan o`zgarayotgan dunyoda o`quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatlari ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog`lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag`rikenglik, ma`naviy, fuqaroviylar.

madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda. Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko`rsatadigan "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" turkumiga kiruvchi fanlarni o`qitish ta`lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to`g`ri baho bera olish, ijtimoly muammolarni hal etishda to`g`ri qaror qabul qilish, hayotda o`z o`rnini topish bilan bog`liq bo`lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o`rgatish, buning natijasi o`laroq, oila-jamiyat o`rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbazarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko`rinishlaridan saqlash imkonini yaratiladi.

Pedagogika fanining asoslardan biri tarbiya masalasi. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, aqliy, ruhiy, ahloqiy va ma`naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir<sup>23</sup>. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga ega bo`lishini ta`minlash yo`lida qo'llaniladigan choratadbirlar majmuasi tarbiyani tashkil qiladi. Tarbiya insonning insonligini ta`minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mayjud bo`la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta`minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o`tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma`nolarda qo'llaniladi<sup>24</sup>. Keng ma`noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirot etishini ta`minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, xarakatlar va intilishlar yig`indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, muktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g`oyalari va san'atning

<sup>23</sup> Узбекистон Республикаси Вазирлар Мажмасининг 2020 йил 6 июндан 422-сонли "Умумий ўрта таълим мусасасаларида "Тарбия" фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида" ги Карори. // [www.ziyouz.net](http://www.ziyouz.net)

<sup>24</sup> Узбекистон миллий энциклопедияси. 8-Том –Тошкент, 2004.

barcha turlarini o`z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-ahloqiy qiyofasi va estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bunda oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tarbiya ishini amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog`liq holdagina mavjud bo`ladi<sup>25</sup>. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko`payibgina qolmay, balki, ahloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug`ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga uchraydi. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar qatorida tarbiya ham rivojlanib boradi.

Tarbiya nazariyasining umumiyligi xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- tarbiyaning nazariy asosları;
- tarbiya didaktikası;
- tarbiya amaliyoti.

Mazkur masalalar tarbiya nazariyasining negizi sifatida O'zbekistonda ta'sis etilgan yangi "Tarbiya" fani asoslarini tashkil etadi. Shu sababli jamiyatda tarbiyaning o'rni, ahamiyati va amaliyoti odamlar tomonidan yetarli darajada idrok etilmoqda. Mazkur masala bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar nazariy bilim, kasbiy ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bilan qurollanishi kerak<sup>26</sup>. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda yangi fan "Tarbiya" asosları bo'yicha maqsadli bilim berish, tarbiyaning yangi

metodlari va texnologiyalari bilan qurollantirish dolzarb bo`lib turibdi. Shu sababli bu fanning uslubiy didaktik ta'minoti materiallariga Jiddiy e'tibor berish tavsiya etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2020 yilda o'zbek "Pedagogika" fani tarixida ilk bor "Tarbiya" yangi fani ishlab chiqildi. Bu borada yuqorida bir necha marta iqtibos keltirganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldaggi 422-sonli "Umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi va mazkur Qaror bilan "Umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarini o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiysi" tasdiqlandi. Ushbu "Tarbiya" fanining metodologik asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlar;
- tarbiya asoslarini va manbalari;
- tarbiya qonuniyatlarini, metodlari va texnologiyalari;
- tarbiyaning amaliy masalalari.

Aynan mazkur asoslar o'quv fanining negizini tashkil etadi. Shuningdek, qaror asosida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab "Tarbiya" fani bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. "Umumiyligi o'rta ta'lim muassasalarini o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani Konsepsiysi"ga ko'ra, mazkur fanning umumiyligi asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- huquqiy asoslar;
- tashkiliy asoslar;
- ilmiy-metodik asoslar.

Bunda huquqiy asoslar ta'lim-tarbiyaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iborat, tashkiliy asoslar fanni umumta'lim maktablarida, jumladan, barcha ta'lim bosqichlari va turlarida talab darajasida o'qitishni va ilmiy-metodik asoslar esa fanning metodologiyasini anglatadi.

Qarorga ko'ra, "Tarbiya" fanining asosiy tamoyillarini quyidagilar tashkil etadi:

<sup>25</sup> Бордовская Н., Рсан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001.

<sup>26</sup> Жабборова О.М., Умарова З.А. Болалар педагогикаси мазмунни ва уни кластер усулida ўқитиги:// Педагогик таълим кластери: муаммо ва сўнмлар. Халикаро ишмий-амалий анжуман. ТВЧДПИ, 2021.

- a) milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- b) ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- v) fanga oid zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- g) ochiqlik va shaffoflik;
- d) tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- e) tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va hususiy sektor faoliyatining muvofiqligi hamda mutanosibligi.

Bo'lajak o'qituvchilarining fanga oid bu tamoyillarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida, tarbiyaviy tadbirdarda va mustaqil ta'lim izlanishlarida ana shu tamoyillarni o'zlashtirish, faoliyatda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish hamda kasbiy faoliyatda ularga amal qilish kompetensiyasini egallash dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun har bir talabaning individual shug'ullanishi, ustozlar bilan hamkorlikda faol ishlashi va tarbiya tamoyillarining hayotdagi ifodasini o'rganib borishi taqozo etiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarining imkoniyatlari, ta'lim jarayonining sharoitlari va faoliyatning amaliy samaradorligidan oqilona foydalanish kerak. Har bir talabaning mazkur fan tamoyillarini, asoslarini va istiqbolli maqsad-muddaolarini o'zlashtirishi kasbiy tayyorgarlikning negizlaridan biri hisoblanadi.

**"Tarbiya" fanini o'qitish zaruriyati.** O'zbekiston ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'lim jarayonida "Tarbiya" fani asoslarini zamonaviy talablar asosida o'qitish va o'rganish zaruriyat hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchilarining mazkur fanni o'zlashtirish va uni o'qitishning metodikasini o'rganish zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- fanning asoslarini chuqur bilish;
- fanni o'qitishning ilg'or va zamonaviy pedagogik, innovatsion hamda axborot texnologiyalarini egallash;

- tarbiya masalasiga doir ilmiy-tadqiqotlarni o'rganib borish;
- inson va jamiyat hayotida tarbiyaning tutgan o'rnnini to'liq idrok etish;
- fan vositasida o'quvchilarni tarbiyalash metodlari va texnologiyalarini bilish;
- fanni o'qitish bo'yicha individual pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Mazkur fanni o'rganish zaruriyati ilmiy, metodologik va amaliy jihatdan bo'lajak o'qituvchilari uchun kasbiy talablardan hisoblanadi. Chunki bu fan gumanitar fanlar ichida tarbiya jarayonini tashkil etish, uni amalga oshirish va samaradorligini o'rganib borish ishlarini muvofiqlashtiradi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida "Milliy o'quv dasturi" talablariga asosan o'qitiladigan fanlar aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumiga ajratiladi. Shu jihatdan umumiyl o'rta ta'lim maktablari, tarbiyaning mazmuni ta'lim bosqichlariga, turlariga, mazmuniga ko'ra o'zgaradi. Bunda quyidagicha yondashuv amalga kiritilishi mo'ljallanmoqda:

A) aniq fanlar: matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o'qitish vositasida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi;

B) tabiiy fanlar: ta'limda "Atrofimizdag'i olam", "Tabiatshunoslik" (Science) fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning mustaqil qarashlari, hoxish va istaklarini to'g'ri tarbiyalash amalga oshiriladi;

V) gumanitar fanlar: "Tarbiya", "Ona tili va o'qish", "Musiqa", "Jismoniy tarbiya", "Tasviriy san'at" fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasi amalga oshiriladi.

E'tibor berilsa, bundan keyin ta'limda tarbiya jarayoni umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Shu sababli bunday tarbiya jarayonini muvofiqlashtirib borish "Tarbiya" fani zimmasiga yuklanadi. Bundan tashqari, sinflarda istisno tariqasida estetik, aqliy va jismoniy rivojlanishni nazarda tutuvchi tarbiyaviy tadbirlar maqsadli o'tkaziladi, shuningdek, bayramlar va tantanalar vositasida o'quvchilarning ijtimoiy

tarbiyasi amalga oshiriladi. Bu jarayonni tashkil etish va amalga oshirish ishlari "Tarbiya" fani vositasida amalga oshiriladi, unda mazkur fan o'qituvchisi va sinf rahbari mas'ul hisoblanadi. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilarning oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya" fanini o'qitish zaruriyati, uning asoslarini o'zlashtirish va o'zlashtirilgan ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini egallashi taqozo etiladi. Shu sababli "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fani bo'yicha o'zlashtiriladigan nazariy bilim, didaktik ko'nikma va amaliy kompetensiyalar bo'lajak o'qituvchilari uchun birlamchi talablar hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, ularni talabalarda tarkib toptirish va talabalarni kasbiy yo'naltirish masalalari ushbu fan vositasida amalga oshirilishi ishlari tashkil etilmoqda. Kelgusida ushbu fanni o'zlashtirish natijalari bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarining kompetensiya darajasini aniqlash monitoringi o'rnatiladi.

Bo'lajak o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya" fani bo'yicha quyidagi malakalarga ega bo'lishi taqozo etiladi:

- a) fan asoslari bo'yicha nazariy-kasbiy bilimli bo'lish;
- b) fanni o'qitish metodikasi bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;
- v) fan vositasida o'quvchilarni tarbiyalash kompetensiyasini egallashi.

Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

O'quvchilarning tarbiya jarayoni muhim pedagogik masalalardan biri bo'lib, unda o'qituvchi hozirgi talablarni hisobga olishi kerak. Shu jihatdan yuqorida ta'kidlangan "Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish va ularni o'zlashtirish zaruriyat hisoblanadi:

- davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob-ahloq, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

- o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;
- umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi asosida tarbiyaning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash. Bularning barchasi bo'lajak o'qituvchilari tomonidan to'liq o'zlashtirilishi lozim.

Shunday qilib "Tarbiya" fani va unga oid me'yoriy hujjatlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida talab darajasida o'zlashtirilishi taqozo qilmoqda.

#### **4. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

Oliy ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitishda quyidagilar inobatga olinishi lozim.

Birinchidan, tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kash etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish, to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari tajribalaridan unumli foydalanim, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak.

Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzlusiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan nafaqat tarbiyaviy ishlar tizimiga, balki tarbiyani fan sifatida o'qitishning zarurligini to'laqonli anglamoq lozim.

Ikkinchidan, tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida talaba tashqaridan kelayotgan axborot xurujlariga, tarbiyaviy

ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ldi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobjiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Talabalar faoliyatini uyuştirishgina emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan turli kechinmalarni qanday anglashi, baholashi, his qilishi, ulardan o'zi uchun nimalarni olayotganligini bilishi zarur. Oliy ta'lim tizida o'qitiladigan tarbiya fanida bo'lajak o'qituvchilarining ma'naviy, mafkuraviy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy bilimlar bilan qurollanishi zarur. Chunki u yosh avlod ongu tafakkurini, tarbiyasi o'z bilimlari asosida shakllantiradi.

Uchinchidan, tarbiya fanini o'qitish jarayonida talabaning ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini rivojlantirish lozim. Bunga erishish uchun o'qituvchi talabaning ongi, hissiyoti, tafakkuri va irodasiga ta'sir etib boradi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayonini o'qituvchi boshqaradi, u talabalar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shartsharoit yaratadi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim tizimida o'qitilayotgan "Tarbiya" fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilishi lozim bo'lgan bilimlar majmui ham aniqlashtirib olinishi lozim. Tarbiya fanining Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, me'yoriy-huquqiy asoslari, ushbu fanini o'qitishning ilmiy, diniy, badiiy va falsafiy asoslari, o'qitishdagi yangicha yondashuvlar; zamonaviy tarbiyashunoslikning globallashuv, o'zaro integratsion va axborot texnologiyalari rivojlangan jarayonidagi muammolari, vazifalari va ularning yechimlari, tarbiyaviy jarayonlar, uni tashkil etishda milliy tajriba, ma'naviy merosdan samarali foydalana olish hamda yuksak ma'naviyatli pedogok kadrlarni shakllantirish, ta'lim tizimi faoliyatini ta'minlashning me'yoriy-

huquqiy hujjatlari, yoshlarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish kabilarni bilishi kerak.

Beshinchidan, talabalar tarbiya fani o'rganish mavzusiga kiritgan muammolarini idrok etish, tarbiyani mustahkamlashda milliy tarbiya mezonlarini qo'llay bilish, atrofida sodir bo'layotgan jarayonlarga o'z munosabatini bildira olish, jamiyat va inson hayotida tarbiyaning o'rnnini anglash va bugungi kunda ta'lim tarbiya jarayonida sodir bo'layotgan voqealarni baholay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, O'zbekistonning ta'lim-tarbiya siyosatini bilish, tarbiya jarayonida ma'naviy-milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mezon va tamoyillarlar bo'yicha o'z qarashlarini ilmiy asoslashni va ifodalashni bilish, milliy tarbiya talablariga amal qiladigan faol hayotiy dunyoqarash kabi malakalarga ega bo'lishi kerak.

**"Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagi tamoyillar asos qilinishi konsepsiya belgilandi:**

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- ongli vatanparvarlik ruhini rivojlantirish;
- sohadagi zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarga asoslanish;
- tarbiya sohasiga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish va h.z.

**Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitishning maqsad vazifalari quyidagilardir:**

- o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatlari ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- hayotda o'z o'rnnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish;
- dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish;
- loqaydlik, huquqbazarlik, "ommaviy madaniyat"ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkonini yaratish;

- hayotda o`z o`rnini topish bilan bog`liq bo`lgan aniq maqsadlarni shakllantirish;

- oila-jamiyat o`rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish va hokazo.

Mamlakatimizda tarbiya sohasiga doir siyosatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy sektor faoliyatining muvofiqligi va mutanosibligi ta'minlanishi belgilangan.

**Oliy ta'lif tizimida "Tarbiya fanini o`qitish metodikasi" fanini talabalarga o`qitishdan maqsad quyidagilar:**

- globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan va ommaviy madaniyat kun sayin kuchli tahdid solayotgan davrda umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o`qitishning dolzarblii, uning samarador usullarini yaratishning nechog`li ahamiyatli ekanligi borasida talablarda tushunchalarini shakllantirish;

- talabalarni fanni o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari, metodlari, vositalari, samarali usullari, didaktik imkoniyatlari bilan tanishtirish;

- talabalarni hozirgi axborotlashgan jamiyatda zamonaviy o`qituvchiga qo`yilayotgan talablar bilan tanishtirish;

- dars va uning turlari hamda tuzilishini to`g`risida bilim va ko`nikmalarini shakllantirish;

- zamonaviy talablar, yangi samarador texnologiya, metod va yondashuvlar asosida dars o`tishini ta'minlash va h.z.

**"Tarbiya fanini o`qitish metodikasi" fanning asosiy vazifasi quyidagilardir:**

- talabalarda ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lif jarayonining samaradorligini oshirish, zamon talablari, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida "Tarbiya" fanlarini o`qitishga bo`lgan munosabatlarni shakllantirish;

- talabalarga "Tarbiya" fanini o`qitish metodlarini o`rgatish;

- talabalarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko`nikmalarini shakllantirish;

- dars va uning turlarini ajrata olish, darsda turli xil manbalardan, vositalardan foydalanish usullarini o`rgatish va h.z.

Umumta'lim maktablarida ushbu fanning joriy qilinishi davr talabi va ehtiyoji bilan bevosita bog`liq. Ushbu fan boshqa fanlardan kuchli integratsiyalashgan fanligi bilan ajralib turadi. O`quvchilarni aqliy, ruhiy, intellektul, axloqiy, diniy, jismoniy, iqtisodiy, estetik (va h.z) tarbiyalashni o`z ichiga olgan "Tarbiya" fani bo`lg`usi fan o`qituvchilariga yuqori talablarni qo`yadi. "Tarbiya" fani o`qituvchisi yuksak ma`naviyatli, kasbiy qobiliyatli va keng tafakkurga ega bo`lishi talab qilinadi. Sababi fan falsafa, axloq, din, etika, estetika, psixologiya va tadbirdorlik kabi ko`plab fanlar uyg`unligidan iborat.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Tarbiya fanlarini o`qitishda ta'lif tamoyillarining ahamiyati?
2. O`zbekiston Respublikasi "Ta'lif to`g`risida"gi Qonunni tahlil qilib bering?
3. O`zbekiston Respublikasi oliy va xalq ta'limi 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining ahamiyatini keltirib o'ting?
4. Ta'lif tizimida kadrlar tayyorlash sohasining milliy xususiyatlari nimalardan iborat?

## **2-MAVZU: TARBIYA FANI DARSLIKLARI VA ULARGA QO`YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

**Reja:**

1. Darslik - o`qitishning asosiy vositasi sifatida
2. Darslikning tarkibiy didaktik tuzilishi
3. Darslikka qo`yiladigan talablar

**Tayanch so`z va iboralar:** darslik, didaktik talablar, loyihalash, muvofiqlashtirish, mantiqiylik, axborot vazifasi, trasformatcion vazifa, tizimlashtirish, o`z-o`zini tarbiyalash, tashkiliy-prosessual vazifa, rivojlantiruvchi, tarbiyaviy vazifa, komponentlar, talablar, ilmiy-metodik, ilmiylik, kompetensiya

### **1. Darslik - o`qitishning asosiy vositasi sifatida**

Darslik ta`lim mazmunining tashuvchisi va maktabda o`qitishning asosiy vositasidir. Ta`lim sifatini oshirishning muhim muammolaridan biri bu o`quv darsligining sifatini oshirishdir. Yaxshi darslik nafaqat o`quvchilarning bilim olishga bo`lgan ishtiyoqini oshiradi, balki o`qituvchi tayyorlashdagi kamchiliklarni ham bartaraf etadi, ya`ni o`qituvchi darslik asosida muayyan metodik yo`nalish asosida darsni tashkil qiladi. Dars beradigan o`qituvchi o`rtacha salohiyatlari bo`lsada darslik sifatlari tarzda tayyorlangan bo`lsa, darsni samarali tashkil qila olishi mumkin. Fundamental tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchilarning fikricha, darslik tayyorlovchi mutaxassislar chuqur ilmiy bilim va dunyoqarashga ega bo`lishi, bolaning yosh xususiyatlarini va darslikga qo`yiladigan didaktik talablarni mukammal bilishi lozim.

MDH olimlaridan K.D.Ushinskiy, V.V.Krayevskiy, Yu.K.Babanskiy, V.I.Smirnov, N.M.Rozenbax, A.Z.Rahimov, V.P.Bespalko, L.V.Zenkova, V.G.Beylinson, A.Baytursqnov, M.Jumaboyev kabilar, xorij olimlaridan

R.Segan, F. M. Jerar, K. R. Roje, J. M. Ketel, M.Postik kabilar ta`lim sifatida o`quv qo`llanmalarining ahamiyati va ularning vazifalari bo`yicha tizimli islohatlar olib borganlar va o`quv darsligining ta`limdagagi roli bo`yicha o`z yondashuvlarini ishlab chiqqanlar. Amaliyotda darslikning vazifasi ajratilib ko`rsatilgan tadqiqotlar yo`q. Bizga ma'lumki, ta`limning maqsadi natija va o`quvchi kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan bo`ladi. Bu bog`liqlik haqida **V.P.Bespalko**, zamonaviy darslik mualliflari darslikga ma'lumot (material) kiritayotganlarida ushbu ikkita yondashuv orasidagi farqni yaxshi ajrata olishlari lozimligini alohida ta`kidlaydi. Ta`lim sifatini oshirishning muhim muammolaridan biri o`quv adabiyotlari sifatini ta`minlash hisoblanadi. Bu borada mashhur fransuz o`qituvchisi **A.Shoppe** shunday degan edi: "Darslik – millatni shakllantiruvchi hodisa". Mazkur fikrlari orqali Shoppe ta`lim jarayonida darslikga berilgan e'tiborni millat tarbiyasiga berilgan e'tibor sifatida ta`riflaydi. Atoqli olim **M.N.Skatkin** esa, o`quv darsligida ma'lum darajada o`qitish metodikasi kiritilganligini, darslik bo`lajak trening, o`ziga xos ssenariy ekanligini aytadi. Mashhur nazariyotchilar **I.Ya. Lerner**, **V.V.Krayevskiy**, **N.F.Talizinlar** o`quv darsligini ishlab chiqishni o`quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash sifatida baholaydi. **V.I.Smirnova** fikricha, darslik 4 ta vazifani bajarishi zarur: ta`limiy, rivojlantiruvchi, pedagogik, texnologik.

Ta`lim sifati mana shu vazifalar bilan farqlanishi lozimligini alohida ta`kidlaydi. **N.M.Rozenbax** darslik 3 ta: o`qitish; ta`limiy; rivojlantiruvchi vazifalarni ta`minlashi zarur deydi. **I.Ya. Lerner** ta`lim jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida baholab, barcha ijtimoiy munosabatlar tizimini aloqadorligini nazarda tutgan holda "**Darslikning muhim vazifasi unda ijtimoiy muhim savollarning yechimi bo`lishi kerak**" - degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, darslik o'sib kelayotgan yosh avlodni savodli qilish bilan birga, haqiqiy hayotga ham tayyorlab borishi kerak. Bu jabbada I.Ya. Lerner aytgan fikrlar juda o'rinni. Mantiqiy-psixologik konsepsiya muallifi **A.Z.Raximovning ta`rifi**

ham o'ziga xos bo'lib, u "Darslik - yangi bilimni o'zlashtirish vositasi emas, balki o'quvchilarning qalbi va ongini qiziqtiradigan ijtimoiy ahamiyatga ega obyekdir". Bunda olim darslik qanchalik kuchli ilmiy asosga ega bo'lsada, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bo'lishi, ularni zeriktirib qo'ymasligi kerakligi, ulardag'i hayotiy savollariga javob bera olishi lozimligini asosli ravishda izohlaydi. Rus pedagogi **D.D.Zuyev** darslik o'zlashtirilgan bilimlarni muvofiqlashtirish, tizimlashtirish, axborotlashtirish, to'plash (o'zgartirish), o'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarni rivojlantirish vazifalarini bajarishi kerakligini alohida e'tirof qiladi.

**Darslikning muvofiqlashtiruvchi vazifasi** barcha o'quv qo'llanmalaridan samarali funksional foydalanishni ta'minlaydi<sup>27</sup>. U vazifalarni tavsiflashda mavjud muammolarga alohida e'tibor beradi. Zamonaviy darsliklarda o'quvchilarning ilmiy fikrlash uslublarini shakllantirish uchun barcha mavjud ma'lumotlar bilan puxta ishlanishi va ta'lim oluvchilarning o'z hatti-harakatlariga mustaqil baho berishiga o'rgatishi lozim<sup>28</sup>. **V.G.Beylinson** darslikga o'zining vazifalar tizimini taklif qiladi. Uning fikricha, darslikda vazifalar joylashushi shunday qo'yilishi kerakki, har bir yangi vazifa eksisining asosiga qurilishi kerak<sup>29</sup>. Bunda olim mantiqiylik, tizimlilik, davomiylik tamoyillariga asoslanishi lozimligini ta'kidlaydi. Bularning ichida tizimlilik tamoyilini eng asosiysi sifatida e'tirof qilinadi. **V.G.Beylinson** darslik o'qtish uchun yaratiladi, to'g'ridan to'g'ri tarbiyalamaydi deydi. Agar biz olimning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, darslikda berilgan didaktik ma'lumotlarni to'g'ri yetkazib berish, tarbiyalovchi ahamiyatini, jozibadorligini oshirishda fan o'qituvchining roli katta ekanligiga shama qiladi. Olimning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonidagi

tarbiya o'z maqsadiga faqat faoliyatiga yo'nalish berish orqali erishilishi mumkin<sup>30</sup>. **D.D.Zuyev** va **V.G.Beylinson** tomonidan aniqlangan vazifalar o'rtaida o'xshashliklar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ikkala olim ham darslikning quyidagi vazifalarini asoslaydilar:

**1. Axborot vazifasi.** D.D.Zuyevning fikricha, darslik ta'lim mazmunini belgilaydi va o'rganishda harakatlar tizimini shakllantiradi. Mavzu, taqdim etilgan ma'lumotlarni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. **V.G.Beylinson** ham xuddi shunday yondashuvda, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: "Ta'lim mazmunini bilmasdan turib, kitob amaliy harakat usullarini o'rgata olmaydi va o'quv darsligi hisoblanmaydi".

**2. Kumulyativ vazifa (transformatsion).** Darslik asosida kiritilgan bilimlarni qayta ishslash bilan bu vazifa ilmiy-tehnikaviy, badiiy qimmatli va didaktik tamoyil va qoidalarni o'rgatadi.

**3. Tizimlashtirish vazifasi.** Bu vazifa o'quv materiallarini qat'iy ketma-ketlikda tizimli shaklda o'quvchilarning ilmiy faoliyatini samarali yo'naltirish emissiyasini ta'minlaydi<sup>31</sup>.

**4. Olingan bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni rivojlantirish vazifasi.** Darslik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishdagi bo'shiqlarni to'ldirish, o'quv materiallarini o'rganishni osonlashtiradigan imkoniyatlarga ega bo'lishi lozim. V.G.Beylinsonning fikricha, bu vazifa bilimlarni egallash modeli bilan belgilanishi kerak.

**5. O'z-o'zini tarbiyalash vazifasi.** O'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish uchun darslik zarur bo'lgan ma'lumotlarni yuqori darajada taqdim qilishi lozim.

**6. Tashkiliy-protsessual vazifa.** Ushbu vazifaning mazmuni fanlararo aloqalarni o'rnatish va jarayonda ta'limning aniqlangan mazmunini to'g'ri tusishni ta'minlashdan iborat.

<sup>27</sup> Зуев Д. Д. Проблемы школьного учебника: XX век. М.: Просвещение, 2004. 384 с.

<sup>28</sup> Кусаинов А. К. Оценка качества современной учебной литературы // Ценности и смыслы. 2019. № 1 (59). С.13.

<sup>29</sup> Бейлинсон В. Г. Арсенал образования: характеристика, подготовка, конструирование учебных изданий. М.: Книга, 1986. 286 с.

<sup>30</sup> О ахнафба

<sup>31</sup> Зуев Д. Д. Проблемы школьного учебника: XX век. М.: Просвещение, 2004. 384 с.

**7. Rivojlantiruvchi va tarbiyaviy vazifa.** Darslik nafaqat bilimlar tizimini taqdim etishi, balki bilish jarayonining tuzilishini ham tashkil qilishi kerak. Darslikning vazifasi o'quv materiallarni tashkil etishda psixologik va didaktik qonuniyatlarni hisobga olishni talab qiladi.

**1. Matnlar** darslikning asosiy komponenti sifatida bo'lib quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: tavsiflovchi matnlar; hikoya matnlari; fikrlash matnlari.

**2. Matndan tashqari yordamchi komponentlar:** assimilyasiyani tashkil etish: savol va topshiriqlar, eslatmalar, o'quv materiallari, jadvallar, rasmlar va mashqlar va ularga sarlavhalar; ko'rgazmali materiallari; mo'ljalli (orientatsiya) qismi: muqaddima, eslatmalar, ilovalar, mundarija va indekslar.

**Maktab darsligi ta'limda o'quvchi uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:**

**1. Axborot berish vazifi.** Darslik o'quvchilarga ma'lum bir fan bo'yicha kerakli va yetarli ma'lumotlarni beradi.

**2. Tizimlashtirish vazifi.** Darslikda o'quv predmetidagi materiallarni mantiqan tizimli va izchil bayon etish talabi amalga oshiriladi.

**3. Transformatsion vazifi.** O'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni pedagogik qayta ishslash bilan bog'liq bo'lib, bunda darslikdagi materiallar o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy xarakterga ega didaktik tamoyillarga muvofiq pedagogik jihatdan moslashtiriladi. O'quv materialini moslashtirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri muammoli, hissiy ekspressivlikni joriy etishdir. "Ekspressivlik" so'zi lotincha ifodalanish, namoyon bo'lish ma'nolarini bildiradi. Ushbu atamani 1927 yilda rus olimi N.V.Timofeyev kiritgan.

**4. Mustahkamlash va o'z-o'zini boshqarish vazifi.** Darslik materialni qayta o'rganish imkoniyatini beradi.O'quvchilarda mustahkam bilimlarni shakllantirish, ulardagи o'z-o'zini tarbiyalash jarayonining yanada yaxshilanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**5. Integratsiyalash vazifi.** Darslik bolaga unda taqdim etilgan bilimlarga turdosh fanlardan qo'shimcha ma'lumot olishga yordam beradi. Jumladan "Tarbiya" fani "Tarix", "Iqtisod", "Odobnoma", "Huquq", "Psixologiya" fanlari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi.

**6. Muvofiqlashtiruvchi vazifi.** O'quv materiali ustida ishslash jarayoniga turli xil o'quv qo'llanmalarini, jumladan, ma'lumotnomalar, muammoli kitoblar, xaritalar, rasmlar, xujyatli filmlar jalg qilinadi.

**7. Tarbiyaviy vazifi.** Darslik mazmunan o'quvchilarga kuchli ma'naviy ta'sirni nazarda tutadi.

**8. O'qitish vazifi.** O'quvchi darslik bilan ishslashda o'z-o'zini tarbiyalash uchun zarur bo'lgan umumlashtirish, qiyosiy tahlil, yaxshini yomondan ajratma olish, mantiqiy yodlash kabi ko'nikmalar shakllanadi.

**2. Darslikning tarkibiy didaktik tuzilishi**

Darslik o'quvchilarning o'quv materialini to'liq o'zlashtirishini ta'minlashi kerak. Biroq, darslik matni (qo'llanma matnidan farqli o'laroq) faqat ma'lumot berish emas, balki birinchi navbatda fan mavzusi mazmunini aniqlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Shuning uchun darslik qiziqarli, ixcham va qulay bo'lishi, ilmiy xarakter talabiga, ilmiy dunyoqarash, yatanparvarlik, baynalmilallikni shakllantirish vazifalariga ham javob berishi kerak.

Darslik - ta'limning asosiy vositasi bo'lib, unda o'quv predmeti yoki uning dasturga mos keladigan qismlari uslubiy ko'rsatiladi. U aniq ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga mos bo'lishi, shaxsning rivojlanishiga yordam berishi, ta'lim shakllarining zamonaviy talablari va tamoyillariga javob berishi kerak. Darslikda ilmiy jihatdan ishonchli va dolzarb ma'lumotlar mavjud bo'lib, u didaktikaning muntazamlilik, doimiylik,

izchillik, xazm bo`lish kabi qonuniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi<sup>32</sup>. Darslik o`quvchilar uchun atrofdagi dunyoning umumiy, ilmiy tasavvurlarni yaratishi, o`quvchi o`zlashtirishi kerak bo`lgan bilimlar tizimi va hajmini ifodalashi, o`quvchida zarur bo`lgan ko`nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradigan topshiriq va misollarni o`z ichiga olishi, o`quvchilarning yosh xususiyatlari va dastlabki tayyorgarlik darajasiga mos kelishi muhim.

Haqiqiy hayat hodisalariga emotsiyonal-sensorli munosabatni shakllantirish uchun darslikda o`quvchilarning aqliy yosh xususiyatlarini hisobga olgan his-tuyg`ularni keltirib chiqaradigan materiallar kiritiladi. Bundan tashqari darslik yuqori darajadagi umumlashtiruvchi materiallarni o`z ichiga olishi va shu bilan birga o`ziga xos, asosiy faktik ma'lumotlar bilan jihozlangan bo`lishi lozim. Maktab darsligi o`quv va hayat amaliyoti o`rtasidagi bog`liqlikni, bilimlarni o`quv faoliyatida amaliy qo'llashni, alohida o`quv fanlari o`rtasidagi munosabatlarni amalga oshirishi kerak. U rasmlar, xaritalar, diagrammalar, fotosuratlar ko`rinishidagi kerakli illyustratsiyalar bilan ta'minlanishi zarur.

#### **Darslikni tuzishda ba`zi qoidalar hisobga olinishi kerak. Jumladan:**

- ◆ muloqotni ta'minlash, ya`ni, o`quvchi va kitob o`rtasida dialog yaratana olish;
- ◆ o`quvchi qiziqishini oshirish uchun yordamchi o`quv qurollari bilan to`ldirish;
- ◆ modellashtirish, o`rganilanayotgan mavzu yoki hodisalar haqida kerakli ma'lumot olishi uchun model yaratish;
- ◆ maxsus atamalar qo'llanilsa, ularning qisqacha ta'rifi va izohi bo`lishi, shuningdek, atamalar indeksi, ular bilan ishslash bo`yicha savollar va topshiriqlar tizimi bo`lishi kerak;

<sup>32</sup> Koshanova N.M. Didactic requirements for textbooks in modern pedagogy (on the example of the subject «education»)//International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Year: 2022 Issue: 06 Volume: 110.- P.272-276.

- ◆ nomlar, tushunchalarni shakllantirish, qonunlarni tavsiflash, hadisalarini tushuntirish fan va amaliyotda umumiy qabul qilinganlariga mos kelishi talab qilinadi;

- ◆ darslikda ko`p sonli notanish tushunchalardan foydalanish taqiqlanadi va b.

#### **Darslikdagagi o`quv materialining murakkabligi darajasiga quyidagi kirdi:**

- ma'lumotlilik, ya`ni yangi tushunchalarning soni va mazmunining yangiligi;
- jurnallarning murakkabligi, ya`ni ularning uzunligi, tuzilishi, mavzumligi va boshqalar.

#### **Rus pedagogi V.V. Krayevskiy o`quv materialini tanlashning uchta asosiy tamoyilini ifodelaydi:**

1. Ta'lim mazmunining zamonaviy fan, ishlab chiqarish darajasi va rivojlanayotgan demokratik jamiyatning asosiy talablariga muvofiqligi tamoyili;
2. O`quv rejasining barcha fanlarda inson faoliyatining munosabatlarida ifodashni nazarda tutuvchi jihatlarning birligini hisobga olish tamoyili;
3. O`quvchining individual rivojlanishini hisobga olgan holda, o`quv materialini shakllantirishda ta'lim mazmunining yaxlitligi tamoyili. Bu ta'limning barcha tarkibiy qismlarining o`zaro mutanosibligi, muvozanati va uyg`unligini nazarda tutadi.

Fan bo`yicha darslik materialiga qo'shimcha o`quv materiali mazmunini tanlashda o`qituvchi tanlangan materialning o`quv maqsadlariga mos kelishini ta'minlashi shu bilan birga tanlangan qo'shimcha material murakkab, hayotiy va o`quvchining fanga qiziqishini uyg`ota oladigan darajada ahamiyatlari bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Darsning sifatli, samarali va qiziqarli bo`lishida albatta o`qituvchi fan darsligidan tashqari o`quvchilarga qo'shimcha ma'lumotlar berib borishi uchun o`z ustida doimiy ishlashi,

mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganishi tahlil qilishi lozim. Jumladan turli ishonarli manbalardan olingen qiziqarli va statistik ma'lumotlar, olimlar va amaliyotchilarning biografiyasi, turli ibratli hikoyalar bilan boyitishi mumkin. Lekin bunda mavzudan uzoqlashmaslik nazariy, statistik, illyustrativ va amaly bog'lanish kombinatsiyasi izchil va chiroqli amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Darslik chinakam fanning taqdimoti bo'lgan holda, ayni paytda o'quvchilar uchun ochiq bo'lishi, ularning yoshini, idroki, xotirasi, tafakkurining rivojlanish darajasini hisobga olishi, kognitiv va amaly qiziqishini rivojlantirishi lozim. Bu o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalariga mos kelishi kerak. Darslik estetik talablarga javob berishi, ya'nı darslikda materialning joylashuvi yangini idrok etishning o'ziga xos xususiyatlarini, oldingisini o'zlashtirish darajasini, eng muhim o'quvchilarni qiziqtirishi kerak. Darslik o'rtacha rangli bo'lishi, o'quv matni o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatishi, o'rganilayotgan mavzuga qiziqishi paydo bo'lishi kerak. Shuning uchun, ayniqsa o'rganishning dastlabki bosqichlarida, turli xil metaforalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darslikning gigiyenik talablari matn shrifti, qog'oz sifati bilan bog'liq.

#### **"Tarbiya" fani darsligiga qo'yiladigan metodik talablar:**

- ◆ davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan odob-axloq, bilim, ko'nikma va malaka hamda kompetensiyalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish;
- ◆ o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrleshni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ◆ o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish;

Umumta'lim fanlarini o'qitishning tamoyilial yangi metodologiyasi asosida ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va uzlusizligini ta'minlash.

Umumta'lim mакtablarida mavjud Tarbiya fani dasrliklari milliy tariximizning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy qadriyatlar, an'analara, xalq

merosi va buyuk ajdodlarimizning tarbiyaviy va ahloqiy qarashlarini o'ziga singdirgan holda taqdim qilinishi talab etiladi. Buni amalga oshirishda xalqimizning ko'p yillik tajribalari, madaniy-ma'naviy taraqqiyot bilan bog'liq an'analarini o'zida ifodalab kelgan ijtimoiy fanlarni chuqur va izchil o'rganishni talab qiladi. Ijtimoiy fanlar ko'p qirrali bo'lib, uning mazmunini jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy-ijtimoiy jarayonlar, milliy an'analar, amaliy faoliyatdagi tajribalar tashkil etadi. Ijtimoiy fanlar bevosita yoshlar ta'limi bilan birga tarbiyasini ham rivojlantirish xususiyatiga ega, zero tarbiya masalasi bugungi kunimizda alohida ahamiyatga ega bo'lib, mamlakat taraqqiyotining muhim ustuvor va strategik masalasi hisoblanadi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashayotgan bir vaqtida yosh avlod ongida sodir bo'layotgan keskin o'ngarishlar ta'lim-tarbiyaga har qachongidan ko'ra jiddiy qarashni taqozo qilmoqda. Bunda Tarbiya darsliklariga aynan shu masalalarni ilmiy asoslangan holda tarkib toptirish maqsadga muvofiq. Tarbiya darsliklariga tarbiya masalasining ibtidosi, uning rivojlanish bosqichlari va buyuk mutafakkirlarning bu yo'nalishdagi qarashlari hamda bugungi kunning yutuqlari integratsiyalashivi katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlarida yoshlarni aqliy rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan va bu so'g'd manbalarida ham o'z aksini topgan. "Avesto"da ham so'g'diy larning odamlar o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum qonun-qoidalar asosida olib borilganligi va qat'iy nazoratga olingenligi ta'kidlab o'tiladi. Buning natijasi o'laroq, milliy ongli, sog'lom fikrli millat fidoiylari, vatanparvar sarkardalar va olimlar yetishib chiqishiga zamin yaratilgan. Avestoda tarbiyaga qaratilgan masalalar bevosita boshqa mavzularimizda aks alohida yana bir bor aks ettiladi.

Istom ta'siri ostida Markaziy Osiyo xalqlari hayotida yuksak ma'naviy o'ngarishlar yuz berdi, uning ahloqiy-pedagogik qarashlari milliy

pedagogikamizning takomillashuviga olib keldi. Yuksak qomusiy bilim egalari, Yevropani lol qoldirgan buyuk siymolar yetishib chiqdi. Huddi shunday allomalarimizdan biri **Abu Homid G'azzoliy** farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat berib, bu haqida shunday fikrlarni bildiradi: "Bilgin! Bola tarbiysi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rGANIB, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergen har bir kishi sherikdir. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo'ladi. Bunda gunoh yuki shu ko'yga solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi" deydi.

**Farobiy** ijodida esa, ma'rifatli komil inson quyidagicha tavsirlanadi, "Har kimki ilm xikmatni o'rGANMAGAN desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' - salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin". Uning mazkur fikrlaridan yoshlarni komil inson qilib tayyorlashda ta'lum-tarbiyaga katta e'tibor bergenligini ko'rishimiz mumkin.

Farzand tarbiysi bo'yicha **Ibn Sino** fikrlari ham e'tiborli bo'lib, u farzand ahloqiy tarbiysi oila, ya'ni ota-onaning asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi. O'z navbatida ota-onha ham bu borada doimiy o'zini o'zi rivojlantirib borishi, o'z ustida ishlashi, kamchiliklarni tuzatishga qodir bo'la olsagina u tarbiyachi bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi. Ibn Sino axloqiy tarbiyada bola g'ururiga tegmagan holda, individual suhbatlar olib borish, pand-nasihat qilish eng muhim vositalardan deb biladi. Aynan shu vositalar orqali aqliy va jismoniy tarbiyani uzviylikda olib borish orqali komil inson shakllanishiga urg'u beradi.

**Yusuf Xos Xojibning** fikricha, har bir shaxs jamiyatga munosib bo'lib kamol topmishi uchun zarur bo'lgan tarbiyani tug'ilgandan boshlab olish lozim, shundagina ularning vaqtlarini zoye qilishning oldi olinadi. Yusuf Xos Xojib Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan.

Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan ulug' siymolardan biri **Mirzo Ulug'bek** yosh avlodning aqliy va ma'rifiy tarbiyasiga katta axamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallahga da'vat etdi. U faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta'minlashiga ishonadi, bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Mirzo Ulug'bek o'z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishishiga alohida ahamiyat berib, inson sog'lom va baquvvat bo'lishi uchun yoshlik chog'idayoq jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishi, ta'lim – tarbiyada poraxo'rlik, qalloblik bo'imasligi uchun mudarrislar odil va halol bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tadi. Mirzo Ulug'bek bolaning bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishda u tarbiyalanayotgan sog'lom muhitning muhim o'rni borligini ta'kidlab o'tadi.

**Alisher Navoiy** esa, bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning yetuk va komil inson bo'lishiha ishonadi. Navoiy ham bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalash zarurligini, tarbiya insonga o'zida yaxshi fazilatlar hosil qilishga yordam berishini, u kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruhiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi.

**Husayn Voiz Al - Koshifiyning** ijodida ham tarbiya masalasiga urg'u berilib, insonni ta'lim - tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatni rivojlantirish mumkinligi keltirib o'tilgan. Koshifiyning pedagogik qarashlarida bola tarbiyasidagi mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga alohida e'tibor qaratib, ota-onha va muallimlarni bu masalaga jiddiy qarashi lozimligini

talab etadi. Bola tarbiyasidagi mustaqil fikrlash ko'nikmasi uning muammolarni bartaraf etishigi qarorlarni qabul qilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Jaloliddin Davoniy** ota – onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to'xtalgandi. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallahisiga ko'maklashishi, ilm – fan va kasb – hunar egallahining moddiy asosi bo'lgan ijtimoiy ta'minotni yetkazib berish uchun jozibalik ko'rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri **Sa'diy Sheroziy**ning fikricha, oila bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchi va asosiy tayanchidir. Sa'diy bola tarbiyasida otaning o'rnnini alohida ko'rsatib o'tadi. Darhaqiqat bola tarbiyasida ota mas'uliyati kuchli bo'lib, u bolani tarbiyasida, ta'lif olishida, kasb-hunar egallahida, jismoniy barkamolligida eng asosiy mas'ul hisoblanadi. Sa'diy Sheroziy tomonidan taqdim qilingan pedagogik qarashlarda bolalar qobiliyatli va qobiliyatsiz bo'lishi mumkinligi aytib o'tilgan, bolaning rivojlanishi uchun undagi qobiliyat yanada rivojlantirilishi lozim, aks holda mavjud qobiliyat so'nib boradi. U tarbiyani uch, aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga turkumlaydi.

XIX asr o'zbek ijtimoiy va adabiy xayotning yirik vakillaridan biri **Komil Xorazmiy** o'z asarlarida ma'rifat axloqiy kamolot, vatanparvarlik g'oyalari suradi. U ilm-ma'rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolatida tutgan o'rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi xaqidagi pedagogik fikrlarini ham bayon etadi. Komil Xorazmiyning fikricha ilm-hunar, ilm-ma'rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma'naviy xayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go'zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo'lganlar obro'-e'tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi. Tarixshunos olim, tarjimon va xattot Munis tarbiyada tilga ko'p erk bermaslikni maslahat beradi. Uning

asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo'lishi uchun jaholatdan yiroq turishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan, yoshlarni kamtarlik bilan muloqatda bo'lishga, kattalarni hurmat qilib e'zozlashga chorlaydi.

**Muxammad Rizo Ogahiy** pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasiga yuqori baho bergan, u milliy an'analarimizdan bo'lgan mehmondo'stikni go'zal fazilatlardan biri deb hisoblaydi. Mehmonga chuqur hurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodidan o'z ifodasini topgan bo'lib, bola tarbiyasida bu fazilatni ham shakllantirishga da'vat etadi. Ogahiy ta'lif-tarbiya ilmlarni egallah va tilni bilishda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. U o'z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishga, ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga da'vat etdi.

Bola tarbiyasida shoiralarimizdan **Nodira** tomonidan bildirilgan fikrlar ham ahamiyatli bo'lib, uning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari - adolat, insof, xalq manfaati muhim o'rinni egallaydi. Nodira xayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'lsa, o'zining bu ezgu ishlari bilan o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman olganda shoira ham o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'lab, ta'lif – tarbiyaga oid ko'p foydali o'gitlarni bayon etadi.

**Berdimurod Qarg'abiy o'g'i Berdaq** yoshlarning aqliy tarbiyasida maktabning mavqeい katta ekanligini ta'kidlaydi. Maktabda bolani yaxshi xulq-atvorli qilib tarbiyalash lozimligi, maktabda dars beruvchi muallim o'z xushmuomalaligi, pok qalbligi, haqgo'yligi, o'z fanini yaxshi puxta bilishi bilan bolalarga o'rnak bo'lishi kerak. Berdaq ham oilaning bola tarbiyasida, muhim o'rin tutishni alohida ta'kidlaydi, oila muhitida ota – onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning ta'kidlashicha, inson tug'ilgan kundanoq tarbiyaga muhtoj, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalar. Jamiyat

vakillari yosh avlod tarbiyasida insonparvar va adolatli bo`lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, xalqqa ta`lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim.

Buyuk shoir va olim, fors – tojik mumtoz adabiyotning ulug` namoyondasi **Abduraxmon Jomiy** o`zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o`lmas me`rosida, jumladan, nasriy usulda yozilgan "Bahoriston" asarida ta`lim – tarbiya masalalari xususida fikr bildirib o`tgan.

Yuqorida tarbiya borasida buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan bildirilgan barcha pedagogik qarashlar o`quvchilar milliy ongini shakllantirishda, oilada va umumiyligida ta`lim muassasalarida tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini belgilab beradi. Jamiyat taraqqiyotida bolalar tarbiyasi muhimligi asoslanilib, umumiyligida ta`lim tizimini isloh qilishda shu bo`yicha milliy mentalitetimizga mos dasrliklarni ta'minlash va shu asosda o`qitish zaruratin keltirib berdi. Natijada "Umumiyligida ta`lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida" qarori qabul qilindi. Bu o`z navbatida o`quvchilarda ma`naviy-tarbiyaviy bilimlarni berish, tushunchalarni tahlil qilish va mushohada yuritish ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur fanni o`qitilishida asos bo`lgan "Tarbiya" fani konsepsiya davlatning ta`lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo`lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo`naltiriladi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo`nalishlarni belgilab beradi.

Umumiyligida ta`lim maktablarida "Tarbiya" fani darsliklariga qo`yiladigan va uni o`qitishga bo`lgan talablari bevosita uch bosqichda tashkil qilinib, uning natijasida o`quvchilarda shakllanishi zarur bo`lgan malaka talablari va kompetensiyalar belgilab berildi. O`quvchi fanni o`zlashtirishning har bir bosqichida tarbiyaning ma`naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviyligi

iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlari bo`yicha kompetensiyalarga ega bo`lishi e'tirof etildi:

- har bir bosqichda o`quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;
- o`quvchilar tarbiyasida oilaning maktab bilan o`zaro samarali hamkorligini mustahkamlash, ota-onalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo`lgan hurmatni umuminsoniy tamoyildan kelib chiqib shakllantirishni qo`llab-quvvatlash;
- bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- uzluksiz ta`lim tizimiga "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;
- o`quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma`naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to`g`ri qaror qabul qilishga o`rgatish;
- bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;
- dunyo dinlarining ko`p asrlar davomida avloddan avlodga o`tib kelayotgan ma`naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hyech bir dunyo dinida zo`ravonlik, terrorizm va ekstremizm g`oyalari targ`ib etilmasligini tushuntirish;
- shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma`rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- ma`naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo`shliqlar mavjud bo`lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil bo`lgan yoki profilaktik ro`yxatda turadigan yoshlar bilan individual tarzda ishslash tizimini takomillashtirish.

O`quvchilarda tarbiyaviy tafakkurni shakllantirish, istiqbolni ko`ra bilishga o`rgatish va shunga yo`naltirish bevosita o`z-o`zini anglashdan boshlanadi va bu tarbiyaviy kompetensiyalarning shakllanishidagi zaruriy

qismni tashkil etadi. O'quvchilarda tarbiyaviy kompetensiyalarning shakllanib borishining zarur shartlaridan biri ularni yangicha, nostonart fikrlashga o'rgatish bilan erishish mumkin, bunda maktablarda o'qitiladigan ijtimoiy fanlarni imkoniyatlarni yanada kengaytirgan holda, ilg'or usullardan foydalanishda o'quvchi yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tashkil qilish ko'zlangan natijalarga olib keladi.

**Mamlakatimiz ta'lif tizimida o'quv-metodik majmuuning yangi avlodini ishlab chiqish tamoyillari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar:**

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish:

- **shaxs sifatida shakllanish kompetensiysi;**
- **umummadaniy kompetensiya** -milliy qadriyatlarni bilishi va odobaxloq qoidalariga rioya qilishi, kitob mutoala qilishi;
- **kommunikativ kompetensiya** - ijtimoiy moslashuvchanlik o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga rioya qilish.
- **axborot bilan ishlash kompetensiysi** - axborot manbalaridan foydalana olish;
- **fan-teknika yutuqlaridan xabardor bo'lish va undan foydalana olish kompetensiyalari.**

"Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" tamoyili mazmun va mohiyatini o'quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish: o'quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash; faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash; mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, teran ma'rifatlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani darsligini tayyorlashda o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining

intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, yoshlardan o'rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratilgan. "Tarbiya" fani darsligini ishlab chiqishda o'quvchilarda milliy g'urur va iftixon, moddiy va ma'naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg'usini tarkib toptirish, davlat ta'lif standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko'nikmalarning to'liq o'zlashtirilishiga erishish, o'quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yangi avlod o'quv-metodik majmularini yaratish va amaliyotga joriy etish, umumta'lif fanlarining o'qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirish.

#### **O'quv-metodik majmuani ishlab chiqish tamoyillari:**

1. Ushbu fan bo'yicha o'quvchilarga sifatlil bilim berish, ularni to'g'ri tarbiya yo'liga yo'naltirish, zarur bilim va hayotiy ko'nikmalarga ega bo'lislari, mustaqil hayotga moslashishlariga ko'mak ko'rsatish, turli vaziyatlarda huquqiy, ma'naviy mezonlarga asoslangan holda qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan estetik jihatdan zamonaviy bezatilgan, qiziqarli va psixologik-pedagogik materiallarga boy quyidagi o'quv-metodik majmular kompleksini talab qiladi.
2. O'quv-metodik majmua ta'lif sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yaratilganligi.
3. O'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi.
4. O'quvchilarda vatanparvarlik va milliy iftixon tuyg'usini shakllantirishga qaratilganligi.

5. Umumiy o'rta ta'limining zarur hajmi berilganligi, o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlesh, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

6. mavzularning mazmunan izchilligi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, media-mahsulotlardan unumli foydalanilganligi.

### **3. Darslikka qo'yiladigan talablar**

Darslikka qo'yiladigan quyidagi didaktik talablar mavjud:

- o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;
- matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fani mazmun-mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglash va hayotga tatbiq qilish maqsadlariga xizmat qilishi;
- qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqlashtirilgan bo'lishi;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;
- ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;
- rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar, fotosuratlar, infografikalardan iborat media mahsulotlar bilan bezatilgan bo'lishi;
- o'quvchilar psixo-fiziologik rivojlanish darajasiga mos yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar va shu kabi lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

#### **Darslikka qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar:**

- fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

- o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;
- o'quv fani mavzulari adabiy til qoidalariiga qat'iy rioya qilgan holda oddiy, sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;
- mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;
- O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'limgan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;
- savol va topshiriqlarning aniq ifodalangan bo'lishi;
- o'quvchilarni fikrleshga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;
- bir tushunchaning ikki xil atama bilan ifodalishiga, sanalarni keltirishda noaniqlikka yo'l qo'yilmasligi;
- o'quvchilarni muvaffaqiyatlari ijtimoiy hayotga yo'naltirishga oid matn va rasmlar, izohlari lug'at, texnik ijodkorlik, mantiqiy va innovatsion tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlarini qamrab olgan bo'lishi lozim.

#### **Darslikka qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar:**

- keng jamoatchilik tomonidan tan olingen ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatları, tafakkuri inobatga olingen holda, voqealarni hodisalarining mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olish va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;
- o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlariaga mos holda berilishi, ma'lum bir faktlar, tushunchalar, qoidalari va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;
- o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatları, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olinishi lozim.

#### **Darslikka qo'yiladigan estetik talablar:**

- belgilangan talablar darajasida yorqin, rangli, chiroyli bezatilgan, zamonaviy dizayniga mos bo'lishi;
- matnlar va illyustratsiyalarning uyg'unligi va o'quvchilar yoshiga mosligi;
- bo'lim, bob, mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, ularning mutanosibligi ta'minlanishi lozim.

#### **Darslikka qo'yiladigan gigiyenik talablar:**

- matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;
- harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) ta'lif muassasalari uchun matbaa mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamenti talablariga mos bo'lishi lozim.

**"Tarbiya" fani darsligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar.** O'quv adabiyotining asosiy turi darslik- o'quvchilar uchun muhim bilim manbai, ta'limning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. U o'qitish nazariyasi va metodikasi, bola shaxsining ma'nnaviy mohiyatini shakllantirishni ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar, umumiy madaniyat va inson faoliyati tajribasini o'zida aks ettiradi.O'quv darsligida o'quv materiallari tizimli ravishda taqdim qilinishi va bilish usullari bilan bирgalikda amalga oshirilishi, maftunkorligi va muammoligi bilan ajralib turishi kerak. Darslik ham barqaror ham harakatchan bo'lishi, barqarorlik talablariga muvofiq esa darslik mustahkam poydevorga ega bo'lishi ega bo'lishi talab qilinadi. Darslikning blokli konstruksiysi mobillik asosida yangi bilimlarni tezda joriy etish imkoniyatini beradi.

Darslik tuzilmasi matni quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: tavsify matnlar; hikoya matnlari; fikrlash matnlari. Darslik o'quvchilarning o'quv jarayonida ongli va faol ishtirok etishini ta'minlay olishi lozim. Ushbu muammolarni hal qilishda darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga undaydigan, jalg qiladigan, fanga nisbatan ijobjiy munosabat, qiziqishni shakllantiradigan, bilim olishga nisbatan motivatsion rag'batni uyg'otishi;
- o'quvchilarga ma'lumotni taqdim etishning barcha mayjud usullari asosida bilimi kengaytirishga imkon berishi lozim;
- o'quv jarayoni va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va tuzatish, shuningdek, zarur ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv mashqlari ushbu talablarga javob berishi kerak;
- o'z mazmuni va tuzilishiga ko'ra darslik muayyan o'quv fanining o'quv dasturiga to'liq mos kelishi kerak.

O'quv qo'llanmada dasturning bir qator mavzulari yoritilmasligi mumkin, ammo dasturda ko'zda tutilmagan bo'limlar bo'lishi mumkin. Darslikda u yoki bu fanning asoslari, qonuniyatları va usullarini bayon qilish bilan bir qatorda, nazariy materiallarni o'qitish, bilimlarni taqdim etishning o'ziga xos uslubi shakllariga riosa qilinishi, o'quvchilarga mavzu aniq va tushunarli taqdim qilinishi lozim. Maktab darsligini tayyorlashda ta'lim standartlarida keltirilgan qoidalar, ilmiy fanlararo aloqalar integratsiyasi, uzlusizlikni ta'minlashga hissa qo'shadigan tizimli jihatlari ta'minlanishi zarur. O'quv adabiyotlari sifatini oshirishni ikki yo'nalishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: darslik mualliflari kompetensiyasini oshirish; darslik sifatini monitoring qilish.

Darslikni tayyorlashda mualliflar didaktika tamoyillariga riosa qilishi zarur. Darslik sifatini nazorat qilishda uning tarkibiy qismlari, tuzilishi, mazmuni, sifati, ilyustrativ materiallari, dizayni e'tiborga olinishi muhim. Darslik tili aniq, ixcham bo'lishi ilmiy uslubga riosa qilinishi, mavzuning asosiy mazmunidan chetga chiqmaslik kerak. Darsliklarda ilmiy atamalardan foydalanan keng ko'lamlı didaktik, uslubiy va statistik talablarni o'z ichiga oladi. Maktab o'quvchilarining yutuqlari ta'lim sifati bilan belgilanadi. Darslikning ilyustrativ materiallari uning mazmunini to'g'ri va obrazli

ochishga yordam berishi, berilgan materialni o'zlashtirishni osonlashtirishi kerak. Darslikda orintatsiya apparati juda muhim texnik va uslubiy ahamiyatga ega. Orintatsiya (lotincha "oriens"-sharq) joy yoki yo`nalishni aniqlash va belgilash qobiliyati: harakat, faoliyat, qiziqishlar va boshqalar hisoblanadi. Bu o`quvchiga ham o`qituvchiga ham darslikdagi asosiy tushuncha va belgilarni yodlab olish, kerakli ma'lumotlarni tez oson topishiga yordam beradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Ta'limning asosiy vositasi qanday didaktik ta'minotdan ibotar?
2. Darslining o`quv predmeti yoki uning dasturga mos keladigan uslubiy qismlarini sanab o'ting?
3. Darslikka qo`yiladigan zamonaviy talablarni izohlab ko`rsating?
4. Darsliklarni ishlab chiqishda qanday meyorlar mavjud?
5. Darslikka qo`yiladigan estetik, didaktik, pedagogik, psixologik talablarni izohlab bering?
6. Tarbiya fani darsliklariga asos bo`lib xizmat qiladigan manbalarni tahlil qiling?
7. G`arb tarbiyasi milliy tarbiyaga qanday ta`sir ko`rsatadi?
8. Elektron darslikni tayyorlashga qo`yilgan pedagogik va didaktik talablarni izohlab bering?

### **3- MAVZU: TARBIYA FANINING DIDAKTIK ASOSLARI**

#### **Reja:**

1. Didaktika tushunchasi. Ta'limning tadrijiy rivojlanishida didaktikaning ahamiyati
2. O`qituvchi kompetentligining ta'lim sifatidagi ahamiyati
3. O`qitish usullariga qo`yiladigan didaktik talablar
4. O`qituvchi pedagogik faoliyat subyekti sifatida

**Tayanch so`z va iboralar:** buyuk didaktika, kompetensiya, kognitiv faoliyat, ijodiy faoliyat, tayanch kompetensiya, fanlararo kompetensiya, fanga old kompetensiya, zamonaviy pedagogika, ta'limning qadriyatlari darajasi, tendensiya, intensivlik, o`qitish usullari, tanlov, pedagogik faoliyat komponentlari, kommunikativlik, konstruktivlik, tarbiya shakkleri

#### **1. Didaktika tushunchasi. Ta'limning tadrijiy rivojlanishida didaktikaning ahamiyati**

Didaktika so`zi yunoncha "didaktikos", - o`rgatuvchi,"didasko" - o`rganuvchi kabi ma'nolarni bildiradi. Didaktika ta'limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e'tirof qiladi. Pedagogika fani shaxsnı rivojlantirishning ikki muhim jihatı - uni o`qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Didaktika ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatları, tamoyillari, o`qituvchi va o`quvchi faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tafsiq etadi<sup>11</sup>.

<sup>11</sup> Узбекий педагогика. Укув-услубий-мажмуда. ЎЗМУ Т. 2018.- Б. 21.

Buyuk chek gumanisti, pedagogi **Yan Amos Komenskiy** tarbiya va ta'limning butun masalasini odamlarning ehtiyojlari belgilashini alohida ta'kidlagan holda o'zining "Buyuk didaktikasi"ni hamma narsaga aniq, muvaffaqiyatli, tez va puxta o'rgatish, o'quvchilarni yaxshi axloqqa olib borishning universal san'ati sifatida ta'riflaydi<sup>34</sup>. Komenskiyning didaktik ta'limotida o'qitishning umumiy tamoyillariga ilk bora amal qilish lozimligini ta'kidlaydi. Olim didaktik tamoyillar deyilganda bir qator tamoyillarni belgilab o'tgan.

1. Onglilik va faollik.
2. Ko`rsatmalilik.
3. Izchillik va tizimlilik.
4. Mashq qilish, bilim malakalarni puxta egallash<sup>35</sup>.

#### **Didaktikaning vazifalari quyidagilar:**

- ta'limni amalga oshirish shartlari va jarayonlarini tushuntirish va ta'riflash;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarini aniqlash;
- ta'lim jarayonini rivojlanishini ta'minlovchi omillarni tasniflash, tahlil qilish<sup>36</sup> va h.z.

Jamiyat va zamon talablariga mos ta'lim jarayonini tashkil qilishda didaktikaning ahamiyati katta. Sababi didaktika ta'limdagi mavjud jarayonlarni o'rganish asosida uning turli jihatlari o'rtasidagi bog'liqliklar va ularning mohiyatini ochib beradi hamda ta'limning rivojlanish tendensiylarini aniqlash vazifasini bajaradi. Ta'lim va tarbiyani sifatli tashkil qilishda didaktikaning ta'lim mazmunini anglash, tamoyillarini belgilash va qo'llaniladigan metod va vositalar me'yorini aniqlashtirish vazifikasi muhim. Didaktika ta'limning mazmunini va jarayonli jihatlariga ham e'tibor qaratadi.

Demak didaktika ta'limni faqat o'rganish obyekti sifatida emas balki ilmiy loyihalash obyekti sifatida ham qaraydi.

XX asr oxiri - XXI boshida mehnat bozoridagi dinamik o`zgarishlar, insonnинг nafaqat bilim va ko`nikmaları balki, shaxsiy fazilatlarga bo`lgan talabi ortishi natijasida kompetensiya va kompetentlik tushunchasi kirib keldi. So'nggi o'n yillikda ta'lim samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar tahlili shuni ko`rsatadiki, qilinayotgan ishlarning samaradorligi asosan XX asr 70-yillarda muomalaga kirib kelgan kompetensiya va kompetentlik tushunchalari bevosita bog'liqdir<sup>37</sup>.

AQShda qo'llanilgan kompetensiya so'zining mazmuni kasbiy bilim va ko'nikmalariga qarama-qarshi qo'yilib "*istalgan kasbiy faoliyatning mustaqil universal tashuvchi*" sifatida qaralgan. "Kompetensiya" va "kompetentlik" so'zları XX asrning 60-70 yillarda ushbu tushunchalar ilk bor ilmiy adabiyotlarda qo'llanila boshlanadi. Jumladan, **J.Ravenna** 1984 yilda chop qilingan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida: "U juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bie-biriga nisbatan mustaqildir..., ayrim kompetentlar ko'proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari emotsional sohaga tegishli. Bu kompetentlar o'y-o'zini samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin" degan fikrni ilgari suradi<sup>38</sup>.

#### **2. O'qituvchi kompetentligining ta'lim sifatidagi ahamiyati**

**Jak Delor** fikricha, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda kompetentli bo'lish, ya'ni, guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olish nazarda tutiladi. Shuni

<sup>34</sup> Шайдуллаева К.Ш. Я.А. Коменский педагогик карашлари хусусида мулоҳазалар. Oriental Renaissance. Innovative educationa Natural and social sciences. Volume. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz).

<sup>35</sup> Коменский. Бююк Дидактика. Т.: Ўқитувчи. 1975. -Б. 22.

<sup>36</sup> Умумий педагогика ўкув-услубий мажмуя. ЎЗМУ. Т.: 2018. -Б. 221. <https://www.researchgate.net/publicatio>3

<sup>37</sup> Тимонов И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. 2006. – № 8. – С. 20–26.

<sup>38</sup> Узбеков Ж.Э. Таним ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини таомиллаштириши ва таълимнинг компетенциинин ривожлантириши (физика фанни ўқитиш мисолида) // пед. фан доктори дисс... Ташкент. 2019. -Б. 18.

ta'kidlash joizki, "kompetentlik" tushunchasi bilan birligida, uning sinonimi sifatida "**malakalar bazasi**" termini ishlataligan hollar mavjud.

**B.Oskarson** fikriga ko'ra, ular keng qamrovli, maxsus kasbiy xislatlariga qo'shimcha ravishda rivojlanadi<sup>39</sup>. Bunday tayanch kompetensiyalar jamoada samarali ishslash, rejalashtirish, muammolarni yechish, ijod qilish, peshqadam bo'lish, tadbirkorlik, tashkilotchilik, va kommunikativ ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. XX asr 90-yillarda kompetensiya tushunchasi Yunesko xujjalarda ta'lidan kutiladigan natija sifatida bir qancha kompetensiyalar ajratib olina boshlandi. Jumladan, 1996 yil martida Bern shahridagi Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha o'tkaziladigan simpoizumda, ta'limni isloq qilishda tayanch kompetensiyalarni belgilash orqali ta'lim olish muvaffaqiyatlari ishslashlariga keng yo'l ochilishi xususidagi masala qo'yiladi. Bunda kompetensiya tushunchasi mazmuni hali to'la ochib berilmaganligiga to'xtalib o'tiladi. Ma'ruzachi **B.Xutmaxer** tomonidan "kompetensiya" tushunchasi "*bilamanki nima...*" dan ko'ra "*bilamanki, qanday...*" tushunchasiga yaqinroq turishi ta'kidlanadi<sup>40</sup>. U Yevropa kengashi tomonidan qabul qilingan "Yevropa yoshlari ega bo'lishi kerak bo'lgan" tayanch kompetensiyalarning ta'riflarini keltiradi.

**1. Ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalar.** Jamoada qaror qabul qilishda qatnashish va u haqda javobgarlikni his qilish. Zo'ravonlik ishlatmasdan mojarolarni hal etish; demokratik institutlar ishini yaxshilash va qo'llab-quvvatlash.

**2. Ko'p madaniyatli jamiyat hayoti bilan bog'langan kompetensiyalar.** Rasizm va ksenofobiya ko'rinishlarini nazorat qilish, notolerantlik muhitining rivojlanmasligi uchun ta'lim orqali yoshlarga madaniyatlararo kompitensilarni ya'ni, o'zgalarni hurmat qilish, boshqa

madaniyatga, tilga va dinga ega bo'lgan insonlar bilan birligida shay bo'lish jahi zarurli xislatlarni singdirish.

**3. Og'zalki va yozma aloqaga kirishish bilan bog'liq kompetensiyalar.** Bunday kompetensiyalarga ega bo'lмаган insonlar ijtimoiy jihatdan isolyasiyalanib qolish xavfiga duchor bo'ladilar. Bu kontekstda kommunikatsiyaga kirishish uchun ona tilidan tashqari yana boshqa tilni bilishi muhim ahamiyatga egaligi.

**4. Jamiyatni axboratlashtirish bilan bog'liq kompetensiyalar.** Ommaviy axborot vositalari va reklamalar orqali tarqalayotgan axborotlarga nishbatan tanqidiy munosabatda bo'lish uchun kuchli va kuchsiz tomonlarini ajratma bilish uchun bunday texnologiyalarni bilish; kasbiy va ijtimoiy hayot kontekstiga ko'ra butun hayoti davomida uzlusiz ravishda o'qib o'rganib borishni nazarda tutadi.

Dars jarayonining muvaffaqiyatlari kechishi uchun o'qituvchi o'quvchilarni ijodiy jarayonga, jalb qilishi axloqiy qadriyatlarning mohiyatini ochib berishga va ularga bo'lgan munosabat tuyg'ularini uyg'otishga imkon berishi lozim. Ta'liddagi kognitiv va ijodiy faoliyatning pozitsiyasi o'quvchi "men"ining boshqa ko'rinishlarini ham rag'batlantiradi, jumladan, o'z-o'zini tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini-o'zi takomillashtirish istagini yuzaga keltiradi. Ta'lim mazmunining barcha tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq, sababi shaxsning tajribasi, uning asosiy tarkibiy qismlari doimo birlikda bo'ladi. Kognitiv fazilatlar amaliy ko'nikmalsiz namoyon bo'lmaydi, ijodkorlik tajribasi esa hammaga ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni yetarli darajada bilmasdan turib rivojlanmaydi.

Ta'lim mazmunining kompetensiyaga asoslangan nazariyasi bo'yicha rus pedagoglaridan **V.A.Bolotov, O.E.Lebedev, A.A.Pinskiy, V.V.Serikov, I.D.Frumin, D.B.Elkoninlar** samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Namonaviy axborot jamiyatini tubdan o'zgarib borayotgan ijtimoiy va axborot

<sup>39</sup> Мирзахмедов Б. Физикадан муаммоли тажриба бажаришда ўқувчи ўқув ижодий фаолияти ва уни бошкариш технологияси // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент. 2007. – Б. 45-53.

<sup>40</sup> Усаров Ж.Э. Таянича ва финга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини такомillashtirishi va ўқувчилар компетентлигини rivojlanтириши (физика фанини ўқитиш миссонида) // пед. фан доктори дисс... Тошкент. 2019. -Б. 20.

makonida ishlashga qodir, mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, faolligi, tashabbuskorligi bilan ajralib turadigan, madaniyatlararo o'zaro munosabatlarga tayyor, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatiga, mamlakat taqdiri uchun ma'suliyat hissiga ega bo'lgan odamlarga, ya'ni pedagoglarga muhtoj. Pedagoglar fikricha ta'lif mazmunining mohiyati, asosini "kompetentliklar" tashkil etadi. Shu o'rinda kompetensiya tushunchasini izohlab o'tadigan bo'lsak, kompetensiya - bu shaxsnинг hayotiy muammolarni hal qilishdagi yaxlit tajribasi, ko'plab ijtimoiy sohalar va ijtimoiy rollar bilan bog'liq asosiy vazifalarni bajarish usullarini o'zlashtirganligi.

#### Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Bizga ma'lumki ta'lif jarayonini tashkil qilishda o'qituvchi va o'quvchi munosabati yuzaga keladi. Kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining yagona ta'rifi yo'qligi sababli turlicha talqin qilinadi. Jumladan **B.A.Vedenskiy** "Ensiklopedik lug'at"da shunday ta'rif beradi: "**Kompetensiya** - bu vakolatlar doirasi, shaxs bilimi, tajribasi orqali egallagan savollar doirasi" ya'ni, insonning u yoki bu faoliyat sohasida muhokama qila oladigan va ega bo'lgan bilimlari. "**Xorijiy so'zlarning izohli lug'ati**"da kompetensiyaning ta'rifi quyidagicha keltiriladi: "Kompetensiya-qandaydir savollar doirasida, qandaydir bilimlar sohasidagi xabardorlik"ni nazarda tutadi.

**Kompetent** - bu nufuzli qandaydir sohani biladigan, xabardor, ya'ni, kompetensiya ega bo'lishlikdir. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ushbu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: kompetensiya lotincha "**competo**" - erishayapman, munosibman, loyiqman degan ma'nolarni bildiradi. Shuningdek, muayyan davlat organi (mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsnинг qonun, ustav yoki boshqa xujjat bilan belgilangan

vakolatları, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba angashiladi.

"**Sovet ensiklopedik lug'ati**"da sodda ammo tushunarli ta'rif berilgan bo'lib bunda, kompetensiya - bu ma'lum sohadagi tajriba va bilimlar majmui sifatida qaratadi. Ta'lif tizimida ushbu tushunchaning paydo bo'lishi umumta'lum maktablari o'quvchilari maktabni tugallash paytida egallashi shart bo'lgan faoliyat turlarida bir qator o'zgarishlar bo'lishiga olib kelgan holda, har bir o'quvchi zaruriy kompetensiyalarni egallashi, faoliyatga oid tajribalar orttirishi zarur. Bunda kompetensiya va faoliyat bir-biri bilan mustahkam bog'liq<sup>41</sup>.

Mazkur atamalarning ta'rifini tahlil qilishda **A.V. Xutorskiyning** bergan ta'rifi tushunchalarning ta'rifini ochib bera oladi. U mazkur tushunchaning foton ildizlariga e'tiborini qaratadi: lotinchadan "**competentia**" - so'zining tarjimasи, bu inson tomonidan yaxshi xabardor bo'lgan, bilgan va ma'lum tajribaga ega bo'lgan masalalar doirasi<sup>42</sup> hisoblanadi. Uning ta'rifini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsnинг ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatishga imkon beradigan zaruriy bilim va ko'nikmalarga egaligi. Ya'ni o'sha sohani yetuk vakili bo'lish uchun talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar sifatida ko'rib chiqilgan. Bu borada rus pedagoglari **V.V.Serikov, V.A.Bolotovlar** "bilimli, o'qimishli, ko'nikmali bo'lish usuli, shaxsiy o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan tushunchalar jamlanmasi" sifatida ta'riflagan<sup>43</sup>. Fikrimizcha, kompetentlik o'qitish jarayonining bir bo'lagi bo'lib, ta'lif olayotganlarning shaxsiy sifatiga bog'liq bo'ladi. Demak, kompetensiya tushunchasi ilmiy tushuncha sifatida, ko'pchilik pedagoglar tomonidan o'quvchi (o'qituvchi, talaba) egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'z ichiga olgan holda, faqatgina bilish kategoriyasi sifatida emas, balki shaxsiyat kategoriyasi

<sup>41</sup>Узаров Ж.Э. Роль науки в формировании современной виртуальной реальности // Материалы международной научно-практической конференции. - Саратов, 30 декабря 2018 г. - С. 69-73.

<sup>42</sup>Узбекистонда ДС Малака ошириши тизими тингловчиларида касбий компетентликни ташаббускоринин Унга хос жижхатлари // Замонавий таълим. - Тошкент, 2018. - № 4. - Б. 16-21.

<sup>43</sup>Шапитко В.А., Сериков, В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. - 2003. - № 10. - С. 8-14

hamda ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish maqsadi va vositasi sifatida ham qaraladi. Kompetentlik tushunchasi xuddi kompleks struktura sifatida talqin qilinib, uning tarkibiga zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini egallah, qandaydir faoliyatni bajarish qobiliyatini aniqlovchi shaxs xususiyatlari, kasbiy xususiyatlar to'plami, shaxsnинг tegishli kompetensiyalarni egallashi kabi elementlar kiradi. Tegishli kompetensiyalar o'quvchi ong va ong ostida shakllangach diniy va dunyoviy tushunchalarni o'zida singdirish va ularga amal qilishi bilan izohlanadi. Kompetensiyalar turli mazmun va shakllarda bo'ladi. Hozirgi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim tizimi dunyo mamlakatlari ta'lim tizimi, jumladan, Yevropa mamlakatlari o'quv jarayoniga kirib kelmoqda. Shular jumlasidan, MDH mamlakatlaridan Rossiya pedagoglari ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida umumta'lim maktablari tizimida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish yuqori samara berishini asoslab berdilar va maktab o'quvchilari kompetensiyalarini shakllantirishni uch turga bo'ladilar:

1. Tayanch kompetensiyalar (metapredmet kompetensiyalari)
2. Fanlararo kompetensiyalar
3. Fanga oid kompetensiyalar

Ma'lumki, inson jamiyatda muvaffaqiyatli yashashi uchun ma'lum bir turdag'i layoqatlarga, qobiliyatlarga, malakalarga ega bo'lishi talab qilinadi. Inson hayotida ushbu masalada tayanch kompetensiyalarga ega bo'lish talab qilinadi. Jumladan, o'z fikrini erkin, ravon, tushunarli tarzda og'zaki yoki yozma bayon qila olishi, zaruriy axborotlarni izlab topa olishi va undan foydalana olishi, jamiyatda har jahhada faol bo'lishi, o'z-o'zini rivojlantirishi va boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi talab qilinadi.

Dunyoda tayanch kompetensiyalarning eng maqbul varianti **A.V.Xutorskiy** tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagilardan iborat:

- ◆ qadr-qimmat, e'tiqod kompetensiyasi;
- ◆ umummadaniy kompetensiyalar;

- ◆ o'quv-o'rghanish kompetensiyasi;
- ◆ axborot kompetensiyasi;
- ◆ kommunikativ kompetensiya;
- ◆ ijtimoiy-mehnat kompetensiyasi;
- ◆ shaxsni takomillashtirish kompetensiyasi.

Yevropa o'rta ta'lim tizimida o'quvchilar kompetentligi erishilgan natijalariga ko'ra uchta yo`nalishda baholanadi:

1. Shaxsiy natijalar.
2. Tizimli -faoliyatiga ko'ra natijalari.
3. O'quv predmetlari bo'yicha natijalari.

Bunday baholash tizimi ta'lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borishni taqozo qiladi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari ta'lim sifatini oshirishning asosiy omili sifatida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari bilan bog'lamoqda. Bu jarayonda o'quvchilarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirish hamda ta'lim va tarbiyaviy jarayonni uyg'unlikda olib borish kabi tamoyillar ustuvor tamoyil sifatida qaralmoqda. Har bir o'quvchining maktabda olingen bilimlardan shaxsiy hayotida foydalana olish qobiliyati shakllanishi uning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuvida niroyatda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari fanga oid bo'lgan kompetensiyalarni o'zlashtirish natijasida olingen bilimlarini amaliyotda qo'llay olish qobiliyati hamda shaxsnинг funksional va kasbiy xususiyatlari majmui sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi bilim olsayu uni amalda qo'llash ko'nikmasi va qobiliyati shakllanmagan bo'lsa, bunday insonning jamiyatga naf'i tegmaydi. Shu sababli ta'limga nisbatan kompetensiyaviy yondashuv yetakchi masala sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqda kompetensiya muammosi ta'lim sohasiga kirib keldi va vaqt o'tishi bilan yetakchi o'rinni egalladi<sup>44</sup>.

### 3.O'qitish usullariga qo'yiladigan didaktik talablar

Zamonaviy pedagogika dogmatik o'tmish bilan xayrashmoqda. Ta'limgagi an'anaviylik, pedagog faoliyatidagi bir xillik davr talabiga muvofiq kelmayotganligi allaqachon tan olingan. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida yashagan fransuz yozuvchisi **A. Frans** "ikki mavjudot san'atga tahdid soladi", deb yozgan edi: ya'ni rassom bo'lмаган usta va usta bo'lмаган rassom<sup>45</sup>. Xuddi shunday tahdid pedagogika sohasiga ham xavf solayotganligini alohida qayd qilishimiz lozim. Agar pedagog ushbu sharaflı kasbga munosib bo'lmasa, yoki o'z ishining ustasi bo'lmasa ta'limgar tarbiya jarayonida yuqori ko'rsatkich ko'rsata olmaydi. Hozirgi kunda pedagog ijodkor, qobiliyatli, tirishqoq har tomonlama zamon bilan teng qadam tashlaydigan shaxs bo'lishi talab qilinmokda. Zamonaviy pedagogika deyilganda bu shaxsning rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi maqsadli tashkil etilgan ta'limgar tarbiya uyg'un holda amalga oshiriladigan yaxlit pedagogik jarayon tushuniladi.

**Zamonaviy pedagogika ta'limgar mazmunli talqin qilishning kamida to'rt jihatini ko'rib chiqadi:**

- ta'limgar qadriyat sifatida;
- ta'limgar tizim sifatida;
- ta'limgar jarayon sifatida;
- ta'limgar natija sifatida<sup>46</sup>.

**Ta'limgar qadriyatli xarakteristikasi o'z navbatida uchta o'zaro bog'liq darajani ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi:**

- **ta'limgar qadriyat sifatida:** ta'limgar davlatning intellektual, ilmiy-texnikaviy va madaniy salohiyati bo'lib, bunda davlatning obro'-e'tiborini haqiqatda ta'minlash uchun maxsus davlat mexanizmlari, xususan, davlat ta'limgar muassasalarini moddiy qo'llab-quvvatlash, maxsus kadrlar siyosatini amalga oshirish zarur;

- **ta'limgar ijtimoiy qadriyat sifatida:** jamiyatning turli qatlamlari ta'limgar qadriyatlari turlicha qarashadi; fuqarolik jamiyatining yetukligi uning vakillarining davlat tomonidan ta'limgar muammolarini fuqarolar foydasiga, mamlakat taraqqiyoti manfaatlaridan kelib chiqib hal etishda muvaffaqiyat qozonish darajasi bilan belgilanadi;

- **ta'limgar shaxsning qadriyati sifatida:** yuqori sifatli ta'limgar insonning yuqori turmush darajasining hal qiluvchi shartiga aylanishi, uning hayotiy manfaatlari va shaxsiy qobiliyatlarini amalga oshirishni ta'minlashi mumkin.

Dunyoda ta'limgar rivojlangan mamlakatlar tajribasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ta'limgar qaysiki davlat, jamiyat va shaxs tomonidan qadriyat sifatida qoraladigan bo'lsagina ta'limgar sifati va samaradorligi yuqori darajada ta'minlanadi.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'limgar mazmunini rivojlantirishni sezilarli darajada aniqlaydigan bir qator tendensiyalar aniq namoyon bo'lmoqda:

1. Ilmiy-texnikaviy axborot hajmining jadal o'sishi kuzatilgan holda har 7-10 yilda uning hajmi ikki baravar ortib bormoqda. Shu bilan birga, o'ngaruvchan bilimlarning "yoshi" intensiv ravishda nazariy bilimlarning ta'minjan 5 foizi va amaliy bilimlarning 20 foizi har yili yangilanadi. Tez o'ngaruvchan dunyoda ta'limgar mazmunini ilmiy jihatdan tanlash tobora qiyinlashmoqda, chunki o'quvchilarning kelajak hayoti va faoliyatining yo'nalishlari (konturlari) o'qituvchilar avlodni uchun to'liq tushunarli emas.

2. Endilikda bilimlarni "zaxirada" berishning hojati yo'q, aksincha, o'quvchilarni axborot oqimi bo'ylab harakatlanishga, o'z ustida mustaqil ishlash, mustaqil ravishda axborotlarni tahlil qila olish, ajratib olish, yangilash va undan samarali foydalanishga o'rgatish lozim bo'ladi.

3. Fan, axborot jarayonlarining aql bovar qilmaydigan darajada ko'lami rivojlanmoqda. Maktab ta'limgar mazmunini yangilashga, uni fan yutuqlariga yaqinlashtirishga an'anaviy intilishda to'xtab qoldi. O'quv dasturlari haddan

<sup>45</sup> Голованова Н.Ф. Педагогика. М.: 2018.

tashqari yuklangan, ta'lim mazmunini tashkil etishda "obyektivlik" inqirozi tobora kuchayib bormoqda.

4. XXI asrda turli fanlar chorrahasida izlanishlar ustunlik qiladi. Bu zamonaviy mutaxassislardan, bir tomondan, fundamental bilimlarni, ikkinchi tomondan, fanlararo bilimlarni talab qiladi. Zamonaviy ijtimoiy amaliyotning murakkab muammolarini hal qilish, hatto maktab ta'limini ham individual bilim va ko`nikmalarni operatsion komplekslarga birlashtirish zaruriyatidan ustun qo`yadi.

5. Zamonaviy dunyoda alohida mamlakatlar ta'lim tizimlarining yaqinlashuvi tendensiyalari, maktab o`quvchilari va talabalarni konvertatsiya qilinadigan ta'lim sertifikatlari bilan ta'minlash istagi tobora kuchayib bormoqda. Faylasuflar hatto bunda "sayyoraviy ta'lim makonini" qurish istiqbollarini ko`rishadi.

**Zamonaviy ta'limda quyidagi asosiy tamoyillar yetakchi rol o`ynamoqda:** o`qituvchining asosiy roli; ta'lim jarayoni tarkibiy qismlarining birligi va o`zaro bog`liqligi; jamoani qo'llab-quvvatlash; insonparvarlik; o`quvchilarning faol faoliyati; ta'lim va real hayat o`rtasidagi munosabat; o`z-o`zini tarbiyalash va h.z.

Rus pedagogi M.I. Rojkov o`qituvchi pedagogik faoliyatda quyidagi tamoyillarni joriy qilinishini maqsadga muvofiq deb hisoblaydi<sup>47</sup>:

- maktab bola tarbiyasini o`z vositasi bilan cheklamasligi, jamiyatning haqiqiy talablarini hisobga olish zarur;
- o`qituvchi bolaga nisbatan atrof - muhitning salbiy ta'sirini to`g`irlashi lozim;
- ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari o`zaro aloqada bo`lishi shart. Mazkur fikrlari orqali pedagog hozirgi davr pedagogikasining asosiy rioya qilinishi talab qilinadigan tamoyillarini aks ettiradi.

<sup>47</sup> Рожков М. И. Организация воспитательного процесса в школе [Текст]: учеб.пособие для студентов вузов / М. И. Рожков, Л. В. Байбороева - Москва : ВЛАДОС, 2000. - 254 с.

Ta'limda o`quvchilarni tarbiyalashni individuallashtirish tamoyili har bir o`quvchining ijtimoiy rivojlanishining individual trayektoriyasini aniqlashni, uning xususiyatlariga mos keladigan maxsus vazifalarni ajratishni, bolalarni har xil faoliyat turlariga jalb qilishni, shaxsiy salohiyatini ochib berishni o`z ichiga oladi. Dars va sinfdan tashqari ishlarda, har bir o`quvchining o`zini o`zi anglashi va o`zini oshkor qilish imkoniyatini beradi.

**Amaliy pedagogik faoliyatda individuallashtirish tamoyili quyidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi:**

- bir guruuh o`quvchilar bilan olib boriladigan ishlardan ularning har birini rivojlantirishga qaratilishi kerak;
- bitta o`quvchi bilan ishlashda ta'lim ta'sirining muvaffaqiyati boshqalarning ta'limiga salbiy ta'sir ko`rsatmasligi lozim;
- ta'lim vositasini tanlashda faqat individual fazilatlar haqidagi ma'lumotiardan foydalanish kerak;
- bolalar munosabatlarining muammolari ular uchun emas, balki bolalar bilan hal qilinishi kerak va h.z.

Hozirgi kunda o`qituvchi shakllantiruvchi ta'sirlarni rivojlantiruvchi ta'sirlar bilan almashtirilishi talab qilinmoqda. Shu bilan birga, uning asosiy g`amxo`rligi o`quvchilar oldiga maqsadni belgilash va ularning ushbu maqsadga erishish yo`lida borishini nazorat qilish emas, balki o`quvchilarning mustaqil intellektual, axloqiy, estetik va boshqa har qanday rivojlanish uchun qulay, rag`batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish bo`ladi<sup>48</sup>.

**O`qitish usullariga qo`yiladigan talablar.** O`qitish usullariga qo`yiladigan talablar o`rganishning obyektiv qonunlaridan kelib chiqadi. Birinchi talab o`quvchilarning bilish jarayonida so`zsiz faol bo`lishi hisoblanadi. O`quvchilar faoliyati darajasi va harakati barcha o`quvchilarda bir xil bo`lmasligi tabiiy. Ammo o`quvchilar passiv bo`lsa, u holda o`quv

<sup>48</sup> Сумина Т.Г. Теория воспитательной работы. Курс лекции. Екатеринбург: РГППУ, 2010.-С.99.

jarayonidan ko`zlangan natijaga erishib bo`lmaydi. Bilimlarni o`zlashtirish har doim o`qituvchi tomonidan ma'lum darajada nazorat qilinishi mumkin bo`lgan o`z kognitiv faoliyatining natijasidir. Shunday qilib, o`quv jarayoni o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar tizimi bo`lib, bu yerda o`qituvchi yetakchi rolga ega, ammo ta'lif natijasi o`quvchilarning faol mehnatiga bog`liq.

#### **Hozirgi vaqtida o`qitish usullariga ikkita asosiy talab qo`yiladi:**

1. O`qitish metodikasi o`quvchilarning bilim va malakalarini o`zlashtirishdagi harakatini faollashtirishga yordam berishi lozim. O`qitish usullari o`quvchilarga ular o`rganadigan o`zlashtirgan o`quv materiali haqida tushuncha berishi kerak. Bu talablarning bir-biri bilan chambarchas bog`liqligi shundaki, agar o`quvchilar o`quv materialini tushunmasalar, o`zlashtirish jarayonida faol bo`la olmaydilar. Shu bilan birga, agar ular o`quv materialini o`zlashtirishda faol ishtirok etmasalar, kerakli darajada tushuna olmaydilar.

2. O`quv materialini o`zlashtirish va keyinchalik olingen bilimlarni amaliy va kundalik faoliyatda qo`llash qobiliyatini shakllantirish lozim.

Dars jarayonida o`qituvchining o`quv materialini chuqur o`zlashtirishni ta'minlay olishi o`quvchilarning bilim olishiga, ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko`rsatadi. O`quvchilarning o`quv materialini tushunishi ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo`lib, uni dars mavzusi bo`yicha asosiy tushunchalarni o`zlashtirishdan boshlash, asta-sekin mavzu yoki hodisaning eng muhim tomonlarini o`rganishga o`tish maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda o`qitish usullarini tanlash qoidalari pedagogik amaliyotni o`rganish va pedagogik tajribani umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

#### **O`qitish usullarini tanlash quyidagilarga bog`liq:**

1. **Umumiy ta'lif maqsadi:** o`quvchilarni o`qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadlari.

2. **Zamonaviy didaktikaning asosiy tamoyillari:** muayyan o`quv fanining, mavzuning yoki bo`limning o`qitish xususiyatlari, mazmuni, usullari, vositalari va boshqalar.

3. **Har bir o`quv fanini o`qitishning metodik xususiyatlari:** metod va o`quv qo'llanmalarini tanlashga qo`yiladigan o`ziga xos talablar.

4. **O`qituvchi tomonidan qo`yilgan darsning maqsadi:** ko`zlangan maqsadga erishish bo`yicha vazifalar hamda ushbu darsning mazmuni, o`quv fani, bo`lim yoki mavzuni o`rganish uchun o`quv rejasida ajratilgan vaqt miqdori.

5. **O`quvchilarning yoshi, jismoniy va psixologik imkoniyatlari, ularning individual xususiyatlari.** Ta'lif, tarbiya va umumiyo rivojlanish kabi mezonlarni o`z ichiga olgan o`quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi.

6. **Ta'lif muassasasining moddiy-texnik va uslubiy jihozlanishi.** (o`quv-uslubiy adabiyotlar, ko`rgazmali qurollar va h.z)

7. **O`qituvchining kasbiy tayyorgarligi.** Mahorat darajasi, pedagogik qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari.

O`qituvchi pedagogik faoliyati maqsadlar, motivlar, harakatlar va natijalar bo`lgan tizimdir. **N.V.Kuzmina** pedagogik faoliyatda o`zaro bog`liq uchta komponentni ajratib ko`rsatadi (1-rasm).



**1-rasm. Pedagogik faoliyatda o`zaro bog`liq komponentlar**

O`qituvchi muvaffaqiyatli faoliyati uchun pedagogik faoliyatning ushbu funksional turlarini amalga oshirishi zarur.

### Konstruktiv faoliyat:

- **konstruktiv tarkib:** o`quv materialini tanlash tuzish, rejalashtirish qurish;
- **konstruktiv-operativ:** o`z harakatlari va o`quvchilar harakatlarini rejalashtirish;
- **konstruktiv-material:** pedagogik jarayonning o`quv va moddiy bazasini loyihalash.

**Tashkiliy faoliyat** o`quvchilarning turli faoliyat turlari, ya`ni, sinf jamoasini tashkil qilish, jamoani yaratish kabi harakatlar tizimini amalgaga oshirishni o`z ichiga oladi.

**Kommunikativ faoliyat** o`quvchi va o`qituvchi, jamoatchilik vakillari hamda ota-onalar bilan maqsadga muvofiq munosabatlarni o`rnatishga qaratilgan. Fan samaradorligini ta'minlashda o`qitish usullarining ketma-ketligini tanlash o`qituvchi tomonidan ma'lum bir ketma-ketlikda amalgaga oshirilishi maqsadga muvofiqliр. Ushbu qoidaga rioya qilish barcha usullarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur.

Rus olimi A.I. Shcherbakov o`qituvchi asosiy vazifalari komponenti sifatida konstruktiv, tashkiliy va tadqiqotchilik vazifalarini ko`rsatadi. Ushbu vazifalardan tadqiqotchilik vazifasiga alohida urg`u beradi. Har bir pedagog-o`qituvchi pedagogik hodisalarga ilmiy yondashishi, bilim va malakasini rivojlantirishda ilmiy va pedagogik tadqiqot usullariga tayanishi, boshqa o`qituvchilar, shu jumladan o`z tajribasini tabhil qilib borishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunda pedagog har bir o`qituvchi o`z kasbiy faoliyati davomida doimiy ravishda o`z ustida, muntazam mehnat qilishi, izlanishi, ya`ni ijodkor bo`lishi lozimligini ta'kidlaydi. Pedagogik faoliyatning konstruktiv komponentlariga ichki o`zaro bog`langan analitik, bashoratli va proyektiv vazifalari kiradi. Faoliyatning barcha tarkibiy qismlarini amalgaga oshirish o`qituvchidan maxsus pedagogik mahoratni talab qiladi.

### 4. O`qituvchi pedagogik faoliyat subyekti sifatida

O`qituvchilik kasbiga qo`yiladigan eng muhim talablardan biri ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasining aniqligidir.

O`qituvchi pozisiyasi bu- dunyoga, pedagogik voqelegikga va pedagogikaga bo`lgan intellektual, irodali, hissий jihatdan baholovchi munosabatlar tizimi.

Ushbu talablar bir tomonidan jamiyat unga taqdim etgan imkoniyatlar bilan bog`liq. O`qituvchining pozitsiyasi uning shaxsiyatini, ijtimoiy yo`nalishining tabiatini ochib beradi. O`qituvchining ijtimoiy mavqeい fuqarolik hatti-harakati, qarashlar va e'tiqodlar tizimidan kelib chiqadi. O`qituvchining ijtimoiy mavqeい ko`p jihatdan kasbiy mavqeini belgilaydi. O`qituvchining kasbiga motivatsion-qiyomatli munosabati o`qituvchi shaxsining o`zagini tashkil qiladi. O`qituvchining kasbiy pozitsiyasini tanlashida kasbiy munosabat, xarakter hal qiluvchi ahamiyatga ega. **L.Itelson** tipik rolli pedagogik yondashuvlarning quyidagi tavsifini beradi:

- axborot beruvchi-ma'lumotlarni yetkazuvchi;
- diktator-me'yorlar va qiyamat yo`nalishlarini ongga majburan kirtsai;
- maslahatchi-to`g`ri yo`l ko`rsata olsa;
- ilhomlantiruvchi- o`quvchilarni o`ziga jaib qila olsa.

Ushbu yondashuvlarning har biri ijobiy yoki salbiy ta'sir ko`rsatishi hevosita o`qituvchining shaxsiyatiga bog`liq. Ushbu rollarni bajarishda o`quvchi shaxsiga nisbatan hurmatsizlik va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko`rsatishdan saqlanish lozim. Shuningdek, o`qituvchi shaxsiyatiga qo`yiladigan psixologik, psixofiziologik va jismoniy tayyorgarlik; ilmiy, nazariy amaliy, bilim, malaka va ko`nikmalar kabi professional talablari ham alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kungacha o`qituvchining professional profilini yaratishda boy tajriba to`plangan. O`qituvchi o`quvchining ruhiy xususiyatlarini o`rganishi, o`zlashtirilayotgan bilimlarning o`quvchiga shaxsan qiziqarli va zarurligini

ta'minlashi lozim. Aks holda yetkazilayotgan ma'lumotlar o'quvchilar tomonidan shubhasiz rad etilishi mumkin. Berilayotgan ma'lumotlar obruzli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar subyektivlashadi. O'qituvchi o'z darsida shunday sharoitlar yaratishi lozimki, natijada o'quvchi uchun neytral bo'lgan obyekt kutilmaganda subyektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida o'quvchi va o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi, izlanadi.<sup>49</sup>

Ta'limning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan mashg'ulotning asosiy maqsadi o'quvchi tafakkurini rivojlantirish jarayoni sifatida vujudga keladi. O'qituvchi professiogrammasida uning shaxsiyatining yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. O'qituvchining unga xos bo'lgan shaxsiy fazilatlariga ijtimoiy-axloqiy, kasbiy-pedagogik va kognitiv oriyentatsiya kabilar kiradi.

**K.D. Ushinskiy** "Inson tarbiyasining asosiy yo'li ishontirish orqali harakat qilish", deya ta'kidlaydi. Ya'ni pedagog ushbu fikrlari bilan har qanday ta'lim usuli, u qanchalik yaxshi bo'lmasin ishonchli bo'lmasa o'lik xat bo'lib qoladi, degan fikrni beradi. Pedagogik kasbining asosi bolalarga muhabbat, doimo o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish, pedagogik burch va ma'suliyatining mavjudligidir. Pedagogik burchning eng oliy ko'rinishi o'qituvchining fidoiyligi va mehnatga motivatsion qiymatli munosabati bilan belgilanadi. Dars jarayonida o'qituvchi hatti-harakatlari taktikasi o'z harakatlari oqibatlarini oldindan ko'ra bila olishi hisoblanadi. Bunda pedagogik taktika ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy fazilatlariga, dunyoqarashiga, madaniyati, irodasi va kasbiy mahoratiga bog'liq. O'qituvchi pedagogik taktikasi ayniqsa, o'qituvchining nazorat va baholash faoliyatida aniq namoyon bo'ladi<sup>50</sup>. **V.A. Suxomlinskiy** "Adolat bolaning o'qituvchiga bo'lgan ishonching asosi hisoblanadi deya asosli fikrni bildirgan edi.


<sup>49</sup> Курбонова Г.А. Замонавий ўқитувчининг педагогик маҳорати ва педагогик бурти // Замонавий таълим. Илмий журнали. 2017. 2-сон.  
<sup>50</sup> Сдастелин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика. Учебник. -М.: Издательский центр. "Академия". 2013. - С. 27.

Tarbiyaviy ish shakllari xilma-xil bo'lib shu kungacha pedagogikada aniq son bilan belgilanmagan va ularni sanash imkonsiz hisoblanadi.

**Tarbiya shakllarini bajarish vaqtini quyidagicha ajratish mumkin:**

- qisqa muddatli (bir necha daqiqadan bir necha soatgacha davom etadi);
- uzoq muddatli (bir necha kundan bir necha haftagacha davom etadi);
- an'anaviy (muntazam ravishda takrorlanadigan)<sup>51</sup>.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish algoritmi tizimli tashkil qilinadi (2-rasm).



## 2-rasm. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish algoritmi

Buyuk chex pedagogi **Yan Amos Komenskiyning** "Buyuk didaktika" asarida ta'lim-tarbiya bolaning tabiiy qobiliyatlariga moslansa, yengil va osonroq o'tishi mumkinligini ta'kidlaydi. Buning uchun:

1. O'qitishni o'z vaqtida, ya'ni kishining fikri boshqa narsaga bo'linmasdan turib boshlash kerak.
2. Bolaning aqli, o'qitish uchun yetarli darajda tayyorlangan bo'lishi lozim.
3. O'qitishda umumiyligidan xususiylikga qarab borishi lozim.
4. Osonroq narsalarni o'rganishdan qiyinroq narsalarni o'rganishga o'tish kerak.

<sup>51</sup> Курбонова Н.М. Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириши механизmlari // нел фан фалсафа док.(PhD). Чирик-2022. -Б. 93.

5. O'rganiladigan material ko'plik qilib bolani qiyab qo'ymasligi lozim.
6. Hamma narsani sekin -asta o'rgata borish lozim.
7. Bolaning yoshiga to'g'ri kelmaydigan narsalarni unga majburan o'gatmasligi kerak<sup>52</sup> va h.z.

Uning fikricha, maktablar uchun aniq tartibni joriy qilishni tabiatdan o'rganmoq kerak, ta'lif-tarbiya masalasida ham tabiat hamma joyda o'z harakatlarida namoyon qilayotgan jarayonlarni o'rganish kerak. Bunda olim tabiat va jamiyat uchun umumiy qonunlar mavjudligini aytasada, bu qonunlarni ochib bera olmaydi. Komenskiyning tabiatga moslik nazariyasi tarbiyaning progressiv va demokratik tamoyillari hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiy bilimlar asosli bo'lishi uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi:

1. Faqat hayotda kerak bo'ladigan narsalarni puxta o'rganish lozim.
2. Bunday narsalarning barchasini hech bir istisnosiz bilib olish zarur.
3. Ilmlarni asosli ravishda o'rganish lozim.
4. Asoslar mustahkam bo'lishi, yangi materialga bog'lash uchun ularga (o'quvchilarga) savollar berib ularning xushyorligin oshirish lozim. Bunda o'quvchilar bu sohada bilimlari kamligini payqab, yangi darsni chuqr qiziqish bilan idrok etsinlar.
5. Darsda o'qituvchi o'quvchilarning xushyorligini oshirishga keng e'tibor qaratib turishi darkor.
6. O'quvchilarga savol bilan murojat qilganida bir o'quvchi javobi bilan cheklanmasdan keyingilariga ham yuzlanib borishi lozim.
7. O'quvchi berilgan savolga javob bera olmay qolsa, savolni o'rtaga umumiylash tashlash va to'g'ri javob bergan o'quvchini rag'batlantirish yoki maqtashi lozim.
8. Dars yakunida o'quvchilar mavzuga oid tushunmay qolgan joylari bo'yicha o'qituvchiga savollar berishi maqsadga muvofiqdir<sup>53</sup>.

<sup>52</sup> Коменский.Буюк дидактика. "Ўқитувчи" наприёти.Ташкент-1975. -Б.14.

<sup>53</sup> Ўша асарда. -Б. 22.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Kompetensiya nima?
2. Tarbiya fani o'qituvchisi qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim?
3. O'qituvchining pedagogik muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omillarni sanang?
4. Ta'lilda subyekt-subyekt tamoyili asosida faoliyat ko'rsatishning ijohiy jihatlari nimada?
5. O'qitish usullarini tanlashda nimalarga ko'proq e'tibor qaratish lozim?

## **4-MAVZU: DARS. UNING TURLARI VA TUZILISHI. DARSGA QO`YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

### **Reja**

1. Dars - ta'limning asosiy shakli sifatida
2. Dars turlari va unga qo`yiladigan zamonaviy talablar
3. Darsning xususiyatlari

**Tayanch so`z va iboralar:** dars, maxsus o`qitish usullari, umumiy o`qitish usullari, individual, jamoaviy, tasniflash, dars turi, dars uslubi, dars tipologiyasi, tarkibiy qismlar, aralash dars, uquv ekskursiyalari, munozara darslari, o`yinli dars, rolliy o`yin, darsning xususiyatlari, nostandart dars

### **1. Dars - ta'limning asosiy shakli sifatida**

Zamonaviy didaktikada ta'lim shakllari umumiy va maxsus shakllarga bo`linadi. Ta'limni tashkil etishning o`ziga xos shakllariga quyidagilar kiradi:

- dars;
- ekskursiya;
- o`quvchilarning uy vazifalari;
- mustaqil mashg`ulotlar.

Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllariga quyidagilar kiradi: fakultativ, rag`batlantruvchi, konsultatsiyalar, o`quv fanlari bo`yicha olimpiadalar, fan haftaliklari, to`garaklar va h.z.

Dars zamonaviy maktabda ta'limni tashkil etishning asosiy shakli bo`lib qolmoqda. Dars o`qitishni tashkil etishning asosiy shakli bo`lib, bunda o`qituvchi qat`iy belgilangan vaqt davomida frontal, individual va guruh ishlarini birlashtirgan doimiy o`quvchilar jamoasini boshqaradi. Ta'limning tashkiliy shakli deyilganda o`qituvchi va o`quvchilarining o`quv jarayonidagi

faoliyatini tashkil etish usuli bo`lib hisoblanadi. Tarixiy jihatdan darsning ilk shakli individual dars shakli bo`lib, qadimgi davrlardayoq paydo bo`lgan. Darsning individual shakli o`qituvchi bilan o`qituvchi o`rtasida yakkama-yakka muloqot tarzida o`tadigan dars shakli hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu dars shakli asosan repititorlikda qo`llanadi. Darsning keyingi paydo bo`lgan shakli individual - guruhli shakli bo`lib, ushbu ta'lim shakli o`rta asrlarda keng tarqalgan.

Yangi davrga kelib sanoatning rivojlanishi malakali kadrlarga bo`lgan ehtiyojning oshishiga olib kelib individual guruhli ta'lim shakli sinf-dars bilan almashtirildi. **Ya.A.Komenskiy** ilk bor sinf-dars tizimining nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Dunyoda mazkur dars shakli eng keng tarqalgan hisoblandi.

Ta'limning asosiy shakli - o`quvchilarni ommaviy qamrab olish asosida o`quv jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.


Dars - doimiy tarkibdagi (sinf) o`quvchilar guruhi bilan ma'lum vaqt ichida (odatda 45 daqiqa) olib boriladigan o`qituvchi tomonidan bir vaqtning o`sida o`qitish imkoniyati sifatida ta'riflangan. Ta'lim tizimida o`qituvchining vazifasi tayyor bilimlarni o`quvchilarga berish jarayoni bo`lib, 1940-1950-yillar pedagogikasida ta'lim tizimini fan mantig`i va assimilyasiya psixologiyasiga bog`liq holda qo`yish asosida o`quvchilar bilim va ko`nikmalarini faol idrok etishga tayyorlash, umumlashtirish va tajimlashtirish va o`z-o`zini nazorat qilish jarayoniga nisbatan qo`llanila boshlagan. O`qituvchi nafaqat yangi bilim manbai sifatida, balki mustaqil tashkilotchi va ijodkor sifatida ham harakat qiladi. O`qituvchining dars jarayonini, o`quvchilardagi ijobiy va salbiy o`zgarishlarni pedagogik kuzatishi va tahsil qilishi o`quvchilar faoliyatida sodir bo`lgan o`zgarishlarni aniqlash, o`qitish samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni topish imkonini beradi. Albatta samaradorlik o`z-o`zidan o`qituvchining dars turlari, metodlari va dars texnologiyasini to`g`ri tashkil qilishi bilan bevosita bog`liq. Didaktika, metadeglogiya, pedagogik texnologiyalar bo`yicha keng qamrovli

adabiyotlarda “dars” tushunchasining ta’rifi o`quv jarayonining yaxlit, mantiqiy jihatdan to’liq jarayoni sifatida ta’riflangan.

#### Dars quyidagi funksiyalar to’plamiga ega:

- ✓ muayyan ta’lim, tarbiyaviy rivojlanish maqsadlarining mavjudligi;
- ✓ o`quv materiallarini aniq maqsad va uni o’zlashtirish darajalariga muvofiq tanlash;
- ✓ o`qitishning mavzuga mos vositalari va usullarini tanlash orqali belgilangan maqsadlarga erishish;
- o`quvchilarning tegishli ta’lim faoliyatini tashkil etishi.

Har bir darsning maqsadlari: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi qismlarga bo’linadi (3-rasm).



**3-rasm. Darsning maqsadlari**

Ular bir-biri bilan chambarchas bog’langan bo’lib, muayyan shart-sharoitlarga qarab, darsni yoki dars tizimini tashkil etish va o’tkazishdagi roli har hil. Darsning mazmuni belgilangan maqsadlar asosida tanlanadi. O’quv dasturlari, darsliklar, o`quv qo’llanmalar yordamida dars turi yanada aniqlashtiriladi. Bunda muayyan material bo’yicha belgilangan maqsadlarga erishish uchun tegishli vosita va usullar qo’llaniladi. Darsda muayyan material bo’yicha belgilangan maqsadlarga erishish uchun tegishli vositalar va o`qitish usullari qo’llaniladi. Dars samaradorligi pedagogning an’anaviy va noan’anaviy, umumiy va maxsus o`qitish usullari va o’ziga xos xususiyatlarini chuqur bilishi bilan bog’liq bo’lib, busiz samaradorlikga erishib bo’lmaydi. Har bir vosita, o`qitish usullari tizimi o`qituvchi va o`quvchilar o’rtasidagi munosabatlardan tizimini belgilaydi va o’ziga xos tashkiliy shaklga ega. Bunda

o’qituvchi va o’qituvchi o’rtasidagi muloqotning individual, juftlik, guruh va jamonaviy shakllari qo’llaniladi. Darsning mohiyati va tuzilishini o’rganish asosida ko’plab pedagoglar dars murakkab pedagogik obyekt degan xulosaga kelishgan. Har qanday murakkab obyektlar singari, darslarni ham turli mesonlarga ko’ra turlarga bo’lish mumkin. Darsning tuzilishi va uni o’tkazish usubbi o’quv jarayonida hal qilinadigan didaktik maqsad va vazifalarga bog’liq, mavjud metodlar va o’qitish vositalariga qarab, bir xil turdagani dars bir nechta turlarga bo’linadi. Darslarning tasniflanishi va ularning turlarga bo’linishi uzoq vaqt davomida qilingan jarayondir. Ushbu muammo bilan birinchilar qatorida shug’ullanigan olim K. D. Ushinskiy hisoblanadi.

#### 2. Dars turlari va unga qo’yiladigan zamonaviy talablar

Amaliyotda keng qo’llanadigan va tarqalgan turlari haqidagi tasnif O.P. Esipov tomonidan kiritilgan va quyidagi dars turlarini aniqlagan:

1. Yangi materialni o’rganish.
2. Bilimlarni mustahkamlash, bilim va malakalarini shakllantirish darsi.
3. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi.
4. O’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini nazorat qilish va tuzilish darsi.
5. Kombinatsiyalangan yoki aralash dars.

**O’qitish nazariyasi va amaliyotida quyidagi dars tipologiyalari yetakechi rol o’ynaydi:**

- asosiy didaktik maqsadiga muvofiq;
- darsni amalga oshirishning asosiy usuliga ko’ra;
- o’quv jarayonining asosiy bosqichlari bo’yicha.

**Asosiy didaktik maqsadiga ko’ra darslarning quyidagi turlarini ajoyish mumkin:**

1. Yangi material bilan tanishish darsi.
2. Mustahkamlash darsi

3. Bilim va ko'nikmalarni qo'llash bo'yicha dars.
4. Bilim va ko'nikmalarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi.
5. Bilim va ko'nikmalarni tekshirish va tuzatish

**Darslarning asosiy uslubiga ko'ra shakllari:**

- suhbat;
- ekskursiya;
- fil'm darslari;
- o'quvchilarning mustaqil ishi;
- laboratoriya va amaliy ishlari;
- turli xil ish shakllarining kombinatsiyasi.

**Asosan darslar quyidagi qismlarga ajratiladi:**

1. Kirish qismi.
2. Dars materiallari bilan birlamchi tanishish.
3. Mavzuga oid tushunchalarni shakllantirish, qonun-qoidalar bilan tanishtirish.
4. Olingan qoidalarni amalda qo'llash.
5. Takrorlash va mustahkamlash;

Darslarni turlarini tanlash va ajratishda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday holda, turlarga bo'linish har bir dars turi uchun ishlataladigan tipologiya doirasida sodir bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosiy bosqichlari uchun tipologyaning elementlaridan biri bo'lgan nazorat darslari quyidagi turlarga bo'linadi:

- og'zaki so'rov darslari;
- yozma so'rov;
- laboratoriya va amaliy ishlari;
- mustaqil va nazorat ishlari;
- har xil turlarning kombinatsiyasi.

Darslarning turlarga ajratilishi mavjud tipologiyalarni tugatmaydi. Darslarni o'tkazish shaklida ko'ra bo'linadigan bunday tipologiyalarga misol sifatida quyidagi dars turlarini keltirish mumkin:

**1. Musobaqa va o'yinlar ko'rinishidagi darslar:** musobaqa, turnir, o'stabata, KVN, rolli o'yin, krossvord, viktorina va boshqalar kiradi.

**2. Ijtimoiy amaliyotda ma'lum bo'lgan ish shakllari, janr va usullariga asoslangan darslar:** tadqiqot, ixtiro, birlamchi manbalarni tahlil qilish, sharh, aqliy hujum, suhbat, reportaj, taqriz va boshqalar.

**3. O'quv materialini noan'anaviy tarzda tashkil etishga asoslangan darslar:** asosan o'quvchi faoliyoti bilan kechadigan darslar.

**4. Muloqotning ommaviy shakllariga o'xshash darslar:** matbuot konferensiysi, briefing, auksion, tartibga solinadigan muhokama, telekonferensiya, reportaj, dialog, jonli gazeta, og'zaki jurnal va boshqalar.

**5. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar davomida faoliyatga taqlid qilishga asoslangan darslar:** sirtqi ekskursiya, o'tmishtga ekskursiya, sayohat, sayr va hujhqlar.

**6. Fantaziyaga asoslangan darslar:** ertak darsi, kutilmagan dars va boshqalar.

Darslar tipologiyasiga ularni o'tkazish shaklidagi boshqa yondashuvga misol sifatida bir xil turdag'i darslarning quyidagi to'plamlarini keltirish mumkin:

**1. Ijod darslari:** ixtiro darsi, ko'rgazma darsi, insho darsi, ijodiy hisobot darsi va boshqalar.

**2. Ijtimoiy tendensiyalarga mos keladigan darslar:** bilimlarni ommaviy tekshirish darsi, bahs-munozara darsi, dialog darsi va boshqalar.

**3. Fanlararo darslar:** bir vaqtning o'zida ikkita fan bo'yicha, bir vaqtning o'zida turli yoshdag'i o'quvchilar uchun va hokazo.

**4. Teatrlashtirilgan darslar:** spektakl shaklidagi dars, xotiralar darsi va boshqalar.

**5. O`yin darslari:** biznes o`yin darsi, rolli o`yin darsi, didaktik o`yinli dars, musobaqa darsi, sayohat darsi va h.z.

**6. Yordamchi darslar:** test darsi, ota-onalar uchun dars, maslahat darsi va boshqalar.

Qolgan darslarning eng xarakterli tarkibiy elementlarini o`z ichiga olgan darslar to`plamidan foydalanishni amalga oshirishda quyidagi dars turlarini ajratishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

- 1) Yangi material bilan tanishish darsi.
- 2) O`rganilgan mavzularni mustahkamlash darsi.
- 3) Bilim va ko`nikmalarni qo`llash darsi.
- 4) Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi.
- 5) Bilim va ko`nikmalarni tekshirish va tuzatish darsi.
- 6) Qo`shma dars.
- 7) Ma`ruza darsi.
- 8) Seminar darsi.
- 9) Test darsi.
- 10) Amaliy dars.
- 11) Ekskursiya darsi
- 12) Munozara darsi.
- 13) Konsultatsiya darsi.
- 14) Integratsiyalashgan dars.
- 15) Teatrlashtirilgan dars.
- 16) Didaktik o`yinli dars.
- 17) Rolli o`yin darsi va h.z.

Yuqoridagilarni asosiy turdag'i darslar qatoriga kiritishimiz mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu dars tizimining namoyon bo'lishi bevosita o`qituvchi tomonidan qo'yilgan muammolarni hal qilish zarurati bilan bog'liq. Sababi o`qituvchi o`qitish jarayonida darslarning xilma-xilligini yo`naltirishga imkon beradigan va ularning ijodiy rivojlanishiga yordam

beradigan tuzilmaviy xususiyatlari to`g`risidagi bilimlar to`plamini izlash va aniqlashda erkindirlar.

**Yangi material bilan tanishish darsi.** Ushbu darsning tuzilishi uning asosiy didaktik maqsadi bilan belgilanadi. Uning asosiy bosqichlari:

1. Dars mavzusi, maqsadi, vazifalari va o`quv faoliyatining motivatsiyasi haqidagi ma'lumot berish.

2. Asosiy bilimlarni takrorlash va yangilash orqali yangi materialni o`rganishga tayyorgarlik.

3. Yangi material bilan tanishish.

4. O`rganilayotgan obyektlardagi aloqa va munosabatlarni birlamchi tushunish va mustahkamlash.

5. Uyga vazifa berish.

6. Darsni yakunlash.

**O`rganilgan mavzularni mustahkamlash darsi.**

Uning asosiy didaktik maqsadi o`quvchilarda ma'lum bilim va ko`nikmalarni shakllantirishdan iborat. O`rganilgan mavzularni mustahkamlashda darsning eng umumiyligi tuzilishi quyidagicha:

1. Uyga vazifalarni tekshirish, materialni yangilash yo`nalishlarini aniqlashtirish.

2. Dars mavzusi, maqsad va vazifalari, o`rganish motivatsiyasining mavjudligi.

3. O`rganilgan mavzuni takrorlash va uni standart sharoitlarda qo`llash.

4. Bilim va ko`nikmalarni shakllantirish uchun olingan bilimlarni o`sitanish va ularni yangi yoki o`zgartirilgan sharoitlarda birlamchi qo`llash.

5. Darsni yakunlash.

6. Uyga vazifalarni belgilash.

**Bilim va ko`nikmalarni qo`llash darsi.** Bilim va ko`nikmalarni qo`llash jarayonida quyidagi asosiy bo`g`inlar ajralib turadi: zarur bilim va ko`nikmalarni takrorlash va tuzatish; vazifalar va ularni amalga oshirish

usullarini tahlil qilish; zarur jihozlarni tayyorlash; topshiriqlarni mustaqil bajarish; vazifalarni bajarish usullarini ratsionalizatsiya qilish; vazifalarni bajarish jarayonida tashqi nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish. Darsning tuzilishi:

1. Uy vazifasini tekshirish.
2. O'quvchilarda qo'llaniladigan bilim va ko'nikmalarning amaliy ahamiyatini anglash, mavzuni, darsning maqsad va vazifalarini muloqot qilish orqali o'quv faoliyatini rag'batlantirish.
3. Kelgusi vazifalarni bajarishda amaliy harakatlarni qo'llash mazmuni va ketma-ketligini tushunish.
4. O'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarish.
5. Bajarilgan vazifalar natijalarini umumlashtirish va tizimlashtirish.
6. Darsni yakunlash va uy vazifasini belgilash.

**Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsi.** Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida eng umumiylar va muhim tushunchalar, qonuniyatlar, asosiy nazariyalar va yetakchi g'oyalar ajratiladi, eng muhim hodisalar, jarayonlar, hodisalar o'rtaqidagi sabab-natija va boshqa aloqalar va munosabatlar o'rnatiladi. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish jarayoni quyidagi harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi: alohida faktlarni idrok etish, tushunish va umumlashtirishdan tushunchalar tizimlarini shakkantirishgacha, ulardan bilimlarning yanada murakkab tizimini o'zlashtirish kabilalar. Shu munosabat bilan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darsida quyidagi tarkibiy elementlar ajratiladi:

1. Dars maqsadini belgilash va o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirish.
2. Asosiy bilimlarni takrorlash va tuzatish.
3. Asosiy faktlar, hodisalar, hodisalarni takrorlash va tahlil qilish.

4. Tushunchalarni umumlashtirish va tizimlashtirish, bilimlar tizimini o'zlashtirish va ularni yangi faktlarni tushuntirish va amaliy vazifalarni bajarish uchun qo'llash.

5. Bilimlarni keng tizimlashtirish asosida yetakchi g'oyalar va asosiy nazariyalarini o'zlashtirish.

6. Darsni yakunlash.

7. Bilim va malakalarni tekshirish va tuzatish darsi.

Har bir darsda bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va tuzatish amalga oshiriladi. Ammo bir yoki bir nechta kichik mavzular yoki mavzularni o'rganib chiqqandan so'ng, o'qituvchi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalar majmuasini o'zlashtirish darajasini aniqlash va uning asosida o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha muayyan qarorlar qabul qilish uchun manzur nazorat va tuzatish darslarini o'tkazishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va tuzatish darsining tuzilishini aniqlashda bilim va ko'nikmalar darajasini xabardorlik darajasidan reproduktiv va ishlab chiqarish (konstruktiv) darajalarigacha bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga moyonqdir. Ushbu yondashuv asosida quyidagi dars tuzilishi mumkin:

1. Darsning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish, o'quvchilarga darsda ishlari tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berish.

2. O'quvchilarning faktik materiallar haqidagi bilimlarini va predmet va hodisalardagi elementar tashqi aloqalarni ochib bera olish qobiliyatini tekshirish.

3. O'quvchilarning asosiy tushunchalar, qoidalar, qonunlar va ularning mehiyatini tushuntirish, o'z mulohazalarini bahslash va misollar keltirish ko'nikmalarini tekshirish.

4. O'quvchilarning bilimlarini standart sharoitlarda mustaqil qo'llash qibiliyatini tekshirish.

5. O'quvchilarning bilimlarni o'zgargan, nostandart sharoitlarda qo'llash qibiliyatini tekshirish.

## 6. Xulosa qilish (ushbu va keyingi darslarda).

**Aralash dars** - bir nechta didaktik maqsadlarni qo'yish va ularga erishish bilan tavsiflanadi. O'qitish amaliyotida an'anaviy darslar bilan bir qatorda boshqa turdag'i aralash darslar ham keng qo'llaniladi. Masalan, ilgari o'rganilgan narsalarni sinab ko'rish va yangi material bilan tanishish maqsadidagi qo'shma dars quyidagi tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

1. Uy vazifasini tekshirish;
2. Ilgari olingen bilimlarni tekshirish;
3. Dars mavzusi, maqsadi va vazifalari haqidagi xabar;
4. Yangi materialni taqdim etish;
5. O'quvchilarning yangi materialni idrok etishi va xabardorligi;
6. Bilimlarni tushunish, umumlashtirish va tizimlashtirish;
7. Uy vazifasini belgilash.

Amaliy mashg'ulotlarning o'zining maxsus vazifasi mavjud. Ya'ni o'qitishning amaliy yo'nalishini mustahkamlashni hal qilishdan tashqari, uning o'zlashtirilishiga hissa qo'shishdir. Ularni amalga oshirishning asosiy shakli amaliy va laboratoriya ishlari bo'lib, unda o'quvchilar olingen nazariy bilim va ko'nikmalarни amaliy qo'llashda mustaqil ravishda mashq qiladilar. Laboratoriya ishlarida o'quvchilarning eksperimental ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ustunlik qilsa, amaliy ishlarda esa konstruktivlik ustunlik qiladi.

**O'quv ekskursiyalari. Eskursiya** - bu o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mustaqil ravishda, o'qituvchi nazorati ostida atrofdagi voqelikni kuzatish, o'rganish yoki ma'naviy jihatdan dam olish bilan chambarchas bog'liq holda o'quv jarayonini tashkil qilish shaklidir.

O'quv ekskursiyalarining asosiy vazifalari o'quvchining bilimini boyitish, nazariya va amaliyat, hayot hodisalari va jarayonlari o'rtasida aloqa o'rnatish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, ularning tashkilotchiliginini rivojlantirish, o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantirishdan iborat. Ekskursiya darslari

mazmuni bo'yicha bir mavzuni yoki bir nechta mavzularini qamrab olishi mumkin. Ekskursiya darslari asosan fan rejasining kirish mavzulari, qo'shimcha yoki yakuniy darslarida mavjud bo'ladi. Ekskursiya darslarini o'tkazish shakli juda xilma-xil bo'lib o'rganilayotgan mavzu bo'yicha ekskursiyalar, kino yoki televizion ekskursiyalar, mavzu, bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumlashtiruvchi takrorlash darslarida ekskursiya shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Har xil turdag'i ekskursiya darslarining tarkibiy elementlari mavjud. Masalan, tematik ekskursiya darsi quyidagi tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

1. Dars mavzusi, maqsadi va vazifalari haqidagi ma'lumot.
2. O'quvchilarning asosiy bilimlarini yangilash.
3. Ekskursiya obyektlarining xususiyatlarini idrok etish, ulardagi ma'lumotlardan birlamchi xabardorlik.
4. Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.
5. Darsni yakunlash va talabalarga individual topshiriqlar berish.

**Munozara darslari.** Munozarali darslar asosini munozarali masalalarni, muammlarni ko'rib chiqish va o'rganish, mulohazalar, vazifalarni hal qilishda turli xil yondashuvlarni yuzaga keltirish bilan kechadigan dars shakli tushuniladi. Munozarali masalalar sind jamoasida ishlash jarayonida imkon qadar sinfning barcha o'quvchilari ishtiroy etishi ta'minlanishi lozim. Munozara darsiga tayyorgarlik ko'rayotganda o'qituvchi muammoning muhiyatini va uni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini ochib beradigan vazifani aniq shakllantirishi lozim bo'ladi. Ushbu jarayonda agar kerak bo'lsa, bu lojaj muhokama ishtiroychilari o'qituvchi tomonidan oldindan tanlangan va taklif qilingan qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishishlari maqsadga muvoqqidir. Dars boshida mavzu yoki savol tanlash asoslanadi, muhokama qilish shartlariga oydinlik kiritiladi, muhokama qilinayotgan muammoning asosiy nuqtalari yoritiladi. Munozaraning asosiy nuqtasi ishtiroychilar o'rstanidagi to'g'ridan-to'g'ri tortishuvdir. Munozarani paydo bo'lishi uchun

o'qitishning avtoritar uslubi qo'llanishi mumkin emas, sababi bunday uslub o'quvchilarning o'z nuqtai-nazarini ochiq bildirishiga to'sqinlik qiladi. Muhokama olib boruvchi (o'qituvchi yoki ma'sul shaxs) o'quvchilarni faollashtirishning turli usullarini, jumladan rag'batlantiruvchi, motivatsion usullarni qo'llashi mumkin: Jumladan, »yaxshi fikr», «to'g'ri yondashuv...», «asosli fikr» kabi mulohazalar bilan ularni tez-tez rag'batlantirib borishi ularni yanada faollashtirishga yordam beradi.

**Teatrlashgan darslar.** Ushbu turdag'i darslarni tanlash teatrlashtirilgan vositalar, atributlar va ularning elementlarini - dastur materialini o'rganish, mustahkamlash va umumlashtirishga jalb qilish bilan bog'liq. Teatr darslari o'quvchilarning kundalik hayotiga bayramona kayfiyat, ko'tarinki ruh bag'ishlashi, bolalarda o'z tashabbuslarini namoyon etishiga imkon yaratishi, o'zaro yordam tuyg'usini, muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan jozibali. Qoidaga ko'ra, teatr darslari tashkiliy jihatdan quyidagicha bo'linadi: spektakl, ertak, studiya va boshqalar. Bunday darslarni tayyorlashda hatto ssenariy ustida ishslash, libos elementlarini tayyorlash ham o'qituvchi va o'quvchilarning jamoaviy faoliyati natijasiga aylanadi. Bu yerda, teatr darsining o'zida bo'lgani kabi, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat bilim, balki o'z hayotiy tajribasini yetkazsa, ularga shaxs sifatida o'zini namoyon qilsa, munosabatlarning demokratik turi shakllanadi. Ssenariyni faktik materiallar bilan to'ldirish va uni teatrlashtirilgan darsda amalga oshirish o'quvchilardan tegishli ma'lumotlarni o'rganish bilan birga darslik, birlamchi manba, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishslashda jiddiy harakat qilishni talab qiladi, bu esa pirovardida ularda bilimga qiziqish uyg'otadi. To`g'ridan-to`g'ri darsning o'zida o'qituvchi avtoritar rolda bo'la olmaydi. Chunki u faqat spektakl tashkilotchisi vazifasini bajaradi. Dars rahbarning kirish nutqidan bilan boshlanadi. Ma'lumotli qismdan so'ng o'quvchilar muammoli masalalar bo'yicha sahna asarini namoyish qiladilar. Darsning yakuniy qismida

o'qituvchi o'quvchilarni baholashda darsdagi o'quvchilar faoliyatining barcha turlarini sinchkovlik bilan hisobga olgan holda amalga oshirishi lozim.

**O'yinli dars.** O'yinli dars o'qituvchi tomonidan shunday tashkil qilinishi kerakki, bunda sindf jamoasi o'quvchilarining barchasi faol qatnashishi lozim. Dars shakllari KVN, baxtli imkoniyat, qiziqarli jamoaviy o'yin ko'rinishida bo'lishi mumkin. O'yinli, musobaqali darslarni tashkil etish va o'tkazishda ucta asosiy bosqich mavjud:

- tayyorgarlik;
- o'yin;
- umumlashtirish.

Musobaqada qatnashish uchun sindf ikki yoki ucta jamoaga bo'linadi. Har bir jamoaga bir xil topshiriqlar beriladi. Jamoa sardorlari tanlanadi. Ular o'ng jamoasining harakatlarini boshqaradilar va jamoa a'zolari uchun vazifalarini taqsimlaydi. O'yash va yechim topish uchun vaqt ajratgandan so'ng, o'qituvchi va jamoalarga kiritilmagan o'quvchilardan iborat hakamlar hay'ati tanlov qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi va tanlovnı yakunlaydi.

**Didaktik o'yinli dars.** Boshqa o'yinlardan farqli ravishda, didaktik o'yin muhim xususiyatga ega bo'lib aniq belgilangan o'quv maqsadi va unga mos keladigan pedagogik natijaning mavjudligi hisoblanadi. Didaktik o'yin quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: o'yin haqida tushuncha berish, o'yin qoidalari bilan tanishtirish, o'yin harakatlari, kognitiv mazmun yoki didaktik vazifalar, jihozlar va o'yin natijasi. O'yin maqsadi, qoida tariqasida, o'yin nomi bilan ifodalanadi. U darsda hal qilinishi kerak bo'lgan didaktik vazifaga kiritilgan va o'yinga kognitiv xususiyat beradi, uning ishtirokehilariga bilim nuqtai nazaridan ma'lum talablarni qo'yadi. Ishlab chiqilgan qoidalarni o'quvchilarning harakatlari va xatti-harakatlarining tartibini belgilaydi, o'yin davomida darsda o'quvchilar faoliyat uchun ish muhitini yaratiladi. Shuning uchun didaktik o'yinli darslar salohiyatini

rivojlantirish maqsadida ularning imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalgamoshiriladi. O'z navbatida, o'yin qoidalari o'quvchilarning xatti-harakatlarini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Qoidalar bilan tartibga solingen o'yin harakatlari o'quvchilarning bilim faolligiga hissa qo'shadi, ularga o'z qobiliyatlarini ko'rsatish, o'yin maqsadlariga erishish uchun bilim va ko'nikmalarni qo'llash imkoniyatini beradi. O'qituvchi o'yinni undagi jarayonni faollashtiradi va jarayonga bo'lgan qiziqishini saqlaydi.

Didaktik o'yining asosini kognitiv mazmun tashkil etadi. Bu o'yin tomonidan qo'yilgan ta'lif muammosini hal qilishda foydalaniladigan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishdan iborat. Didaktik o'yinli dars jihozlarini asosan o'quv jihozlari tashkil qiladi. Bunda o'qitishning texnik vositalari, turli ko'rgazmali qurollar, didaktik tarqatma materiallar kiradi. Didaktik o'yin ma'lum bir natijaga ega bo'lib, u, birinchi navbatda, topshirilgan vazifani hal qilish va o'quvchilarning harakatlarini baholash, unga to'liqlik berish shaklida bo'ladi. Didaktik o'yining barcha tarkibiy elementlari o'zaro bog'liq bo'lib, asosiyları yo'q bo'lganda, u o'ziga xos shaklini yo'qotadi. Darsning turli bosqichlarida didaktik o'yinlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi har xil. Yangi bilimlarni o'zlashtirishda didaktik o'yinlarning imkoniyatlari an'anaviy ta'lif shakllaridan past bo'ladi. Shuning uchun ular o'quv natijalarini tekshirish va ko'nikmalarni rivojlantirishda ko'proq qo'llaniladi.

Didaktik o'yinlar ulardan tizimli foydalanish muktab o'quvchilarining ta'lif faoliyatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. O'qituvchi didaktik o'yinlarni tegishli uslubiy qo'llanmalar asosida to'g'ri tanlay olishi lozim bo'ladi.

**Rolli o'yin.** Rolli o'yining o'ziga xosligi shundaki, boshqa o'yinli dars shaklidan farqli ravishda tarkibiy komponentlarning ancha cheklangan to'plami bilan tavsiflanadi. Bunday dars shaklining asosi syujet va to'plami bilan tavsiflanadi. Har bir guruhda muhokama qilishi, o'z yondashuvlarini aniqlashi, qaror qabul qilishi, yechimini tayyorlash

harakatlaridan iborat bo'ladi. Rolli o'yinli darsni uch guruhga bo'lish mumkin bo'ladi:

1. Ma'lum bir kasbiy harakatga taqildi qilishga qaratilgan.
2. Aniq masalani hal qilish bilan bog'liq vaziyatlari - o'yin vaziyati.
3. Hayotda uchraydigan vaziyatlarga o'quvchilarni tayyorlashga qaratilgan va hokazo.

Rolli o'yinlarni ishlab chiqish va o'tkazish metodologiyasi quyidagi bosqichlarni to'liq yoki qisman kiritishni nazarda tutadi:

1. Tayyorgarlik.
2. O'yin o'y Nash.
3. Yakuniy.
4. Natijalarni tahlil qilish.

Tayyorgarlik bosqichida ham tashkiliy, ham o'yin mazmunini oldindan o'rjanish bilan bog'liq masalalar hal qilinadi.

#### Tashkiliy masalalar:

- rollarni taqsimlash;
- hakamlar hay'ati yoki ekspertlar guruhini tanlash;
- o'yin guruhlarini shakllantirish;
- mas'uliyat bilan tanishtirish.

#### Dastlabki savollar:

- mavzu, muammo bilan tanishish;
- ko'resatmalar, topshiriqlar bilan tanishish;
- materiallar to'plami; materialni tahlil qilish; xabarni tayyorlash;
- ko'rgazmali qurollar ishlab chiqarish;
- maslahatlashuvlar.

O'yin bosqichi muammoga qo'shilish, ya'ni guruhlar o'rtasidagi muammoli vaziyatdan xabardorlik bilan tavsiflanadi. Har bir guruh muammoni individual tushunishi, guruhda muhokama qilishi, o'z yondashuvlarini aniqlashi, qaror qabul qilishi, yechimini tayyorlash

kabilardan iborat bo`ladi. Yakuniy bosqichda muammoning yechimlari ishlab chiqiladi, ekspert guruhining hisoboti tinglanadi va eng muvaffaqiyatlari yechim tanlanadi. Rolli o`yin natijalarini tahlil qilishda ishtirokchilarning faollik darajasi, bilim va ko`nikmalar darajasi aniqlanadi, o`yinni yaxshilash bo`yicha tavsiyalar beriladi. Rolli o`yin doimo an'anaviylik va jiddiylikka ega bo`lishi kerak. Bundan tashqari, u improvizatsiya elementlarini nazarda tutadigan muayyan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Agar ushbu omillardan birortasi yetishmayotgan bo`lsa, o`yin muvaffaqiyatsiz tugaydi. Haddan tashqari tartibga solish va improvizatsiya yo`qligi darsni zerikarli qilishi mumkin.

### 3. Darsning xususiyatlari

An'anaviy darslarning kamchiliklari va ijobiy jihatlari ham mavjud.

**Ijobiy jihatlari:** yaxshi tashkil etilgan pedagogik jarayon; tizimli o`qitish; tinglovchilarga hissiy ta'sir; axborotning katta oqimi, texnik va vizual vositalarni joriy etish.

**Kamchiliklari:** vaqt chegarasi; ko`p sonli o`quvchilar bilan vazifalarni bajarishning murakkabligi; bolalarning kognitiv faolligini rivojlantirishga kam e'tibor berilishi va h.z.

**Zamonaviy umumiy talablarga ko`ra darsni o`tkazishda uchta jihat belgilanadi:**

- didaktik: darsning ahamiyatini aniqlashda aniqlik; dars mazmuni va unga o`quv rejasining nisbati; pedagogik jarayonning asoslarini hisobga olish;
- tegishli samarali usullarni tanlash;
- fanlararo aloqalar.

**Ta'lim va rivojlanish usullari:**

- o`quvchilarning xotirasini, e'tiborini, tafakkurini rivojlantirish, shaxsning axloqiy tushunchasini tarbiyalash;
- kognitiv qiziqishni rivojlantirish va singdirish;


- pedagogik taktning mavjudligi;
- bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- uni hal qilish yo'llarini topish uchun muammoli vaziyatni yaratish.

### Tashkiliy talablar:

- puxta o`ylangan dars rejasini tuzish;
- darsni tuzilishiga ko`ra o`tkazish;
- mehnat intizomi mavjudligi;
- turli o`quv vositalari va qo'shimcha vizualizatsiyani joriy etish;
- darsning dinamikligi;
- darsni mantiqiy yakunlash.

### Darsni loyihalashda qo'yiladigan talablar.

Darsni loyihalashda uni tashkil etish shartlari va qoidalariga, shuningdek, unga qo'yiladigan talablarga rioya qilish kerak. Darsni tashkil qilish shartlari deyilganda darsni normal tashkil qilish uchun kerak bo`ladigan shart-sharoitlar nazarda tutiladi (4-rasm).



4-rasm. Darsni tashkil qilish shartlari

Ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar guruhiga to'rtta eng muhim shartni kirish mumkin bo`ladi:

1. Malakali, ijodiy ishlaydigan o`qituvchi.
2. Qadriyat yo'naliishi yaxshi shakllangan o`quvchilar jamoasi.
3. Zarur o`quv qurollari.

4. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslangan ishonchli munosabatlar. Psixologik va didaktik shart-sharoitlar guruhiqa quyidagi shartlarni kiritish mumkin:

1. O'quvchilarning o'quv dasturi talablariga javob beradigan bilim darajasi.

2. Ta'lif va mehnat motivlarini shakllantirishning majburiy darajasining mavjudligi.

3. O'quv jarayonini tashkil etishning didaktik tamoyillari va qoidalariga rioya qilish.

4. O'qitishning innovatsion shakllari va o'qitish usullaridan foydalanish.

O'quv jarayoniga qo'yiladigan talablarning butun majmuasi, pirovardida, o'qitishning didaktik tamoyillariga rioya qilish bilan bog'liq:

- tarbiyalash va rivojlantirish;
- ilmiy;
- nazariyani amaliyot bilan, o'rganishni hayat bilan bog'lash;
- tizimlilik va izchillik;
- o'quvchilarning bilim olishdagi mustaqilligi va faolligi;
- bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish kuchi;
- mashg'ulotlarning maqsadliligi va motivatsiyasi;
- o'quvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuv va h.z.

**Dars quyidagi xususiyatlar mavjud. Didaktik maqsadlarga asoslanib, uy vazifasining uch turini ajratish mumkin:**

- yangi materialni idrok etishga, yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik;
- bilimlarni mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan;
- olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni talab qilish.

Uy vazifasini tashkil etish usuli mакtab va oila faoliyatidagi zaif nuqtalardan biridir. Ko'pincha uy vazifalari darsning mustaqil bosqichi

sifatida ajratilmaydi. Shu bilan birga, uy vazifalari, birinchi navbatda, o'quvchilarning mustaqil ravishda o'rganishlariga yordam beradi.

#### **Dars sifati quyidagi bilan tavsiflanadi:**

1. O'quvchilarning doimiy jamoasi.

2. O'qituvchining yetakchiligi. O'quvchilarning har birining individual xususiyatlarini hisobga olish.

3. Darada o'rganilgan asosiy materialni o'zlashtirish.

**Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablar.** Darsga qo'yiladigan zamonaviy talablar quyidagilardir:

1. **Didaktik.** Bunga quyidagilar kiradi:

- ◆ darsning boshqa darslar orasidagi o'rnni aniq belgilash;
- ◆ o'quvchilarning tayyorgarligini hisobga olgan holda dars namunining o'quv rejasiga muvofiqligi;
- ◆ yaxlit pedagogik jarayon tamoyillarini hisobga olgan holda tashkil qilish;
- ◆ o'qitish usullari va samaraliroq vositalar va usullarini tanlash;
- ◆ fanlararo aloqlarning mavjudligi.

#### **2. Tarbiyaviy va rivojlantiruvchi metodlar.**

◆ mакtab o'quvchilarining xotirasi, e'tibori va tafakkurini shakllantirish;

- ◆ o'quvchi shaxsning axloqiy fazilatlarini tarbiyalash;
- ◆ kognitiv qiziqish va motivlarni rivojlantirish;
- ◆ o'qituvchining pedagogik taktga, chidamlilik va sabr-toqatga rioya qilishi;
- ◆ ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ◆ muammoli vaziyatni yaratish.

#### **3. Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar.**

◆ pasta o'ylangan dars rejasiga ega bo'lish;

◆ darsning dars tuzilishiga muvofiq aniqligi;

- mehnat intizomini yaratish;
- o'quv qurollari va axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- darsning to'liqligi, uning moslashuvchanligi va harakatchanligi.

**Nostandard darslar va ularning xususiyatlari.** Nostandard dars noan'anaviy tuzilishga ega bo'lgan ekspront (tayyorgariksiz) dars. Pedagoglarning nostandard dars haqidagi fikrlari turlicha bo'lib ba'zilar nostandard darslarda pedagogik fikr taraqqiyoti va ta'limni demokratlashtirishni yo'lidagi qadamni ko'radi. Boshqa toifa pedagoglari esa pedagogik tamoyillarning xavfli buzilishi sifatida baholaydi.

#### **Nostandard dars turlari:**

1. "Immersions"
2. Biznes o'yinlari
3. Matbuot anjumanlari
4. Teatrlashtirilgan darslar
5. Ijodkorlik daslari
6. Auksion-darslar
7. Musobaqali darslar va h.z.

Darsning interfaol turi uch komponentdan -o'quvchining elektron darsligi, o'qituvchining elektron darsligi va interfaol doskadan foydalanishni nazarda tutadi. O'zaro aloqa tamoyili juda oddiy: elektron darslik talabaning planshetiga o'rnatiladi. Har bir o'quvchining plansheti, o'z navbatida, interfaol doska va o'qituvchi plansheti bilan yagona tarmoqqa ulanadi. Elektron darsliklarda o'rnatilgan ensiklopediyalarga giperhavolalar, illyustratsiyalar, darslikning turli bo'limlari orasidagi o'zaro bog'lanishlar mavjud. Bunday darslikda o'quvchilarning o'tilgan materialni yaxshi o'zlashtirishiga imkon beruvchi audio va video materiallar, grafiklardan foydalanish mumkin.

**Kognitiv qiziqish va kognitiv faoliytni oshirish usullariga ko'ra darslarni tasniflash:**

- amaliy dars;
- dars-seminar;
- dars-ma'ruza;
- dars-test;
- o'yin darsi;
- dars-konferensiya;
- ekskursiya darsi va h.z.

**Qo'llaniladigan ustuvor o'qitish uslubiga ko'ra darslarning tasnifi:** axborot darsi; muammoli dars; tadqiqot darsi; evristik dars.

**Darslarning fanlararo bog'lanish turlari bo'yicha tasnifi:** integratsiyalashgan dars; kutubxona darsi; media darsi.

Darsda bilimlarni shakllantirishning to'rtta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin. Dars bosqichlari o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham birdek faoliytni talab qiladi. Shu bilan birga, ilgari o'rganilgan material bo'yicha bilimlarni tekshirish va yangilash darsning mustaqil qismi sifatida unga nisbatan yangi materialni o'rganish jarayonida amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish lozim.

#### **Nazorat uchun savollari:**

1. Darsning tarkibiy qismlari qanday tuzilgan?
2. Darsning fanlararo aloqadorligi
3. A'nnaviy darslarning yutuqlari va kamchiliklari nimalardan iborat?
4. Mustahkamlash darsi qanday aamalaga oshiriladi?
5. Teatrlashgan darsning tarkibiy qismlari qanday?
6. Nostandard darslarning yutuqlari va kamchiliklarini sanang?
7. Darsni rivojlantiruvchi didaktik asoslar nimalardan iborat?
8. Darsga tayyorgarlik bosqichiga o'qituvchiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?

## 5-MAVZU: TARBIYA FANINI O'QITISH METODLARI VA KLASSIFIKATSIYASI

Reja:

1. Uslub va uslubiyot tushunchalari tasnifi
2. Tarbiya darslarining maxsus shakllari
3. Tarbiya darslarida interfaol usullar

**Tayanch so'z va iboralar:** o'qitish metodikasi, tarbiya metodlari, interfaol usullar, fikriy hujum, klaster metodi, qarorlar shajarası, yalpi fikriy hujum, qora quti metodi, keys stade

### 1. Uslub va uslubiyot tushunchalari tasnifi

Pedagogikada didaktikaning yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi asosi sifatida muallimlar kamroq gapirib, o'quvchilar esa ko'proq bilib oladigan usulni yaratish, kashf qilish hisoblanadi. Pedagog qaysi fandan dars o'tmasin uning oldida doimo "*qanday o'qitish kerak*" degan savol ko'ndalang bo'lib turadi. Bu masalaning yechimi bevosita pedagogning mahoratiga bog'liq. Ta'lim jarayonida metod, usul va texnologiyalarning xilma-xil shakllari mavjud. Ammo qanday o'qitish asosida, yoki qaysi metod, usul va pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish mumkin?

O'qitish metodikasi – bu ta'lim va tarbiya maqsadlarini amalga oshiradigan didaktik uslublari va vositalarning tartibli majmuidir

O'qitish usullari o'qituvchi va talabalarining maqsadli faoliyatining o'zaro bog'liq usullaridir. O'qitish usullari deyilganda didaktik maqsadni aniqlashga qaratilgan o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtaсидаги о'заро

manosabatlarning ketma-ketligi tushuniladi. Har qanday o'qitish usuli ma'lum bir maqsadni, sezilarli natijani nazarda tutadi. O'qitish metodining obyekti va subyekti o'quvchi hisoblanadi. Ko'pchilik pedagoglar fikricha har qanday o'qitish usuli sof shaklda qo'llanishi kam uchraydi. Dars jarayonida o'qituvchi turli xil o'qitish usullarini tanlaydi. Sof shakldagi usullar faqat ~~maqslub~~ rejalashtirilgan o'quv yoki tadqiqot maqsadlarida qo'llaniladi. Tarbiya metodlari tarixiy kategoriya bo'lib, pedagogikaning butun tarixi davomida o'qitish usullari muammosi turli nuqtai nazardan hal qilingan. Hugungi kunda ta'lim metodlarining zamonaviy nazariyasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Hozirgi zamonaviy ta'limni tashkil qilishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmasdan o'quv jarayonida yuqori natijaga erishishdir. Umumta'lim muktablarida qisqa vaqt ichida (45 daqiqa) muayyan bilimlarni o'quvchilarga yetqazib berish, ularda muayyan faoliyat yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, o'quvchilar bilimlarini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni tash qiladi. Gumanitar fanlarni o'qitishning global vazifalari kognitiv faoliyk va kognitivlikni shakllantirishdir.

Ta'lim sohasiga kun sayin yangi innovatsiya va interfaol usullar kirib kelmoqda, ammo shu bilan birga o'qitishning, tarbiyalashning ming yillar davomida to'plangan ijobiy tajribalarini ham unutmaslik maqsadga muvoziqdir. Metodik uslublarning xilma-xilligi va ularning birga kelishi tanlov borasida o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Ta'limda pedagoglarni ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Sinf jamoasi, o'quvchi individual xususiyatlari, ularning hayfiylariga qarab metodikasini tezlik bilan o'zgartira oladigan ijodkor pedagog.

2. Doimiy ravishda bir xil usulda dars o'tishni ma'qul ko'radigan ijodiylik qobiliyatiga ega bo'lмаган педагог.

Tarbiya fani o'sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy, diniy, huquqiy, estetik, iqtisodiy, falsafiy tarbiyalashni nazarda tutar ekan, fanni o'qitish o'ziga xos metodlarga asoslanishi bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda "metod", "metodika", "metadologiya" tushunchalari mazmunini tahlil qilish lozim. **"Metod"** (yunoncha "metodos"-bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lilot) -voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodni egallagan kishishu ishni boshqalarga nisbatan oson tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan kishi bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatdan amaliy va nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikga xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'lilot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarни kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llanadigan yo'l-yo'riqlar, metodlar ham takomillashib borgan<sup>54</sup>.

Metadologiya- tadqiqotchining nazariy va amliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'lilot. Metodlar haqidagi ta'lilot yoki yalpi -umumiyl bilish metodi deb ham ta'riflanadi. Metadologiya metodlarga va umuman voqelikga qanday yondashish yo'lini o'rgatadi.<sup>55</sup>

**Pedagogikada metodika** tarbiyalashning qulay, oson va maqbul usullariga tayanishni nazarda tutadi. "Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagilarga e'tibor berish dars samaradorligini ta'minlaydi:

"Tarbiya" fanini o'qitish metodlari o'ziga xos bo'lib, bu metodlarning asosiyları quyidagilardan iborat: namuna ko'rsatish; ibrat bo'lish; yo'naltirish; tashabbuskorlikka o'rgatish va h.z. Mazkur metodlar asosida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va ko'nikmasi rivojlantiriladi.

Tarbiya fanini o'qitish texnologiyalari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bunda texnologiyalarni tanlashda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olish zaruriyatdir. Shu sababli quyidagi texnologiyalar tavsiya etiladi:

-pedagogik texnologiyalar (noan'anaviy va an'anaviy shakllarda uyg'un o'qita olish usullariga tayanish);

-axborot-kommunikatsion texnologiyalari (kompyuterli texnologiya, multimediali texnologiya, animatsion vositalar).

Ushbu texnologiyalar asosida Tarbiya fanini o'qitish kutilgan samarani beradi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar olyi pedagogik ta'lim jarayonida mazkur fanni o'qitishning tamoyillari, metodlari va texnologiyalarini chuqr o'dashtirishi lozim.

Har bir o'qituvchi dars o'tishda yangi usullarni kashf qilishi va ta'lim-tarbiyada yaxshiroq samaraga erishish yo'llarini yaratishi mumkin. Hozirgi kunda pedagogikada ijodkorlik va yangi yondashuvlar qo'llab- quvvatlanadi. Ushbu vazifalarni bajarishda noan'anaviy va interfaol usullar qo'l kelmoqda. O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida didaktik tamoyillardan kelib chiqadigan asosiy qoidalar bilan bir qatorda o'quv jarayoni mantig'i, o'qitish tamoyillari va o'qitish qonuniyatları asosida darsni tashkil etishning maxsus shakllariga amal qiladi.

<sup>54</sup> Узбекистон Миллӣ энциклопедияси. "Узбекистон милий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти Т. -Б. 461.

<sup>55</sup> O'sha manba.

## 2. Tarbiya darslarining maxsus shakllari

"Tarbiya" fanining tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari o'qituvchi tomonidan tanlangan o'qitish usullari orqali amalga oshiriladi. Dars ta'limgarayonining bir qismi bo'lib, mexanik jihatdan shartli va yopiq emas. O'quv jarayonining elementi sifatida dars o'zining barcha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak dars - o'quv jarayonining tashkiliy birligi bo'lib uning vazifasi o'rGANISHNING to'liq ammo qisman maqsadiga erishishdir. Har bir dars o'quv jarayoni mazmuni sifatida ta'limgarayonining elementi bo'lib, dars turi o'quv sifati va o'quvchilar rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Dars turini tanlashda o'qituvchi birinchi navbatda o'rGANILADIGAN o'quv materiali mazmunining xususiyatlariga, uning hajmiga va o'quvchilarning yoshiga e'tibor qaratadi. Agar berilgan o'quv materiali o'quv rejasida juda muhim bo'lsa, o'qituvchi o'quv jarayonidagi to'liq bo'limgan bog'lanishlar to'plami yoki yangi materialni taqdim etish darsi bilan birlashtirilgan dars turini tanlaydi. Yangi materialni o'rGANISH darsi ko'pincha o'qituvchining taqdimoti, suhbati va o'quvchilarning matnli yoki vizual ma'lumot manbalari bilan mustaqil ishi kombinatsiyasiga asoslanadi. U o'quvchilarning turli ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning reproduktiv va ijodiy darajada faolligini oshirishga qaratilgan turli xil uslubiy usullar bilan tavsiflandi. Har bir darsda o'qituvchi o'quvchilarni qo'shimcha manbalar va kitob bilan ishlashga jaib qilishi muhim. Buning uchun o'qituvchi har bir mavzuga oid o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarga mos adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishi, o'quvchining darsga qanday tayyorgarlik ko'rishi, nimalarga e'tibor berishi, qanday savollar haqida o'yash kerakligini ko'rsatadigan maxsus mashqlarni o'rnatish bilan tavsiflandi. Uyda darslikdagi yangi material bilan oldindan tanishish mavzu materialini o'zlashtirish va o'quvchilarning turli ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada darslikdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni muhokama qilish o'qituvchi uchun osonlashadi hamda o'quvchilarni qiyagan qiyin savollarga aniqlik kiritiladi.

**Umumlashtirish darslari.** Umumlashtirish darslarining o'rgatishdagi roli katta. Bu darslar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilim va ko'nikma sifatini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Yuqori sinflarda "**Tarbiya**" fanini o'qitishda mavzuni oshib berish ko'p vaqtini talab qiladi. Bu esa o'z navbatida darsni birlashtirilgan dars doirasida amalga oshirilmaslikni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilarni ta'limgarayonining oqilona usullari bilan qurollantiradi va ularni yanada yuqori darajadagi qiyinchilikda qo'llash uchun sharot yaratadi. O'qituvchi asosan boshqaruv vazifasini bajaradi, o'quvchilar mehnatini samarali tashkil qilish dars turi va shaklining mavzuga mos ravishda to'g'ri tanlanishi bilan bog'liq.

**O'quvchining uyga vazifasi-** o'quvchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan, sind faoliyati va uning mazmuni bilan bog'liq faoliyat. Uyga vazifa - dars jadvali bo'yicha darslarni tugatgandan so'ng o'qituvchi tomonidan berilgan muayyan topshiriqlarga o'quvchilarni mustaqil ravishda tayyorlash. **Yan Amos Komenskiy** uy vazifasini keraksiz deb hisoblagan va hamma narsa darsda bajarilishi kerak fikrni bildiradi. Bugungi kunda uy vazifasi zarur deb hisoblanishi bilan birga, tarbiyaviy vazifani bajarishi, ya'ni, o'quvchilarda ma'suliyat, intizom, mustaqillik, aniqlikni rivojlantirishga yordam beradi, o'z-o'zini tarbiyalash usullarini o'rgatadi.

O'quv rejasidagi uy vazifasini yaxshiroq o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ijodiy faoliyat usullarini qo'llash imkonini beradi. O'quvchilar uyga vazifalarni vaqtida bajarishi uchun o'qituvchi quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

- har bir darsda uyga vazifalarning bajarilishi tekshirilishi kerak;
- uyga vazifaning ongli, aniq ravishda bajarilishi nazorat qilinishi lozim;
- uyga vazifa o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi va tushunarli bo'limgan jihatlari bo'yicha fan o'qituvchisi ko'rsatmalar berishi zarur;

- uyga vazifa o'quvchilarni keyingi vazifani bajarishga rag'batlantirishi lozim. Shu sababli uyga vazifa tabaqlashtirilgan, individual va ijodiy bajarish imkoniyatini ta'minlashi kerak.

Uyga vazifaning turlari xilma-xil bo'lib o'quv va boshqa yordamchi adabiy manbalardan foydalangan holda sinfda o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan yozma va og'zaki yozma mashqlarni bajarish, insho yozish va boshqalar. Uy vazifasi katta tarbiyaviy ahamiyatga bo'lib, berilgan vazifa uchun ma'suliyat hissini shakllantiradi.

**Ekskursiya**- bu o'quv mashulotlarini tashkil etish shakli bo'lib, unda o'quvchilar o'qituvchining bevosita rahbarligi ostida yoki mustaqil ravishda, lekin uning nazorati ostida o'rghanilayotgan dastur bilan chambarchas bog'liq holda atrofdagi vogelikni kuzatishi va o'rghanishi hisoblanadi.

Ta'larning mazkur shakli o'quvchilarning yuqori darajadagi mustaqilligi, o'rghanishdagi obyektivlik, ta'larning hayot bilan bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Ekskursiyalarda muktab o'quvchilari o'qituvchi yoki mutaxassis (misol uchun muzey gidi) rahbarligida dalillar, hodisalarni ularning o'zaro bog'liqligini maqsadli kuzatish va tahlil qilishni, ularni taqqoslashni, umumlashtirishni hamda xulosalar chiqarishni o'rghanadilar. Ekskursiyalar ko'p jihatdan o'quvchilarning kognitiv qiziqishlari, estetik fazilatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

#### **Ekskursiyalar o'tkaziladigan joylar:**

- tabiatga;
- muzey, ko'rgazma, galeriyalarga;
- tarixiy joylarga;
- ishlab chiqarish: sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, transport va aloqalari va h.z.

Ekskursiya samarali o'tishi uchun o'qituvchi puxta rejalashtirishi, jumladan, obyektni tanlashi, ekskursiyaga oid materiallarni diqqat bilan

o'rghanishi, maqsadlarni belgilashi va batafsil reja tuzib, ekskursiya davomida aniqlanishi lozim bo'lgan savollarni belgilashi lozim bo'ladi.

Uyga vazifa turlari xilma-xil bo'lib, ulardan asosiyлари: o'quv va boshqa yordamchi adabiy manbalardan foydalangan holda sinfda tushuntirilgan materialni yodlash, yozma va og'zaki mashqlarni bajarish kabilar kiradi.

O'quvchining individual ta'limi butun sinf yoki uchun bir xil bo'lgan vazifalarni mustaqil ravishda bajarish hisoblanadi.

Zamonaviy umumta'lim amaliyotida ko'pincha ikkita umumi yashkiliy shakl qo'llaniladi: frontal va individual. Amalda kamdan-kam hollarda mashg'ulotlarning guruhi va juftlashgan shakllari qo'llaniladi<sup>56</sup>.

Jamoaviy ta'limning faol tarafdori **V.K.Dyachenko** ta'kidlaydi, darsning jamoaviy shaklida o'quvchilar boshqaruvda ishtirok etmaydilar, chunki, jarayonni faqat o'qituvchi boshqaradi. Jamoaviy ta'limda jamoa o'zining har bir a'zosini o'rgatadi va tarbiyalaydi. Jamoaviy ta'lim usuli dastlab XX asrning 70-80 yillarda qo'llanilgan.

Ta'lim jarayonining yaxlitligi nuqtai nazaridan o'rghanishning asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Unda-sinf o'qitish tizimining afzallikkari o'z aksini topgan bo'lib, u o'quvchilarni ommaviy ravishda qamrab olgan holda o'quv-tarbiya ishlarini tashkiliy ravshanligi va uzlusizligini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, individual mashg'ulotlar bilan solishtirganda, tejamkor hisoblanadi. **Dars** - o'rghanilayotgan materialni o'zlashtirish maqsadida ta'limni tashkil etish shaklidir. Bu shakl ta'limning sinf-dars tizimida qo'llaniladi va nisbatan doimiy ta'lim jamoasi bo'lgan sinf uchun amalga oshiriladi. Ushbu shaklda mashg'ulotlar umumi yashkiliy ta'limning ta'lim dasturlarini ta'limning sinf-dars tizimida amalga oshiradigan aksariyat ta'lim muassasalarida o'tkaziladi. Dars-ta'limning shunday tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt davomida doimiy o'quvchilar guruhining jamoaviy kognitiv va boshqa faoliyatini, ularning har birining

<sup>56</sup> Йонғарлова М.Д., Первий И.Б. Мактаб ўкувчиларининг колектив когнитив фаолияти ва таълими. - М., 1977 йил.

xususiyatlarini hisobga olgan holda, vositalardan foydalangan holda boshqaradi. Darsning boshqa ta'limiy shakllaridan ajralib turadigan o`ziga xos xususiyati: doimiy o`quvchilar jamoasi, ularning har birining xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Dars o`rganishning tashkiliy shakli sifatida dinamik hodisadir. U doimiy ravishda rivojlanib boradi, pedagogik jarayon rivojlanishining asosiy tendensiyalarini uning yaxlitligi yo`nalishidagi aks ettiradi. Birinchi navbatda, ta'limning uchlik-ta'limiy-tarbiyaviy-rivojlantiruvchi vazifalarini maqbul tarzda amalga oshirishda, binobarin, o`quvchilarning muhim kuchlari va tabiiy moyilliklari ijodiy rivojlantirishga darsni rivojlantirishning yana bir tendensiyasi darsni hayotiy mazmun bilan to`ldirishda, o`quv jarayonini o`quvchilar hayotining tabiiy tarkibiy qismi sifatida tashkil etishda namoyon bo`ladi. Dars nafaqat bilishning maxsus shakli balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan qimmatli muloqatga ham aylanib bormoqda. U o`rganishda faol-ijobiy munosabatni shakllantirish va kognitiv qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan ta`lim faoliyati uchun o`ziga xos kommunikativ asosni ta'minlash vositasi sifatida ishlaydi. Darslarning umumiy tashkiliy qurilishi tendensiyalarini ularning tuzilishini o`zgartirish, turlarining o`zgarishi va o`qitishning boshqa tashkiliy shakllari bilan uyg`unligida namoyon bo`ladi: uy vazifalarini tekshirish va og`zaki so`rovlar uchun vaqtini maksimal darajada qisqartirishda, asosiy didaktik vazifalarni o`quvchilarning mustaqil ishi bilan birlashtirish orqali hal qilish uchun darsning ushbu bosqichlaridan foydalaniлади. Darsni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini tashkiliy va sof didaktik talablarda aniq namoyon bo`ladi. Ta`limning asosiy tashkiliy shakli sifatida dars boshqa shakllar bilan uzviy ravishda to`ldiriladi, ularning ba`zilari sinf-dars tizimi doirasida u bilan parallel ravishda ishlab chiqilgan.

**Konsultatsiya**- o`quvchilarga individual yondashish asosida qurilgan va ayrim o`quvchilarga oldindan o`rganilgan, ammo ba`zi sabablarga ko`ra o`sha paytda yetarlicha tushunilmagan va o`zlashtirilmagan materiallarni yaxshiroq

tushunish va o`zlashtirishga yordam berishga qaratilgan yordamchi mashg`ulotlarning maxsus turi. Konsultatsiyalari kerak bo`lganda vaqt-i-vaqti bilan o`tkaziladi. Maktab konsultatsiyalari odatda guruh konsultatsilari hisoblanadi. **Olimpiada-bu** ma'lum bir o`quv fanida ijodiy xarakterdagi o`quv vazifalarini bajarishda o`quvchilarning do`stona musobaqasi.

### 3. Tarbiya darslarida interfaol usullar

**"Aqliy hujum"** - biror muammo bo`yicha ta`lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan interfaol metod. Bu metodning yozma va ozaki shakllari mavjud. Og`zaki shaklda fikr va mulohazalar og`zaki ravishda aniq, qisqa-lo`nda bayon qilinadi. Yozma shaklida esa o`quvchilar o`z javoblarini qog`oz kartochkalarga tushunarli va ko`rinarli tarzda yozadilar. Ushbu metodni **"Tarbiya"** fanida qo`llashning ijobiy tomoni shundaki, o`quvchilarni erkin, ijodiy va nostandard fikrlashga o`rgatadi. Eng muhimi dars jarayonida ta`lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati yuzaga keladi. O`quvchilarda o`zaro muloqat va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. **"Aqliy hujum"** metodining boshqa metodlardan farqli jihat, bildirilgan fikrlarning baholanmasligi va buning natijasi o`laroq erkin fikr yuritish imkoniyatining mavjudligi bolalarda turli g`oyalarning shakllanishiga olib keladi. Bu metod ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. **"Aqliy hujum"** metodi ta`lim beruvchi tomonidan qo`yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta`lim oluvchilarning fanga oid boshlang`ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo`yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog`lash maqsad qilib qo`yilganda yangi mavzuga o`tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganida darsni mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

**"Aqliy hujum" metodini qo'llash jarayonidagi asosiy qonun-qoidalar:**

1. Bildirilgan har qanday fikr va mulohazalar hatto to'g'ri bo'lmasayam inobatga olinadi.

2. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

**"Aqliy hujum" metodining ijobiy jihatlari:**

◆ natijalarning baholanmasligi o'quvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

◆ ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;

◆ fikr-g'oyalalar vizuallashtirilib boriladi;

◆ ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyatining mavjudligi;

◆ ta'lim oluvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

**"Aqliy hujum" metodining kamchiliklari:**

- таълим beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;  
- o'qituvchi-pedagogdan yuqori darajada diqqat va eshitish qobiliyatining talab qilinishi.

**"Fikriy hujum" metodi** - o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod qilish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

**Fikriy hujum metodining asosiy shartlari:**

- har bir ishtirokchi tomonidan o'rtaqa tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash, har qanday luqma va hazil rag'batlantiriladi.

Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlash ko'zda tutiladi;

- ushbu metodddan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan keng tafakkur va pedagogik mahoratni talab qiladi.

"Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 10-15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

**Klaster metodi.** Klaster so'zi "*g'uncha*", "*bog'lam*" kabi ma'nolarni bildiradi. Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarda ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsliy fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi.Ushbu metod turli g'oyalalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab qiladi.

**"Qarorlar shajarasi" metodi** - muayyan fan asoslari borasidagi bir qator murakkab mavzularni o'zlashtirib, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondashuvdir. Shuningdek, mazkur metod avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror, xulosalar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o'quvchilari ishtirokida qo'llanadigan "Qarorlar shajarasi" bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilishda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi.

**MUAMMO: 1-G'OYA+2-G'OYA+3-G'OYA = QAROR**

**"Qarorlar shajarasi" metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:**

O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavnuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan

xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlarga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayn vaqt belgilanadi. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarning har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batatsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzal va afzal bo'limgan jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosalarini bir-birini qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan mulohazalar yuzasidan savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agar barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi. Mazkur metodning o'ziga xos jihat shundaki, ma'lum loyiha asosida qo'llaniladi. Loyiha quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval**

Nº	Umumiyl muammo:	Afzalligi	Kamchiligi	Qaror
1	1-qaror varianti			
2	2-qaror varianti			
3	3-qaror varianti			

**"Kichik guruhlarda ishlash metodi"** ta'limga oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Mazkur metod qo'llanilganda ta'limga oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda

faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga turli nuqtai-nazarlarni qadrash imkoniga ega bo'ladi. Boshqa interfaol metodlarga nisbatan bu metoddan o'qituvchi vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Sababi ta'limga beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'limga oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

**"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. Faoliyat yo'naliishi aniqlanadi.
2. O'quvchilar 3-6 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi. Guruhlar raqamlanadi yoki o'quvchilar o'zlariga nom tanlashadi.
3. O'qituvchi tomonidan topshiriq beriladi. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar (2-jadvalga qarang).

**2-jadval**

Nº	Guruhlar	Muhokama va tahsil	Baholash	Yakuniy xulosa
1.	1-guruhga topshiriq	1-guruh taqdimoti		
2.	2-guruhga topshiriq	2-guruh taqdimoti		
3.	3-guruhga topshiriq	3-guruh taqdimoti		
4.	4-guruhga topshiriq	4-guruh taqdimoti		

**"Kichik guruhda ishlash"ning afzalliliklari:**

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtini tejash imkoniyati mavjud;
- barcha o'quvchilar jalb etiladi;

- o'z-o'zini va guruuhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

**"Kichik guruhda ishlash"ning kamchiliklari:**

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruuhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.

**"Davra suhbati" metodi** – aylana stol atrofda berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir. Metod qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan "ko'z aloqasi"ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbating og'zaki va yozma shakllari mavjud. Og'zaki davra suhbatida o'qituvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadi. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi. Agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'linganidan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi<sup>57</sup>.

**"Yalpi fikriy hujum"** metodi – o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijobjiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobjiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan vazifaning yechimi o'qituvchi va boshqa guruh a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot

<sup>57</sup> Толитова Ж., Тўраев А. Педагогик квалиметрия. Тошкент давлат педагогика университети ҳузуридаги педагогик кадрларни кайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармок маркази. Ўқув-услубий мажмуя. Тошкент 2016. 152 б.

yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklri darajasiga ko'ra baholab beriladi.

**6x6x6 metodi** - bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Ushbu metod asosida tashkil etiladigan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan guruhlar o'qituvchi tomonidan berilgan muammoni belgilangan vaqt davomida muhokama qilishadi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan nulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qildilar.

**6x6x6 metodi ning afzallik jihatlari quyidagilardir:**

- guruhlarning har bir a'zosining faol bo'lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruh boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgarli surilayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Bing muhimmi, mashg'ulot ishtirokchilarining har bir qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham tinglovchi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi. Ushbu metodni 5, 6, va 7 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda qo'llash mumkin. Faqat stollar soni 6 ta bo'lishi lozim. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadi. O'quvchilarni guruhlaga bo'lishda har o'rindiqni nomlab, nomlangan varaqchalarni olganlar

o'z o'rinaliga joylashadilar. O'quvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi va guruhlarga muayyan topshiriqlarni beradi. Ma'lum vaqt belgilanib, munozara jarayoni tashkil etiladi. O'qituvchi guruhlarning faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinalarda guruh a'zolariga maslahatlar beradi va yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlarning to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashlarini so'raydi. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi guruhlarni qaytadan shakllantiradi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamaodoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

**"Qora quti" metodi** - o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faoliycca undash, ularda hamkorlikda ishslash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**"Qora quti" metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:**

- o'quvchilar juftlikga biriktiriladi;
- juftliklarga mavzu mohitini yorituvchi asosiy tushunchalar: tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlarni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi;
- o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradilar;
- topshiriqni to'g'ri bajargan guruhning har bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi.

• sinf o'quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar. Jumladan, tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlarning qanday ma'noni anglatishini aytadilar.

• to'g'ri javob bergen o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

**"Venn diagrammasi" strategiyasi** - o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahilliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiradi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasini o'zaro teng bo'lakga ajratiladi va har bir bo'lakga sxema chiziladi. Ushbu metoddha o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilimlar, ma'lumotlar yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Ushbu metodni muayyan bo'lim yoki boblar tugallanganda takrorlash darslarida foydalanish samaralidir. Venn diagrammasi bir-birini kesadigan ikki yoki undan ko'p doiralarda ko'riladi, ular o'rtasida yozish uchun yetarli joy qolishi kerak. Diagrammada g'oyalarni zidlash uchun ishlatilishi yoki ularning umumiyligini surʼusiyatlarini ko'rsatishi kerak.

**Metodni qo'llash bosqichlari quyidagilardan iborat:**

- sinf o'quvchilari 4 guruhga bo'linadi;
- Venn diagrammasi tasviri tushirilgan blankalar guruhlarga tarqatish yoki yozuv taxtasiga bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi;
- har bir guruhga o'zlashtirilayotgan mavzu yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi;
- topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi;
- liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarini umumlashtirib, yozuv taxtasida aks diagrammani to'ldiradilar.

**"Insert" metodi** - yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egalikdarni aniqlash va ularda muayyan tushunchalarga

egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko`nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodni qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhlar o`zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so`raladi;
- o`quvchilar navbatma-navbat mulohazalarini bayon etadilar;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so`ngra o`qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;
- guruhlar matn mazmuni bilan tanishib, matn va o`zlari bildirilgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydi;
- guruh a`zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;
- har bir guruh a`zolari orasidan liderlar belgilanadi;
- liderlar sinf jamoasini guruh natijalarini bilan tanishtiradilar;
- guruhlar tomonidan bildirilgan yondashuvlar umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

**B-B-B (bilaman - bilishni hohlayman - bilib oldim) metodi** - Ushbu metodni har bir mavzu bo'yicha qo'llash mumkin. Dastlab o`qituvchi mavzuni tushuntirishdan oldin o`quvchilarning ushbu mavzu yuzasidan qanday bilim va tasavvurlarga ega ekanligini bilish maqsadida o`quvchilarga savollar bilan murojat qiladi. Bu metodni qo'llash jarayonida o`quvchilarning barchasini jalb qilish uchun metoddan jadval asosida foydalanilsa bo'ladi.(3-jadvalga qarang)

### 3-jadval

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim


**Keys - stadi metodi.** Keys so`zi inglizcha inglizcha "case" so`zidan olingan bo'lib, har qanday sohadagi aniq vaziyat yoki holatning tavsifi: ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va hokzo. Qoida tariqasida ish nafaqat tavsifni, balki ma'lum bir muammo yoki ziddiyatni ham o`z ichiga oladi va asoslanadi. Mazkur metoddan taklif qilingan vaziyat tahlil qilinib maqbul (optimal) yechim taklif qilinadi. Biz ushbu metodni har qanday sohada qo'llash mumkin degan edik. Jumladan, shifokor har safar bemorga tashxis qo'yib, davolanishni buyurganida muaommolarni hal qiladi. Shifokor har safar bemorga tashxis qo'yib, davolanishni buyurganida kasallikni qanday yo'l bilan davolashni o'yaydi. Advokat ishning o`zgarishlarini tushunish va mijozga eng yaxshi yo'lini taldif qilish orqali ishni hal qiladi. Iqtisodchi biznes jarayonida vaziyatdan ketib chiqib qanday mahsulotni ishga tushirish, qayerda sotish, mijozlarni qanday jalb qilish, yetkazib beruvchilarni, hamkorlarni qanday tanlash kerakligini qaysi yetkazib beruvchilar va hamkorlarni tanlash kerak bo'ladi. Keys stadi metodi nazariy va amaliy masalalarni yechishda qo'llash imkonini beradi. Mazkur metod o`quvchilarning yuqori emotsional ishtirokinini ta'minlashi natijasida mavzu materialini samarali o`zlashtirishni ta'minlaydi. Ishtirokchilar vaziyatga boshlari bilan sho'ng'ishadi. Eng muhim xususiyati o`quvchilar jamoa sha'ni uchun birdam harakat qiladilar. Asosiy e'tibor tayyor bilimlarni o`zlashtirishga emas, balki uni rivojlantirishga qaratiladi. Vaziyatlarni muhokama qilish ta'lim oluvchilar tafakkurini rivojlantirishga siemat qiladi. Hayotiy vaziyatlarni birgalikda tahlil qilish universal o`rganish usulidir. Bu usulning samaradorligini antik davrda ham ko'rish mumkin. Jumladan, Spartalik yoshlari jangdan so'ng jang maydonidagi vaziyatlarini muhokama qilishgan. Turli masalalarni shogirdlari bilan muhokama qilish yuqori mutafakkiri Suqrotning sevimli mashg'uloti bo'lgan. Keys usulining

zamonaviy tarzda kirib kelishi XIX asr 70-yillarda Garvard yuridik maktabida paydo bo'lgan va 1920 yillardan boshlab biznes ta'limdi o'rnatilgan. Keys metodida vaziyatni yechimini hal qilish bir necha bosqichlardan iborat:

- taklif qilinayotgan vaziyat (masala)ni o'rganish;;
- yetishmayotgan ma'lumotlarni to'plash;
- muammoning mumkun bo'lgan yechimlarini muhokama qilish;
- vaziyatning eng maqbul yechini ishlab chiqish.

#### **Keys stadi texnologiyasini amalga oshirish texnologiyalari**

<b>Amalga oshirish bosqichlari</b>	<b>Tavsiyalar</b>
Keys bilan tanishish - 3 daqiqa	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing.</li> <li>- Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating.</li> <li>- Muammoli vaziyat qanday masalani hal qilishga qaratilganligiga e'tibor bering</li> </ul>

Keys stadi texnologiyasidan foydalanish hozirda eng samarali texnologiyalardan biriga aylandi. O'quvchilarni keys texnologiya bilan ijodiy ishlarga jalg qilish bir qator shartlarga rioya qilishni talab qiladi. Jumladan o'qituvchining tizimli yordami zarur bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, vaziyatni tahlil qilish usuli yordamida bir nechta maqsad ko'zlanadi:

- tahlil qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- nazariya va amaliyotning uyg'unligi;
- boshqaruv qarorlari misollarini taqdm etish;
- qarolarning oqibatlariga misollar keltirish;
- turli yondashuv va qarashlarni namoyish etish;
- noaniqlik sharoitida muqobil variantlarni shakllantirish<sup>58</sup>.

<sup>58</sup>Музарифарова, Л.Н. Инновацион технологиялар ва интэрактив усуллар: университетларда улардан фойдаланиш турлари ва усуллари / Л.Н.Музарифарова. - Мати: тўридан-тўрги // Ёш олим. - 2010. - № 4 (15). - С. 361-364.

Ta'limming passiv usullariga o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot bir tomonlama bo'lib qoladi. Ta'limming bu usullarida o'qituvchi markaziy o'rinda turadi va asosiy tashkiotchi vazifasini bajaradi. Oldindan tayyorlangan reja asosida vazifalarni o'quvchilarga bo'lib beradi. Ta'limming bu usulida guruhning hamma o'quvchilari faol ishtirok eta olmaydilar, o'zaro muloqot qila olmaydilar. Ta'limming faol usullarida o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qolmaydi. O'quvchilar o'qituvchiga savollar beradi va aksineha o'qituvchi ham o'quvchilarga savol va topshiriqlar beradi. Bu usulda o'quvchilar o'zlarining fikrlarini erkin bayon eta oladilar. Ta'lim jarayoni o'qituvchi tomonidan to'liq rejalashtirilmaydi. Ta'luming faol usulida o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot ikki tomonlama bo'ladi. Ta'luming interfaol usulida o'zaro muloqotlar quydagicha bo'ladi: o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilar, o'quvchi-kompyuter. Ta'luming mazkur usulida o'quvchilar markaziy o'rinni egallaydi, ya'ni asosiy figuraga aylanadilar. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi. O'qituvchi esa o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarni tayyorlab keladi, vaqtini nazorat qiladi, konsultatsiya beradi, qiyin vaziyatlarda yordam beradi. Mazkur usuldan foydalanilganda dars davomida hamma o'quvchilar faol ishtirokchiga aylanadi. O'quvchilar bir-birlari bilan o'zaro fikr almashadilar. Yangi mavzuni o'zlashtirishda o'quvchilarning har biri o'yi hissasini qo'shadi. Bu usulda guruhdagagi barcha o'quvchilar, hatto sust o'lashtiruvchilar ham o'zaro muloqotga kirishib, dars ishtirokchisiga aylanadilar. Ta'luming bu usulida o'quvchilar yangi bilim orini tinglash, har qili fikrlarni baholash, fikr bildirish, bir-birini fikr-mulohazalarini tinglash, munosabatini bildirish, muloqotda ishtirok etish, birgalikda jamoa bo'lib ishlash, masalaga yechim topish asosida ularda jamoaviy ishlash va do'stlik munosabatlarini shakllantiradi. Interfaol usullar ta'lim bilan birga o'quvchilarni tarbilashda ham katta yordam beradi. Interfaol usullar o'quvchilar guruhda ishlashga o'rgatadi, o'ziga ishonch hamda qat'iylik

hissini shakllantiradi. Interfaol so`zi inglizcha, "inter" - o`zaro, act – muloqot ma'nosini bildiradi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Metod va metodika tushunchlarining mazmunini izohlang?
2. Aqliy hujum metodining ijobiy va salbiy tomonlari nimada?
3. Qora quti metodi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?
4. 6x6x6x metodining dars sisfatini ta'minlashdagi imkoniyatlari qay darajada?
5. Keys texnologiyasining o'quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi imkoniyatlari?
6. Interfaol usullar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?

**6 MAVZU: TARBIYA FANI O`QITUVCHISIGA QO`YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

**Reja:**

1. Pedagog kasbining xususiyatlari, uning umumiyligi va kasbiy madaniyati. O`qituvchining kompetentligi
2. Tarbiya fani o`qituvchisining pedagogik mahorati
3. O`qituvchining pedagogik texnikasi

**Tayanch so`z va iboralar:** tarbiya, o`qitish qonuniyatları, kasbiy sifatlar, insoniy sifatlar, ahloq kategoriyasi, o`qituvchilik kasbi professiogrammasi, ta'lim-tarbiya sifati, omillar, pedagogik vazifalar, uslubiy mahorat, burch, mas'uliyat, ijodkorlik, pedagogik san'at, pedagogik texnika, ichki texnika, tashqi texnika, verbal va noverbal, kommunikativ harakatlar, muloqot modellari, psixonomiya

**I. Pedagog kasbining xususiyatlari, uning umumiyligi va kasbiy madaniyati.**

**O`qituvchining kompetentligi**

Hozirgi kundagi global o`zgarishlar, fan-texnika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI o`qituvchisidan pedagogik mahoratni, o'tkir irodani, pedagogik-psixologik bilimlarni, o`z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkur, siyosiy savodxonlik, filialsh doirasi keng va mulohazali bo'lishni talab qiladi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o`qituvchilar o`qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o`qituvchi va tarbiyachilarning

ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ko'p jihatdan bog'liq. Shaxsnı har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, qadim zamonlardan ushbu masala dolzARB masala sifatida jamiyatning ilg'or kishilari e'tiborini tortib kelgan. Yoshlar tarbiyasi va uning tashkil etilishi nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu tajribalar o'qitish shakllarida foydalilanligan o'qitish qonuniyatlari, tamoyillarini ijodiy qo'llashda ilmiy bilihga doir g'oyalilar, nazariyalar qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi<sup>59</sup>. Yosh avlodni jamiyat talablari darajasida o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin.

O'qituvchilik - katta san'at. Uning faoliyati ijodkorlik va doimiy izlanishni talab qiladi. Sababi hozirgi tezkor davrda an'anaviylik, bir xillik davr talabiga to'g'ri kelmayapti. Har bir ota-onasi o'z farzandini o'qituvchi tarbiyasiga ishonib topshirar ekan, o'qituvchining yoshi va uning ish tajribasidan qat'iy nazar yuqori darajada o'qitish va tarbiyalash ko'rsatkichini kutadi. O'qituvchi o'quvchilarni o'rganganidek o'quvchilar ham o'qituvchilarni o'rganadi va uning kasbiy va insoniy sifatlariga baho berib boradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisidan tortib - maktabning quyi va yuqori sinf o'quvchilari o'qituvchiningadolatlilik mezoniga rioya qilishiga katta e'tibor qaratadi. Aksariyat o'qituvchilarning har bir sinfda ularga yoqadigan o'quvchilarining bo'lishi, ularga ko'proq e'tibor qaratishi boshqa o'quvchilarning noroziligiga sabab bo'lishi mumkin. Bu o'z navbatida fanga va o'qituvchiga nisbatan salbiy munosabatni yuzaga keltiradi. O'qituvchiningadolatlilik yondashuvi, insonparvarligi, bolalarni yaxshi ko'rish xislatlari, o'z fanini yaxshi ko'rishi va yaxshi bilihisi, talabchanligi o'quvchilar tomonidan xarakterlanadi. Vijdonli o'qituvchida o'z burchini anglash va ma'suliyat kabi axloq kategoriyalari

doimo yonma-yon namoyon bo'ladi. Bu borada buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy "Agar o'qituvchida faqat ishiga muhabbat bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi ota-onasi kabi bolalarga muxabbati bo'lsa o'sha o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Agar o'qituvchi ishiga va o'quvchilarga muhabbatini birlashtira olsa, u mukammal o'qituvchi bo'la oladi", -degan haqli ta'rifni aytgan edilar. Shu o'rinda **K.D.Ushinskiy** "O'zini takomillashtirish yo'lidan yurishga va boshqalarga yo'l ko'rsatishga qodir bo'lgan insongina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi" -degan fikrlari orqali o'qitutuvchi o'z ustida doimiy ishlashi va izlanishi lozimligini ta'kidlaydi.

"Tarbiya" fani o'qituvchisi ushbu fan bolaning shaxs sifatida shakllanishiga katta ahamiyatga ega ekanligini his qilishi, o'zi tarbiyalangan bo'lishi va o'quvchilarga tarbiya bera oladigan darajada doimiy ravishda o'z ustida ishlashi hamda insoniy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Bolalarni seva oladigan insongina haqiqiy tarbiyachi bo'la olishi haqida **V.A. Suxomlinskiy** "**Haqiqiy tarbiyachi bo'lish uchun bolalarga qalbingizni bering**", - degan edi. Uning bolada atrof muhitga, yaqinlariga, hayotga sevgisini tarbiyalash borasidagi fikrlari juda chiroyligi ta'riflangan. **V.A. Suxomlinskiy** "**Olov faqat olovdan paydo bo'lgani kabi bolalardagi muhabbat faqat sevgi orqali tarbiyalanadi**"<sup>60</sup>, - degan fikrni aytadi.

Rus pedagogikasining rivojlanishida rus tili o'qituvchisi **Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824 - 1871)** alohida rol o'ynadi. Uning tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlari orasida: «Pedagogik adabiyotning afzallikkari haqida» maqolalari, "Mehnat o'zining aqliy va tarbiyaviy ma'nosida", "Bolalar dunyosi" kabi asarlarini alohida sanab o'tish darkor. K.D.Ushinskiy psixologiya yutuqlari asosida kuzatish, e'tibor, irodani rivojlantirish usullari bo'yicha batatsil tavsiyalar ishlab chiqadi. Shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qo'yiladigan talablar bilan birga, o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatiga qo'yiladigan talablar ham kundan

<sup>59</sup> Холиков А. Педагогик маҳорат. Низомий номли ТДПУ. Ўқув ќўлланма. Тошкент.2010. Иктисад-Модия, -Б.7 .

kunga o'sib bormoqda. Pedagogning jamiyat talablariga javob bera oladigan individual xususiyatlarga ega bo'lishi, uning faoliyatiga subyektiv tayyorligi, fan-texnika yutuqlaridan boxabarligi muhim sanalmoqda. Ko'pchilik xorijiy va mahalliy olimlar hozirgi tezkor davrda o'qituvchi - pedagoglar qanday zaruriy xislatlarga ega bo'lishi lozim degan masala bo'yicha tizimli tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar. Jumladan, MDH tadqiqotchilaridan **N.V.Kuzmina, V.Slatelin, F.N.Gonobolin**, mahalliy tadqiqotchilardan, **M.G.Davletshin, S.Jalilova, M.Kaplanova** kabilarning ilmiy tadqiqot ishlari hozirgi zamon o'qituvchisiga eng zarur bo'lgan xislatlarni aniqlash, batafsil ko'rsatmalar berish imkonini berad<sup>61</sup>. O'qituvchilik kasbining professiogrammasi (ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rghanishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujatga professiogramma deyiladi) muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab oladi. Oliy ta'lim tizimida muayyan fan o'qituvchisi sifatida tayyorlanayotgan talaba bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilishi va shu asosda o'zining ushbu sifatlarini rivojlantirib borishi zarur. Bu o'z navbatida o'quv tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchi professiogrammasi ishlab chiqilishi zarur. Ta'lim-tarbiya sifati, eng avvalo quyidagi bir qator omillarga bog'liq.

- o'qituvchining zamonaviy talablar asosida ilg'or pedagogik hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etishi;
- o'quvchilarda zarur bilimlar va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan hamda bola shaxsini rivojlantirishga qaratilgan, bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvini samarali joriy qilinishi;

<sup>61</sup> Давлатшин М.Г., Ш.Дўстмуҳамедова, М.Мавлонов ва бошқалар. Ёш ва педагогик психология. Ўкув кўлланима. Тошкент-2007. <http://hozir.org/2-psihologiya-csh-davrulari-va-pedagogik-psihologiya-ukuv-kulla.html>

- o'qituvchining pedagogik ehtiyojiga asoslangan metodik xizmatning samarali yo'lga qo'yilishi;
- o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirish dinamikasini tizimli kuzatish;
- o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishi va hokazo.

Eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi, zamonaviy talablarga javob beradigan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan barcha mакtablarimizda zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligi konsepsiyasining maqsad va vazifalarini amaliyotga joriy qilinishiga bog'liq<sup>62</sup>.

#### **Maktab o'qituvchi - murabbiysi professiogrammasida quyidagi sislatлага ega bo'lishi lozim:**

- bolalarni yaxshi ko'rishi;
- aql-farosatlilik (amaliy-psixologik)
- mehnatsevarlik;
- kamtarlik;
- adolatlilik;
- insonparvarlik;
- mobillik;
- o'z bilimlarini oshirishga bo'lgan intiluvchanlik.

Ta'limni takomillashtirish, uning sifatini yaxshilash muammosini hal qilish mакtab o'qituvchisining kasbiy dasturini, uning pedagogik faoliyatining asosiy vazifalarini, shuningdek, bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy fazillatlarga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan xujjatni yaratish bilan bevosita bog'liq.

<sup>62</sup> Нигонов К.К. Таълим-тарбия сифатини бошқаришида ҳамкорлик педагогикасининг ахамияти // ЎзМУ таҳсилари Тошкент, 2018.12сон.-Б.48

## Professiogramma o'qituvchining ideal modeli

Bu o'qituvchida bo'lishi lozim bo'lgan shaxsning asosiy fazilatlarini aks ettiruvchi model, standart hamda o'qituvchi vazifasini bajarish uchun bilim, qobiliyat va malakalarga, uning shaxsiga qobiliyatiga, psixofiziologik imkoniyatlariga va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar nuqtai nazaridan to'liq malaka tavsifini beruvchi xujjatdir.

Har qanday fan o'qituvchisining kasbiy faoliyatida mavjud vazifalar:

- tashkiliy
- rejalashtirish
- tarbiyaviy
- kommunikativ
- gnostik
- rivojlantiruvchi

Pedagogik vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish umumiyligi pedagogik va uslubiy mahoratning tegishli tizimiga va zaruriy bilim miqdoriga ega bo'lishini nazarda tutadi. O'qituvchi professiogrammasida faqat o'z-o'zini tarbiyalash va shaxsiy pedagogik tajribani takomillashtirish jarayonida olingan pedagogik mahoratning asosini tashkil etuvchi eng muhim ko'nikmalar ko'rsatiladi. Mashhur psixolog **V.A. Krutetskiy** professional ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlarning quyidagi tuzilishini taklif qiladi:

1. Shaxsning dunyoqarashi.
2. Pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat.
3. Pedagogik qobiliyatlar.
4. Kasbiy-pedagogik bilimlar, qobiliyatlar, malakalar.

## 2. Tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati

O'qituvchi pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo`nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy va yuksak axloqiy fazilatlarga, shu jumladan, quyidagi burch va ma'suliyatlarga ega bo'lishi talab qilinadi:

1. O'qituvchi eng avvalo ma'suliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi.
2. O'qituvchi tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, histuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriga, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.
3. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohatlar mohiyatini chuqrang lab etishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.
4. Zamoniyy o'qituvchining ilm-fan, texnika va axborot texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi talab etiladi.
5. O'z mutaxassisligi bo'yicha chuqrang va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi lozim.
6. Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'limg'arbiya faoliyatini tashkil etishi kerak.
7. Kasbiy pedagogik faoliyatida ta'limg'arbiya shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.
8. Ijodkor, ta'limg'arbiya faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.
9. Kasbiy faoliyati yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika qoidalarini o'zlashtirib borishi shart.

**10.** O`qituvchi nutq madaniyatga ega bo`lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarini o`zida aks ettirishi kerak:

turli sheva so`zlardan xoli bo`lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi;  
nutqi sodda, ravon va tushunarli bo`lishi;

hikmatli so`zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko`chirma gaplardan o`rinli foydalana olishi;

jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so`zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqqa o`zga millatlarga xos so`zlarni noo`rin qo`llanilishi);

vulgarizm (haqorat qilish, so`kishda qo`llaniladigan so`zlar) hamda konselyarizm (o`rni bo`limgan vaziyatlarda rasmiy so`zlardan foydalanish) kabi norasmiy so`zlardan xoli bo`lishi lozim.

**11.** Kiyinish madaniyati o`ziga xos bo`lishi, ya`ni, sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta`lim-tarbiya jarayonida o`quvchining diqqatini tez jalg etuvchi turli xil bezaklardan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinish talab etiladi.

**12.** Ta`lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta`lim sohasida olib borilayotgan islohatlarning eng faol ishtirokchisidir.

**13.** Pedagogik muloqat jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart. Shuning uchun kasbiy faoliyatida o`zida bir qator pedagogik sifatlarni tarkib toptirib borishi zarur.

**14.** O`qituvchi, eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to`g`ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak<sup>63</sup>.

O`qituvchi shaxsining yuqoridagi talablarga javob bera olishi o`quvchilarning, ota-onalarning unga nisbatan hurmat tuyg`ularini shakllantiradi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta`lim o`quvchilarda bilim, ko`nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallahni taqozo etadi. Shunga ko`ra, o`qitish metodlari ham o`zgaradi.

“Kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o`rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo`llangan bo`lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo`naltirilgan bilim, ko`nikma va malakalar majmui sifatida”, ta`lim sohasida esa “kompetensiyaviy yondashuv” sifatida talqin etilgan. Kompetensiya ta`limda natijaviylikni ko`rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki, lug`atlarda ushbu so`zning ma`nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, “O`zbek tilining izohli lug`ati”da kompetensiya so`zi quyidagicha izohlangan:

“Kompetensiya – (lot. sompetere – layoqatli, munosib bo`lmoq). Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat.

Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”.

Ruscha-o`zbekcha tarjima lug`atlarda esa bu termin biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo`lgan soha, vazifa, ish, chuqr bilimga egalik, asoslik, xabardorlik, omilkorlik deya sharhlangan.

Berilgan izohlar ta`lim sohasida kompetensiya so`zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, ta`limga kompetensiyaviy yondashuvni egallangan bilim, ko`nikma va malakalarni o`z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo`llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo`naltirilgan ta`lim yo`nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi. Til ta`limida kompetensiyaviy yondashuv ta`lim oluvchilarning o`rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o`z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo`llay olish ko`nikma-

<sup>63</sup> Холиков. Педагогик маҳорат. Ўқув кўлланма Тошкент. Иктисадиёт-мания. 2010. -Б. 40.

malakalarini tarkib toptirish, ya'ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lism - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lism bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlesh, faol fuqarolik o'rniga ega bo'lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini hosil qiladi.

Kompetensiyalar ikki asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo'linadi. Tayanch kompetensiyalar insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o'z o'rnni egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'la olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. Pedagog faoliyatiga xos bir qator tayanch kompetensiyalar mavjud.

Kommunikativ kompetensiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-

harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallahshi nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo'layotgan voqe, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarda muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiliy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Bundan tashqari, ta'limga har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, shoga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Jumladan, tarix fanni o'rganishda o'quvchilar tarixiy vogelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish, tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishslash kompetensiyalarni egallahslari talab etiladi.

1. Tarixiy vogelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda tushuntira olish kompetensiyaning quyidagi komponentlardan iborat:

O'zbekiston va jahon tarixining eng qadimgi davridan bugungi kunga qadar insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan muhim voqeа va jarayonlar haqida ma'lumot bera oladi;

tarixning davrlarini taqqoslay oladi, tahlil qiladi, baholaydi va xulosa qiladi, yozma ma'lumot bera oldi;

voqeа va jarayonlarni tarixiy davr nuqtai nazaridan tahlil qiladi, baho beradi, xulosa chiqaradi, munosabat bildiradi;

davlatlarning tashkil topishi, davlat shakli, davlatdagi ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy jarayonlar, ichki va tashqi munosabatlar, harbiy salohiyat, insoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida yozma ma'lumot bera oladi.

2. Tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishslash kompetensiyasi quyidagi komponentlardan iborat:

bugungi kungacha kechgan tarixiy voqelikni bayon qilishda muhim bo'lgan tarixiy toponomik atamalar mazmunini tushuntira oladi;

tarixiy jarayon va voqealar haqida ma'lumot berishda qo'shimcha adabiyot va manbalardan foydalana oladi;

tarixiy-badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlardan foydalanishda va ularga munosabat bildirishda axborot madaniyatiga rioya qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshipilayotgan chuqur ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat bappo etish talablapiga javob bepuvchi kadplar tayyorlanishini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyatli yondashuvga asoslangan ta'lim bugungi kun talablariga mos kelmayotganligi sababli umumta'lim fanlarini o'qitishning prinsipial yangi metodologiyasi sifatida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari, o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish va joriy etishni taqozo qildi.

O'qituvchi muvaffaqiyatining asosiy kaliti o'z ustida ishlashi, o'z kasbiga ijodkorona yondashuvi bilan bevosita bog'liq. Sababi pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Pedagog kutilmagan vaziyatlarda

mustaqil qarorlar qabul qiladi, pedagogik muammolarni yechadi. O'quvchilar tophiriqni bajarishga kirishganida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi. Zamonaliv ilg'or o'qituvchi ish tajribasini orttirishdan tashqari, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, fan-texnika yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo qilinadi.

Mashhur rus pedagogi **A.S.Makarenko** "Pedagogikada xiyla-nayrang yo'q". Ammo ta'lim jarayoni sharoitida qaysidir bir o'qituvchi kerakli natijaga erishadi, ikkinchisi erisha olmasligini qanday tushunish mumkin?-deya muvaffaqiyat qozonish pedagogning tinimsiz mehnati va izlanishi, kasbiy mahoratiga bog'liqligini ta'kidlaydi. O'quv faoliyati pedagogik san'at bo'lib pedagogik texnikani o'zlashtirganlik darajasiga bog'liq. O'quvchilar orasida dars jarayonida yoki sinfdan tashqariholatda nizoli holat yuzaga kelgan sharoitda o'qituvchi o'z ovozi, taqlid niqobi, yondashuvdagi intonatsiya yordamida masalani ijobiy tomona o'zgartirishi mumkin bo'ladi.

O'qituvchi pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini quyidagicha ishlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darjasи, bilimdonlik va aql zakovatning yulsaq ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarning puxta egallanganligi, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi.
4. O'quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.
5. Pedagogik insonparvarlik tamoyillariga bo`ysunishi.
6. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilishi.
7. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish hamda pedagogik texnologiya siralarini puxta egallash<sup>64</sup>.

<sup>64</sup> Курбонова Г.А. Замонаивий ўқитувчининг педагогик маҳорати ва педагогик бурчи // Замонаивий таълим Йўнис журнали 2017. 2-сон.

Har bir fan o'qituvchisining dars samaradorligi nafaqat uning bilimi, balki pedagogik mahorati, ta'lif-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida o'zaro muloqot olib borishi, hamkorlik taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, ta'lif va tarbiyaviy jarayonda pedagogning o'z xulq-atvorini, hissiyatini jilovlay olishi xususiyatlari va kasbiy jihatdan rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyat bilan bevosita bog'liq. Pedagogik mahorat o'qituvchilarining pedagogik faoliyat ko'rsatish jarayonida takomillashib boradi. Har bir o'qituvchi u qaysi fan o'qituvchisi bo'lishidan qat'iy nazar ma'nnaviy jihatdan sog'lom va keng tafakkurli, o'z fanidan tashqari boshqa fanlar bo'yicha ham yetarlicha bilimga ega bo'lishi, doimiy ravishda o'zi dars beradigan fani bo'yicha kiritilayotgan yangiliklar va muhim o'zgarishlardan doimiy ravishda boxabar bo'lib turishi talab qilinadi. O'qituvchi o'z fanining o'quvchi hayoti va faoliyatida muhimligini singdirishda boshqa fanlarni kamsitish hisobiga amalgalashmasligi lozim. Sababi umumta'lif maktablaridagi barcha fan predmetlari zarur va o'zaro bir-biriga bog'langan. Shu o'rinda **pedagogik mahorat bu** - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lif-tarbiya jarayonidagi ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliy bo'lib, u doimiy tafakkur va pedagogik bilimlarni oshirib borishni taqozo qiladi. Shu bilan birga bola tarbiyalashdagi ajodolar tajribasi, o'tmish qadriyatları, xorij mamlakatlarining ilg'or, innovatsion tajribalari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lish o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. **"Tarbiya"** fani o'qituvchisiga quyladigan talablar boshqa fan o'qituvchilariga nisbatan yuqori darajadir. Sababi fan juda serqirra, ko'plab fanlar: falsafa, axloqshunoslik, estetika, iqtisodiyot, dinshunoslik, psixologiya, huquq kabi fanlar uyg'unligidan iborat. Demak, ushbu fan o'qituvchisi yuksak bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab qilinadi. **"Tarbiya"** fani o'qituvchilarini keng dunyoqarashga ega bo'lishi talab qilinadi.

buyuk darg'alari ta'kidlaganlaridek, tarbiyachi o'zi tarbiyalanmagan bo'lsa tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi.

#### **"Tarbiya" fani o'qituvchisiga qo'yiladigan zamonaviy talablar:**

- o'quvchilarga mavzuni ta'sirli va qiziqarli tarzda yetkazishda notiqlik man'atidan boxabar bo'lishi, shevaga xos so'zlardan chekinish, sof adabiy tilda ma'lumotlarni yetkazishi, jargon gaplarni ishlatmaslik, turli ibratli hikoya va rivoyatlar, maqollar, aforizmlar, ko'chirma gaplar, iboralar va hayotiy mifollardan keng foydalanish asosida tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirish;
- pedagogik jamoa va o'quvchilar orasida inson va pedagog sifatida hurmatga ega bo'lishi uchun axloqli, ma'suliyatli, kasbiy hamda insoniy burchlariga sadoqatli bo'lishi;
- o'quvchilar ichki dunyosiga kira olishi, kerakli paytda yaxshi maslahatchi va do'st bo'la olishi;
- fanni muvaffaqiyatlari o'qitishida o'quvchi ruhiyatiga kirib borishi muhimligini hisobga olib pedagogika va psixologiya fanlarini puxta egallashi, o'quvchilarining ruhiy va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda darsni tashkil qilishi;
- jamiyatda va dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar mohiyatini chuqur anglagan holda, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi;
- o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi bilan birga o'z fanini chuqur o'qitishda boshqa fanlarni ham integratsiyadan ham foydalana olishida tinimsiz o'z ustida ishlashi;
- kasbiy-pedagogik faoliyatida tarbiyaning eng samarali zamonaviy metod va vositalaridan foydalana olish bo'yicha doimo ijodiy izlanishda bo'lish, mavzuga mos metod va vositalarni to'g'ri tanlay olishi;
- yuksak darajadagi pedagogik mahorat: ya'ni muloqatga kiritishuvchanlik (kommunikativlik), mobillik (tezkor aloqa o'rnata olish), pedagogik texnika (mimika, pantomimika, gavda harakatlariniyam nutqiga

mos ravishda harakatga keltira olishi) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart va h.z.

Uzluksiz ta'limgiz tizimida amalgalashuvchining islohatlarning ikki muhim ko'rsatkichi - sifat va samaradorlik, aynan, o'qituvchining salohiyati va kasbiy mahoratiga uzviy aloqadorligiga asoslangan. Uning talabnomasi (professiogrammasi) kun sayin kuchaymoqda. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir", degan shior kun tartibiga o'rinni keltirilgan mustaqillik yillarda bu masalaning yechimi o'qituvchi va tarbiyachi shaxsiga yanada mustahkam aloqador bo'lib qoladi<sup>65</sup>. Sababi, o'qituvchi tajriba va malakasining uyg'unligi muvaffaqiyatlar garovi ekanligi sir emas. Bugungi kunda ta'limgiz tizimini insonparvarlashtirish muammosi o'qituvchi shaxsining insonparvarlik jihatiga oldinga o'ringa chiqdi<sup>66</sup>. Hozirgi davrda kun sayin ta'limgiz tarbiya tizimiga yangi-yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlar kirib kelmoqda. Bu yondashuvlar o'quv jarayonining turli tashkiliy va metodik jihatlariga ijodiy o'zgarishlarni olib kiradi, albatta. Ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq o'zgarishlardir.

O'qituvchining ruhiy xususiyatlarini o'rganish, o'zlashtirilayotgan bilimlarning o'quvchiga qiziqarli bo'lishi zarurligi, aks holda ular shubhasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar subyektivlashadi, o'ziga xos individual tasavvur va shaxsiy fikrlar obyektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini an'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllarini talab etadi. O'qituvchi o'z darsida shunday shart-sharoitlar yaratishi lozimki, neytral bo'lgan obyekt natijada o'qituvchi uchun kutilmaganda subyektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida o'qituvchi va o'qituvchi hamkorlikda ishlaydi, izlanadi va o'qituvchi o'quv maqsadlariga

erishha oladi. Ta'limgiz shaxsiga yo'naltirilgan texnologiyasi an'anaviy ta'limgiz texnologiyalaridan tafakkur jarayonini tashkil etish bian farq qiladi. Bunda bilim, ko'nikma, malakalar o'quvchi faoliyatining mahsuli sifatida yuzaga keladi. O'qituvchining keng tafakkurli bo'lishi muhim. Zero tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatidan yuqori turib, u shaxsning o'z-o'ziniz rivojlanishini unsuri sifatida namoyon bo'lib, aynan o'quvchi va o'qituvchining ijodkorlik quvvatiga, yangilik yaratishga ilhomlanlantiriladi, mustaqil islanish va ijodiy faolitni tashkil qilishga undaydi.

### **O'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:**

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuqoq ko'rsatkichi.
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarning puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatda foydalana olishi.

O'qituvchilar amalgalashuvchining ta'limgiz jarayonini ikki tomonlama tasavvur qilish mumkin. Birinchidan, dars davomida o'qituvchi axborot vositalari sifatida ta'limgiz shaklini amalgalashuvchining o'qituvchilarining dari paytida va darsdan tashqarida amalgalashuvchining o'quv ishlari tarzida yuqorida.

### **3. O'qituvchining pedagogik texnikasi**

"Texnika tushunchasi" yunoncha so'zdan olingan bo'lib "texnikos" - mahir, texnika va qurilmalar kabi ma'nolarni bildiradi. O'qituvchi faoliyatiga qishlanan pedagogik texnikasi tushunchasi XX asrning 20-yillarda kirib keladi. Pedagogik texnika o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan texnika va vositalar majmui sifatida tushunilgan.

Pedagogik texnika - o'qituvchining nafaqat ta'limgiz-tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalar majmuidir.

<sup>65</sup> Курбонова Г.А. Замонавий ўқитувчининг педагогик махорати ва бурчи // Таълим texnologiyalari. 2017. 12-сон. -Б. 60.

<sup>66</sup> Дистервег А. Избранные педагогические сочинения. - М.: Учпедгиз, 1956.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari - bu o`qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko`nikmalari hisoblanadi. Ya`ni uning savodli va ifodalni so`zlay olishi, o`z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta`sirchan bayon qilishi, his-tuyg`usini jilovlay olishi, o`zining shaxsiy xususiyatlariiga xos mimik va pantomimik qobiliyatlariga ega bo`lishi, aniq imo-ishora, ma`noli qarash, rag`batlantiruvchi yoki istehozali tabassum, so`zning cheksiz qudrati orqali o`quvchilar ongiga va tafakkuriga ta`sir o`tkazishi, lozim<sup>67</sup>. Hozirgi kunda pedagogik texnika samarali pedagogik natijalarga erishish uchun o`qituvchining o`z psixofiziologik holatidan foydalanish imkonini beruvchi o`qituvchi mahorat tizimi sifatida aniqlanadi.

**“Pedagogik texnika”** tushunchasiga ilk bor A.S.Makarenko ta`rif bergan bo`lib, u o`qituvchiga nafaqat o`z faoliyatining mohiyati, balki niyatlarining namoyon bo`lish shakli haqida ham g`amxo`rlik qilish zarurligini eslatishi kerak, deb hisoblaydi. Pedagogik texnika - bu o`z psixofiziologik imkoniyatlaridan tarbiyaviy ta`sir vositasi sifatida foydalanish qobiliyati bo`lib, o`qituvchiga o`z pozitsiyasini yanada chuqurroq, yanada yorqinroq ko`rsatish va tarbiyaviy ishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini beradigan texnikalar to`plamidan foydalanish qobiliyatidir.

Pedagogik texnika ichki va tashqi komponentdan iborat.

**Ichki texnika**-o`qituvchining aqli, irodasi va hissiyotlari yordamida bo`lajak faoliyatga psixologik munosabati.

**Tashqi texnika** – bu o`qituvchining yuz ifodalari, ovozi, tili, harakatlari va plastikligidan ichki va plastiklidagi ichki kechinmalarining namoyon bo`lishidir.

Ichki texnika haqida gapirganda, birinchi navbatda, o`qituvchining o`z kasbiy faoliyatini keraksiz hissiy stressiz amalga oshirishga imkon beradigan fazilatlarni rivojlantirish qobiliyati nazarda tutildi. Bu fazilatlarga quyidagilar kiradi:

- Pedagogik optimizm.
- O`qituvchi sifatida o`ziga ishonch.
- O`zini nazorat qilish qobiliyati.
- Kuchli irodali fazilatlarning mavjudligi (o`zini tuta bilish, maqsadlilik va boshqalar).

Ichki texnikasi kuchli o`qituvchi darsdan qo`yilgan maqsadlarning muvaffaqiyati hal etilishiga erisha oladi. Natijada ta`lim jarayonining sifati oshadi. O`qituvchi tashqi texnikasining elementlari og`zaki (Jingistik, nutqiy) va neverval vositalardir. Aynan ularning yordami bilan o`qituvchi o`z maqsadlarini amalgalashadi. Og`zaki bo`lmagan muloqot usullarining kegg dorasi mavjud. Bulardan o`qituvchining tashqi ko`rinishi o`quvchining o`qituvchiga ijobiy munosabatini uyg`otishda muhim. Bundan tashqari pantomima, ya`ni, tananing butun yoki alohida qismlarining ekspressiv harakatlari; o`quvchilar oldida to`g`ri turish, harakat qilish va imo – ishora qilish, aloqa masofasini saqlash qobiliyati, yuz ifodalari va ko`z bilan aloqa qilish ibrillardir. O`qituvchining tashqi ko`rinishi pedagogik texnikasini namoyon etuvchi muhim xususiyatlaridan biridir. Har qanday insонning tashqi ko`rinishi atrofdagilarga estetik ma`no va zavq kasb etib, doimiy yuhiborda bo`lishini unutmaslik kerak. O`qituvchining tashqi ko`rinishi ham o`quvchini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

“Tarbiya” fani o`qituvchisi boshqa fan o`qituvchilariga nisbatan axloqiy jihatdan namunali bo`lishi talab qilinadi. Uning sinf sahnasida bajarilayotgan hoh ijobiy, xoh salbiy xatti-harakatlari o`quvchilarga ta`sir o`tkaza boshlaydi. O`qituvchining hatti-harakatini bevosita namoyish etuvchi mimik va pantomimik ifodasi, o`qituvchining imo-ishorasida, ma`noli qarashlarida, rag`batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumi ham o`quvchiga pedagogik ta`sir ko`rsatishida muhim ahamiyatga ega. O`qituvchi mahoratining ajralmas qismi uning nutqidir. Bu pedagogik faoliyat vositasi bo`lib, uning yordamida turli xil

<sup>67</sup> Ходжаев Б. “Педагогик тақт ва техника” модули бўйича. Ўкув-услубий мажмуя. Тошкент. 2016.

pedagogik vazifalarni hal qilish mumkin. Jumladan, murakkab mavzuni qiziqarli qilish va o'rganish jarayonini jozibador qilish va h.z.

O'qituvchi nutqini tahlil qilishda "kommunikativ hatti-harakatlar" tushunchasi qo'llaniladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kommunikativ xulqatvor nafaqat gapirish, balki, muloqatga kirishish jarayoni, ya'ni pedagogik muloqatning hissiy-psixologik muhitini yaratishga ta'sir qiluvchi nutqni tashkil qilish va shunga mos ravishdagi o'qituvchining hatti-harakati sifatida tushuniladi. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, ta'lim oluvchilar xotirasida nafaqat kognitiv ma'lumotlar, balki muloqot sodir bo'lgan muhit, undagi taassurotar ham saqlanib qolinadi. Shu sababli o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida, uning mazmunidan tashqari, nutqi, kommunikativ hatti-harakatlari xususiyatlari haqida ham jiddiy o'ylishi lozim bo'ladi. Ushbu hatti-harakatlar o'quvchi emotsiyasiga faol ta'sir ko'rsatib, mavzu faktlarini ishonarli tarzda qabul qilishiga, bu esa o'z navbatida o'quvchilar bilim sifatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning sinf va sinfdan tashqari o'quv faoliyati jarayonida o'quvchilar bilan muloqatining turli darajalarini quyidagi tartibda ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Yuqori daraja: o'quvchilar bilan munosabatlardagi iliqlik, o'zaro tushunish, ishonch.

2. O'rta daraja: o'quvchilar bilan munosabatlarda mo'tadillik.

3. Quyi daraja: begonalashish, tushunmovchilik, dushmanlik, sovuqqonlik kabilalar bilan tavsiflanadi.

**O'qituvchining o'quvchi bilan muloqat qilish holati salbiy va ijobiyo'rinishda bo'lishi mumkin:**

**Ijobiyo'rinishdagi muloqat** ma'qullash, mustaqillikni rag'batlantirish, maqtash, hazil, iltimos, maslahat va taklif kabilarni kiritish mumkin.

**Salbiy ko'rinishdagi muloqatga** masxara qilish, kinoya, kesatiq, haqorat, tahdid kabilalar kiradi. Kommunikativ o'zaro ta'sirning turli usulblari

sinfda o'quvchilar bilan muloqatidagi bir - necha modellarni keltirib chiqaradi:

**Diktator modeli** - o'qituvchi o'quvchilar ustidan hukmron bo'lib bunda psixologik aloqa bo'lmaydi, o'quvchilarning tashabbuskorligi namoyon bo'lmaydi va passiv harakat qiladi.

**Kontaktsiz model** - o'zining mazmuni bilan birinchisiga yaqin bo'lib, bunda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zboshimchalik bilan yoki hechiyor o'rnatilgan aloqa to'sig'i tufayli teskari aloqa mavjud bo'ladi. Bunday to'siq har ikkala tomondan hamkorlik qilish istagi yo'qligi sababli yuzaga keladi. Buning natijasida o'qituvchi o'quvchilar bilan befargimunosabatda bo'ladi.

**Differensial e'tibor modeli** – bunda o'qituvchi tinglovchilarning butun tarkibiga e'tibor qaratmaydi, faqat bir qismiga, masalan zaif yoki aksincha iste'dodli qismiga e'tibor qaratadi. Sinfda muloqatning bunday modeli o'quvchilarning o'rganishini individuallashtirishni frontal yondashuv bilan birlashtira olmaslik asosida yuzaga keladi.

**Gip-refleks modeli** – muloqatda o'qituvchi gapirovotganda faqat o'zini eshitadi. Darsda muloqat monolog tarzida tashkil qilinib va muloqatda izoh qo'shishiga urinish foydasiz hisoblanadi. Muloqot jarayonining tomonlari osonan bir-biridan ajratilgan, tarbiyaviy ta'sir rasmiy tarzda bo'ladi, o'qituvchi yetakchi rolda bo'ladi.

**Moslashuvchan bo'limgan javob modeli** – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlар qat'iy dastur bo'yicha qurilgan. O'qituvchi muloqatning o'zgaruvchan vaziyatini tushunish hissiyotiga ega emas. Bu modelda muloqatda o'qituvchi o'quvchilarning ruhiy holati, tarkibi, yoshi etnik holati, yoshi va etnik xususiyatlari hisobga olinmaydi. Mashhur ukrainalik o'qituvchi A.S. Makarenko birinchilardan bo'lib bolalarga murakkab taktika va texnikalar kerakdigiga e'tibor qaratdi. O'qituvchi o'quvchilarning kayfiyatini, uslubi va muloqat ohangini tabassumni, qarashni,

yuz ifodalarini, harakatlarini, yurishini nazorat qila olishi kerak. Yaxshi o'qituvchi har doim o'zini o'zi boshqarish texnikasiga ega bo'ladi. Ko'pgina o'qituvchilar o'zlarining psixofizik kuchini, vaqtini va sog'lig'ini kam sarflagan holda yuqori natijaga erisha oladilar. Texnologiya - bu inson mehnatining eng kam xarajati bilan eng yuqori natijalarga erishish uchun foydalaniladigan texnikalar to'plami hisoblanadi.

O'z kuchini tejash va kerakli natijalarga erishish imkonini beradigan texnika psixonomiya deb ataladi. Psixonomik texnika yordamida tashqi yordamisiz o'qituvchi o'zining ruhiy salomatligini yaxshilashi va boshqalarga shifobaxsh ta'sir ko'rsatishi mumkin. Psixonomiya texnikasi - o'qituvchi shaxsining ko'nikmalari va fazilatlari tizimi bo'lib, u pedagogik jarayon subyektlariga ularning psixofizik apparatidan ongli va maqbul ravishda eng kam vaqt va xarajat sarflagan holda, ularga aqliy sog'lomlashtiruvchi ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Pedagogik texnika - o'qituvchining o'z psixofizik apparatidan pedagogik ta'sir vositasi sifatida foydalanish qobiliyati, hissiy o'zini o'zi boshqarish qibiliyati, muloqot, madaniyat va nutq texnikasi

O'qituvchining psixonomiya texnikasi, bir tomonidan, bevosita pedagogik ta'sir, pedagogik jarayonni tashkil etish vositasi emas, balki uning samaradorligiga bilvosita ta'sir qiladi. Boshqa tomonidan, psixonomiya texnikasi, pedagogik texnikadan farqli o'laroq quyidagi xususiyatlarga ega: ongsizlikning (aqliy himoya, javob dasturlari, ehtiyojar, motivlar ...) qonuniyatlarini tan olish va hisobga olish qobiliyatini, yuqori darajadagi kuzatuvni qamrab oladi; fikrlashning mustaqilligi va qaror qabul qilish samaradorligi; o'z-o'zini tartibga solishning psixoterapeutik usullariga ega bo'lish; og'zaki va og'zaki bo'lмагan empatik muloqot qilish qobiliyati; suhabatdoshning ongsizligiga taklif-axborot ta'sirining psixonomik usullariga ega bo'lish. Psixonomik texnika sizga eng qisqa vaqt ichida ma'lum bir vaziyatda mumkin bo'lgan maksimal natijalarga erishishga va eng muhim,

o'zingizning psixofizik kuchlaringizni minimal sarflashga, ya'ni pedagogik jarayonning barcha subyektlariga psixoterapeutik ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. O'qitish texnikasi o'qituvchilarda o'z o'quvchilarini ko'rish, eshitish va his qilish imkonini beradigan murakkab mahoratdir.

Atoqli pedagog **A.S.Makarenko** shunday degan edi: "Tarbiyachi tashkilotlariishi, hazilashishi, quvnoq yurishi o'zini shunday tutshi kerakki, har bir harakat bolani tarbiyalaydi".

**Yu.P.Azarovning** ta'kidlashicha, birinchidan, ishlab chiqilgan pedagogik texnika o'qituvchiga pedagogik faoliyatida o'zini chuqur va yorqin ifoda etishga, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda, o'z shaxsiyatidagi barcha eng yaxshi, kasbiy ahamiyatga ega narsalarni oolib berishga yordam beradi. Mukammal pedagogik texnika o'qituvchining vaqtini va kuchini ijodiy ish uchun bo'shatadi va pedagogik o'zaro ta'sir jarayonida oddiy so'z yoki muvaffaqiyatsiz intonatsiyani tushuntirish uchun bolalar bilan muloqot qilishdan chalg'itmaslikga imkon beradi. Texnologiyaga ega o'qituvchi ish, tajriba bilan bog'liq muammolardan aziyat chekmaydi. O'qituvchi tomonidan pedagogik texnikani o'zlashtirish, kerakli so'zni, intonatsiyani, qarashni, imoishora texnikasini tez o'zlashtirish, shuningdek, xotirjamlikni saqlash va aniq fikrlash, o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatni tahlil qilish, o'qituvchining kashiy bilimini haqiqiy hayotga tatbiq etishga olib keladi.

Ikkinchidan, pedagogik texnika shaxs sifatida rivojlantiruvchi ta'sir ko'retadidi. Pedagogik texnikaning muhim xususiyati shundaki, ularning barchasi aniq individual - shaxsiy xususiyatga ega, ya'ni, o'qituvchining psixofiziologik xususiyatlari asosida shakllanadi.

Uehinchidan, pedagogik texnikani o'zlashtirish jarayonida o'qituvchining asloqiy va estetik pozitsiyalari eng to'liq oolib beriladi, bu umumiy va kasbiy darajasini, uning shaxsiy imkonitlarini aks ettiradi.

Yugoridagi fikrlar pedagogik texnikaning eng katta samaradorlik vositasi oshaligini asoslaydi. Shu o'rinda pedagogik san'at tushunchasini ham izohlab

o'tsak, pedagogik san'at – o'qituvchining kasbiy ishtiyoyq, rivojlangan pedagogik tafakkur va sezgi, hayotga axloqiy-estetik munosabati, chuqur ishonch va mustahkam iroda bilan uyg'unlashgan holda psixologik-pedagogik bilim, ko'nikmalarning butun majmuasini mukammal egallashini anglash odat tusiga kiradi. Bularning barchasi maktab o'quvchilariga ta'lif va tarbiyaning yuqori samaradorligi va sifatini ta'minlaydi. Pedagogik san'at yaxlit hodisa sifatida bir necha tarkibiy qismlardan iborat:

1. Maqsadlar tizimi, yo'nalishlar va rag'batlantirish. Maqsadlar barcha pedagogik faoliyatni mazmunli qiladi va uning barcha tarkibiy qismlarini bir butunga bog'laydi.

2. Pedagogik sotsiologiya, psixologiya va fiziologiya tomonidan to`plangan bola haqidagi chuqur bilim. Muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat turdosh fanlardan ma'lumotlar, xulosalar, tavsiyalar talab qiladi.

3. Bolalar munosabatini tashkil etishning axloqiy va estetik tamoyillari. Pedagogik san'at, o'qitish va tarbiyaning samaradorligi o'qituvchi va bolalar o'rtaсидаги munosabatlarda tezkorlik va tashkilotchilik, intizom va tashabbuskorlik ustun bo'lishini talab qiladi. Pedagogik san'atning asosiy tamoyili - bu o'qituvchilar va bolalar o'rtaсидаги o'zaro munosabatlarning butunligini qamrab oladigan munosabatlar uslubi va ohangini jamoada yuqori axloq va estetikani o'rnatish. Darsda o'qituvchi uslubi va ohangi munosabatlarning o'ziga xos axloqiy va estetik bo'yali shidir.

4. Pedagogik san'atning to'rtinchı komponenti o'qituvchining bolaning ijtimoiy ahvoli va sinfdagi bolalarning munosabatlarini bilishni nazarda tutadi.

5. Pedagogik san'atning beshinchı komponenti sahna san'ati, ya'ni, o'qituvchining xulq-atvori, imo-ishora, mimika, intonatsiya san'ati. Bolalarning hayotni idrok etish psixologiyasini hisobga olgan holda o'z fikrini samimiy ifodalashi, eng samarali ta'sir ko'rsatishdan iborat.

O'qituvchi o'z texnikasi, metodlari, muloqat qobiliyatları yordamida o'quvchilarga hayot haqiqatini, real munosabatlarni ochib beradi. Pedagog

uchun badiiy obraz-personajlarni rivojlantirish kasbiy zaruratdir. O'qituvchi o'yo'zini tartibga solish usullarini egallash uning kasbiy mahoratini shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim shartidir. O'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida har kuni stessli holatlarga duch keladi. Ba'zida bu holatlarning mutassil davom etishi o'qituvchi sog'ligiga jiddiy putur yetkazadi. Shu sababli o'qituvchining ruhiy madaniyatini shakllantirish zarur. Insonda ko'p narsa tabiat tomonidan dasturlashtirilgan: organik jarayonlar, instinklarning harakatları, psixofizik jarayonlarning dinamikasi. Ular ongning aralashuviziz avtomatik tarzda tartibga solinadi. Ammo, inson, o'zining ruhiy xususiyatlariga ta'sir ko'rsatishga qodir va o'z harakatlarini to'g'ri yo'nalishda to'g'rilash mumkin. Inson o'zining tabiiy moyilliklarini: yuqori asabiy faoliyat va temperamentning ustun xususiyatlarini o'qituvchilik tasbinining ehtiyojlariga moslashtirishni o'rganishi muhimdir. Psixologik nuqtai nazardan o'qituvchiga qo'yiladigan eng muhim kasbiy talab, ba'zida buning noquay sharoitlariga qaramay, hissiy barqarorlikni saqlash qobiliyatidir. Hissiy barqarorlik psixikaning xossasi bo'lib, uning yordamida inson qiyin sharoitda kerakli faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga qodir. Buni nafaqat pedagogik texnika vositasi, balki o'qituvchining yuqori malaka darajasining muhim ko'rsatkichi sifatida ham ko'rish mumkin, chunki hissiy barqarorlik uning chuqur kasbiy bilimi, shakllangan pedagogik mahorati va kasbiy mahorati asosida shakllanadi.

Shuni alohida qayd etib o'tish zarurki, o'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyatlari jarayon. Sababi o'qituvchi tarbiyalanuvchi bilan doimiy muloqatda bo'lishi, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda o'z kasbiy faoliyatini rivojlantirib borishi kerak. O'qituvchining shaxsiy fazilatlari sirasiga lymon-e'tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob-axloqi, ma'suliyatliligi, talabchanligi, qat'iyligi va o'z maqsadlariga intilishi, bilimliligi, mamlikati ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga befarq emasligi, o'z yondashuvining mavjudligi kabilar kiradi.

O`qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo`nalishlarda olib boriladi: o`qituvchining shaxsiy fazilatlar bo`yicha tayyorgarligi; o`qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi; o`qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi; o`qituvchining maxsus va ixtisoslikga oid uslubiy bilimlarni egallab borishi va h.z<sup>68</sup>.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Pedagogik texnikaga ta`rif bering?
2. Yosh o`qituvchi faoliyatida qanday xatolarga yo`l qo`yishi mumkin?
3. Pedagogik san`atga ta`rif bering?
4. Pedagogik san`atning asosiy tarkibiy qismlarini sanab bering?
5. Tashqi ko`rinish o`qituvchining ichki holatini boshqarishga ta`sir qiladimi?
6. Psixologik nuqtai nazardan o`qituvchiga qo`yiladigan eng muhim kasbiy talab nima?
7. Mimika bu...?

## **7-MAVZU: TARBIYA DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Reja:**

1. Pedagogik jarayonni amalga oshirish texnologiyasi.
2. "Tarbiya" fani darslarida "Taqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasi samaradorligi
3. Tarbiya fanini o`qitishda muammoli ta`lim texnologiyasidan foydalanishning o`ziga xos xususiyatlari

**Tayanch so`z va iboralar:** pedagogik texnika, pedagogik faoliyat, tashkiliy faoliyat, tarbiya texnologiyasi, ta`lim-tarbiya xususiyatlari, insonparvarlik, demokratlashtirish, omillar, zamonaiy pedagogik texnologiyalar, taqidiy fikrlash texnologiyasi, texnologik bosqichlar, intiutiv fikrlash, muammoli ta`lim texnologiyasi, evristik metod, mustaqil fikrlash, tafakkur, ilmiy tadqiqot metodi, muammoli-izlanish metodi

#### **1. Pedagogik jarayonni amalga oshirish texnologiyasi**

Pedagogik texnologiya o`quv predmeti va fan sifatida o`zining hayotdagি munosib o`rinni egallab, umumpedagogik tushunchalar tizimida texnologiya muammosiga ilmiy yondashish kuchaymoqda. "Pedagogik texnologiya" atamasi XX asrning 60-yillarda manbalarda qayd qilina boshlandi. "Teknologiya" atamasi grekcha "techne" - mahorat va "logos" -ta`limot so`staridan kelib chiqqan bo`lib, pedagogik mahorat haqidagi ta`limot degan ma`noni bildiradi. **V.P.Bespalko** pedagogik texnologiyaga quyidagi ta`rifni beradi: Pedagogik texnologiya - bu oldindan rejalashtirilgan ta`lim jarayonini analiyotga tizimli joriy etishdir". Pedagogik texnologiya o`z mohiyatiga ko`ra subjektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat`iy nazar texnologiyalar:

<sup>68</sup>Ходиков А. Педагогик маҳорат. Ўкув кўлланма. Тошкент. Иктисадиёт-молия. 2010.

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o'qituvchi o'rtaida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrلash ko'nigmalarini shakllantirishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustivorigiga erishishni kafolatlashi zarur<sup>69</sup>.

Pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyat hamda o'qituvchi professiogrammasi bir butun jarayon yoki hodisa tarzida tasavvur qilinadi. Pedagogik texnologiyani o'qitish jarayonida qo'llash sifat va samaradorlikning yetakchi omillaridan biridir. Pedagogik jarayonni amalga oshirish texnologiyasi ketma-ket amalga oshirilgan texnologik transferlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Bunda axborot, o'quv-kognitiv va boshqa rivojlanish turlarini tashkil etish, faoliyatini rag'batlantirish, tartibga solish va pedagogik jarayonning borishini tuzatish va uni joriy nazorat qilish amalga oshiriladi<sup>70</sup>.

O'qituvchining tashkiliy faoliyati umumiylar maqsadga erishish uchun sinf jamoasini birlashtirishga qaratilgan o'zaro bog'liq harakatlar (texnologiyalar) ketma-ketligi hisoblanadi. Rus pedagogi **A.S.Makarenko** ta'kidlaganidek, tarbiyaviy ish, birinchi navbatda tashkilotchining mehnatidir. Pedagogik faoliyatni amalga oshirish bosqichida o'qituvchi faoliyatining mazmuni kabi pedagogik harakatlar o'zaro bog'langan tizim bilan ifodalanadi. Bunda:

- o'quvchilar oldiga maqsad qo'yish, vazifalarini tushuntirishi;

- pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun usul va vositalarni tanlashi va qo'llashi;
- pedagogik jarayonni yuzaga keltirishi, ya'ni subyektlarning o'zaro ta'sirini ta'minlashi;
- samarali o'quv faoliyati uchun zarur texnikalardan foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;
- o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish, ularning fikr-mulohazalarini, pedagogik jarayonning borishini tuzatish kabilarni amalga oshiradi.

Pedagogikada "**tarbiya texnologiyasi**" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifи yo'q.

**Tarbiya texnologiyasi - bu tarbiyaviy (o'quv) jarayoni ishtiroychilarining maqsadli birgalikdagi harakatlarining algoritmi (ketma-ketligi) bo'lib, bu kutilgan natijaga erishishni ta'minlaydi.**

#### **Tarbiya texnologiyalarining asosiy xususiyatlari**

Izchillik	Qonunga muvofiqlik
Konseptuallik	Kafolatlangan natijalr
Ilmiy tabiat	Optimallik
Tarbiyachi va bola uchun qulaylik	Algoritmlilik

Ta'lim texnologiyalarining xilma-xilligi va ko'pligi bunga ularni tasniflash sururatini yuzaga keltiradi. Ta'limda, tarbiyada, ijtimoiylashuv va shaxsiy rivojlanish jarayonida bolaning shaxsiyatiga qadriyat sifatida qarash insonparvarlik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida faoliyat olib borish tarbiyaviy jarayonda eng muhim samarador usul hisoblanadi. Tarbiyaning insonparvarlik tamoyili ta'lim oluvchini insoniy munosabatlar tizimida asosiy qadriyat sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu tamoyil har bir kishiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, vijdon, din va dunyoqarash

<sup>69</sup>Кошанова Н.М. Умумталим мактабларидаги синф раҳбарлари фаолитини ривожлантириши механизmlари // пед.философия док.дисс. Чиртик-2022. -Б. 96.

<sup>70</sup> Сластенин В.А. и др. Педагогика Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; Под ред. В.А. Сластенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2013. С. 361.

erkinligini ta'minlashni talab qiladi. Amaliy pedagogik faoliyatda insonparvarlik tamoyili quyidagi qoidalarda aks etadi:

- bolaning faol pozisiyasiga, uning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- bola bilan muloqotda uning shaxsiga hurmatli munosabat ustun bo`lishi kerak;
- tarbiyachining tarbiyalanuvchi bilan munosabatda muloyim bo`lishi;
- bolaning manfaatlarini himoya qilish va undagi eng muhim muammolarini hal qilishda ko`mak berishi;
- bolaning o`zlashtirishi bilan bog`liq muammolarni hal qilishda, murabbiy doimo ularni hal qilish variantlarini izlab topishi;
- pedagogik faoliyatda bola huquqini himoya qilish ustuvor bo`lishi;
- mактабда, синф жамоаси ва бoshqa o`quvchilar uyushmalarida bolalar qadr-qimmatini kamsitishga yo`l qo`ymaydigan insonparvar munosabatlarni shakllantirilishi.

Insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish faqat ijtimoiy muhitning turli ta'sirini hisobga olgan holda bo`lishi mumkin.

#### **Insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish shartlari:**

- ta'lim vazifalari bilan demokratik jamiyatning ijtimoiy rivojlanish vazifalari o`rtasidagi bog`liqlik;
- bolaning shakllanishiga ta'sir ko`rsatadigan ijtimoiy institutlarning o`zaro ta'sirini muvofiqlashtirish;
- bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam kompleksini ko`rsatish;
- pedagogik jarayonni jamiyatning real imkoniyatlariga yo`naltirish;
- ekologik ijtimoiy muhitning turli omillarini hisobga olish (milliy, mintaqaviy, turar -joy turi, ta'lim muassasasining o`ziga xos xususiyatlari va boshqalar);

• o`quvchilarning ommaviy axborot vositalaridan, internet tizimidan qabul qilingan turli xil axborotlarni tuzatish<sup>71</sup>.

Bilimsizda pedagogik mahorat bo`lishiga ishonib bo`lmaganidek, o`qituvchining insoniy fazilatlarisiz ta'lim oluvchi mehrini va ishonchini qozonish qiyin. Pedagogda ushbu uchta xususiyat, ya`ni kuchli bilim, kasbiy metodika va insoniy fazilatlar bo`lishi lozim (5-rasm).



**5-rasm. Pedagog faoliyati natijasini ta'minlovchi omillar**

Ammo ta'lim va tarbiyadagi sifat va samaradorlik ko`plab omillarga bog`liqligi sababli bu borada yagona tavsiya va yo`l-yo`riq ko`rsatib bo`lmaydi. Hattoki, zamonaviy pedagogik yoki axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan ham foydalana bilishning o`ziga xos mezonlari mavjudligini unutmasligimiz lozim.

#### **Zamonaviy pedagogik texnologiyalar:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
2. Tanqidiy fiklash texnologiyasi
3. Dizayn texnologiyasi.
4. Muammoli ta'lim texnologiyasi
5. O`yin texnologiyasi
6. Keys texnologiyasi
7. Ijodiy ustaxonalar texnologiyasi

Shu o'rinda "Tarbiya" fanini o'qitishda o'qituvchi ushbu texnologiyalardan axborot-kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash, muammoli ta'lif, o'yin va keys texnologiyalaridan foydalanishi mumkin.

## 2. "Tarbiya" fani darslarida "Taqidiy fikrlashni rivojlantirish" texnologiyasi samaradorligi

**Taqidiy fikrlash texnologiyasi** XX asrning 90-yillari o'rtalarida amerikalik o'qituvchilar K. Meredith, Ch. Temple tomonidan kiritilgan. Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotni o'z yondashuvi bilan tahlil qilish qobiliyati. Bunda o'quvchi o'z-o'zini boshqaradi, baholaydi, fikrlashini tuzatadi.

### Taqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi:

1. Tanqidiy tahlil qilish bilim-ko'nikmalarini rivojlantiradi.
2. O'quvchini ta'lif jarayonida faollashtiradi va mustaqilligini oshiradi.
3. O'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olishni ta'minlaydi.

Texnologiya o'quvchining axborotni idrok etish samaradorligini oshirish bilan birga o'rganilayotgan matn yoki jarayonga qiziqishini oshiradi. Har bir o'quvchining vazifasi bolaning o'z-o'zini anglashi, shu jumladan intellektual qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlarni yaratishdir. Bu jahada tanqidiy fikrlash texnologiyasidan foydalanish ushbu muammolarni hal qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi<sup>72</sup>. Turli sohalarda jumladan, iqtisodiyot, fan va madaniyatda mustaqil ravishda axborot bilan ishlashni biladigan, turli sohalardagi bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda oshiradigan, yangi bilimlarni o'zlashtira oladigan yoshlar salmog'ini ko'payishi jamiyat taraqqiyotida juda muhimdir. Buning uchun pedagog-murabbiylar o'quvchilarda har qanday mulohazani ko'r-ko'rona qabul qiladigan emas, balki, zarur holatda tanqidiy yondasha oladigan o'z mustaqil fikriga ega yoshlarni tarbiyalashda ushbu tanqidiy fikrlash texnologiyasidan

foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Sababi ushbu texnologiya o'quvchi bilimini passiv o'zlashtirish jarayoniga emas, balki faol o'zlashtirish jarayoniga jalb qilish imkoniyatini ta'minlaydi, hamda har bir o'quvchining olgan bilimlarini qachon va qanday maqsadlarda amalda qo'llashi mumkinligi bo'yicha tafakkurining shakllanishiga yordam beradi. Hozirgi davrda o'sib kelayotgan yosh avloddda ushbu xislatlarni shakllantirish davr talabi va ehtiyoji hisoblanadi. Chunki bolaning har qanday mulohazani ko'r-ko'rona to'g'ri deb qabul qilishi hozirgi mafkuraviy tahdidlar davrida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**Taqidiy fikrlash insonni intellektual faoliyatining turlaridan biri bo'lib ushbu texnologiyaning konseptual yondashuvlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

- "tayyor" bilimlarni o'zlashtirish emas, balki o'quv jarayonida tug'iladigan shaxsiy bilimlarni qo'llash;
- o'qitishning jamoaviy tamoyili, ya'ni, mashg'ulotlarning dialog rejimini, muammolarni hal qilish yo'llarini birqalikda izlashni, shuningdek o'qituvchi va tinglovchilar o'rtasidagi "sheriklik" munosabatlarini ta'minlaydi;
- o'quvchi tomonidan idrok etilayotgan obyektning ijobjiy va salbiy tomonlarini obyektiv baholash imkoniyatlarini beradi va h.z.

**O'quvchida tanqidiy fikrlash quyidagi natijalarni beradi:**

- qiziqishini namoyish etish;
- tadqiqot usullaridan foydalanish;
- javoblarni muntazam ravishda izlash;
- dalillarning sabablari va oqibatlarini aniqlash;
- umumiy qabul qilingan haqiqatlarga shubha qilish;
- o'z nuqtai nazarini himoya qilish, mantiqiy dalillar bilan qobiliyatini rivojlantirish;
- raqibining dalillariga e'tibor berish va ularni mantiqiy anglash;

<sup>72</sup> Носиров О.Н. Танкидий фикрлаши техннологиясининг шаклланнишида кластер методининг роли. Педагогик таълим кластери: муоммо ва счимлар. Халқаро конференция. Чирчик. 2021. -Б. 175.

"Tarbiya" fanida tanqidiy fikrlash texnologiyasini yuqori sinf o'quvchilarida qo'llash yaxshi samara berishi mumkin. Sababi tanqidiy fikrlash imkoniyatidan foydalanish uchun o'quvchida bunga imkon beradigan bir qator xususiyatlarni rivojlantirish talab qilinadi. Bunday xususiyatlar kichik yoshdagи bolalarda yetarlicha shakllanmaydi. Amerikalik psixolog D.Xalpern ushbu texnologiyani chuqur tadqiq qilgan olimlardan biri bo'lib, tanqidiy fikrlashni qo'llashda quyidagi xususiyatlarni ajratib ko'rsatadi: rejalashtirishga tayyorgarlik; moslashuvchanlik; qatiyatilik; xatolarni tuzatishga tayyorlik; murosali yechimlarni izlash<sup>73</sup>.

Xo'sh? "Tarbiya" fanini o'qitishda ushbu texnologiyadan foydalanish fan o'qituvchisi uchun qanday natijani berishi mumkin?, -degen savol tug'ilishi tabiiy.

**Birinchidan**, sinf jamoasida yoki auditoriyada ochiqlik va hamkorlik muhitini yaratadi.

**Ikkinchidan**, o'quv jarayonida tanqidiy fikrlash va o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xissa qo'shami.

**Uchinchidan** o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z faoliyatini malakali tahlil qilishni biladigan amaliyotchilarga aylanishiga sabab bo'ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, uslubiy metodlari va texnologik bosqichlari quyidagilardan iborat:

#### I. bosqich. Uyg'otish:

- mavjud bilimlarni namoyish qilish;
- yangi ma'lumotlarni olishga qiziqishga uyg'otish;
- o'quvchining o'z o'quv maqsadlarini belgilash;

#### II. bosqich. Ma'noni anglash: yangi ma'lumot olish.

- o'quvchi tomonidan belgilangan o'quv maqsadlarini to'g'rilashi.
- tarkibni tushunishi. Mavzuga oid yangi ma'lumotlar: matn, fil'm, ma'ruzalar, paragraf materiallari bilan bevosita aloqa o'rnatiladi. Bunda ma'ruzalar, paragraf materiallari bilan bevosita aloqa o'rnatiladi. Bunda

o'quvchi vazifani yakka yoki juftlikda amalga oshiradi. Ushbu texnologiyada jamoaviy ishlashda individual izlash va fikr almashish kabi ikkita element bo'lishi lozim.

**III. bosqich. Odatlanish.** Yangi bilimlarning tug'ulishi. Bunda o'quvchi tomonidan yangi o'quv maqsadlari belgilanadi. O'qilgan ma'lumotlarni aks ettirish, tahlil qilish, ijodiy ishlov berish, izohlash amalga oshiriladi. Bunda faoliyat yakka tartibda, juftlikda yoki guruhda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyaning yana bir ijobji xususiyatlaridan biri o'quvchilarda mavzudan tashqari ko'nikmalarni shakllanishiga va rivojlanishiga imkon beradi.

#### Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari

Chaqiriq (da'vat)	Anglash	Fikrlash
1. Yangi ma'lumotlarni ma'lum bo'lganlari bilan bog'lash.	1. Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faoliyoni qo'llab-quvvatlash	1. O'quvchilar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak. 2.
2. O'quvchilarni faoliyatirish.	2. O'quvchilarda o'zini tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo'llash.	Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganida shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi
3. Tahlif etilgan mavzuni ko'rib chiqishga qiziqish tug'diriladi va maqsad aniqlanadi.	3. Yangi o'quv materialini tushunishiga erishish.	3. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi

"Tanqidiy fikrlash" tushunchasiga mos kelmaydigan yana bir fikrlash shakli bu - ijodiy yoki ichki his bilan intiutiv sezib fikrlashdir. Tanqidiy fikrlash - axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayoni. Ushbu texnologiya bilish faoliyatining yuqori darajasi sifatida o'quvchilarda matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga, og'zaki va yozma nutqni egallahsha, mazkur matn bo'yicha sindoshlari bilan birgalikda harakatda bo'lismiga qaratilgan pedagogik texnologiya. O'quv auditoriyasidagi ruhiyatni o'zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya'ni mashg'ulot o'qituvchi va o'quvchilarning ijodonasiga aylanishini ta'minlay oladi.

<sup>73</sup> Халперн Д. Психология критического мышления. 4-е международное издание. Санкт-Петербург. Москва-Харьков-Минск.2000.-С.512.

### Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish strategiyalari

Da'vat bosqichida	Anglash bosqichida	Fikrlash bosqichida
qo'llaniladigan strategiyalar	qo'llaniladigan strategiyalar	qo'llanadigan strategiyalar
Erkin yozish: klaster; aqliy hujum; B-B-B; chalkashirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi.	Semantik xususiyatlar  tahili: B-B-B chizmasi; Bir-biriga o'rgatish; bir-biridan so'rash;	Eng asosiy tushunchalarini takrorlash: T-jadvali. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli.

### 3. Tarbiya fanini o'qitishda muammoli ta'lif texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Inson tafakkuri muammoli vaziyatlarni yaratish, muammoni qo'yish va uni yechishdek noyob qobiliyatga ega bo'lganligi sababli insoniyat tomonidan ilmiy-texnikaviy kashfiyotlar amalga oshirilgan. Pedagogik tafakkurni o'quv jarayonida muammolarni yechishga yo'naltirish, ya'ni ta'lif jarayoniga muammoli o'qitishni joriy etish Tinglovchilariga tayyor bilimlarni o'zlashtirishdan asta-sekin mustaqil faoliyatga o'tish imkoniyatini beradi.

**Muammoli ta'lif texnologiyasi** juda qadim zamonalardan shakllanib, qadimgi Yunoniston, Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta'lif texnologisini amerikalik psixolog faylasuf va pedagog J. Dyui 1894 yilda Chikagoda asos solgan va tajriba maktabida qo'llagan. XX asrning 60-yillarida mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borilgan. J. Dyui 1894 yilda Chikago shahrida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab, o'z- o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq o'tkazilgan. J. Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tadqiqiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar. J. Dyui quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar. J. Dyui

g'oyalari bo'yicha bola bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. J. Dyuining fikricha, o'qitish samaradorligi shartlari o'quv materialini muammolashtirish bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va tamoyilliari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Ya.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu texnologiya 70-80 yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etiladi<sup>74</sup>. Muammoli ta'lif texnologiyasining asosi insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lif o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Muammoli ta'lifning bosh maqsadi - o'quvchilarning muammoni to'liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o'rgatishdan iborat. Muammoli ta'lifni amaliyotda qo'llashda asosiy masalalardan biri o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq muammoli vaziyatni yaratishdan iborat. "Tarbiya" fanini o'qitishda o'qituvchilar dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarida o'quvchilarga yo'nalish berishi lozim.

Muammoli ta'lifning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda asosiy bilimlarni o'quvchilarga tayyor holda berish emas, ular tomonidan dars mavzusiga tegishli muammolar bo'yicha o'quv-tadqiqotlarini bajarish asosida o'zlashtirishini ta'minlashdan iborat. O'zbekistonda muammoli ta'lifni qo'llash bir necha asrlar davomida maktab va madrasalarda suqrotona savol-javob usulidan keng foydalanish asosida o'quvchilarda ziyraklik hozirjavoblik sifatlar, hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan. Suqrotona savol-javob usuli hozirgacha eng samarali ta'lif usullaridan biri sifatida ko'llaniladi. Bunda

<sup>74</sup> Неконова З.К., Раупова И.А. Муаммоли таълим технологияларининг таълим жараёнидаги ўрни// Journal "Innovatsiya va melioratsiya" №3(13).2018.-б.93-94.

o`quvchi (talaba) chukur mantiqiy fikrlashga, ziyraklikka, aniq va to`g`ri so`zlashga, nutqning mantiqyiligi va ravnligiga hamda tanqidiy, ijodiy fikrlashga o`rgatilgan. Suqrotona suhbatlar deyilganda o`qituvchining o`quvchini mustaqil va faol fikrlash jarayoniga olib kirishi hamda uning fikrlashidagi noto`g`ri jihatlarni ziyraklik bilan aniqlagan holda, ularni tuzatish yo`liga olib chiqishdan iborat usullar nazarda tutiladi. Ushbu usul yuqori natija berishi shubhasiz, ammo buning jiddiy shartlari ham mavjudki, bunda o`qituvchidan keng bilim va ijodiy fikrlash qobiliyati, yuqori muloqot madaniyati, pedagogik mahorat talab qilinadi.

Muammoli o`qitishni chuqur o`rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo`lib, uning asosida "Tafakkur-muammoli vaziyatdan boshlanadi"-degan g`oya yotadi va muammoli vaziyatda bilish faoliyatining ketma-ketligi quydagicha ko`rinishga ega bo`ladi:

- muammoli vaziyat;
- muammoni yechish yo`llarini izlash;
- muammoning yechimi.

An'anaviy ta'lif tizimida o`qituvchi va darslik bilimning asosiy manbasi bo`lsa, muammoli o`qitishning falsafasi va metodologiyasida o`qituvchi tinglovchilarning izlanish-tadqiqotchilik faoliyatining tashkilotchisi, mutasaddi maslahatchisi va yordamchisi sifatida ko`radi. Bu rol an'anaviy o`qitishdagi o`rindan ancha murakkab bo`lib, u o`qituvchidan yuqoriroq mahorat talab qildi.

Muammoli o`qitish konsepsiyasida muammoli vaziyatning birinchi sharti o`qituvchi o`zi yechishi lozim bo`lgan zidlikni ko`rishidan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

#### **Muammoli vaziyat yaratish usullari:**

- o`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusi bilan bog`liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va o`quvchilar uni yechish yo`llarini izlab topishlari lozim bo`ladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qilinadi va hokazo.

#### **Muammoli vaziyatni hal etish darajalari quyidagi ko`rinishlarda bo`lishi mumkin:**

- o`qituvchi muammoni qo`yadi va o`zi yechadi;
- o`qituvchi muammoni qo`yadi va uning yechimini o`quvchilar bilan birlgilikda topadi;
- o`quvchilar o`zları muammoni qo`yadilar va uning yechimini topadilar.

#### **Muammoli vaziyatni yechishda qo`llanadigan usullar:**

- muammoni turli nuqtai nazardan o`rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog`liq xulosalar chiqarish;
- o`quvchilarning o`zları savollar qo`yishi va boshqalar.

Muammoli o`qitish – o`quvchining muammoli taqdim etilgan ta'lif mazmuni bilan faol o`zaro bog`lanishini tashkil etadi. Bu jarayonda o`quvchi ilmiy bilimning obyektiv zidliklari va ularning yechimlariga yaqinlashadi, fikrlash, bilimlarni ijodiy o`zlashtirishga o`rganadi. Muammoli o`qitish ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo`lib, bu jarayonda o`quvchilar ijodiy fikrlashining rivojlanishi an'anaviy o`qitishdagiga nisbatan jadaloq bo`ladi. Lekin muammoli o`qitishning bu funksiyasi oshishi uchun o`quv jarayoniga muammolarining tasodifiy majmuasini kiritish yetarli emas. Muammolar tizimi bilimning mazkur sohasiga xos muammolarining asosiy turlarini qamrab olishi kerak.

Muammoli o`qitishni ta'lif jarayoniga tatbiq etishda o`qituvchi ilmiy va o`quv muammolar orasidagi umumiyligini va farqni ajratishi lozim. Ularning umumiyligi – har ikkalasida ham obyektiv zidliklar mavjudligi bo`lsa, ilmiy va o`quv muammolarini farqi shuki, ilmiy muammoda qo`yilgan masala hali yechilmagan, o`quv muammoda esa, masala yechilgan, uni yechish yo`li va natijasi ma'lum. Faqat bu yo`llar va natjalarni o`quvchilar izlab topishi kerak.

Muammoli o`qitishning yakuniy maqsadi – o`quvchilarni muammolarni ko`rish va yechishga o`rgatishdan iborat, bu faqat fikrlash faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Muammoli o`qitishning yaqqol ko`rinib turgan afzalliklariga qaramasdan maktab ta`limining hech qaysi bosqichi to`liq muammoli tuzilishi mumkin emas.

Muammoli o'qitishni amalga oshirish uchun qism (ayrim bo'lim, mavzu, band)larni ajratib olish lozim. Bunda o'quv materialining mantiqiy-didaktik tahlili, muammolarni qo'yish imkoniyatlari, o'qitish maqsadlariga erishishda ularning samarasini aniqlash talab etiladi. Ko'p narsa u yoki bu sinfdagi ishslashning aniq sharoitlariga bog'liq. Bundan tashqari, maktab darsliklaridagi o'quv materiali kamdan kam hollarda muammoli o'qitishga moslashtirilgan. Lekin muammoli o'qitishni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quv matnlarini osongina qayta ishlashi mumkin. Muammoli vaziyatlarni modellashtirish uchun eng optimal o'quv materiali bu- darslikdagi fan va texnika tarixiga oid ma'lumotlar.

**Evristik o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari.** Insonning ijodiy faoliyat masalalari falsafa, psixologiya, metodologiya, kibernetika, axborot nazariyasi, pedagogika kabi ko'pgina fanlar tomonidan o'r ganilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda inson ijodiy faoliyatini o'r ganuvchi maxsus fan- "Evristika"ni yaratish to'g'risidagi fikrlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Evristika so'zi "Evrika"- "topdim" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u biror muammoni hal etilishi bilan bog'liq bo'lgan quvонch, biror yangi fikr tug'ilishini olqishlashdir.

Evristik (yunoncha heurisko – izlayapman, topyapman, kashf etyapman) inson ijodiy faoliyatini, shuningdek, yangi kashfiyotlarni yaratishda qo'llanadigan usullarni o'rGANADIGAN fan sifatida psixologiya, kibernetika, strukturali lingvistika, axborot nazariyasi chegarasida rivojlanadi.

Evristikani yangi vaziyatda yangi harakatlarni qurish qonuniyatlarini o'rGANADIGAN fan deb tushunish mumkin. Lekin ta'lim jarayonida o'xshatish-

obrazli tafakkurni, yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tarbiyalash va o'qitish an'analari ta'sirida bo'ladiilar.

Tinglovchining vazifasi nafaqat madaniy an'analarni o'rghanish va talqin qilish, balki yangilarini yaratishdan iborat. Ma'lumki, tabiat insonni yaratgan va unga tasavvur qilish, o'ylab topish, bunyod qilish, yaratish qobiliyatlarini bergen. Demak, har bir inson evristik deb atalmish qobiliyatga ega. Shunday o'kan, evristika, evristik uslublar va evristik o'qitish deganda nimalar tushuniladi? Evristik uslublar juda murakkab, ko'zda tutilmagan vaziyatlarda ham yechimni topish imkonini beradi. Evristika maqsadga erishishga ko'maklashadigan harakatlar uslubini belgilaydi.

Evristik o'qitish jarayonida o'quvchining faoliyati quyidagi ketma-  
ketlikda amalga oshiriladi: miyaga kelgan barcha o'y-xayollar-bu fikrlar.  
Normal o'quvchini, insonni fiksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har on, har  
daqiqada odam miyasi qaydaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga  
solish, keragida diqqatni jalg qilish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni  
yechish, ya'ni ifodalash-fikrlash jarayoni. Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir  
masalani, muammo yoki jumboqni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi.  
Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks  
holda u boshqa jarayonga-xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin.

Mustaqil fikrlash- shaxsnинг shunday qobiliyatiki, u tufayli odam narsa va hodisalar xususida o‘z qarashlariga va nostandard yechimlarga ega bo‘ladi. Masalan, aniq predmet ruchkani nima ekanligini va nima maqsadda undan foydalanish mumkinligini ko‘pchilik biladi. Bu-yozuv quroli. Lekin mustaqil nostandard tafakkurga erk berilsa, uning ko‘rsatkich sifati yoki sanoq tayoqchasi sifati, yoki g‘altakka o‘xshatib ip o‘rash mumkinligi kabi o‘nlab vazifalarini sanab berish mumkin. Demak, mustaqil fikr insonning narsa va

hodisalar, jamiyatda ro'y berayotgan voqealarning mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi, uning bilish va anglash imkoniyatlarini chegarasini kengaytiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqil fikrlash bir qarashda shaxsning individual xususiyati bo'lsada, bu xususiyat jamiyatda, insonlar o'rtasidagi munosabatlar muhiti yaxshi bo'lganda rivojlanadi. Xayolyangi obrazlar va taxminlarni shakllanish jarayoni bo'lsa, fantaziya – xayolning borliqdan, haqiqatdan biroz uzoqlashuvi jarayoni.

Shunday qilib, muammo yoki jumboq bizni fikrlashga majbur etadi. Psixoglarning fikricha, har qanday masalani yoki muammomni yechish mobaynida tinglovchi uning shartlarini bir necha variantda tasavvur qilsagina yechimga kelar ekan. Chunki kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir sekin fikrlaydi. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o'tirgan ikki Tinglovchi bir xil yechimni belgilasada, o'sha yechimga kelishi yo'llari har bir Tinglovchida o'ziga xos bo'ladi.

Tafakkur - inson ongingin bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtaida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish jarayoni. Afsuski, maktabda o'xshatish-obrazli tafakkurni, yangi g`oyalarni yaratish qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarli diqqat qaratilmaydi. Pedagoglar asosan masalalar yechilishining mantiqiy usullariga e'tibor berishadi, ayrim hollarda me'yoriy hujjatlar va yangi avlodni oldingi avloddek tiklash an'analari ta'sirida bo'ladi.

O'qtishning kutilayotgan natijalarini ishlab chiqishda zamонави psixologik yondashuvlar qadim davrlardayoq yaratilgan bo'lib, Aristotel ta'lim maqsadlarining uchta asosiy kategoriyasini, ya'ni tafakkur, sezish qobiliyati va qo'l amallarini bir-biridan farqlagan. Pestalotssi esa, bu amallarga muvofiq inson tanasining uch organini keltiradi: bosh, yurak va qo'l.

Bugungi kunga kelib, uchta soha bo'yicha o'quv maqsadini (kutilayotgan natijalar, vazifalar)ni rejalashtirish qabul qilingan. Dars jarayonini o'quv maqsadlarini belgilashda quyidagi amallarni bajarish lozim:

1. Ma'lum mavzu bo'yicha o'quvchilar uchun topshiriqlar sonini aniqlash.
2. Shu mavzu bo'yicha o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan amallarni aks ettiruvchi va o'qtishning kutilayotgan natijalarini ifodalashda qo'llanishi mumkin bo'lgan aniq fe'llar ro'yxatini tuzish.
3. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) o'quvchining (o'qituvchi faoliyati atamalarida emas) ishi atamalarida shunday qo'yish kerakki, u mashg'ulot davomida o'qituvchi o'tishi lozim bo'lgan bosqichlarga emas, balki "o'quvchining yakuniy amallari"ga qaratilgan bo'lsin.
4. Har bir topshiriqda o'quvchi faoliyati aks etishi lozim. Masalan: sanab o'tadi, tavsiflaydi, ajratadi, namoyish qiladi, tanlaydi, tahlil qiladi, hisoblaydi va h.k.
5. O'quvchilardan kutilayotgan, kuzatiladigan, kuzatilmaydigan "hulqni" ("ko'nikmalarni shakllantirish", "anglashiga erishish" va h.k.larni) aniq ifodalash.
6. Har bir topshiriqni (kutilayotgan natijani) shunday qo'yish kerakki, u ikkita uchta o'qtish natijasini emas, faqat bitta natijani o'z ichiga olsin.
7. Topshiriqlarni amalga oshganligini o'lhash mumkin bo'lsin va maqsadga erishilganligini tasdiqlash imkoniyati bo'lishiga ahamiyat berish lozim.
8. Agar o'quvchi ma'lum davr ichida o'z ishini namoyish etishi kerak bo'lsa, vaqt chegaralarini belgilash.
10. O'quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) uchta soha bo'yicha ifodalash: kognitiv (bilishga oid, tafakkur sohasida) - o'zlashtirilgan bilimlar va egallangan ko'nikmalar; psixomotor (amallar sohasida) - tana harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning asab-mushaklar koordinatsiyasi. Masalan, yozuv, sport anjomlarida mashqni bajarish; affektiv (emotsional-

qadriyatlar, hissiyot sohasida) - hissiy qadriyatlar (quvonch, hayajon, qoidalarga rioya qilish va h.k.).

11. O'quv topshiriqlarini (kutilayotgan natijalarni) ishlab chiqqandan so'ng, kutilayotgan natijalarga erishganlik darajasini baholash bo'yicha nazorat topshiriqlarini tuzish.

12. Dars mazmunini aks ettirish uchun usul va vositalarni tanlash. Ular ham an'anaviy, ham interfaol usullar bo'lishi mumkin.

Muammoli ta'lim haqida fikr yuritganimizda, bu ta'lim o'zi nima? Uning qanday nazariy asoslari bor? U an'anaviy ta'limdan nima bilan farq qiladi? Muammoli ta'limning maqsadi nima? Muammoli ta'limni o'qituvchi qanday amalga oshiradi?-degan savollarga duch kelamiz.

Muammoli ta'lim bu-o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarining hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. **N.G.Dayri** aytganidek, darsda o'r ganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, Tinglovchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim - o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etish. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrashi, jamoa bo'lib fikrashi, tahsil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak. Agar o'qituvchi yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon ni hoyasida ayrim o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun

o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu maralani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgartlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgartlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o'rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur.

Ildinchi qiyinchilik esa, muammoli ta'limni ko'rinishini aniqlashda yusaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o'quvchilarini jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o'quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik darsda o'quvlarni qiziqishini uyg'otish va uni ushlash rivojlantirib borishida ko'rindir. Chunki o'quvchilar diqqatini bir nechqa muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta'lim haqidagi to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni i'ttoddash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega.

i. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.

ii. Muammoning qo'yilishi.

iii. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki, u tinglovchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va Tinglovchilarining izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq: muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, o'quvchining muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish va bilimga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli ta'lim nazariyasida muammoli vaziyatning ikki turi mayjud:

1. Psixologik muammoli vaziyatlar.
2. Psixologik muammoli vaziyatlar tinglovchi faoliyatiga, pedagogik muammoli vaziyatlar o'quv jarayonining tashkil etilishiga taalluqli. Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi tinglovchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi.

O'qitish jarayoniga muammoli darslarni qo'llash uchun o'qituvchi quyidagilarni hal qilishi kerak:

O'quv dasturi bo'yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar va topshiriqlarni aniqlashda didaktikaning ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarni aniqlash, ulardan o'z o'rniда va samarali foydalanish yo'llarni belgilash zarur.

Muammoli vaziyatlarning bir qancha turlari bor. Dars jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish o'qituvchining mahoratiga, bilimi va pedagogik vaziyatlarni to'g'ri baholay olish malakasiga bog'liq. Muammoli

darslarda tinglovchining faoliyati, eng avvalo, mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlarni yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va uslubiy saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat.

**Reproduktiv, evristik metod.** Reproduktiv metodlar birinchi navbatda talabalarning o'quv materialini tezroq va mustahkamroq eslab qolishlarini ta'minlash bilimdagagi tipik kamchiliklarni tez aniqlash uchun qulay. Reproduktiv metodlar ayniqsa o'quv materialining mazmuni asosan axborot xarakterida bo'lsa, murakkab va butunlay yangi bilimlar o'rganilishi lozim bo'lgan holatda samarali natija beradi. Tafakkurning reproduktivlik xarakteri pedagog yoki boshqa manba orqali xabar qilinadigan o'quv axborotlarini aktivroq qilishini va eslab qolinishini nazarda tutadi. Xikoya, ma'ruza, ko'rgazmalilik va amaliy ishlar ham reproduktiv asosga qurilish mumkin.

Reproduktiv xarakterdagi amaliy ishlar shunisi bilan farq qiladiki, bu ishlarning davomida talabalar namunaga ko'ra ilgari yoki yaqindagina o'shashtirgan faolligini oshirish maqsadida u ko'pincha evristik ya'n qisman istanaychan metod bilan qo'yib olib borilishi mumkin. Yangi mavzuni bayoni davomida o'rganilayotgan materialning ba'zi elementlari ustida talabalarga o'sha yuritish imkonи beriladi. Pedagog tomonidan yengil qisqa savollar tuzilib, talabalarning ishtirokida ularga javob topishga harakat qilinadi. Evristik metod talabalarning bilish darajasini aniqlashga ham yordam beradi. Demak, evristik metod yangi mavzuni idrok qilishda talabalarning ham qisman ishtirok etishini ta'minlaydi.

**Ilmiy tadqiqot metodi.** Bu metod ta'lim tizimida unchalik keng tarqalmagan metod bo'lib, ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Pedagog rabbarligidagi talabalar yoki bir talaba ma'lum ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishi va ma'lum fan uchun yangi xulosalarni yasashi mana shu metodni qo'llash

jarayonida vujudga keladi. Bu metod oliyohlarda ko'proq qo'llaniladi. Bu metod davomida ilmiy bilish jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni xali nomalum bo'lgan bilimlar kashf etiladi va egallanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot rejasি tuziladi. Maqsad belgilanadi va tadqiqot usullari tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar yasaladi.

**O'qitishning muammoli-izlanish metodi.** Yangi mavzuni o'rganish jarayoni o'rganilayotgan materialni tayyor holda talabalarga bayon etmasdan, balki muammo sifatida taqdim etish muammo-izlanish metodini keltirib chiqaradi. Ya'ni dars davomida yasash kerak bo'lgan xulosalar pedagog tomonidan emas, balki talaba tomonidan yasalishiga harakat qilinadi. Har bir talaba qo'yilgan muammoni o'zicha yondoshib hal etishga harakat qiladi va o'z fikrlarini bayon etadi. O'rta ga tashlangan fikrlar muhokama qilinadi va pedagog tomonidan yo'naltiriladi.

Pedagog va talabalar birlgilikda xulosalar yasashadi. Muammoli-izlanish metodi talabalarni bilish faoliyatini faollashtiradi, mustaqillikka, ijod qilishga o'rgatadi, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Bu metod o'rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning puxta bo'lismiga yordam beradi. Bu metod o'rganilayotgan masalani chuqur tahlil etishga va bilimlarning tafakkur darajasi hisobga olinishi kerak. Tanlangan mavzuni tahlil etish uchun talabalarda ma'lum bilimlar bazasi mavjud bo'lishi lozim. Shuning uchun ham bu metodni qo'llash uchun talabalar alohida axborotlar bilan qurollantiriladi. Keyingi davrlarda muammoli-izlanish metodidan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ma'lumki umumiyl va o'rta ta'lim tizmilari islohatini amalga oshirish sharoitlarida o'quvchilar tafakkurining mustaqilligini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Shuning uchun ham muammoli izlanish metodlarini oqilona qo'llash nihoyatda foydali bo'ladi. Bu yerda ularni u yoki bu vaziyatda reproduktiv metodlar bilan birlgilikda qo'llash meyoriga rioya qilish va

buning uslublarini asoslash muhimdir. Muammoli vaziyat yuzaga kelganda o'quvchilarda ularga obyektiv xos bo'lgan shartsiz to'g'ri refleksni namoyon qilishni sharoit yaratiladi. Bu refleks bilishga doir vazifalar bo'lmaganda ko'p vaqt taqiqlangan xolda bo'ladi. O'qitishning muammoli izlanish metodlari amalda o'qitishning og'zaki ko'rgazmali va amaliy metodlari yordamida qo'llaniladi. Shu sababli o'quv materialini muammoli bayon qilish metodlari, muammoli va evristik suhabatlar, muammoli izlanish tipidagi ko'rgazmali metodlarni qo'llash, muammoli izlanish amaliy ishlarini yoki xatto tadqiqotchilik ko'rinishidagi ishlarini olib borish haqidagi ham gap yuritiladi.

Xullas, reproduksiya bilan ijodiyotning aniq o'zaro munosabati o'quvchilar tayyorgarligining darajasi, o'zlashtiriladigan materialning o'ziga xos xususiyati, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va imkonichiyatlaridan kelib chiqadi. Bu qoida ko'p tadqiqotlar bilan tasdiqlanadi.

#### **Demak muammoli ta'lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish mumkin:**

1. Muammoli vaziyatni hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to'g'riligini tekshirish (olangan yechim bilan bog'liq axborotni tizimlashtirish orqali).

Muammoli vaziyat hosil qilishda muammoli vaziyat hamda o'quvchilarga hal etish taklif etiladigan muammoga qo'yiladigan eng asosiy talab o'quvchilarning qiziqishini hosil qiladigan bo'lishi lozim. Aks holda ko'zda tutilgan natijaga erishishning imkon bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, hamda intellektual imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Sababi o'quvchilarning muammoli vaziyatni tushunishlari, uning kelib chiqishi sabablari hamda nimalarga, qanchalik darajada bog'liqligini idrok qila olishlari natijasida hosil bo'ladi. Berilgan muammoni tushunish o'quvchilarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olish imkoniyatini beradi. Muammoni yechish jarayonida o'quvchi

kuzatish, solishtirish, tahlil, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi umumfalsafiy metodlardan foydalanadi. Eng muhim o'quvchi fikrlaydi, tahlil qiladi natijada tafakkuri rivojlanib boradi. Shu bilan birga ushbu jarayon intellektual sifatlar: xotira, tasavvur, anglash va shu kabi psixologik jarayonlarning tezligi hamda boshqa parametrlari bilan bog'liq. Demak ushbu texnologiya imkoniyatlaridan "Tarbiya" fani darslarida foydalanish o'quvchilarda muammoni sezish, uni aniqlash, yechimiga doir taxminni to'g'ri belgilash va yechimning to'g'rilingini tekshirish qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. Muammoli ta'limga texnologiyasi o'quvchilarga o'quv mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishga mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish muammoning kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishdir.

**Inklyuziv ta'limga texnologiyasi.** Inklyuziv ta'limga - bu o'quvchilarning ruhiy, jismoniy va aqliy imkoniyatlariga mos ravishda o'qitishni amalgaga oshirish imkoniyatidir. Bunda ta'limga jarayoni maxsus yondashuvlar va vositalar asosida amalgaga oshiriladi. Boshlang'ich ta'limga Tarbiya fanini o'qitishning inklyuziv ta'limga shakli texnologiyasi asoslari quyidagilardan iborat:

- mashg'ulotlarni o'quvchilarning ruhiy, jismoniy va aqliy imkoniyatlariga mos ravishda texnik vositalardan foydalangan holda tashkil etish;
- ruhiy yoki jismoniy nuqsoni mavjud bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus mashg'ulotlar tashkil etish, unda vaqt omilini va o'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish;
- o'quv-tarbiya muassasalarida mazkur fanni inklyuziv ta'limga vositasida o'qitish;

\* mazkur ta'limga shaklida mashg'ulotlar tashkil etilganida mutaxassislar ishtirokidan unumli foydalanish. Inklyuziv ta'limga shakli - Tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarni pedagogik turkumdag'i fanlar vositasida inklyuziv ta'limga asoslarni o'zlashtirishi shart.

Muammoni hal qilishda fikrlarni tizimlashtirish va sinflarni amalgaga oshirishga, jamoa yoki aksincha qarama-qari pozitsiyani shakllantirishga imkon beradi. O'qituvchi taklif etilgan muammo bo'yicha o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishni so'raydi. To'g'ridan-to'g'ri yoki ommaviy aqliy hujumning boshlanishini tashkil qiladi. Fikrlarini taklif qiladilar, baholaydilar va optimal fikrni tanlaydilar. Ular tayanch xulosaviy fikr sifatida alohida qoq'ozlarga yozadilar va doskaga mahkamlaydilar. Mashg'ulotlar uchun loyihalalar tayyorlanadi. Mashg'ulotlar loyihalarda quyidagilar aks etishi kerak:

- mavzu bo'yicha ma'lumotlar matnini berish;
- har bir mavzu bo'yicha bir necha topshiriqlar majmuini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan topshiriqlarda o'quvchilarning mustaqil fikrashi va ijodiy yondashuvini hisobga olish;
- har bir topshiriqlarni jadvallar, diagrammalar va tasvirli shakllar bilan taqdim etish;
- o'quvchilar bilan virtual aloqaga kirishish;
- o'qitishning elektron-modulli shakli asoslarni o'zlashtirish<sup>75</sup>.

**"Zinama-zina"** texnologiyasi o'quvchilarni o'tililgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrashni xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Ushbu texnologiya talabalar bilan bir guruh ichida yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi<sup>76</sup>. Texnologiyaning

<sup>75</sup> Набиарова О., Умарова З. Бошлангич таълимда "Тарбия" фанини ўқитиш методикаси. Ўкув шартийи. Чирчик: 2021.-Б.(156).

<sup>76</sup> Назуходжев Р. Таълимда инновацион технологиялар. Тошкент, Истевъодд, 2008. -Б 23-30.

maqsadi shundan iboratki, u o'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullahga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatadi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Tarbiya texnologiyasi "tushunchasiga ta'rif bering?"
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar haqida ma'lumot bering?
3. "Taqidiy fikrlash" texnologiyasi kimlar tomonidan kiritilgan?
4. "Taqidiy fikrlash" texnologiyasi necha bosqichda amalaga oshiriladi?
5. "Taqidiy fikrlash" texnologiyasining afzalligi nimada?
6. Inklyuziv ta'lif texnologiyasi haqida ma'lunot bering?
7. "Pinbord qanday" texnologiya?
8. "Tarbiya" fani o'qituvchisining muammoli ta'lif asosida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish va boshqarishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

**8 MAVZU: TARBIYA FANI BO'YICHA SINFDAN TASHQARI OLIB  
BORILADIGAN ISHLAR**

**Reja:**

1. "Sinfdan tashqari ish" tushunchasining tarixi va uning mohiyati va shakllari
2. Sinfdan tashqari ishlarning ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati, shakl va usullari
3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchida kasbiy tarbiyani shakllantirish

**Tayanch so'z va iboralar:** "Sinfdan tashqari ish", individuallik, "jamoaviylik ruhi", ta'lif imkoniyatlari, motivatsiya, rejalashtirish, bola imkoniyati, kasbiy qiziqish, kasbga yo'naltirish

**1. "Sinfdan tashqari ish" tushunchasining tarixi va uning mohiyati va shakllari**

Hozirgi texnogen sivilizatsiya, globallashuv va ommaviy madaniyat keng tuf olayotgan davrda, bola tarbiyasi masalasi har kungidan ham dolzarb mavzuga aylanmoqda. Ushbu jarayonda o'sib kelayotgan farzand tarbiyasiga ma'sul har bir subyekt bolaga berilayotgan bugungi kundagi e'tibor ertangi funning hosilasi ekanligini, tarbiya masalasida har bir daqiqa g'animat ekanligini anglashlari dolzarb masalaga aylanmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda barkamol avlod tarbiyalashda bolalarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish, ularni ma'naviy, axloqiy, jismoniy jihatdan

tarbiyalashda moddiy-texnik bazalarini yaxshilash, kadrlar sifatini yanada yaxshilash masalasi yetakchi masala sifatida qaralmoqda<sup>77</sup>.

Sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil qilish turli davrlarda o'qituvchi va metodistlarning etiborini tortib kelgan. Sinfdan tashqari ishlarga oid ilk ma'lumotlar XVIII asr rus manbalarida uchraydi. Bu davrda (zodagonlar pansionlari va umumiy) maktablarda tahsil oluvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida o'zlarining tarjima ishlaridan parchalar va insholarini o'qib berishgan. **"Sinfdan tashqari ish"** tushunchasi esa birinchi marta XIX asrda V.Sheremetevskiy asarlarida uchraydi.

XX asrning 60-70 yillarga kelib sinfdan tashqari ishlar sovet maktablari, shu jumladan O'zbekiston amaliyotda ham mustahkam o'rnatishib, pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylanadi. Hozirgi pedagogikada **"sinfdan tashqari ish"** atamasining turli ta'riflari mavjud.

I.A.Kairov unga shunday ta'rif beradi: "Sinfdan tashqari mashg'ulotlar maktab tomonidan o'quvchilar bilim ko'nikmalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek ularning oqilona dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil qilinadi"<sup>78</sup>. **Suxomlinskiy** o'quv jarayoniga bo'lgan o'quvchining izolyasiyasini faqat ularning muvaffaqiyatlari bilan yengish mumkinligini aytadi. U bolalarning yakka tartibda ta'lim olishidan ko'ra jamoaviylik ruhi asosida tahsil olishining foydali ekanligini pedagogik jihatdan asoslab beradi<sup>79</sup>. Haqiqatdan ham bola sinf jamoasida shaxs sifatida shakllanadi, o'z tengdoshlaridan ortda qolmaslikga, ularga yetib olishga harakat qiladi. Ammo o'sib kelayotgan yoshlarimizda ortiqcha bo'sh vaqtning bo'lishi internet tizimida, turli ko'ngilochar klublarda vaqtini besamar o'tkazishiga, turli bezori guruhlarga, oqimlarga qo'shilib qolishiga sabab bo'lmoqda. Shu

<sup>77</sup> Ўзбекистон Республикаси президентининг Ёшларни маънавий -ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш ва уларга таълим-тарбия бериш тизимини янги босқичига кўтариш бўйича 2018 йил 14 августидаги (ПК-3907 сонли) карори

<sup>78</sup> Педагогический словарь Под редакцией И.А. Каирова -М.: Слово, 2004 - С.12

<sup>79</sup> Педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений [Текст] / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов, под ред. В.А. Сластенина. М.: Издательский центр «Академия», 2008. 576 с.

bo'sdan o'quvchilarning sinfdan tashqari vaqtlarini samarali tashkil qilinishiga har bir ta'lim subyekti xoh o'qituvchi, xoh sinf rahbari, xoh ota-onal bo'lsin birdek ma'sul ekanliklarini anglashlari lozim. Ko'p holatlarda o'qituvchi va sinf rahbarlari yoki maktab jamoasi dars jarayonidagina bolaga etibor qaratishadiyu, darsdan keyingi holatiga ota-onalarni ma'sul sifatida qarashadi. Ammo ota-onalarning ko'pchiligi ish, ro'zg'or tashvishlari bilan bandligi yoki farzand tarbiyasida loqayd, ma'suliyatsizligi yoki uquvsizligi sabab o'sib kelayotgan, ayni vaqtida bolaning ta'lim oladigan va kasb o'rganadigan vaqtida uning bo'sh vaqtini yetarli darajada nazorat qilishmaydi. Bu o'z navbatida bolaning to'laqonli shaxs sifatida shakllanishida hamchiliklarni yuzaga keltiradi. **V.N.Bernadskiy** va **A.Sa'diyevning** fikricha sinfdan tashqari qo'shimcha kitob o'qish, fil'mlar ko'rib radioleksiyalar eshitish, olgan bilimlari va tasavvurlari ommaviy faoliyat bilan qo'shib olib borilgan taqdirdagina ko'zlangan maqsadga erishadi hamda mustaqillik, tashabbus va ijodiy ishlash qobiliyatini o'stira oladi. O'zining ilmiy-tadqiqot asarlarida sinfdan tashqari ishlarning nazariy masalalarini ishlab chiqqan **N.F.Rodin** sinfdan tashqari ishlarning ommaviy formasiga kino va spektakllar ko'rish, ekskursiya uyushtirish, o'quv konferensiyalari, kechalar, tanlovlardan tashkil etish, olimpiadalarda ishtiroy etish, maktab ko'rgazmalarini tashkil etish kabilarni kiritadi.<sup>80</sup> Ta'lim jarayonini tartibga soluvchi hujjatlarda, shu jumladan, pedagogik adabiyotlarda **"sinfdan tashqari ishlar"**, **"sinfdan tashqari ishlar"** yoki **"sinfdan tashqari mashg'ulotlar"** va **"sinfdan tashqarimashg'ulotlar"** tarzida ham qo'llaniladi. Rus pedagoglari V.A.Slastenin, I.F.Isayev, A.I.Mishchenko, E.N.Shiyanovlar sinfdan tashqari ishlarni darsdan tashqarida deb hisoblash mumkinligini e'tirof qiladilar. **N.M.Verzelin** sinfdan tashqarifaoliyatning quyidagi asosiy xususiyatlarini farqlab ko'rsatadi:

<sup>80</sup> Назаров Ж.А. Тарих фанини ўқитишида синfdan ташкари ишларниг ахамияти/ “Илм-фан ва таълимда ишларни ўқитишида синfdan ташкари ишларниг ахамияти” кўп тармокни 18-сонлия республика илмий-онлайн конференцияси 2021 йил 30-ноябрь. 1-кнсм. www. academia science. uz. -б.50-54.

1. O'tkaziladigan joyi (sinfdan va darsdan tashqarida bo'ladigan faoliyat).

2. Vaqt bo'yicha darsdan keyin bo'ladigan faoliyat.

3. Ta'lif muammolarini hal qilish bilan bog'liq faoliyat shakli<sup>81</sup>

Darsdan keyin tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va unga qo'yiladigan pedagogik talablar haqida to'xtaladigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars va sinfdan tashqari tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirish o'ziga xos qoidalarga ega. Bunda pedagog sinf jamoasi har bir o'quvchisining tarbiyalanganlik holati bilan tanishib chiqishi, jumladan, o'quvchilarning oilaviy hayoti va sharoiti, ota-onalarning farzand tarbiyalashdagi burchini his qilishi hamda kundalik o'zgarishlarga o'quvchining munosabati, o'quvchilarning milliy qadriyatlar va urf-odat, an'analar haqidagi bilim darjasasi, o'z yurtida yetishib chiqqan olimlar va mutafakkirlar ijodidan namunalar bilishi va h.z. Tarbiyaviy jarayon va tarbiyaviy ish shakllari hozirgi davr talabiga javob beradigan darajada tashkil qilinishi lozim.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda o'quvchilar o'quituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostida, o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan fan xonalarida, kutubxona va uyda yakka tartibdagi reja asosida mustaqil mashg'ulotlari yetakchi shakllardan hisoblanadi. Bunda sinfdan tashqari ishlar uchun ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha shug'ullanish uchun adabiyotlar, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ishlarning samaradorligida o'quvchining o'z-o'zini boshqara olishi muhim va zaruriy shartlardan biridir. Bu o'z navbatida fan mashg'ulotlarining to'liq o'zlashtirilishiga, biron bir kasbga yo'nalishiga yordam beradi hamda o'quvchining turli tadbirdardagi faolligini ta'minlaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish metodikasi sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning umummaktab rejasini ma'naviy va

ma'rifat bo'yicha direktor o'rinnbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'quituvchilar, muktab kutubxona xodimlari, o'quvchiyoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar komiteti hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni maktabning yig'ilishida muholcamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir.

#### **Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kitobxonlikga yo'naltirish.**

Maktabda tashkil qilinadigan "Tarbiya" fani to'garagi sinfdan tashqari qilinadigan ishlarni uyushtirish markazi va uning eng izchil shaklidir. Darsdan so'ng qo'shimcha o'qish o'quvchilarga kitob o'qishni targ'ib qilish, ularning ma'naviyati va dunyoqarashini kengaytiradi. Mazkur jarayonda o'quituvchi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni darslikda ko'rsatilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar bilan tanishtiradi va ularning ahamiyati, foydalanish yo'llari haqida gapirib beradi, hamda yangi chiqqan nashrlar bilan tanishtirib boradi. Sinfdan tashqari o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini kitobxonlikga qiziqtirishning muhim usullaridan biri o'quituvchining o'zi ham faol kitobxon bo'lishi va asarlarning eng qiziq va e'tiborli jihatlarini har bir fan darslarida qissqacha aytib berishi yoki o'qib berishi maqsadga muvofiq. Ammo bu ma'lumotlar cho'zilib ketmasligi 5-8 minutlarni qamrab olishi zarur. Dars jarayonida o'quvchilarga "Kim yaqinda bironta yaxshi asarni mutoala qildi" kabi savollar bilan murojaat qilgan holda kitobxon o'quvchilarni ma'naviy rag'batlantirib borishi lozim. "Tarbiya" fani o'quituvchisi har bir o'quv choragi oldidan ma'lum bir o'qish uchun mo'ljallangan adabiyotlar ro'yxatini e'lon qilib, o'quvchilarni chorak yakunida "Yang yaxshi kitobxon o'quvchi" yoki "Eng yaxshi kitobxon jamoa" sifatida baholab borishi yaxshi samara beradi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning ushbu asarlardan olgan hayotiy xulosalari ko'proq inobatga olinishi darkor. Jumladan 8-sinf o'quvchilariga Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Muhamad Yusuf Muhammad Sodiqning "Ijtimoiy odoblar" asarlari o'qish uchun topshiriq sifatida berilgan bo'lsa, o'quituvchi

<sup>81</sup> Педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений [Текст] / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шишкин, под ред. В.А. Сластенина. М.: Издательский центр «Академия», 2008. -С.63.

tomonidan asar mazmunini ochib berish uchun savollar tayyorlanishi lozim.

Jumladan:

1. O'rta asrlarda yozilgan Kaykovusning "Qobusnom" asarining hozirgi kundagi ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Kaykovus o'z o'g'li Gilonshohga qanday foydali maslahatlarni beradi?
3. Mehmonga borish odobi islomda qanday asoslangan?
4. Kiyinish odobi haqida nimalarni bilib oldingiz va h.z.

Umuman olganda, har bir fan o'qituvchisining muhim vazifasi o'quvchilarni darslikdan tashqari qo'shimcha kitoblarni mutolaa qilishga rag'batini oshirish ekanligini esdan chiqarmasligi va ushbu jahbada pedagogning o'zi o'rnak bo'lishi lozimligini anglashi muhim ahamiyatga ega. O'quvchi darslarning doimiy bir xil takrorlanishidan zerikadi. Bu o'z o'rniда o'qituvchilarni ijodkor va tashabbuskor bo'lishini taqozo qiladi. Fan bilan bog'liq turli kechalar, musobaqalar o'quvchilarni mustaqil o'qish va o'rganish va o'z ustida ishlashiga turtki beradi. Ammo bunday musobaqalarning haddan tashqari ko'payib ketishi ham maqsadga muvofiq emas. O'qituvchi me'yor tushunchasini ham esdan chiqarmasligi kerak.

## **2. Sinfdan tashqari ishlarning ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati, shakl va usullari**

Badiiy asar Tarbiya fani uchun hujatli manba bo'la olmasa-da, o'quvchilarga o'tmishni aniq obrazlarda, qiziqarli qilib, o'quv materialini oydinlashtirgan holda ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Sinfdan tashqari ishlarning ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlaydigan omillar quyidagilardan iborat:

1. Mazkur ishlar ixtiyoriy asosda tashkil qilinib, bunda tarixni chuqurroq o'rganishga ishtiyoqi bo'lgan o'quvchilar ishtirok etadi. Binobarin, dars mavzusi tarix dasturi asosida ma'lum hajmdagi materialni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, sinfdan tashqari ishlarda bunday cheklash bo'lmaydi.

2. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning alohida ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish imkoniyati bordir.

3. Tarbiya fani bo'yicha, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar o'rtasida o'garo yordam, hurmat his-tuyg'ularini mustahkamlaydi, o'qituvchining o'quvchilarni yaxshiroq bilib olishga, ular bilan mustahkam aloqa o'rnatishga yordam beradi. Chunki, bu ishlar o'quvchilarning ma'lum jamoadagi faoliyati bilan mustahkam bog'langan. Bunda boshqalarning mehnat samaralarini ko'rinib, bevosita shaxsiy intilishi, bilimdonlikning qadr-qimmati yaxshiroq bilinadi. Qiyinchiliklarni birga yengish, mehnat natijalaridan qoniqish, yoshlarda iroda va tashabbuskorlik sifatlarini tarbiyalab, jamoani jipslashtiradi.

4. Bu yo'nalishdagи ishlar o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishslash va oddiy tarzda bo'lsa ham, tadqiqot ishlari olib borish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zotan, mazkur ishlarning o'ziga xos xususiyatlari kutubxona kataloglari bilan ishslash, mavzu bo'yicha bibliografiyalar tuzish, ma'lumotnoma, ensiklopedik nashrlardan, arxiv materialllaridan foydalanish ko'nikmasini taqozo etadi.

5. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar darsda olingen bilimni yangi fakt va tushunchalar bilan mustahkamlash va boyitishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlar darsdan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mazkur ishlarni tashkil qilishda o'qituvchi quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozim:

1. Sinfdan tashqari ishlar dars mashg'ularidan farqli ravishda ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi.

2. Sinfdan tashqari ishlar darsning davomchisi va to'ldiruvchisi bo'lib, o'quvchilar tarixiy bilimlarining izchilligi, uzviyigini ta'minlashi kerak.

3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning shakl va usullari juda qiziqarli, germaxmun va rang-barang bo'lishi lozim.

4. Tarbiya fani bo'yicha to'garaklar, guruhlar va hokazolar tashkil qilishda o'qituvchi o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olib, mashg'ulotga jalb qilish hamda ularning tashabbuskorligiga suyangan holda ish olib borishi darkor.

5. O'qituvchi sinfdan tashqari ishlarning mazmun, shakllarini tanlashda o'quvchilarning yoshi, qiziqlishi, o'quvchilar jamoasining tarkibi, matabning imkoniyatlari va xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

6. O'qituvchi sinfdan tashqari ishlari rejalashtirishda ayrim ko'zda tutilgan tadbirlarni (masalan, ekskursiya, ekspeditsiya va h.k.) matabning ta'lif-tarbiya borasidagi vazifalaridan kelib chiqib o'z ish faoliyatini matabdan tashqari muassasalarning ishlari bilan muvofiqlashtirishi muhimdir.

7. Tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni o'qituvchilar faoliyatining ijtimoiy-foydali yo'nalishi bilan qo'shib olib borish zarur. Bu faoliyat matabning ichki va tashqi yo'nalishida olib boriladi.

Tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarning ommaviy, guruhli va individual (yakka) shakllari bor:

Ommaviy shakliga quyidagilarni kirtish mumkin: sayyor darslar, bilimdonlik kechalari, ko'rik-tanlovlar, konferentsiya, viktorina, fan oyliklari, muzeylar tashkil etish, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar va h.k.;

Guruhli shakl quyidagilardan iborat: to'garaklar, jamiyatlar, ma'ruzalar, devoriy gazetalar, so'rovnomalar tashkil qilish, olimpiadalar o'tkazish (I-turiguruhiy hisoblanadi, qolgan turi individualdir) va h.k.;

Individual shakl quyidagilarni o'z ichiga oladi: tarbiya yo'nalishiga oid adabiyotlarni o'qish, loyihalar tuzish, referatlar, ma'ruzalar, o'quv ko'rgazmali qurollar tayyorlash, kishilar xotirasidan olingan yozuvlar va h.k. Shuni ta'kidlash lozimki, sinfdan tashqari ishlarning bir shakli ikkinchi shakl bilan o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishi lozim. Chunonchi, ayrim guruhli ishlar natijalari ko'pincha ta'lif muassasasi darajasidagi kechalari va

konferentsiyalariga kiritilib ommaviy tus oladi. Individual ish esa ommaviy va guruhli mashg'ulotlarning zarur elementlaridan hisoblanadi.

Bu sohadagi amaliyotni kuzatish, tahlil etib umumlashtirish, o'zaro bog'lanishlarda ko'rsatilgan uchala shakldan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Tarbiya fani bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda quyidagi uch usuldan foydaliladi. Bular umuman, barcha fanlar uchun barobar xizmat qiluvchi-og'zaki, amaliy, ko'rgazmali usullardir. Og'zaki metodga quyidagilarni kirtish mumkin: savol-javob kechalari, ma'ruzalar, yatanparvarlar, mehnat qahramonlari, fan va madaniyat namoyandalari bilan uchrashuvlar, fanning bahsli mavzulari yuzasidan munozaralar, voqealarni aks ettiruvchi saxnalashtirilgan ko'rsatuvlar, didaktik-tarbiyaviy asarlar muhokamasi, muhim voqealarga bag'ishlangan kechalar va h.k.

Amaliy usuli quyidagilarni qamrab oladi: ko'rik-tanlovlar, olimpiadalar, krossvord, viktorinalar, xronologiya topshiriqlarini yechish, sayyor darslar, turistik sayohatlar, turli mavzular bo'yicha test sinovlari o'tkazish, sinf xonalari uchun ko'rgazmali qurollar tayyorlash, referatlar yozish va h.k.

Ko'rgazmali usuli quyidagilardan iborat: matab burchaklari, muzeylar, turli xil ko'rgazmalar tashkil qilish, muzeys va fan xonalari uchun fotomontaj tayyorlash va h.k.

**Fan o'qituvchilarining sinfdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirishda sinf rahbarlari, ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat yo'nalishlari.** Sinfdan tashqari ishlar birinchi navbatda tashabbus bilan tashkil etiladigan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy tashabbuskorlar: fan o'qituvchilar, sinf rahbarlari va qo'shimcha ta'lif o'qituvchilar, ota-onalar hisoblanadi. Shu o'rinda ota-onalarning ta'lif salohiyati, tarbiyalanganlik holati qoniqarli bo'lmasa sinf rahbarlari, fan o'qituvchilar uarning farzandlarini sinfdan tashqari mashg'ulotlarga va ishlarga jalb olishida to'g'ri yo'nalish va maslahatlar berib borishlari zarur. Aksariyat ota-

onalar o'z farzandlari kelajagi va ertangi kuni uchun qayg'uradi va bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qilishga sharoit va e'tibor qaratadilar. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi o'quvchilar bo'sh vaqtini unumli tashkil qilish, ularni qiziqtiradigan faoliyatning ma'lum turiga, ommaviy, ijtimoiy foydali faoliyatga jalg qilish. Umumta'lum maktablarida sinfdan tashqari ishlar shunday tashkil qilinishi kerakki, har bir o'quvchining qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlarini o'rghanish asosida ularning individual rivojlanishini ta'minlashi lozim. Sinfdan tashqari ishlarni maqsadli va to'g'ri tashkil qilish bolaning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda muvaffaqiyatli moslashishi, ongli kasb tanlashiga yordam beradi<sup>82</sup>. Har bir o'quvchi o'ziga xos qobiliyatga ega bo'ladi. Ko'plab pedagoglar qobiliyatsiz bola bo'lmasligini faqat uni anglamaydigan bolalar mavjudligini aytadi. Sinfdan tashqari ishlar har bir o'quvchining ijodiy salohiyatini, uning qobiliyatlarini namoyon qilishiga yordam beradi. Bolada individuallikni shakllantiradigan shaxsiy xususiyatlar: tashabbus, mustaqillik va o'ziga xoslikni yuzaga chiqarish sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda innovatsion yondashuvlardan foydalanishni taqozo qiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachining eng muhim vazifasi o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashi, o'z hatti-harakatlariga rahbarlik faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan iborat ekanligini nazarda tutish lozim<sup>83</sup>. O'qituvchi o'quvchi bilan sinfdan tashqari birlgilidagi faoliyatida insonparvarlik, erkinlik va demokratiya tamoyillariga rioya qilishi pedagogik o'zaro ta'sirning samaradorligini oshirishni ta'minlaydi<sup>84</sup>.

<sup>82</sup> Якубова Х.С., Мухамедова Х.Б. Трудовое воспитание, как социальное явление в педагогике // В сборнике «Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития». Материалы 12-й Международной научно-практической конференции. В 2-х книгах. 2018. С. 277-279.

<sup>83</sup> Ходжамкулов У.Н., Перешкова Н. Синфдан ташкари ишларни ташкил этиши: усул ва шакллар// Academic research in educational sciences/Volume 2/Issue 3/2021.-Р.18-21.

<sup>84</sup> Педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений [Текст] / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шишонов, под ред. В. А. Сластенина. М.: Издательский центр «Академия», 2008. 576 с.

"Tarbiya" fanida sinfdan tashqari mashg'ulotlariga o'quvchilarni jalg qilishning dastlabki bosqichida o'qituvchilarning umumiyligi ta'limdagidagi yondashuvlar haqida xabardor bo'lishi maqsadni to'g'ri qo'yishda va maktab istiqbolida muhim ahamiyatga ega. Sinfdan tashqari ishni tashkil qilishning ilk bosqichida o'qituvchi va sınıf rahbarları o'quvchilarni sinfdan tashqari mashg'ulotlarga motivatsiyasini shakllantirishi kerak. Uni tashkil qilishning quyidagi shakllari mavjud: individual darslar, ommaviy ishlar, tanlovlari, viktorinalar, muzeylarga sayyohat, maktab ko'rgazmalari, ekskursiyalar, ijodiy to'garaklar, sport to'garaklari va h.z. Yaxlit pedagogik jarayon sifatida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning doimiy shakllari bilan bir qatorda olimpiadalar, viktorinalar, tanlovlari, musobaqalar, ko'rgazma va ekspeditsiyalar kabi epizodik tadbirlar katta ahamiyatga ega<sup>85</sup>.

Biz sanab o'tgan ish shakllari asosida o'qituvchi boladagi qiziqishlar, fan sohalariga bo'lgan moyillik, uning potensial imkoniyatlari, manfaatlarini aniqlay oladi. Shu asosida o'qituvchi har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish trayektoriyasini ishlab chiqishi va taklif qilishi mumkin bo'ladi.

**Rejalashtirish** - sınıf rahbari faoliyatida bolalar bilan ishlashda to'xtamaydigan ijodiy jarayon bo'lishi, qotib qolgan shaklda bo'lmasligi, doimiy boyitilib borilishi va ijodkorona yondashilishi lozim bo'lgan jarayon sifatida qaralishi lozim. Sinf ishini rejallashtirishda sınıf jamoasini nafaqat tarbiyaviy, balki ta'limiy jihatdan rivojlantirish haqida vazifalar belgilanishi lozim. Rejalashtirish sınıf rahbarining ta'lim sifatini boshqarish texnologiyasida eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirish sınıf rahbariga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- sınıf jamoasini, tarbiyalanganlik darajasi va ularning ta'lim imkoniyatlarini o'rghanish;
- sınıfning ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadini aniq anglash;
- ta'limning strategik va taktik vazifalarini belgilash;

<sup>85</sup> Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шишонов; Под ред. В. А. Сластенина. - М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.

- o'quv faoliyatining shakllari, usullari va vositalarini maqsadga muvofiq tanlash;

- natijalarni tahlil qilish asosida ta'lif-tarbiya tizimidagi har bir subyektning sinf jamoasi boshqaruva faoliyati natijalarini bashorat qilish, rivojlanishdagi oldinga silihishni rejalshtirish uchun faoliyat mazmunini analitik asoslash, kelajakda kutiladigan pedagogik muammolarni aniqlash;

- maqsad va vazifalarni shakllantirish;

maqsadlar va yechimlarga erishishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini tanlash va hokazo<sup>86</sup>. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish ishlari, asosan, mafkuraviy va tarbiyaviy yo'nalishda olib boriladi.

Tarbiyaviy ish bu ta'lif muassasasining barcha pedagoglari zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Shu o'rinda sinf rahbari o'ziga biriktirilgan sinfda dars beruvchi o'qituvchilarning tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtiradi va boshqaradi. Buni sinf rahbarining har bir o'quvchi oilaviy sharoiti, qiziqishlari, ruhiy holati (tashvishlari, muammolari) bilan bevosita tanish bo'lganligi bilan izohlash mumkin.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasи bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uning rejasida biriktirilgan sinf jamoasining sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish masalasi fan o'qituvchilari va ota-onalar bilan bamaslahat rejalshtirilishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa fan o'qituvchilari bilan o'quvchilarning qiziqishlari bo'yicha kichik pedagogik yig'ilishlar tashkil qilib turish yaxshi samara beradi. Bunda tuziladigan ish rejasи choraklik, yarim va bir yillik shakllarida tuzilishi mumkin. Sinfdan tashqari ishlar bolaning shaxs sifatida rivojlanish bosqichlarini belgilab olishni ham nazarda tutadi. **Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:**

◆ bolani qadriyat sifatida bilish, undagi individuallik, o'ziga xoslikni hurmat qilish, ijtimoiy huquqlarini e'tiborda saqlash;

<sup>86</sup> Кошанова Н.М. Умумталим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш меканизмлари(кластер ёндашуви асосида). // пед. фан. фалсафа док. дисс. Чирчик. 2022. -Б. 57.

- ◆ milliylikning o'ziga xos an'ana va qadriyatlariga tayanish;
- ◆ pedagoglar o'rtasida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish;
- ◆ oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyatlari, bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va h.z.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish, avvalo o'qituvchidan ijodkorlikni va yuksak ma'suliyatni talab qiladi. Shu bilan birga pedagogik jihatdan mahoratli bo'lishi ham ahamiyatga ega. Sababi qiziqarli bo'limgan yerikarli mashg'ulotlar bolani zeriktiradi va qo'shimcha shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyasining yo'qolishiga sabab bo'ladi. O'qituvchi-tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarini asos qilib oladilar:

tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishdan maqsad milliy ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e'tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;

tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta'lif bilan uzvyligini ta'minlash; tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobji tomonlarini o'stirish;

bola shaxsiga hurmat va talabchanlik va h.z.

O'quvchining sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli tashkil qilishi uning kelajakda kasbga to'g'ri yo'nalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsdan keyin bola shug'ullanayotgan mashg'ulot va to'garaklar uni maqsadli faoliyatiga zamin tayyorlaydi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatning faol a'zosi sifatida kelgusidagi faoliyatga, biron bir soha yoki kasbning fidokor insoni sifatida tayyorlash hisoblanadi. Kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining eng muhim vazifasi sifatida qaralishi lozim. Bu borada nafaqat maktab, balki boshqa ijtimoiy institutlar jumladan, oila, mahalla, yoshlar ittifoqi kabi ijtimoiy institutlar bunga ma'suldir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasbiy tarbiyaning asosiy vazifasi bolaning aqliy, axloqiy,

jismoniy rivojlanishi, qobiliyatlari va iste'dodlarining ro'yobga chiqishiga zamin yaratishdir.

### **3. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchida kasbiy tarbiyani shakllantirish**

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchida kasbiy tarbiyani shakllantirish asosiy vazifasi:

- bolaning imkoniyatlari va qobiliyatlarini har tomonlama ochish;
- yoshlarni erkin fikrleshga, hayotga tayyorlash;
- o'zini idora va nazorat qilishni shakllantirish;
- o'z shaxsiy hayoiga maqsadli yondashuvning yuzaga kelishi, reja va amal birligi.

Kasbiy tarbiyani amalga oshirishda umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va unga amal qilishini ta'minlanishi muhim. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda o'quvchilarni kitobxonlikga yo'naltirish, o'quvchi ma'naviyati rivojlantirishda eng muhim omillardan hisoblanadi. Shu o'rinda "Tarbiya" fani o'qituvchisi fan mavzulariga qo'shimcha ravishda bola ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muhim didaktik ahamiyatga ega adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishi va bolalarga doimiy tavsiya berib, ularning kutubxonaga borib turishlarini nazorat qilib turishi kerak. Kitob tanlashda asosan milliy tarbiya asoslari singdirilgan "Qobusnoma", "Ijtimoiy odoblar", "Turkiy guliston yoxud axloq" yoki psixologik-motivatsion ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlarni o'quvchi yosh xususiyatidan kelib chiqib tavsiya qilishi lozim. Ba'zi o'quvchilar bu borada o'qituvchi beradigan yo'nalishga muhtoj bo'ladi. O'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ham sinfdan tashqari ishlarning eng muhim vazifalari sifatida rejalashtirilishi lozim. Fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari mакtab kutubxona xodimlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, mакtab yoki sinf jamoasi orasida

sinfdan tashqari vaqtarda kitobxonlik tanlovlaringin o'tkazilib turilishi o'quvchilarning kitobxonlikga bo'lgan rag'batini oshiradi.

Kasbiy tarbiyani zamон talablari asosida kasbiy tarbiyani zamон talablari asosida tashkil etadigan pedagog xodimlarni ushbu jarayonga tayyorlash zaruriyati mavjud. Sababi pedagog mamlakatda qaysi kasb indikatorlariga talab va ehtiyoj yuqori ekanligi va ushbu kasb egalari qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi haqida tushunchalarga ega bo'lmasa maqsadga erishib bo'lmaydi. Sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari faoliyatida kasbga yo'naltirish birlamchi vazifalar qatorida qaralishi va quyidagi tarkibiy qismilari bo'lishi lozim:

- kasbiy ta'lim;
- kasbiy faollashtirish;
- professional maslahat;
- kasbiy moslashuv.

Maktabda kasbga yo'naltirish ishlariga sinf rahbari, mакtab psixologi va fan o'qituvchilari mas'ul bo'lib, ushbu jahhada sinf rahbari markaziy figura hisoblanadi. U kasbga yo'naltirish ishlarida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'quvchilarning o'z-o'zini anglashlariga yordam berish.
2. O'quvchilarning ijtimoiy foydali va samarali mehnatini tashkil etishda ishtirok etish.
3. Kasb turlari va ularning mazmuni bilan muntazam tanishtirib borish.
4. Mintaqa uchun zarur kasb indikatorlarini targ'ib qilish;
5. O'quvchining kasbiy qiziqishlari, niyatlari, imkoniyatlari, qobiliyatlarini o'rgangan holda ularni ota-onalar bilan hamkorlikda tizimli kasbga yo'naltirish.
6. Turli kasb vakillari bilan uchrashuvlar va ekskursiyalar tashkil qilish.
7. Qo'shimcha fan to'garaklarini tashkil qilish.
8. Fan o'qituvchilarning harakatlarini muvofiqlashtirish va hokazo.

Umumta'lim maktabarida o`quvchilar bilan "To`g`ri kasb tanlash nimani anglatadi?", "O`zingizni hayotga qanday tayyorlashingiz kerak?" "Mening qiziqishlarim va yuksak orzularim" mavzusida ijodiy ish va insho tanlovları va ota-onalar bilan suhbatlar o`tkazilib turilishi maqsadga muvofiq. Bunda o`quvchilar kasb tanlashning ahamiyati haqida mushohada qiladilar. Sinfdan tashqari bo`sh vaqtlarini unumli tashkil qilish birinchidan, ularning turli yomon ta'sirlarga tushib qolishidan saqlasa, ikkinchidan o`quvchi qimmatli vaqtini isrof qilinishidan saqlaydi hamda ularning jamiyat talablariga mos tarzda ulg`ayishini ta'minlaydi. O`qitishning asosiy tashkiliy shakli bo`lgan dars va sinfdan tashqari ishlarni qanday shaklda bo`lmasisin ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik va ma`naviy -ma'rifiy jihatdan to`laqonli bajarilgandagina yuksak pedagogik samarani berishi mumkin. Bunda, albatta bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlari, qiziqishi, bilim saviyasi, fikr yuritish doirasi hisobga olinishi lozim. Buning uchun ta`lim va tarbiya beruvchining yuqori darajasidagi pedagogik mahorati va kasbiy salohiyati talab qilinadi. O'sib kelayotgan yosh avlodning bo`sh vaqtlarini unumli tashkil qilish ular kelajagini kafolatidir.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda nimirni hisobga olish lozim?
2. Sinfdan tashqari mashg`ulotlarda kasbiy tarbiyaning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
3. "Sinfdan tashqari ish" tushunchasining mohiyatini izohlang?
4. Sinfdan tashqari ish shakllarini sanang?
5. Sinfdan tashqari ishlarni tarixan shakllangan davr haqida nimirni bilasiz?
6. Sinfdan tashqari ishlarning o`quvchilarning jismoniy va intellektual rivojlanishidagi ahamiyatini qanday baholaysiz?

## 9 · MAVZU: TARBIYA DARSLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH

### Reja:

1. Tarbiya fani darslarida mustaqil ta'limga tashkil qilish yo'llari
2. Tarbiya darslarida ta'lim oluvchilar mustaqil ta'limga faollashtirishda mediata'limga vositalaridan foydalanish
3. Mustaqil ish bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

**Tayanch so'z va iboralar:** tarbiya, erkin fikr, mustaqil fikrlash, didaktik talab, milliy qadriyatlar, axborot, g'oya, faraz, loyiha, ijodiy faoliyat, kreativ filralsh, rekonstruktiv-variativ, evristik, ijodiy tadqiqot, mediata'limga, elektron darslik

### 1. Tarbiya darslarida mustaqil ta'limga tashkil qilish yo'llari

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov "Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch" nomli asarida ta'limga tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limga ajratib bo`lmashligi va bu o`ziga xos sharqona qarash, sharqona falsafa ekanligini ta'kidlagan edilar<sup>87</sup>. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma`naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlariiga asosiy masala sifatida qarash, islohatlar asosida ularni yangi bosqichga ko`tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalash masalasiga ustuvor masala sifatida qaralgan<sup>88</sup>.

Shu o'rinda davlatimiz rahbari fanlarni o`qitishda ta'lim oluvchilarga mustaqil fikr yuritishga kam o`rgatilayotganligi, ta'lim-tarbiya jarayonida fagat o`qituvchi hukmronlik qilib, ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchilarning

<sup>87</sup> Каримов И. Юксак мавъият – сингилмас куч. – Т.: "Маънавият", 2008.

<sup>88</sup> O'sha manba. 75 Ler.

mustaqil tafakkuri oqsoqlanib kelinayotganligini ta'kidlab, mustaqil ta'lim jarayoniga katta e'tibor qaratilgan edi. Tarix va hozirgi zamon voqeliklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mavhum va aqidaparastlik qoliqlarini yengib o'tishni, mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarini baholay olish qobiliyatini talab etdi<sup>89</sup>.

Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan umumiy malaka talablarida tayyorlanayotgan kadrlar o'z sohasiga oid mustaqil qarorlarni qabul qila olishi, raqobatbardosh kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi, o'z ishini ilmiy asosda tashkil etishi hamda mustaqil holda o'z bilim va malakasini oshirib borishi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi qayd etilgan. Oliy ta'lim tizimida bu xususiyatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda mustaqil ta'lim alohida o'rinn egallaydi.

Mustaqil ta'lim -muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirishi lozim bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishi bilan kechadigan, o'zlashtirish jarayoni amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi. Davlat ta'lim standartlari talabiga binoan mustaqil ravishda izlanib o'rganish vazifasi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtirishida mustaqil ta'limning o'rni beqiyosdir<sup>90</sup>. O'quvchilarga mustaqil ta'limni bajarish yuzasidan fan o'qituvchisi uslubiy ko'mak va yo'nalish berib boradi. Mustaqil ta'limning shakli fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda o'qituvchining mavzularini tanlashida ijodiy yondahishiga ham bog'liq. Mustaqil ta'lim o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin bo'lib, bu jarayonda o'quvchi tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rganadi. Bu kelajakda ijodiy va ijtimoiy faol bo'lishida, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil harakat qilishida zarus bo'lib, kelajakga qaratilgan

<sup>89</sup> Каримов И. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: “Ўзбекистон”. 1998. – 535 бет.

<sup>90</sup> Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. Akademik litsey va kasb-hunar kolledjan o'qituvchilar uchun o'quv metodik qo'llanma. – Т.: “Bilim” 2004.

vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlar avlodini shakllantirishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchi mustaqil ishlari muayyan fandan o'quv dasturida keltirilgan o'quv ishlaringin ma'lum qismi bo'lib, unga ajratilgan vaqt davomida rahbar-o'qituvchi maslahatlari asosida auditoriyada va auditoriyadan tashqarida ta'lim oluvchi tomonidan bajariladi<sup>91</sup>. Ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlarni tashkil etish va uni ilmiy-uslubiy jihatdan samarali boshqarish nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, yosh avlodni milliy mustaqilligimiz in'om etgan buyuk ne'mat - inson haq-huquqlarini tom ma'noda himoyalashni kafolatlash va uning o'z xohish istagi bilan ongli kasb tanlash va mustaqil Vatanimiz mustaqillagini mustahkamlashda o'z ulushini qo'shishida ham katta yaratuvchilik ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining bosh vazifasi ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalarda erkin fikrlash ko'nikmalari shakllanmagan bo'lsa berilgan ta'lim samarasiz bo'lib qoladi. Mustaqil fikrlash -katta boylikdir<sup>92</sup>. Bugun o'z oldimizga o'z fikrini erkin bayon eta oladigan, mustaqil fikrlash malakalarini egallagan barkamol shaxsnar tarbiyalashni maqsad qilib qo'yan ekanmiz, bolalarni mustaqil ravishda o'z ustida ishlash va bilim, ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim.

Mustaqil fikrlashni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida gap ketganda, albatta, bilish jarayonlariga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Qiziqish orqali insonda bilishga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj o'sha ob'yekt haqida faol fikr yuritishni talab etadi. Fikrlash, tafakkur qilish asosida subyekt tomonidan ob'yeiktning mohiyati

<sup>91</sup> Каримбосев Х. Олий таълимда талабалар мустакил ишларини ташкил этиш. – // “TA'LIM MUAMMOLARI”. № 4. 2009 – Б 26.

<sup>92</sup> Ганимудатов Т., Гаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси. – Т.: “TURON-JOBOL”, 2010. - 37 бет.

anglanadi. Bu insonda mustaqil fikr yuritish asosida tafakkurini rivojlantiradi. Mustaqil fikrlash uchun mavjud ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish zarur. Tarbiya fani esa hozirgi kun nuqtai nazaridan bugungi kundagi o'zgarishlarni bevosita o'tmishtga, tariximizga bog'lagan holda tahlil qilishni o'rgatadi va talab etadi. Mustaqil fikrlash inson o'z-o'zini anglaganida, o'zgalarning fikrlarini tushuna olganida, boshqalar bilan faol munosabatlarga kirishgandagina, yuzaga keladi.

Mustaqil tafakkur asosan inson bahs-munozaralarga kirishganida tug'iladi, shakllanadi hamda rivojlanadi. Mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli tashkil qilishda bilishga bo'lgan rag'bat, qiziqish muhum ahamiyatga ega. Shu o'rinda tarbiya fani sintetik fan sifatida bolalarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga o'rgatishda katta imkoniyatlarga ega. Sababi fanning obyekti katta bo'lib o'quvchilarni mushohada qilishga undaydigan mavzular ko'p va xilmal. Shu o'rinda fan o'qituvchisi har bir darsda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda uyga vazifadan ham keng foydalanishi mumkin. Buning uchun uyga vazifaning tarkibini shakllantirishda uning didaktik imkoniyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya fani o'qituvchisi darslik materiallari asosidagina dars o'tadigan bo'lsa ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi. O'quv materialining yangiliqi, qiziqarli va ahamiyatli ekanligi tabiiyki o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Ta'lim oluvchi uchun hali o'zi bilmagan har qanday narsa va hodisa yangi hisoblanadi. Yangi dalillar, hodisalar bilan tanishish, yangi axborotni olish asosida ta'lim oluvchida hayratlanish dars jarayonidan qoniqish hissi paydo bo'ladi.

Dars jarayonida yuqori sifatga erishishni maqsad qilgan o'qituvchi faqat o'zi faol bo'lsa, ya'ni ta'lim jarayonid subyekt va obyekt munosabatlari tarzida qarasa o'quvchi ta'lim jarayonida passivlashib qoladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarga subyekt-subyekt munosabatlari shaklida qarash ustuvor sanalmoqda. O'quvchilarni bilishga bo'lgan qiziqishlarini, mustaqil tafakkurini rivojlantirishda mustaqil ta'lim

imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo qiladi. Ammo umumta'lismaktablarida mustaqil ta'lim imkoniyatlariga yetarli darajada baho berilmayapti. Bu jahhada o'qituvchilarimiz faolligi sust. Ta'lim oluvchilarning bilishga qiziqishini mustahkamlash jarayoniga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Lekin barcha fanlardagi mavzularni zamonaviy fan yutuqlari bilan bog'lash imkoniyati mavjud. Ayniqsa, tarbiya darslarida zamonaviy fan yutuqlaridan foydalangan holda, uni milliy mentalitetimizga munosib tarzda muvofiqlashtirish imkoniyatlari katta.

Bugungi kunda tarbiya fanini o'qitishda ta'limning xilma-xil turlari (tushuntirishli - ko'rgazmali, muammoli, dasturlashgan, tabaqaqlashgan, masofali, modul-bloklari) dan keng foydalanish imkoniyati mavjud. Ana shunday yondashish o'zida quyidagi afzalliklarni aks ettiradi: tarbiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi va tarixiy voqeа mazmunini o'zlashtirish jarayonida muhokama orqali dalillarni sharhlash hamda asoslash shaxsiy fikelarni hosil qiladi. Bu esa, mustaqil fikrlashning natijasi sifatida voqeahodisani tushuntirishning turli usullarini yuzaga keltiradi. Globallashuv davri voqealarini baholashning turli ko'rinishlari bilan tanishish ta'lim oluvchilarga ularni har tomonlama muhokama qilishga imkoniyat yaratadi.

Ikkinchidan, ularni ko'p ovozli fikrlashga, tezkor o'zgarishlar bo'yicha bahs yuritganda, turli farazlar, qarashlar yuzaga kelishi, biroq hamma ovozlar muhimligi, ularni eshitma olish lozimligiga o'rgatish kerak. Nihoyat, bunday "ko'p qirrali"lik ta'lim oluvchida tarbiyaviy jihatdan muqobililik asosida tushunishni shakllantiradi.

Shu sababli tarbiyaning serqirra mazmuni, uni o'rganishning o'ziga xos xususiyati o'qituvchi uchun ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga katta imkoniyatlar ochadi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarish - har bir tarbiya fanlari o'qituvchisi uchun mas'uliyatlari va murakkab faoliyatdir. Faoliik va mustaqillikni shakllantirish ta'lim

oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu masala har bir o'qituvchi oldidagi muhim masalalardandir.

Ta'limga oluvchilarda mustaqillikni shakllantirish to'g'risida fikr yuritilganda, o'zaro aloqador ikki jihatga e'tibor qaratish lozim. Birinchidan, ta'limga oluvchilarda bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish; bilimlarni mustaqil egallash, o'z dunyoqarashini shakllantirishga o'rgatishdan iborat bo'lsa, ikkinchidan, o'zlashtirgan bilimlarni amaliy mashg'ulotlar va mustaqil faoliyatda qo'llashga o'rgatishdan iboratdir<sup>93</sup>.

Tarbiya fanlarini o'qitish jarayonida ta'limga oluvchilar tomonidan egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llash ta'limga oluvchilarning mustaqil va kreativ tafakkurini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda texnologik yondashuv ta'limga oluvchilarda tarixiy tafakkurni barqaror ravishda rivojlantirishga imkon beradi, ularda fikrlash jarayonlarini tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarishning yaxlitligini ta'minlaydi. Mustaqil ta'limga ta'limga oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish vositasi, ularda shaxs hususiyatlari sifatida faollik va mustaqillikni shakllantirish, aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatidir. Məktəbə ilk bor qadam qo'ygan o'quvchi hali o'z faoliyati maqsadini mustaqil qo'ya olmaydi, o'z harakatlarini rejalshtirish, ularning amalga oshirilishiga tuzatishlar kiritish, natijalarini qo'yilgai maqsad bilan solishtirib ko'rishga kuchi yetmaydi. Tarbiya fanlarida egallanadigan ko'nikmalar yordamida u turli bilimlarni olish, o'quv topshiriqlarini bajarishga imkon beradigan mustaqillikning yetarlicha yuqori darajasiga erishishi kerak. Tarbiya darslari jarayonida ta'limga oluvchilar yangi bilimlar bilan tanishib, taqdim etilgan bilimlarni qabul qildilar. Mustaqil qayta ishlashlari, anglashlari, shu asosda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qiladi. Mustaqil ishning asosiy vazifasi yuqori bilimli shaxsnı shakllantirishdir, chunki faqatgina mustaqil intellektual va ma'naviy faoliyat jarayonidagina inson rivojlanadi.

Tarbiya fanlarini o'qitishda ta'limga oluvchilarning mustaqil faoliyati: turli yondashuvlar tahlili mustaqil faoliyat tuzilishi "Mustaqillik" tushunchasi va uning vazifalari fandagi ma'lumotlar ularni nafaqat ta'riflash va tushuntirishni, balki inson manfaatlarida bu hodisalarini, ularni o'zlashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Shunday qilib, tarbiya fanini o'rganishda biz, eng avvalo, u bilan tanishishimiz, uni yaxlit ko'rib chiqishimiz kerak. Uning har bir qismlari vazifasiga ko'ra o'zaro aloqadorligini aniqlash, keyin esa ta'rif berish kerak. O'qituvchilar ta'limga oluvchilarning mustaqil bilim olishlari borasida yo'llanma berishlari, ularni aqliy mehnatni ilmiy tashkil etish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirishlari, ya'ni maqsad qo'ya olish, unga erishish vositalarini tanlay olishlariga ko'maklashishlari, ta'limga oluvchilar vaqtga nisbatan to 'g'ri yo'nalish olgan holda o'z faoliyatlarini rejalshtirishlari talab etiladi.

Ta'limga oluvchilar dunyoqarashini shakllantirishda sinf xonada o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlariga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Shundan kelib chiqib, ta'limga muassasalarida mustaqil ta'limga maqsadli tashkil qilish natijasida ta'limga oluvchilarning fanlar bo'yicha bilimlarni faol va ongli o'zlashtirishlarini ta'minlash shu bilan birga kelgusidagi kasbiy mutaxassislik faoliyatiga keng tayyorlash, hayotiy maqsadlarini aniq va to'g'ri shakllanishiga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Mustaqil ta'limga maqsadli tashkil qilish natijasida ta'limga oluvchilarning bilimlarni faol va ongli o'zlashtirishlarini ta'minlash, shuningdek, ularni matabdan keyingi kasbiy faoliyatga keng tayyorlash hayotiy maqsadlarining aniq va to'g'ri shakllanishiga erishish mumkin. Mustaqil ishlar samarali bo'lishi uchun ta'limga oluvchilar quyidagilarga e'tibor qaratishlari lozim:

• mustaqil ish shaxsning o'z intellektual imkoniyatlarining kengaytirishida muhim o'rinn tutishini;

<sup>93</sup> Акрамова Г.Р. Ўқувчиларнинг mustaqil bilim olishlarini tashkili etishining назарий асослари. // Халқ таълими № 5. 2011 – Б 57.

- mustaqil ishni bajarish, ular dunyoqarashini, tafakkur tushunchalarini kengaytirishini anglashlari darkor.

Mustaqil ta'limda o'quvchi axborotning asosiy qismini mustaqil o'zlashtiradi. Shuning uchun ularga mustaqil ishni to'g'ri rejalashtirishda va ish vaqtini unumli tashkil qilishda yordam berishi zarur<sup>94</sup>.

Mustaqil ishni tayyorlash uchun fanning nazariy asoslarini puxta o'zlashtirish kerakligi, tanlab olingen mavzuni yoritish uchun uch, to'rt savol qo'yilishi kirish va xulosalardan iborat bo'lishi muhim. Mustaqil ishslash darsni qayta takrorlash bo'lmasdan, mustaqil ish har bir o'quvchining bilim olishida asosiy omil o'quv faoliyatni bo'lib qolishi lozim. Mustaqil ta'lim o'quvchini tanlangan mavzu bo'yicha tayyorlaydigan ishini mustaqil davom ettirish va keyinchalik bu ko'nikma bilan o'quv jarayonini davom ettirishiga yordam beradi.

**Mustaqil ta'lim, uning didaktik maqsadi va turlari.** Mustaqil ta'lim - belgilangan o'quv topshiriqlarini ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil va ijodiy bajarish maqsadiga yo'naltirilgan o'quv faoliyatni bo'lib, uning negizini ta'lim oluvchining mustaqil ishlari tashkil etadi. Mustaqil ishlari o'quv – bilish faoliyatining bir turi, o'quv faoliyatining tashkiliy shakl – usuli, bilim o'zlashtirish yo'li, vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari didaktik maqsadi, mustaqil o'quv faoliyatining darajasi, yakka kishiga yoki guruhga mo'ljallanganligi, axborot manbai, bilim olish metodlari, shakl va bajarish o'rniiga ko'ra ham tasniflanadi, farqlanadi.

Mustaqil ish – muayyan mavzuni va fanni o'rganish jarayoni vaqtida amalga oshiriladi, ta'lim oluvchilar muammoli savollarni hal etishlari, dars mashg'ulotlarida olingen bilimlarini mustahkamlashlari talab qilinadi. Mustaqil ish davomida metodik materiallarda belgilangan muammoli savollarni mustaqil ravishda hal etadilar. Mavzu bo'yicha tavsija etilgan adabiyotlarni o'rganib chiqish orqali ishni ma'ruza mashg'ulotiga tayyorgarlik

ko'rish bilan boshlash zarur, chunki mavzuning mazmunini tashkil etuvchi savollar to'g'risida umumiylashtirishda ega bo'ladilar, so'ng esa mustaqil ish paytida mazkur metodik materiallarda ko'rsatilgan ma'ruza savollarini o'rganib, ularning mazmunini chuqurroq tushunib oladilar.

**Mustaqil ishlari xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi** - bu sirdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma'lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat, ya'ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida ta'lim oluvchilarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun ta'lim oluvchilar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko'zda tutiladi.

**Mustaqil ishlari xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi turi.** Bunda o'zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishslashga va tipik vazifalarni, ya'ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi. Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiylashtirishiga shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g'oyasi (tamoyili) e'lon qilinadi, ta'lim oluvchilardan ushbu g'oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

**Mustaqil ishlari xususiy-didaktik maqsadining uchinchi turi** ta'lim oluvchilarda uchinchi bosqich – tipik bo'limgan vazifalarni bajarish chog'ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir. Bu maqsadga ta'lim oluvchilardan o'rganilayotgan obyektdagi o'zgarishlar sabablarining algoritmlarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

**Mustaqil ishlari xususiy-didaktik maqsadining to'rtinchi turi** ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishdagi ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati shundan iboratki, bunda ta'lim oluvchilar muhokama qilinayotgan obyekti mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo'lgan yangi, oldindan noma'lum bo'lgan g'oyalarni topish va yangi

<sup>94</sup> Исламова Ш. Олий таълимда талабалар мустакил таълимига ташкил қилишининг услубий масалалари // Та'lim muammolari № 3. 2009 – Б 3.

axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo'lgan yangi aloqalar munosabatlarni o'rnatadi. Bunda ta'limga oluvchi vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o'zi yaratishi lozim bo'lgan, uning uchun yangi bo'lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi.

Mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi: namunalar bo'yicha mustaqil ishlar; rekonstruktiv-variativ; evristik (qisman, ijodiy); ijodiy tadqiqot. Namunalar bo'yicha mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir. Ular materialni o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin ta'limga oluvchilarning ijodiy faolligini o'stirmaydi.

**Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar** nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

**Evristik mustaqil ishlar** ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarda qo'yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog'liqdir. Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammochni ko'ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo'ljallaydi.

**Ijodiy tadqiqot ishlari.** Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo'ladi. Ta'limga oluvchi o'z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo'lgan holda masalaning hal qilinish yo'llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo'yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

## 2. Tarbiya darslarida ta'limga oluvchilar mustaqil ta'limga faollashtirishda mediata'limga vositalaridan foydalanish

Talabalar mustaqil ta'limga tashkil etish va ularni muayyan fanlar bo'yicha mustaqil bilim egallash jarayonining samaradorligini oshirish ta'limga tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Agar dars mashg'ulotlari davomida egallangan bilimlar bevosita o'qituvchi ishtirokida shakllansa, mustaqil bilim egallash jarayoni talabalarning ongli ravishda, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini nazarda tutadi. O'qituvchi yordamida orttirilgan bilimlar kelib chiqishdayoq, saralangan, tushunib olish uchun maqbul shaklga keltirilgan, motivatsiyasi va muqaddimasiga ega didaktik material deb baholanishi mumkin. Bunday shaklda "uzatiladigan" bilim va ko'nikmalar o'quvchilar tomonidan nisbatan oson o'zlashtiriladi, ammo tezroq xotiradan ko'tariladi ham. Shu bois bu bilimlarni ta'limga oluvchining doimiy xotirasidan joy egallashi uchun turli uslublar asosida takrorlashlarni nazarda tutish zarur. O'qitish jarayonini amalga oshiruvchi asosiy subyekt sifatida qaraladigan o'qituvchi, an'anaviy tizimdagidan farqli o'laroq, o'tkazilgan mashg'ulotlarning natijalarini ta'kidlovchisi emas, balki bu natijalar ko'rsatkichini oshiruvchi asosiy kuchga aylanishi lozim.

Hozirgi kunda ta'limga tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar ta'limga oluvchilar egallashlari lozim bo'lgan o'quv fanlari tizimi rejasini va bu fanlarni o'zlashtirish uchun o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy shakl va usullarining roli va ahamiyatini ham bir qadar o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, milliy dastur asosida ishlab chiqilgan yangi o'quv rejalarida ta'limga oluvchilarining mustaqil ishlari va ularni tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu jarayon yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, xususan, multimedia vositalarini qo'llagan holda amalga oshirilsagina samarali natijalar berishi shubhasizdir. Bugungi kunda jamiyat hayotiga singib borayotgan, yangi yo'nalish sifatida keng shakllanib

borayotgan mediata'lim o'qitishning an'anaviy shakl va usullarini sifat jihatidan yangi darajaga ko'taribgina qolmay, balki fanlarni o'rganish jarayonida yangi variativ uslubiyotlarni yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yaratilayotgan uslubiyotlar:

- insoniyatning qadimgi davridan hozirgi kungacha bosib o'tgan tarixiy yo'li, uning ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy tajribasi haqidagi bilim asoslarini egallagan barkamol shaxsni tarbiyalash;
- fan bo'yicha ta'lif oluvchilarda bilimlarni ijodiy qo'llash, borliqdagi haqiqatda mavjud voqealarni, uning noyobligi, yagonaligi va shu bilan birga uzviy ravishda tarixiy harakatlarning yagona oqimga tegishli ekanligini tarixiy tahlil qilish asosida tushunish qobiliyatini rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakasini yuqoriligini ta'minlash.

Biz taklif etayotgan uslubiyot esa, ta'lif oluvchilarning mustaqil ishlarini mediata'lim vositalari (matbuot, televidenie, radio, kino, internet, tele va video konferensiylar) yordamida tashkil qilishga qaratilgan bo'lib, bu yerda mazkur vositalar fan bo'yicha muayyan jarayonlarni yoritib berish, olib borilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar, ular ning natijalarini obrazli taqdim etish, konstruksiyalash, egallangan bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari jamlangan vosita sifatida ahamiyatlidir.

Mustaqil ish mavzusi bilan bog'liq o'quv materiallarni mediata'lim vositalari, xususan, ommaviy axborot vositalari (OAV) (radio, televidenie, matbuot, Internet va boshq.) orqali qay darajada yoritilayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;

- fan bo'yicha o'quv materiallarni internet tarmog'ining qaysi elektron manzillaridan topish mumkinligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishlari, ya'ni elektron manzillar o'yhatining mavjudligi;

- o'rganilayotgan fan doirasida respublikamizda, qolaversa xorijiy davlatlarda tashkil etilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, forumlar, turli joyihalarning o'tkazilayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi;
- ta'lif oluvchilar mustaqil ishlari uchun ajratilgan mavzularni multimedia vositalari yordamida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- kompyuter vositasida mustaqil olingan bilimlarni o'zlashtirish darajasini bevosita o'qituvchi bilan muloqotga kirishmasdan aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishi va zarur hollarda bu ko'rsatkichni qoniqarli darajaga yetkaza olishi.

Bunda "mavzularni multimedia vositalari yordamida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish" nafaqat mos texnikani mavjudligini, balki o'qituvchi tomonidan tayyorlangan muayyan fan bo'yicha o'quv uslubiy majmua (O'UM) jar bosma nashr ko'rinishidagi uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, turli elektron shakldagi o'quv qo'llanmalari jumladan, electron darslik, elektron uslubiy qo'llanma, ma'ruzalarning elektron shakli, internet materiallari, OAVlari yordamida berib borilayotgan eshittirishlar, masofaviy o'qitish uchun yaratilgan elektron manbalar va boshqalar yordamida o'zları shu mayzu bo'yicha mustaqil holatda ham nazariy, ham amaliy bilimlarni ola bilishlari va o'z bilimlarini nazorat savollariga berilgan javoblar hamda test vositasida tekshira oishlari nazarda tutiladi.

Tarbiya fanlarini o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati benihoya katta. Tarbiya fanini o'qitish ta'lif jarayonida, xususan mustaqil ta'limi tashkil etishda mediata'lim vositalarini qo'llash va dars samaradorligini oshirish faqatgina qimmatbahoh jihozlar (videokamera, kompyuter, kinoapparat va boshqa.)ga bog'liq bo'lmasdan balki, bu jihozlarsiz ham o'quv jarayonini mediata'limning boshqa vositalari yordamida (rasmlar, plakatlar, krossvordlar, kundaliklar, intervyyu, ssenariy va turli o'yinlar) tashkil etish mumkin. Ya'ni, o'quv jarayonining samaradorligi mediata'limning boshqa vositalarini jarayonga qay tarzda

tatbiq etilishiga bog'liq bo'ladi. Bunda o'qituvchining yaratuvchanligi va ijodkorligi muhim o'rinni tutadi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarni tashkil qilishda turli vositalari va kompyuterlar fan bo'yicha muayyan jarayonlarni yoritib berish, olib borilayotgan izlanishlar, tadqiqotlar, ularning iatijalarini taqdim etish, egallangan bilimlarni shakllantirish imkoniyatlari jamlangan vosita sifatida ahamiyatli hisoblanadi. Mustaqil ish mashg'ulotlarida multimedia vositalari, xususan kompyuterlardan foydalanishi eng avvalo o'quv topshirig'ining dinamikada, ya'ni turli animatsiyalar bilan boyitilgan namoyish holatida o'rganish, bilimlarning yangidan-yangi manbalar bilan to`ldirilib turilishi eng samarali jarayonlardan biri sifatida ahamiyatlidir. Shuningdek, o'quv jarayonida mavzuga oid xulosalarni o'quvchilar o'qituvchi bilan savol-javob, muhokama qilish yo'li orqali chiqarishlari, slaydlar, referatlar va ilmiy ma'ruzalar tayyorlashlari, umuman olganda topshiriqlarni mustaqil ravishda bajara olishlari mumkin.

Ijodiy xarakterdag'i, izlanish talab etiladigan topshiriqlar (interfaol usullar yordamida) bu asosan talabalarning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bunday topshiriqlarni yechish jarayonida talabalardan izlanish, mushohada yuritish va eng maqbul hamda oson yo'l bilan qo'yilgan masalani hal etish vazifasi qo'yiladi. O'qituvchi mashg'ulotni tashkil etishda noan'anaviy usullardan foydalanib (davra suhbat, "intervyu" darslari turli boshqotirmalar yechish darslari, videokonferensiylar uyushtirish yoki turli slaydlarni namoyish etish orqali) turli multimedia vositalarini qo'llagan holda har bir o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni oson va qiziqarli tarzda yetkazib bera olsa, mustaqil ta'lim mashg'ulotining samaralorligi yanada oshadi. O'quvchilarda esa ta'limning bu turiga nisbatan ijobiylar qarashlar shakllana boradi.

Tarbiya fani bo'yicha mustaqil ishlarni tashkil etishda turli boshqotirmalar (krossvord, skanvord, rebus, sikloved va boshq.)dan samarali foydalanish mumkin.

Texnologik yondashuv ta'lim taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida bugun amaliyatga tezkor tatbiq etilishi lozim. Qolaversa, I.A.Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasida qilgan ma'rurasida, "Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqarish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur", degan ko'rsatmalarini unutmasligimiz har bir fan o'qituvchisi yangi texnologiyalarni loyihalashga ijodiy yondashishi lozim<sup>95</sup>.

Xulosa qilib aytganimizda dars mashg'ulotlarida mustaqil ta'lim uchun o'quv materiali mazmunini aniqlash va mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtirishda mediata'lim vositalari, xususan multimedia vositalaridan foydalanish yangidan-yangi imkoniyalarni oshib beradi. Sababi mediata'lim vositalari, xususan multimedia vositalaridan foydalanish mashg'ulotlarning emotsiyonallik jihatidan kuchayishi, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyati jarayonida bir qadar o'zgarishlarning yuzaga kelishi, ularning o'quv jarayoniga, qolaversa faoliyatining natijalariga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga olib keladi.

### 3. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi

Mutaxassislar taylorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o'quv-tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda ta'im oluvchilarning mustaqil ishlari muhim o'rinni egallaydi. Mustaqil ishlarni deganda, yuqorida ta'kidlanganidek, shunday o'quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko'nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta'minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog'liq ravishda 4 ta mustaqil ish

<sup>95</sup> Сайдикмедин Н. Технологик ёндашув устуворлиги. "Ma'rifat" газетаси. 2003 йил 19 февраль

tipida amalga oshadi. Maktab o'quvchisida mustaqil ta'lif olish malaka ko'nikmalarini shakllantirish ishlarni rejali va asta-sekin murakkablashtirish, yuqorilab boradigan bosqichlar (darajalar) shaklida tashkil etish maqsadga muvofig. Bu jarayon ko'p qavatli binoning yuqori qavatlariga zinapoyalar orqali ketma-ket, izchil chiqib borilgani singari sodir bo'ladi.

Ta'lif oluvchining mustaqil ta'lif olishi bosqichli (darajali) tashkil etilganda, masalan, quyi bosqichlarda - birinchi bosqichida mustaqil ishlar reproduktiv darajada, ya'ni o'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan bajariladi; ikkinchi bosqichda - yuqoriroq - mahsuldor darajada masalan, tanlangan mavzu bo'yicha biror loyiha tayyorlash kabi mustaqil ishlar shaklida; uchinchi bosqichda - yana yuqoriroq - mahsuldor, evristik darajada, qisman ijodiy izlanishni talab etadigan mustaqil ishlar doirasida; va niyoyat to'rtinchi - eng yuqori ijodiy xarakterdagi mustaqil ishlar darajasida tashkil etilishi mumkin. Ta'lif oluvchilarning mustaqil ta'lifni rejali va bosqichli tashkil etilishi undan ko'zda tutilgan ta'lif maqsadlarini ro'yobga chiqarishga, bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-gumanitar va kasbiy tayyorgarligi darajasini yuqori ko'tarishga, ta'lif-tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma'ruba tinglash vaqtida undagi ayrim nazariy masalalarni tushunib olish qiyin bo'lishi mumkin. Ma'ruba jarayonida tushunish qiyin bo'lgan, noaniq joylarni belgilab qo'yish, ma'ruzadan keyin mustaqil ishslash, kitob o'qish, alohida suhbatlar, maslahatlar yordamida o'zlashtirishning yuqoriroq doirasida egallash lozim. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- ◆ mustaqil ish mavzusining ilmiyligi;
- ◆ mustaqil ravishda o'z bilimlarini yanada oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi;
- ◆ mustaqil ishlarni vazifalarini individuallashtirish;
- ◆ mustaqil ishlarni tashkil etishga uslubiy yordam berish.

Ta'lif muassasalardagi o'quv jarayoni mustaqil tahsilni tashkil etilishini ham ko'zda tutadi. Ta'lif oluvchilarning mustaqil tafsili ularning o'z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishi sifatida qaraladi. Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi ta'lif oluvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini o'stirishdir. Mustaqil tahsilning vazifalari: shaxsning intellektual imkoniyatlarini yangilash, ularning g'oyaviy-nazariy naviyясini oshirish, kasbiy mahorati va madaniyatini takomillashtirish. Mustaqil tahsil bo'yicha mashg'ulotlarning izchilligini va maqsadga muvofigligini ta'minlash maqsadida uning rejasি tuziladi.

Rejaga quyidagi talablar qo'yiladi:

- ◆ rejalahshtirilayotgan ishlarning hajmi va oldinma-ketinligi;
- ◆ ularning bajarilish muddatlari;
- ◆ mustaqil faoliyatning har bir turiga maqsadli ko'rsatmalar berish.

Mustaqil tahsil jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart. Mustaqil tahsilning asosiy usuli adabiyotlar ustida individual ishslashdir. Bu usul axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to'g'ri baho berish, ushbu axborotdan o'zining tanlagan kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo'lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi. Shuningdek, mustaqil tahsilga amaliy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalarini bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishslash ham kiradi.

Mustaqil tahsilning muhim metodlaridan biri muloqotdir. Mustaqil ta'lifning pirovard maqsadi ta'lif oluvchilarni ijodiy izlanishga, har tomonlama o'zi ustida ishslashning mohiyatini anglashga tortishdir. Mustaqil ishlarni bajarish o'qituvchi tomonidan boshqarilmaydi. Lekin shunda ham o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa bo'lmasa ham, uning mustaqil faoliyat

natijalari kutilgan natijani bermaydi. Shu bois bu faoliyatni takomillashtirishda o'qituvchining ta'siri katta bo'ladi. Shuni hisobga olish kerakki, ba'zi o'quvchilar o'quv faoliyatga befarq, hatto mustaqil ishni ham bajarmaydi. Bu vaziyatning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. O'qituvchi bularni aniqlab oldini olish va bartaraf etishi shart bo'ladi. Mustaqil ishlarga bo'lgan talablarning biri ularni tartibli hamda mustaqil bajarishdan iborat. Agar bilim mustaqil anglangan, his etilgan, qiyinchiliklarga duch kelib o'r ganilgan bo'lsa, unda bu bilim to'la va chuqur o'zlashtirilgan bo'ladi. Bularning bari mustaqil ishni bajarish natijasida amalga oshadi. Bu o'z navbatida o'r ganilayotgan fanga ma'suliyatlik, o'quv faoliyatiga ko'nikma, ish faoliyatini rejalashtirish, vaqt ni tejab ishslash, o'z-o'zini nazorat qilish, korreksiya (xatolarni tuzatish) qilish va hokazolarga bog'liq ham bo'ladi<sup>96</sup>. Shunday qilib, mustaqil ishlar o'qitishning eng muhim metodi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi. Mustaqil ishni o'quvchi kutubxonada, axborot resurs markazida bajarish mumkin. Mustaqil ishlar axloqiy, badiiy siyosiy adabiyotlarni tahlil qilish shaklida ham bo'lish mumkin. Bu faoliyatarning barchasi mustaqillikni talab qiladi. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari davomida bu jarayonlarni olib borish maqsadga muvofiq emas. Mustaqil ishslash va mustaqil ta'lim o'quvchi tomonidan doimiy aqliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantiradi, vaqt ni tejab ishlatishga o'rgatadi.

O'quvchilarda ijodiy tayyorgarlik jarayonida mustaqil ta'limni tashkil etish uzluksiz va uzviy amalga oshirilishi kerak. Bu yo'nalishda yuqori natijaga erishishda darsdagi o'quv materiallarini mustahkamlashga qiziqish hosil qilish, o'quv axborotlar sig'imini darslik va qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil holda kengaytirishga ishtiyoq hosil qilishga asoslanadi. Mustaqil

ta'lim shaklini tanlashda bolalarga individual yondashish yaxshi samara beradi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Mustaqil ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi nimalarga e'tibor berishi lozim?
2. O'quvchining ijodiy tafakkurini shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati qanday?
3. Tarbiya fani bo'yicha o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda mustqail ta'lim shakllari qanday tanlanishi maqsadga muvofiq?
4. Mustaqil ta'limni tashkil qilishning noan'anaviy shakllarini sanang?

<sup>96</sup> Абдалова С.Р. Талабаларнинг мустакил таълимини назорат қилиш йўллари. // Xalq ta'limi № 1, 2008 – Б 63-64.

## **10 - MAVZU: TARBIYA FANI XONASINING O'QITUVCHI TOMONIDAN ILMIY-METODIK JIHOZLANISHI**

### **Reja:**

1. Ta'lif jarayoni sifatini oshirishda ta'lif xonasining o'rni va uni o'quv-uslubiy ta'minlashga qo'yiladigan talablar
2. O'quv jarayonida texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati

**Tayanch so'z va iboralar:** o'quv xonasi, xona hujjatlari, loyihalash, texnik vositalar, ko'rgazmalar, jadvallar, sifat, didaktika

### **1. Ta'lif jarayoni sifatini oshirishda ta'lif xonasining o'rni va uni o'quv-uslubiy ta'minlashga qo'yiladigan talablar**

Sinf xonasi matabda ta'lif jarayonini tashkil etishning asosidir. Sinf tizimi sharoitida fanni o'qitish yanada maqsadli va samarali amalga oshiriladi. Sababi o'qituvchiga matab o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etishni fan xonasi tizimida amalga oshirish osonroq. Bunda o'qituvchi mavzuga doir turli xil o'quv qurollaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Dars sifati o'z navbatida sinf xonasi dizayni bilan chambarchas bog'liq. Fan xonasi fanning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi, o'quvchilarni uning dunyosi bilan tanishtirishi kerak. Har bir sinf xonasida ekran va ovozli vositalardan foydalanishni ta'minlovchi jihoz va moslamalar (ekran, proyektor, DVD player va boshqalar) o'rnatilishi kerak. Har bir zamonaviy sinfxonada kitob fondini shakllantirish, ovozli va ekranli vositalar, o'quv qo'llanmalar yaratilishi zarur. Xonaning kitob fondi o'qituvchiga nashrlar bo'yicha bibliografik ma'lumotnoma, ensiklopediya, lug'atlar, bosma didaktik materiallar, sinfdan tashqari o'qish uchun adabiyotlar, shuningdek davriy nashrlar bilan ishlashga ko'rsatma beradi va o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarini mustahkamlovchi

yazifani bajaradi. Shuningdek, o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari mustaqil ishlarini amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

### **O'quv xonasini loyihalash bo'yicha tavsiyalar:**

Maktabda ta'lif-tarbiya ishlarini takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri xona tizimidagi ta'lif tizimiga o'tishdir. O'quv xonasini jihozlashda yetakchi rol fan o'qituvchisi zimmasida bo'lsayam, unga maktab ma'muriyati, o'quvchilar va ularning ota-onalari yordam beradi.

Fan xonasini jihozlash bo'yicha barcha tadbirlar zamonaviy, ilmiy, pedagogik, estetik, va boshqa talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Oddiy sinf xonasini fanga moslashtirish uchun doskaning bir qismini magnit doska uchun, ikkinchisini lug'at kartalari, jadvallar, ko'rgazmali qurollar uchun ajratiladi. Doskaning o'rtasi zarur bo'lganda ekran sifatida foydalanilsa, doskaning ikkinchi qismida topshiriqlarni bajarish uchun ishlatalishi mumkin bo'ladi.

### **O'quv xonasining pasporti**

Xona rahbarining ismi va familiyasi						
Sinf xonasi uchun javobgar shaxs						
Sinf Xonaida dars beradigan o'qituvchilar ro'yxati	Hafta kunlari					
Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	

**Sinf xonasini o'quv-uslubiy ta'minlashga qo'yiladigan talablar.**  
**O'quv xonasi** - ko'rgazmali qurollar, o'quv jihozlari, mebellar, o'qitishning texnik vositalari bilan ta'minlangan o'quv, fakultetiv va sinfdan tashqari ishlar hamda fan bo'yicha uslubiy ishlar olib boriladigan joy. Sinfning o'quv jihozlari bilan to'ldirilishi ko'proq o'qituvchining didi va moyilliigi, uning uslubiy texnikasi va pedagogik qiziqishlarini aks ettiradi. Ammo

o'qituvchining didi fanni samarali o'qitishga imkon beradigan sinf jihozlari bilan muayyan talablarga javob berishi kerak.

**O'quv xonalarini o'quv-uslubiy jihatdan quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

- funksionallik (o'quv-uslubiy muhitning har bir elementi funksional (vazifaviy) yo'naltirilgan bo'lishi lozim);
- muvofiqlik (o'quv rejasining o'ziga xos xususiyatlari, talablari, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi);
- muloqot qobiliyatları (sinfning o'quv va uslubiy muhitni axborot jihatdan yetarli, ovozli aloqa, erkin harakatlanishga qulay bo'lishi);
- integratsiya muhiti (axborot va predmet muhitini tashkil qilish) va h.z.

**"Tarbiya" fani o'quv xonasi quyidagi talablarga javob berishi lozim:**

1. Didaktik, tarqatma materiallar va adabiyotlar ro'yxati ta'limning namunaviy dasturlariga mos kelishi lozim.
2. O'quv xonasining jihozlanishi estetik tamoyillarni hisobga olgan holda bitta xonada amalga oshirilishi kerak.
3. O'quv materiallarini saqlash uchun birlashtirilgan seksiyali shkaflar bo'lishi kerak.
4. Doimiy va vaqtinchalik ko'rgazmali qurollar derazalarga qarama-qarshi tomonda ishlatalidi.

**O'quv xonasiga qo'yiladigan talablar:**

- fan bo'yicha umumiy ta'lim dasturini amalga oshirishni tartibga soluvchi me'yoriy xujjatlarning mavjudligi;
- xona dizayni, o'quv va axborot stendlarining estetik talablarga muvofiqligi.

**Sinf xonasidagi plakat materiallari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:**

- o'quvchilar uchun o'quv faoliyatini loyihalash bo'yicha tavsiyalar, o'zini tutish qoidalari;
- sinfda xavfsizlik qoidalari, yong'in xavfsizligi, sanitariya-gigiyena me'yorlariga rioya qilish bo'yicha ko'rsatmalarning mavjudligi;
- dars jadvali, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, qo'shimcha ta'lim dasturi, iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar, maslahatlar va boshqalar bo'yicha jadvallarning mavjudligi.

**Xona xujjatlariga qo'yiladigan talablar:**

- o'quv xonasining pasporti.
- pedagogika, psixologiya, o'qitish va tarbiya metodikasi masalalariga oid adabiyotlar;
- mavjud didaktik materiallarni ko'rish va tinglash uchun texnik vositalar: doska, proyektor, magnitafon va boshqalar;

**O'quv xonasiga qo'yiladigan umumiy talablar:**

1. Sinf xonasida maktab normativ hujjalarning mavjudligi.
2. Xona egasining funksional vazifalari to'g'risidagi hujjat, xona pasporti.
3. O'quvchilar tomonidan sinfdan foydalanish qoidalari.

**Xona faoliyatini o'quv-uslubiy ta'minlashga qo'yiladigan talablar:**

- o'quv xonasini o'quv jihozlari, o'quv-uslubiy majmua, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari majmuasi bilan ta'minlash.
- xona profili bo'yicha o'quv-uslubiy majmua va o'quv qo'llanmalar majmuasining ta'lim standarti va ta'lim dasturiga muvofiqligi.
- ta'lim sifati va o'quv jarayonini diagnostika qilish uchun namunaviy topshiriqlar va boshqa materiallar uchun didaktik materiallar to'plamining mavjudligi.

- o'quvchilar tomonidan o'quv mashg'ulotlari asosida o'quv tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni muvaffaqiyatli bajarishlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.

## 2. O'quv jarayonida texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati

Har bir fanning o'ziga xos xususiyatlari fan xonalari uchun o'ziga xos talablarni belgilaydi. Shu bilan birga o'qituvchining ish yuritish tizimi ta'lim va tarbiya ishlarining yuqori sifatiga erishish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga yordam berishida muhim. Bunga o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish orqali ham, o'qituvchilarni o'quv va sinfdan tashqari ishlarda metod va usullari bilan qurollantirish orqali erishish mumkin. Maktabda sinf xonalarining mavjudligi va ulardan rejalashtirilgan holda foydalanish ta'lim jarayonini faollashtirishning muhim shartlaridan biridir. Sababi o'quv xonasi didaktik vositalardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, bu esa o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'quv jarayonini rivojlantirish uchun sinf xonalarini didaktik vazifalarga qarab jihozlash ularni zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida moslashtirishni, takomillashtirishni talab qiladi. O'qituvchilarning ijodiy faolligini oshirish, o'quv vaqtidan unumli foydalanish, o'quvchilarning faol aqliy faoliyatini rivojlantirish, bilish qiziqishlarini tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining o'quv xonalarini turli xil optik, ovozli, televedeniya uskunalarini hamda dasturlashtirilgan o'qitish va nazorat qilish uchun texnik vositalar bilan jihozlangan. So'nggi paytlarda turli xil o'quv ma'lumotlarini toplash, saqlash, ko'paytirish va almashtirish uchun yangi keng tarqagan uskunalar paydo bo'ldi. Sinf xonalarida tuli xil texnik vositalar bilan ishlash shuni ko'rsatadiki, har xil didaktik vositalar muayyan masalalarni o'rganish usuli bilan belgilanadigan organik munosabatlarda qo'llanilganda ulardan kompleks foydalanish eng samarali hisoblanadi.

O'qitishning texnik vositalari asosida axborotni uzatish jarayonini ta'minlash va o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni chuqurroq va mazmuni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish, olingan bilimlarni amaliyotda yanada samarali qo'llashga ko'maklashish, o'quvchilarning mustaqil ravishda o'zlashtirish istagini rivojlantirish uchun mo'ljallanilgan. Maktab ehtiyoji uchun talab qilinadigan texnik o'quv qurollari majmuasi mamlakatdagi texnik taraqqiyot darajasi, ta'lim va tarbiya vazifalari, shuningdek, fanning o'ziga xos xususiyatlari va o'quv materialining o'ziga xos mazmuni bilan belgilanadi<sup>97</sup>. O'quv jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish o'quvchilarga o'rganilayotgan hodisalar haqida to'liqroq va qulayroq ma'lumot berishga imkon beradi va bir vaqtning o'zida erishilgan ta'limning vizualizatsiyasi o'quvchilar uchun materialni tushunarli va qiziqarli qiladi. O'qituvchining o'quv jarayonida turli xil didaktik vositalarni tayyorlashga sarflagan sa'y-harakatlari o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa pirovardida o'quvchilar bilimi sifatining sezilarli darajada oshishiga, kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, texnik vositalarning mavjudligi va ularni yaratish va muayyan turdag'i o'quv mashg'ulotlarida foydalanishda kompleks, tizimli yondashuv ta'minlamasa har doim ham ijobiy pedagogik samara bermaydi. Aynan shunday yondashuvni texnik o'qitish vositalariga qo'llash zamonaviy o'quv jarayonini takomillashtirishning eng murakkab muammolaridan biridir. O'qitishning texnik vositalari amaliy ko'nikmalarni, umumlashtirishlarni va boshqa turdag'i o'quv mashg'ulotlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan vaqtini tejab, o'quv ma'lumotlarini yanada konsentrangan shaklda taqdim etish imkonini beradi. Demak, texnik o'qitish vositalari o'quv jarayonini faollashtiradi deya olamiz. Ulardan samarali foydalanishda psixologiya - pedagogika fanlari yutuqlari, fanni o'qitish metodikasi, o'quvchilarning amaliy faoliyati tajribasi asos qilib olinishi kerak.

<sup>97</sup> Йиқиев Н.Ф. Совершенствование комплексного применения технических средств в условиях кабинетной системы обучения в средней школе // дисс.канд.наук. автореферат. Москва.1984. (13 00 01). -С. 140.

Har bir o'quv predmeti uchun didaktik vositalar va ularni kompleks qo'llash usullari tizimini ilmiy asolangan holda yaratish bilan murakkab o'quv materialini yanada qulayroq va tushunarli qilish, o'quvchilarning bilim qobiliyatini yanada samarali rivojlantirish, ularning o'quv faoliyatini boshqarish mumkin bo'ladi. Dars tizimida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish bo'yicha umumiylididaktik g'oyalalar puxta ishlab chiqilgan. Ammo tegishli jihozlardan foydalangan holda ishlatiladigan didaktik vositalar asosan tasviriy xususiyatga ega bo'lib, bu har doim ham o'quv materialini o'rganish jarayonida o'quvchilarning bilim faolligini samarali boshqarishga imkon beradi deya olmaymiz. Umumita'maktablarida sinfiy ta'lif tizimida texnik vositalarini foydalanishni yanada takomillashtirish zamonaviy didaktikaning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Sinfdag'i o'quv muhit sharoitida texnik ko'rsatmalarni kompleks qo'llash umume'tirof etilgan tamoyillarni yaxshiroq amalga oshirishga imkon beradi degan xulosaga kelishga imkon beradi. Quyidagilarni ta'minlashda texnik o'qitish vositalari majmuasidan eng samarali foydalanish mumkin:

- ta'larning ilmiy tabiat;
- ta'larning zamonaviy ilmiy-texnikaviy inqilobi sharoitida bilimlarning ayrim sohalari va ularning rivojlanish tendensiyalarining bog'liqligi va o'zaro muvofiqligi;
- amaliyot nazariyasini inson faoliyatining turli sohalarida qo'llash;
- shaxsiy va o'quvchi ta'larning barcha jihatlarini, ularning kasbiy yo'nalishini uyg'unlashtirish;
- o'qitishning tematik ketma-ketligi, subyektlar ichidagi va subyektlararo aloqalarni amalga oshirish;
- bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zlashtirishda o'quvchilarning vijdonliligi, faolligi va o'z-o'zini hurmat qilshini ta'minlash;

- o'qituvchi rahbarligida o'z sinfining faoliyatiga nisbatan o'quvchining individual bilish faoliyat;
- o'quvchining aniq g'oyalari bilan ularning mavhum tafakkurining optimal o'zaro bog'liqligi;
- o'quvchilarning yosh xususiyatlari va u yoki bu fan bo'yicha mavhum fikrashni vizuallashtirish va o'rganish nisbatining o'zgarishi;
- ta'larning barcha bosqichlarida o'quvchining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishning puxtaligi va mustahkamligi, ta'limdagi muammolarni bartaraf etish va boshqalar.

Tabiiyki, o'qitishning yuqorida sanab o'tilgan tamoyillarning har birini o'quv predmeti uchun qo'llanadigan texnik vositalar majmuasiga bog'liq holda ishlab chiqish ancha murakkab va ko'pqirrali vazifa hisoblanadi.

"Tarbiya" fani o'qituvchisi zamonaviy texnik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish masalasi birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu masalani amalga oshirish o'quvchi e'tiborini jalb qilish va saqlash, xotira qonuniyatlarini hisobga olgan holda, o'quvchining aqliy faoliyatini faollashtirish, bilim olish jarayonida ularning mustaqil faoliyatini tashkil etish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish usullari orqali amalga oshirilishi kerak. O'qitishning texnik vositalaridan nafaqat o'rganishni faollashtirish vositali, balki kasbga yo'naltirish uchun ham foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilarni o'quv xonalarini texnik jihozlash, jihozlarga xizmat ko'rsatish ishlariiga, darsga jihozlardan foydalanishda o'qituvchi yordamchilarning vazifalarini bajarishga jalb etish muhim. Darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qitishning texnik vositalaridan samarali foydalanish masalalari mifik o'qituvchilari kengashlari va o'qituvchilarning metodik birlashmalari yig'ilishlarida tizimli muhokama qilinadigan mavzu bo'lishi kerak. Bu esa ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ommalashtirishga katta hissa qo'shadi. O'qitishning texnik vositalari va boshqa didaktik vositalaridan kompleks foydalanish bo'yicha ilg'or tajribani

o'rganish va ommalashtirish ham o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari, tuman va shahar metodika xonalari faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanishi kerak.

Shu bilan birga, xalq ta'limi organlari tomonidan maktablar faoliyatini tekshirish jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish bo'yicha ilg'or tajribani o'rganish va ommalashtirishga jiddiy e'tibor qaratishi lozim. O'qitishning texnik vositalaridan kompleks foydalanish metodikasini o'zlashtirish oliy va o'quv pedagogik o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchini kasbiy tayyorlashda muhim o'rinnegallashi kerak. Ulardan butun o'quv jarayoni shunday qurilishi kerakki, bo'lajak o'qituvchilar bilimlarini o'zlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishning turli bosqichlarida texnik o'qitish vositalaridan samarali foydalanish misollarini muntazam ravishda ko'rishlari kerak. Bu muammoni hal etish nafaqat bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish, balki pedagogika institutlari va pedagogika bilim yurtlarining barcha o'qituvchilari faoliyatini yanada samaraliroq qilish imkonini beradi. Maktablarni texnik o'quv qurollari bilan ta'minlash masalasi hal etilsagina ulardan o'quv va tarbiya jarayonida tizimli, har tomonlama va sifatli foydalanish haqida gapirish mumkin.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Sinf xonasini jihozlashida nimalarga e'tibor qaratish lozim?
2. Sinf jihozlarining ta'lim sifatini ta'minlashdagi ahamiyati qanday?
3. O'quv xonasini loyihalashda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
4. O'quv xonasi pasportida nimlar aks etishi lozim?
5. "Tarbiya" fani o'qituvchisi zamонавиу texnik vositalardan foydalanishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish masalasiga qanday yondashishi lozim?

6. O'quvchilarning sifatli o'zlashtirishini ta'minlashda texnik vositalaridan foydalanishning ahamiyatini izohlang?

## 11-MAVZU: TA'LIM MUASSASALARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Reja:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va texnologiyalari
2. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (tashxislash)
3. Tarbiya fanini o'qitishda ko'rgazmali, tasviriy yordam vositalarini jahb qilish

**Tayanch so'z va iboralar:** bilim, malaka va ko'nikma, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tanqidiy fikrlash, vizualizatsiya, individual xususiyatlar, o'z-o'zini rivojlantirish, tashabbuskorlik.

### 1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va texnologiyalari

Tarbiya - inson tarbiyalanganligining mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muhitni ta'sirini fan va amaliyat isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unta asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmish merosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga to'planib boradi va kelajak uchun tayyorlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi. Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini

qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik faoliyat konsepsiysi va g'oyalari yuzasidan mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S. Bagayeva, A. Baxmutskiy, I. Belevseva, Ye.V. Bondarevskaya, I. Galmukova, S.V.Kulnevich, A.Makarov, A. Mayorov, S.Xoxlova, F.T. Fomenko, I.S.Yakimanskaya va boshqalarning ilmiy ishlarida joriy etish muammolari tadqiq etilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va o'zini rivojlantirishni amalgaloshirish yuzasidan B.R. Adizov, B. Ma'murov, S. Nishanova, R.G. Safarova, E.A. Seytxalilov, K. Hoshimov, F.R. Yuzlikayev, E. Yuzlikayeva va boshqalar tadqiqot ishlari olib borishgan<sup>98</sup>.

Bizning fikrimizcha, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitidagi ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish zarur:

- tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda o'quvchilar faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyati;
- shaxslararo munosabatlarda tafakkurni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;
- pedagogik jarayonlarning o'zaro bogliqligi va aloqadorligi;
- pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni o'ziga xos ahamiyati va zaruriyat;
- motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi;
- motivlashtirish jarayonida axborotlarning ahamiyati.

<sup>98</sup> Ирибасова М.Н. Тайлим-тарбия жараёнларида тарихий-миллий ва замонавий педагогик технологиялар интеграцияси 13.00.01 – Педагогика назарияси, Педагогик таълимотлар тарихи. Педагогика фанлари бўйича филология доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарканд – 2020.

Shaxs-faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog`liq holda o`rganiladi, chunki bu yondashuv asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o`quvchi-talabalar subyekt sifatida faoliyat ko`rsatadi va o`z navbatida, o`quvchi-talaba shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustakil, erkin, tankidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi. Pedagogik jarayonlar va subyektlar faoliyatining tez o`zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuvni joriy etishga e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya`ni boshqariluvchi obyektning ma'lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning ma'qul uslubini qo'llashni talab qiladi. Bu o`z navbatida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga vaziyatlari yondashuvni tafbiq etishni nazarda tutadi. Vaziyatlari yondashuv - pedagogik jarayon samaradorligini aniq vaziyatlarga ko`ra aniqlashni ko`zda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko`ra subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Vaziyatlari yondashuvda boshqariluvchi obyekt hisoblangan pedagogik jarayonning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Vaziyatlari yondashuv jarayonida quyidagilarni inobatga olish o`ziga xos ahamiyat kasb etadi:

- pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan omillarni aniqlash maqsadida pedagogik jarayonda vujudga kelayotgan vaziyatlarni o`rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash;
- turli pedagogik vaziyatlarda erishish mumkin bo`lgan natijalarning samaradorligini oldindan aniqlash;
- pedagogik jarayonlarni va subyektlar faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishni rejalashtirishda mazkur jarayonga ta'sir ko`rsatuvchi omillarni hamda vujudga kelishi mumkin bo`lgan vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish asosida subyektlar faolligini ta'minlash yo'llarini belgilash.

Shuning uchun ham, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya jarayonini amalga oshirishga tayyorlash uchun, fikrimizcha, o'qituvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

- o'qituvchilarda shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining maqsadini aniqlash ko`nikmasini hosil qilish, bunda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olishga erishish;
- o'quvchining hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatni tashkil etish;
- o'qituvchilarda rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish tajribasini shakllantirish;
- shaxsga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni mazmuniga insonparvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish; o`zining va o'quvchisining tajribalaridan ta'lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishga erishish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, o'qitish shakllari vositasida o'qituvchi faoliyatining dolzarbligini oshirish, o`yin, muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish.

Bu jarayonda o'quvchi o`z qobiliyatlarini rivojlantrishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o`z ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishi uchun ta'lim muassasalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda o'qituvchi o'quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o'quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o`z-o`zini namoyon qila olsin. Ta'lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlantruvchi ham bo`lishi kerak. Yuqorida xulosalardan kelib chiqib, umumiyligi o`rtacha ta'lim muassasalarini o'quv tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish uchun tadqiq etadigan bo`lsak, umumiyligi o`rtacha ta'lim muassasalariga o'qishga kelgan o'quvchilarni dastlabki kunlardan boshlab ular uchun qulay va turli, ya`ni nafaqat o'quv, balki sinf va sinfdan tashqari faoliyatga jalb qilish, ularda o'qish, bilim olishga bo`lgan

qiziqishni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Vizual tasvirlar o'quvchilarning tasvirdagi voqelikga munosabatida emotsiyalligini oshiradi, unda harakat qilgan odamlarga hamdardlik tuyg'usini kuchaytiradi. O'quvchilar xotirasida ko'rgazmali tasvirlarning, ayniqsa, ko'rgazmali qurollarning ularning ko`z o'ngida turg'unligi ularning mazmunini tahlil qilish, taqqoslash, sintez qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

## 2. Tarbiya ko'rghanlikni aniqlash (tashxislash)

O'quvchining tarbiya ko'rghanligini aniqlash (tashxishlash) — bu o'qituvchi tomonidan shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik darajasini belgilash jarayonidir. Uning natijalarini tahlil qilish asosida tarbiyalash texnologiyasi asosiy unsurlarining yo'naltirilganligi va mazmunini aniqlashtirish yoki tuzatish amalga oshiriladi. Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtida tarbiya ko'rghanlikni aniqlash (tashxishlash) muammosi pedagogik aniqlashning (tashxishlash) yangi yo'nalishlaridan biri bo'lib, nazariy jihatdan ishlab chiqish bosqichi hisoblanadi. Tarbiya ko'rghanlikni aniqlash, pedagogik ilmiy adabiyotlarda mukammal darajada o'z aksini topmagan, bu esa uning tarbiyaviy texnologiyalarda ilmiy asoslangan holda amalga oshirilishini murakkablashtiradi. Bir vaqtning o'zida ota-onalar kabi o'qituvchilar va turli toifadagi tarbiyachilar ham, har doim uning natijalariga yetarlicha subyektivlikni kiritgan holda, ushbu muammoni hal etishga harakat qilmoqda. Buning natijasida aynan bir xil xarakterdagi o'quvchilarning tarbiya ko'rghanlik darjasini har xil o'qituvchilar tomonidan turlicha baholanmoqda. Hozirgi vaqtida ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy holatlarga tayanmasdan turib, ushbu kamchilikni hal etib bo'lmaydi. Eng avvalo, "tarbiya ko'rghanlik" tushunchasining mohiyatini anglab yetish zarur. Afsuski, u hech bir lug'atda ushbu daraja bevosita muammo sifatida qo'yilib ta'rif berilmagan. Shu bilan bir vaqtida, bir qator pedagogik tadqiqotlarda

(shaxsiy o'rabi turgan ijtimoiy, biologik va geografik muhit, kishilar bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladigan eng olijanob shaxsiy xususiyatlar tarbiya ko'rghanlikni belgilab berishi ta'kidlanadi. Tarbiya ko'rghanlikni aniqlash asosida shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshiriladigan o'quvchining shaxsiy xususiyatlari va sifatlarining shakllanganlik (rivojlanganlik) darajasini ham o'rGANISHGA imkoniyat yaratiladi).

Tarbiya ko'rghanlik darajasini aniqlash jarayonining asosiy xususiyatlari pedagogika va psixologiyada, shuningdek, boshqa fanlarda ishlab chiqiladigan maxsus metodlar tizimini qo'llash natijasida belgilanadi. Bir qator pedagog olimlar ularni uch guruhga birlashtiradilar: **ommaviy, an'anaviy va tashxislash** metodlar.

**Ommavny metod** sifatida dialektikaning asosiy qonuniyatları — miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor etish qonuniyatlaridan foydalilanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ular hech qanday istisnosiz, obyektiv reallikning barcha hodisalarini tahlil qilish uchun qo'llaniladi, biroq o'qituvchilarga faqat so'nggi natijalarni aniqlashtirib olishni talab etadigan va o'rganiladigan obyekt to'g'risida aniq ma'lumotlarni beradi.

Tarbiya ko'rghanlikni aniqlashning **an'anavny metodini** amalga oshirish yanada aniq natijalarni olishga imkoniyat yaratadi. Ular allaqachon yetarli darajada ishlab chiqilgan va turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilmoqda. Amaliyotning ko'rsatishicha, ularning ichida kuzatish uslubi bermuncha maqbul hisoblanadi. Ushbu metod insonning shaxsiy sohasi xususiyatlarini, ularning tabiiy (ilmiy, o'yinli, kasbiy faoliyat va boshqalar) shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini tahlil qilish asosida o'rganib chiqish tushuniladi. U o'quvchilarning tarbiya ko'rghanlik darjasini to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat beradigan xatti-harakatlari, xulq-atvorini muhokama qilishi, shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo'lishini tafsiflaydigan dalillarning tizimi, maqsadga muvofiq jamlanishini ko'zda tutadi.

Tarbiya ko'rganlikning eng ko'p foydalilaniladigan uslubi ***tashxishlash*** metodi bo'lib, unda faoliyat individual tashxishlash suhbat tariqasida olib boriladi. Ushbu metod pedagogik aniqlash (tashxishlash) nuqtai nazaridan o'quvchining tarbiya ko'rganlik darajasini o'zi, atrof muhitdagi kishilar va obyektiv real hodisalar to'g'risida bildirgan fikrlari asosida baholab mazmunini tahlil qilish asosida o'rganishdan iborat. Tashxishlash metod asosida o'qituvchi nafaqat o'quvchining ichki dunyosi, uning qarashlari, ishonchlari, ideallarini chuqur anglab yetishi, balki ijobiy intilishlarini qo'llab-quvvatlashi, uni mavjud muammolarni hal etishga yo'naltirishi, foydali ishlarga ruhlantirishi, yo'l qo'yilgan kamchiliklarga e'tibor qaratishi va ularni bartaraf etishga yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umumiy guruhning so'nggi metodi sifatida faoliyat natijalarini tahlil qilish uslubi ishtirok etadi. U o'z mohiyatiga ko'ra, o'quvchining tarbiya ko'rganlik darajasini u amalga oshirayotgan ijtimoiy va boshqa foydal mehnat faoliyatini tahlil qilish asosida o'rganishdan iborat. Mazkur uslub o'qituvchi tomonidan tarbiyalanuvchilarining xatti-harakatlari va qiziqishlari, ta'lim-tarbiya jarayonida, har xil majburiyatlarni bajarishdagi yuksak natijalar va kamchiliklarning hisobga olinishini nazarda tutadi. Bu esa muayyan bir o'quvchining kasbga yo'naltirilganligi xususiyatlari, uning xarakteri, hayotiy holatining shakllanganlik darjasasi va boshqa faoliyatlarini to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bayon etilgan metodlardan tashqari o'quvchining tarbiya ko'rganligini aniqlash (tashxishlash)da boshqa bir qator metodlar ham pedagogik- psixologik adabiyotlarda batafsil yoritib berilgan. Ulardan har biri, umumiy maqsadga ega bo'lgan holda, maxsus hodisalarni tahlil qilish asosida unga erishilishini nazarda tutadi:

- ◆ hujjatlarni tahlil qilish metodi — o'quvchi shaxsini o'rganishga oid hujjatlarning mazmuni (tavsifnomalar, taqrizlar, tavsiyanomalar va boshqalar);
- ◆ tajriba metodi — o'qituvchilarining fikrlariga ko'ra, zarur bo'lgan sifat,

gilabatta, namoyon bo'ladigan maxsus tashkil etilgan shart-sharoitlarda tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi;

◆ anketalashtirish metodi (intervyu) — oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarga o'quvchi tomonidan beriladigan yozma yoki og'zaki javoblarning mazmuni;

◆ mustaqil xususiyatlar metodi — boshqa shaxslarni muayyan bir insonning tarbiya ko'rganligi to'g'risida fikr va mulohazalarini baholash va muhokama qilish;

◆ tarjimai hol metodi — shaxs hayotida oldingi mehnat faoliyati davrining ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yoritilishi.

Shuni hisobga olish joizki, ko'rib chiqilgan umumiy metodlarni qo'llash o'qituvchiga tarbiya ko'rganlik darajasi to'g'risidagi o'quvchi haqidagi xulosani shakllantirish uchun yetarli darajada mukammal ma'lumotlarni beradi. Biroq, ulardan har biri alohida natjalarning to'liq obyektivligini ta'minlamaydi. Mazkur ko'rsatkich ularni tizimli qo'llashda shart-sharoitlarni oshirish mumkin. Tarbiya ko'rganlikni aniqlash (tashxishlash) natijalarining ishonchligini oshirishning yana bir sharti sifatida uchinchi guruh metodlaridan — maxsus xususiy metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Ular, ko'pincha, professional psixologlar tomonidan psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lgan psixologik tashxishlash (psixotashxishlash) deirasida qo'llaniladi. Ushbu maqsadsa, ko'pincha, o'quvchining maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomada bayon etilgan savollarga javoblarini tahlil qilish asosida tarbiya ko'rganlik darajasining tashxishlashsini ko'zda tutadigan so'rov uslubi qo'llaniladi. Hozirgi vaqqda G. Ayzenk, R.Kettel, D.J.Taylor, Ya.Strelyau kabi xorijlik psixologlarning har bir millat mentalitetiga menashtirilgan shaxsiy so'rovnomalari hamda mahalliy psixologlarning bir qator ishlamalari keng tarqalgan.

Shuningdek, ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgan so'rov uslubiyotlari ishlab chiqilmoqda va

amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu ularga kira olish va uning nafaqat professional psixologlar, balki turli toifadagi o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi imkoniyatini kengaytiradi. Ulardan o'z-o'zini tashxishlash qilishda ham qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda o'qituvchi tarbiyachi sifatidagi faoliyatida quyidagi jarayonlarni bilishi lozim:

1.Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan.

2.Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu - niyatlarasi asosida belgilanadi.

3.Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, belgilangan vazifalarni ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

4. O'qituvchi pedagogik texnologiya bilan bir qatorda tarbiya texnologiyasiga ega bo'lishi lozim: xatti-harakatlarning algoritmi, tarbiyalash shakllarini bilishi, har qanday tarbiyalash metodini amalga oshirish bo'yicha barcha operatsiyalarni bajara olishi lozim.

Tarbiya - inson tarbiyalanganligining mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq holda tarixan shakllanib kelgan pedagogik tushuncha. Uning yordamida insonning rivojlanishiga tashqi muhitni ta'sirini fan va amaliyot isbotlab beradi. Inson butun umri davomida hayotda kimnidir tajribasiga tayanadi hamda unda asosan o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib boradi. U faqat o'tmisht merosxo'ri sifatida ijtimoiy hayotga

to'planb boradi va kelajak uchun tayyorlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini shakllantirib, fuqarolik tarbiyasini mukammallashtiradi. Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o'z amaliy faoliyatida sinab ko'rish, yangi g'oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo'llarini qidirish uchun erkinlik berish, o'quvchining ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday o'quvchi o'ziga xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatini faollashtirish, namoyish qilishga intiladi.

Tarbiya darslarida tashkil qilinadigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni tashkil etishda quyidagi omillarga e'tibor qaratish fuqarolik tarbiyasini rivojlantirishga yordam beradi:

- Tarbiya darslari samaradorligini ta'minlashda tarbiya jarayonining o'quvchilar faolligi va mustaqil faoliyatining ahamiyati asosida tashkil qilinishi;
- shaxslararo munosabatlarda tarixiy tafakkurni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlarning mavjudligi;
- pedagogik jarayonlarning o'zarbo'g'liqligi va aloqadorligi;
- pedagogik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni o'ziga xos ahamiyati va zaruriyat;
- motivlashtirishning samaradorligi pedagogik jarayonlarning natijayligini ifodalashi;
- pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligi;
- motivlashtirish jarayonida axborotlarning ahamiyati.

Shaxs-faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'rganiladi, chunki bu yondashuv

asosida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda o`quvchi - ta`lim oluvchilar subyekt sifatida faoliyat ko`rsatadi. O`z navbatida, o`quvchi - ta`lim oluvchi shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahlili va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Tarbiya darslarida shaxsga yo`naltirilgan tarbiya jarayonini amalga oshirishga tayyorlash uchun, o`qituvchilar oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

- ◆ o`qituvchilarda shaxsga yo`naltirilgan o`quv-biluv jarayonining maqsadini aniqlash ko`nikmasini hosil qilish, bunda o`quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olishga erishish;
- ◆ o`quvchining hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyatni tashkil etish;
- ◆ o`qituvchilarda rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish tajribasini shakllantirish;
- ◆ shaxsga yo`naltirilgan tarbiya jarayoni mazmuniga insonparvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish;
- ◆ o`zining va o`quvchisining tajribalaridan ta`lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishga erishish;
- ◆ zamonaviy ta`lim texnologiyalari, o`qitish shakllari vositasida o`qituvchi faoliyatining dolzarbligini oshirish, o`yin, muammoli o`qitish metodlaridan foydalanish.

Bu jarayonda o`quvchi o`z qobiliyatlarini rivojlanirishi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy fikrlashi va o`z ichki imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishi uchun ta`lim muassasalarida shaxsga yo`naltirilgan ta`limni tashkil etishda o`qituvchi o`quvchilar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, har bir o`quvchi bilim olishdagi xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olib, o`z-o`zini namoyon qila olsin, jamiyatda faol fuqaro sifatidagi o`rnini belgilasin. Ta`lim jarayoni nafaqat axborot, balki rivojlaniruvchi ham bo`lishi kerak. Yuqorida muloxazalardan kelib chiqib, umumiy o`rta ta`lim muassasalarini o`quv tarbiya jarayonida shaxsga yo`naltirilgan ta`limni amalga oshirish

uchun tatqiq etadigan bo`lsak, umumiy o`quvchilarni dastlabki kunlardan boshlab ular uchun qulay va turli, ya`ni nafaqat o`quv, balki sinf va darsdan tashqari faoliyatga jalb qilish, ularda o`qish, bilim olishga bo`lgan qiziqishni shakllantirish maqsadga muvofiqli.

### **3. Tarbiya fanini o`qitishda ko`rgazmali, tasviriy yordam vositalarini jalb qilish**

Tarbiya fanini o`qitishda faqat asosiy ta`lim vazifalarini hal etishga samarali xizmat qiladigan ko`rgazmali, tasviriy yordam vositalarini jalb qilish maqsadga muvofiq. Ta`limni majoziy vizualizatsiya bilan ortiqcha yuklash ijobji oyibatlarga qaraganda ko`proq salbiy oyibatlarga olib kelish ehtimoli mavjud. Vizual tasvir nafaqat berilayotgan ma'lumotlarning muhim belgilarini, balki ikkilamchi, tasodifiy belgilarni ham o`z ichiga oladi. Ma'lumotlarning mohiyatini o`quvchilar ongida ba`zi ko`zni qamashtiruvchi tafsilotlar bilan yashirib qo`yishiga yo`l qo`yib bo`lmaydi.

**Vizual vositalarni dars jarayonida qo'llash asosan quyidagi holatlarda tavsiya qilinishi mumkin:**

- o`quvchilar uchun yangi moddiy obyektlarni, san'at asarlarini o`rganishda;
- o`quvchilar xotirasida taqdim etilgan faktlarning yaxlit ko`rinishini yaratish uchun zarur bo`lgan tasvirlarning yo`qligi;
- atoqli shaxslar siyoshi yoki aholi ijtimoiy qatlamlarining tipik valoddalarini tavsiflashda;
- hissiy va tarbiyaviy ta'sirini oshirishda, ayniqsa, uni o`quvchilar xotirasiga mustahkam o`rnatishda (fotosuratlar, rasmlar, portretlar rol o`ynaydi);
- o`rganilayotgan ijtimoiy hodisalarini tahlil qilish, ularni taqqoslash, rivojlanishini kuzatish uchun shart-sharoit yaratish.

Tarbiyaga oid bilimlarni shakllantirishda obrazli vizualizatsiyaning roli ayniqsa birinchi konsentratsiyada katta. Sababi maktab o'quvchilarida tabiat va jamiyat haqidagi g'oyalari va tushunchalar yetarli darajada bo'lmaydi. Ya'ni, ularda mavjud g'oyalari ravshan bo'lmasligi mumkin. Maktab o'quvchilari juda jonli, vizualizatsiyaga katta qiziqish bilan munosabatda bo'lishadi va bu munosabatni u bilan bog'liq materialni og'zaki taqdim etishadi. "Vizualizatsiya" so'zi lotincha "ko'rish" degan ma'noni bildiradi. Vizualizatsiya - maqsadning tasavvurdagi obrazini yaratish, ya'ni, nimaga erishishni istashi va buni qanday amalga oshirishni tasavvur qilish. Samarali vizualizatsiya istak obyekti va unga erishish harakatlarini o'z ichiga oladi. O'sib kelayotgan avlod maqsadiga erishish uchun har bir qadamni tasavvur etishi, ya'ni qaysi yo'nalishda ishlashi, qanday to'siqlarni yengishi lozimligi va buni qanday amalga oshirish yo'llarnini tasavvur qiladi. Vizualizatsiya ko'plab sohalarda haqiqiy natijalarga erishishda yordam beradi. Ruhiyatshunoslar vizualizatsiyani quyidagi yo'nalishlar uchun qo'llashni tavsiya etadilar:

- yangi ko'nikmalarga ega bo'lish;
- murakkab maqsadlarga erishish;
- o'zini nazorat qilish va ishonch hissini oshirish;
- zo'riqish vaqtida xotirjamlikka ega bo'lish;
- yangi reja va strategiyalarni ishlab chiqish.

Tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi nutqi eng muhim o'rinni egallaydi. So'z majoziy vizualizatsiyadan ko'ra ko'proq sig'imi kontent tashuvchisi bo'lishi mumkin<sup>99</sup>. Sababi og'zaki va yozma nutq nafaqat axborotni uzatish usuli, balki fikrlash vositasi hsoblanadi. Ma'lumotlarning mohiyatini, ular o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni bilish, ularni tabiiy jarayon sifatida anglash nutq asosida yuz beradi. Xotirada saqlangan bilimlarni yangilash, anglash nutq asosida yuz beradi. Xotirada saqlangan bilimlarni yangilash, anglash nutq asosida yuz beradi. Xotirada saqlangan bilimlarni yangilash, anglash nutq asosida yuz beradi. Xotirada saqlangan bilimlarni yangilash, anglash nutq asosida yuz beradi. Metodologiyada ko'pincha "tasvirli hikoya" iborasi qo'llaniladi. Bunda beradi. Metodologiyada ko'pincha "tasvirli hikoya" iborasi qo'llaniladi. Bunda beradi.

<sup>99</sup> Никулина Н.Ю. Методика преподавания истории в средней школе. Учебное пособие. Калининград 2000.-С.48.

o'quvchi eshitgan yoki o'qigan so'zlarda shu so'zlar bilan bog'liq bo'lgan mazmun va ma'noni ongiga joylashtiradi. O'qituvchi hikoyasidan so'ng o'quvchi o'z tasavvurida obrazlantiradi. So'z va vizual tasvirning organik birikmasi, ikkinchisiga ajralmas suyanish va birinchisining tashkiliy, hal qiluvchi roli bilan olgan ma'lumotlarini ongli va doimiy o'zlashtirishning zarur shartidir. Shu bilan birga, hech bir darslik o'qituvchining jonli nutqining o'rnni bosa olmaydi. U o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishni tashkil qiladi, yo'naltiradi, his-tuyg'ularini, muayyan hodisaga munosabatini belgilaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tarbiyaviy ishlar metodikasi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, o'qitish, tarbiyalash usullari va vositalari majmuasidir. Tarbiyaviy ishlar metodlari esa o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, vositalarini pedagogik jixatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo'llaridir. Metodlar uzlusiz ta'lim tizimida tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etishda muhim vosita bo'lib, uning samarasini o'quvchi - yoshlar shaxsining har tamonlama kamol topishida ta'sir ko'rsatadi. Tarbiya metodlari vositasida jamiyat tamonidan ta'lim muassasalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini amalga oshiradi va ularning rivojlanganlik darajasini takomillashtiradi. Ushbu jarayonda o'quvchining ijtimoiy ongni shakllantirish va mexnat faoliyatiga tayyorlash, ragbatlanirish metodlari ularning hayot, ahloq, mehnat qilish munosabatlari to'g'risida qoida va me'yorlarini hosil qilish kabilalar shaxsning e'tiqodi va ishonchiga aylanib boradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida suhbat, tushuntirish, ma'ruza, bahs, namuna ko'rsatish, o'rgatish, qayta tarbiyalash, mashq qilish, sog'lom muhit yaratish, maqtash, mukofotlash kabilalar o'quvchi hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman yoshlarining tarbiyasi bilan yetarlichcha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikka va oqibatda inqirozga yuz tutadi. Buning oldini olish uzlusiz ta'lim tizimida tarbiyaviy ishlarni oqilona amalga

oshirishdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki tarbiya oiladani boshlanadi, ya'ni "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan halq maqoli mavjud. Oila – kichik davlat ekanligini bolalarga yoshlidan tushuntirish ularning axloqli-odobli bo'lib voyaga yetishda buyuk allomalarining ota-onasi va farzandlar haqidagi fikrlari va ularning tarbiyaviy ahamiyatini mактабда, oilada va jamoada o'rganish ularning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllantirishda dasturi amal bo'lib hizmat qiladi. Farzandlarning ota-onasi oldidagi burchi va vazifalari ularni qobil, insonparvar, kamtarin bo'lib o'sishida ilm va hunar o'rganishi, yurish-turish madaniyati, uyda, jamoat jaoylarida o'zini tutish, kiyinish madaniyati, mehmon va mezbon bo'lish, dam olish qoidalari, bemorlarni yo'qlash va ta'ziya udumlari, oilaviy sanalar va hadiyalar, o'zbek millatiga xos bo'lgan milliy qadriyatlarni rivojlantiradi. Farzandlar oila muhitida ota-onalarning bilimlarini uzlusiz egallash, uni qurshab turgan hayotning barcha tomonlari va jabhalari bo'yicha o'z dunyoqarashiga ega bo'lish, ularning individual qobiliyatini rivojlantirish, atrofdagilarga nisbatan mas'uliyat hissini kamol toptirish kabilalar shaxsning ijodiy qobiliyatlarini, uning g'ayrat va tashabbuskorligini oshirishga imkon yaratadi. Bu o'rinda sinf rahbari ota-onalar bilan bolaning zehnini o'stirish ularda mehnatga chanqoqlik hissini uyg'otish, hayotda e'tiborli va baxtiyor bo'lishiga shart sharoitlar yaratadi. Uzlusiz ta'lim tizimida o'quvchini yaxshi xatti-harakatlarga majbur etishgina emas, balki ularda mehnatga ko'nikma va mehrni kuchaytirish, hayotda o'ziga loyiq ish topa bilish imkoniyatini yaratish uchun oilaviy shart-sharoitlarda uning muqaddas burchi hisoblanadi. Demak, ota-onalar o'z farzandlarida yaxshi fazilatlarni o'stirsa, ular kelajakda ma'naviy boy, jismoniy barkamol bo'lishning asosini tashkil etadi. Shunday ekan, o'qituvchining bosh vazifasi bola ruhida adolat va e兹gulikni shakllantirishga hayotning rahmsiz zarbalaridan omon saqlash va rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. O'quvchilar va ota-onalar bilan birgalikda bugungi murakkab globallashuv davrida o'quvchi yoshlarda milliy g'oya va

mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va yatanparvar insonlar Albatta, ushbu jarayonida milliy tarbiya asoslarini o'rganish o'quvchilarda faxr, g'urur va oriyatni shakllantirish, bugungi mustaqil, erkin hayotimizning qadriga yetish, vatandoshlarimizga mehribon bo'lish, bevabechoralarga yordam berish ahil, totuv va qudratli xalq bo'lish, tuyg'usini rivojlantirishda muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan ham o'qituvchi tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarda ma'suliyat, tejamkorlik, iqtisod, ma'naviyatni shakllantirish asosida ularda faollik, barchaga o'rnak va namuna tuyg'ularni rivojlantirish muhim. Chunki, tarbiya xalqimiz hayotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalari asosida o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish, ular qalbida yuksak axloqiy fazilatlarni, ma'naviyima'rifiy bilim doirasini kengaytirishda muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan uzlusiz ta'lim tizimida "Milliy tarbiya asoslari", "Tarbiya millat madaniyati", "Kitob bilim manbai", "Bilimli yoshlar – kelajak bunyodkori", kabi tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirish o'quvchilarda dunyoviy, diniy bilimlari rivojlantiradi.

**O'n minutlik esse.** Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shaldi bo'lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiylar yoki dastlabki dunyoqarashni o'z ichiga oladi. O'n minutlik essenini yozish qoidalari ("Zamonaviy pedagog" mavzusida):

1. Takhif etilgan mavzuga doir so'zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo'lishi mumkin.
  2. "Pedagog deganda ko'z oldimga ... keladi", "Mening fikrimga ko'ra pedagog ... bo'lishi kerak", "Zamonaviy pedagog ... kabi sifatlarga ega bo'lishi kerak" kabi jumlalardan foydalaning.
  3. O'zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo'lgan ustozlaringizdan biri misolida orzuungizdagagi pedagog timsolini gavdalantiring.
- Blits-o'yin.** O'yinni o'tkazish tartibi:

tinglovchilarga jadvalning chap tomonida berilgan tushunchalar bilan tanishib chiqish taklif etiladi;

dastlab individual ravishda tushunchalarga mos javobni o'ng tomondagi fikrlar orasidan tanlab, tartiblangan raqamini "indiv. javob" ustuniga (masalan "1" raqamli tushunchaga "10" raqamdagи javob) yozish so'raladi; 3) so'ngra xuddi shunday tartibdagi ish kichik guruhlarda amalga oshiriladi. Ya'ni "guruh javobi" ustuni to'ldiriladi. Kichik guruh a'zolarida mazkur ustunga yozish uchun yagona javob bo'lishi lozim;

o'qituvchi to'g'ri javoblarni o'qiydi. Tinglovchilar o'zlariga berilgan qog'ozning "kalit" ustuniga javoblarni yozib chiqishadi.

tinglovchilar mustaqil ravishda kalitga asoslanib, "individual xato" va "guruh xatosi" ustunlarini to'ldiradi. Har bir tinglovchining va kichik guruh natijalari tahlil etiladi.

#### **"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari.**

**Keys:** O'qimay kelganlar to'rga o'tsin. Darsga tayyorlanmay keladigan o'quvchilar bo'lishi tabiiy hol. Tayyorlariksiz kelgan o'quvchilar uchun imkoniyat beriladi. Bunda o'qimay kelgan o'quvchilarni oldingi partaga o'tqazish asosida blits savol-javoblar vaqtida har bir savolning javobini ulardan qayta so'raladi. Boshqa bir tinglovchiga savol berilganida, u javob bergenidan keyin xuddi shu savolni o'qimay kelgan o'quvchiga yana qayta beriladi. U sinfdoshi aytgan javobni diqqat bilan eshitib takrorlaydi. Aytolmasa, yana takrorlattiriladi va shu asosida diqqatini jamlashni o'rnanadi. Dars oxirigacha u ko'p ma'lumotni eshitadi va gapiradi. Natijada darsdan nimadir (kam bo'lsa-da) olib chiqib ketadi.

**"Assesment" metodi. Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo`nalishlar (test,

amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:** "Assesment"lardan ma'ruza mashg'ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, dars mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

**Qiyosiy tahlil.** "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari o'rtaqidagi o'xshashlik va farqli jihatlarni tahlil eting.

**Simptom** O'qituvchining pedagogik faoliyatga nazariy tayyorligi...

**Amaliy ko'nikma.** Misol uchun vijdon bilan yonma-yon keladigan axloq kategoriyalariiga 3 ta misol keltiring.

**"Brifing" metodi.** "Brifing"- (ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki mavzuning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press-konferensiya.

**O'tkazish bosqichlari:**

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).

Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga do'sharb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi. Tinglovchilar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan mobil ilovalarning taqdimotini o'tkazishda ham foydalanish mumkin.

**"Portfolio" metodi.** "Portfolio" - (ital. portfolio-portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta'limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga

xizmat qiluvchi zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o'quv-metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig'indisi sifatida aks etadi. Jumladan, tinglovchi yoki tinglovchilarning modul yuzasidan o'zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo'ladi.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Vizualizatsiya" so'zining ma'nosi nima?
2. Vaziyatlari yondashuv - pedagogik jarayon samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini baholang?
3. Vizual vositalarni dars jarayonida qo'llash asosan qaysi holatlarda tavsiya qilinishi mumkin?
4. Ruhiyatshunoslar vizualizatsiyani qaysi yo'nalishlar uchun qo'llashni tavsiya etadi?
5. Tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchi nutqining o'rni qanday?
6. Tarbiyaviy ishlar jarayonida suhbat, tushuntirish, ma'ruza, bahs, namuna ko'rsatish, o'rgatish, qayta tarbiyalash, mashq qilish, sog'lom muhit yaratish, maqtash, mukofotlash kabilalar o'quvchi hayotida qanday ahamiyat kasb etadi?

## **12-MAVZU: TARBIYA DARSLARIDA AXBOROT**

### **TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH**

**Reja:**

1. Axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lif jarayonini tashkil etish metodlari
2. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvি
3. O'smir-yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikning avj olishi va uning salbiy jihatlari
4. Maktab o'quvchilarini dunyoqarashini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning amaliy masalalari

**Tayanch soz va iboralar:** axborot, vosita, texnika, innovatsiya, vizual, elektron pedagogika, aralash ta'lif, ijtimoiy tarmoqlar, illyustretsiya, elektron format, reproduktiv, kommunikatsiya, kompyuter

#### **i. Axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lif jarayonini tashkil etish metodlari**

XXI asrda axborotning jamiyatga kirib kelishi dunyo rivojlanishining bosh yo'nalishlaridan biriga aylandi. XXI asr axborot asri bo'lib, axborot bilimlarini namoyon etish bilan ajralib turadi. Shu jihatdan har bir fuqaroda axborot madaniyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki, jamiyat hayotida axborot texnologiyalari va axborot faoliyatining kundan kunga o'sib borishi faqatgina o'tmishni, tarixni, bugunni qamramgina qolmay, balki kelajak bilan shug'ullanuvchi fuqarolar faoliyatidagi natijalarini ifodalaydigan jarayon hisoblanadi<sup>100</sup>. Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol uslublar

<sup>100</sup> Мавзумова М.У. Таджикларда ахборот маданийтини шакллантиришнинг мөхияти. //ЎзМУ хабарлар. Гонконг. 2018. 12-сон -б. 194-196.

(innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (o'quvchi) yoki egallayotgan bilimlarni o'zлari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zлari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbilayalanishga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda, boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi<sup>101</sup>.

**1. Texnologiya va pedagogik texnologiya tushunchasi.** Texnologiya so'zi odatda mehnat obyektlaridan (asboblar va materiallardan) foydalanish shartlari, texnikasi va ko'nikmalari ma'lum miqdorda, ma'lum bir sifat bilan mehnat natijalarini olish tushuniladi<sup>102</sup>. O'quv jarayoni boshqaruv jarayoni bo'lib pedagogik tizimda bilimlarni tashkil qilishga maqsadli ta'sir hisoblanadi. O'quv jarayonini muvaffaqitli joriy etish uchun pedagogik tizimda maqbul boshqaruvga yordam beradigan pedagogik tizimlarda optimal boshqaruvga yordam beradigan modellar ishlab chiqilmoqdaki, bularga maxsus metodlar va ta'lim texnologiyalarini kiradi.

**2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish metodlari.** Hozirgi vaqtida axborotlashtirish jarayoni inson faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish o'rganishga yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqish va o'qitish usullarini takomillashtirishning zarur shartidir. Ulardan foydalanish talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga, o'qish vaqtini tejashga yordam beradi va interaktivlik va ko'rish o'quv materialini yaxshiroq taqdim etish, tushunish va o'zlashtirishga yordam beradi. Maktab o'quvchilarini axborot texnologiyalarini bilan tanishtirish zamonaviy maktabda

axborotlashtirish muammosini hal qilish va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning eng muhim yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini rivojlantirish va qo'llash zamonaviy maktabda ta'lim samaradorligini oshirishning eng muhim usullaridan biriga aylanmoqda. Bu birinchidan, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida foydalanish shakllariga ko'ra tasniflanadi. Tasniflashda rus olimlari I.I.Popova, P.B. Xramtsova, N.V. Maksimova ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi shakllarni taqdim etadilar: interfaol dars, aralash rejim - elektron axborot resursi va o'qituvchi va o'quvchi o'rtaqidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqa, mavjud o'quv kurslari va fanlariga qo'shimcha dars shakllari. Rossiya fanlar akademiyasining Ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy ma'lumotlar instituti olimlari **A.N.Abulov** va **A.M. Kulkinlar** axborot texnologiyalarining ta'limdagи vazifalarini uchta: asosiy, birinchi va ikkinchi toifalarga ajratadi. Masofaviy ta'lim axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinadi. Masofaviy ta'limning o'zi o'rganish usuli bo'lib, u o'quv jarayonida o'quvchining ma'lum bir joyda jismonan hozir bo'lishini talab qilmaydi. Yuqorida fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining o'rni bo'yicha olimlarning fikri turlicha. Shu sababli axborot texnologiyalari asosida o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida amalga oshirish uchun qo'yilgan maqsad va vazifalarni to'liq aks ettiruvchi tasnifni qabul qilish lozim.

**O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish asosan quyidagi holatlarda kuzatiladi:**

- ◆ o'quv jarayonini tashkil etish;
- ◆ o'quv qo'llanmalarini tayyorlash;
- ◆ yangi axborot texnologiyalari materialini o'rganish (o'qituvchining mustaqil taqdimoti va tayyor dasturlardan foydalanish);
- ◆ o'quvchilar bilimini nazorat qilish;
- ◆ internetdan ma'lumot olish va ular bilan ishlash;

<sup>101</sup> Ишмухамедов Р. Таддымда инновацион технологиялар. Тошкент, Истеъодод, 2008. -Б.23-30

<sup>102</sup> Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство . Т.Молия, 2002.

◆ o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilarni bog'lash imkonini beruvchi maktab saytini yaratish va axborot almashinib turish va h.z.

Fan va texnika jadal sur'at bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar va tushunchalarning hajmining ortib borishi o'z navbatida fan texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensialashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Bunday jarayonda, yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni amaliyatda qo'llash ko'nikma va malakasini puxta o'zlashtirgan ijodkor-pedagoglarni tayyorlash talab qilinadi. Ta'limga oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish ta'limga sifatlariini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Sababi zamonaviy ta'limga tizimining asosini sifatlari va yuqori texnologiyali muhit tashkil qiladi. Bugungi axborot almashinuvi shiddat bilan kechayotgan globallashuv sharoitida barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'limga oluvchilarning ushbu bilimlarni tez va sifatlari axborot texnologiyalarili egallashlari bilan birga, muntazam ravishda yangi bilimlarni egallash vazifasini qo'ymoqda. Bu esa o'z navbatida axborot texnologiyalarida yuksak ma'nnaviyatga, intellektual salohiyatga ega zamon bilan hamnafas, mustaqil va teran fikr yurita oladigan pedagog-kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hamda pedagogik ta'limga axborotlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

**1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'limga jarayonini tashkil etish metodlari.** Ta'limga jarayonlari amaliyatida o'qitishning 4 ta asosiy metodidan foydalilanadi: Bular quyidagilardir:

- tushuntirish-illyustratsiya;
- reproduktiv;

-muammoli;

-tadqiqotchilik.

**Tushuntirish metodi** - illyustratsiyalash metodi talaba bilan ta'limga jarayonlari o'rtaida aks aloqaning mavjudligini nazarda tutilmagani bois, uni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish imkoniyatlaridan foydalanish asosida joriy qilish mumkin<sup>103</sup>. O'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan taqdim qilinadigan bilimlarni o'zlashtirishni hamda ta'limga oluvchining o'rganilgan axborot texnologiyalari materialini qayta axborot texnologiyalashtirish, uni analogik (o'xshash) vaziyatlarda qo'llashga oid faoliyatni tashkil qilishni ko'zda tutadi.

**Reproduktiv metodni** axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida qo'llash ta'limga jarayonini tashkil qilish sifatida axborot texnologiyalari yaxshilash imkoniyatini beradi. Ammo o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda muammoli va tadqiqotchilik metodlaridan foydalanish ko'proq o'zini oqlaydi.

O'qitishning **muammoli metodi** axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonini qandaydir muammoni qo'yish va uni hal etish yechimlarini izlash sifatida axborot texnologiyalariida tashkil qilishga doir imkoniyatlaridan foydalanadi. Bunda axborotni to'plash, tartiblashtirish, tahlil va uzatish axborot texnologiyalari ko'nikmalarini egallahga alohida o'tibor qaratiladi. O'qitishning muammoli metodi metod, obyekt va vaziyatlarni ularga ta'sir o'tkazish jarayonida o'rganishni nazarda tutadi.

O'qitishning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalilanigan **tadqiqotchilik metodidan** foydalilanilda ta'limga jarayonida o'quvchilarning fioliyi oshadi hamda ta'limga jarayoni kashfiyat va o'yin shakllarida tashkilashtiriladi. Bu metod yuqorida sanab o'tilgan metodlardan samaraliroq natijani bera oladi.

<sup>103</sup> Йегимкулов У.И., Джурасен Р.Х., Исланов Р.Г. ва бошқалар. Педагогик таълимини ўзбек тарзидаги овардиганларни на амалиёт. Ўзбекистон фанлар академияси "Фан" нашриёти. Тошкент -2011.

O'quvchini o'qitish jarayoni samaradorligini kafolatlash va ta'minlash pedagogik ta'sirlarga reaksiya qiladigan muhitni shakllantirishni taqozo qiladi. Ta'lif jarayonida kompyuter-texnologiyalardan foydalanishning afzalligi, shundaki, birinchidan, o'quv jarayoni samaradorligi ortadi, ikkinchidan, o'quvchi bilimini hisobga olish va baholashni yaxshilaydi, berilgan murakkab vazifalarni bajarishda o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka tartibda yordam berishini ta'minlaydi. Tarbiya fanini o'qitishda axborot-texnologiyalaridan foydalanish undan foydalanuvchilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish ko'nikma va malakalarining rivojlantirishga yo'l ochib beradi. Bilimlar hajmining ortib borishi va tahsil metodlarining murakkablashuvi bilan ta'lifni, asosan, ma'ruzalarni passiv tinglash hamda o'quv tamoyili asosida tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda. Tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tushunish va hal qilish malakalari, juda kam hajmdagi dastlabki ma'lumotlarni foydali umumlashtira olish qobiliyati -bularning hammasi katta ahamiyat kasb etib, ta'lif oluvchidandan yanada faol bo'lishni talab etadi. Aynan shu jihatlari bilan axborot-texnologiyalari ta'lif sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlarni beradi. Axborot-texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga ega:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;
- o'z-o'zini nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o'rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko'rsatishi;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, mul'tipikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishi va h.z.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bajaradigan asosiy vazifasi - ikki tomonlama muloqotni

ta'minlashdir. Ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi doimiy muloqotni ta'minlashdir.

Ta'lif jarayonining eng asosiy xususiyati uning yaxlitligi, tizimliligi, davriyiliği va texnologiyaviyligidir. Zamona viy axborot texnologiyalarining ta'lif va tarbiya ishlari tizimida qo'llanishi mavjud bo'lgan ayrim tushunchalarni ham mazmunan, ham mohiyatan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Shu bois tarbiya jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvi amalga oshirish boshlandi. Ta'lif va tarbiya ishlari jarayoni murakkab jarayon, unda ta'lif muassasasining jamoasi, o'qituvchisi va o'quvchilarning o'zaro munasobatida axborot texnologiyalaridagi yaxlitlik ta'minlanadi. O'qitish jarayonidagi ushbu jarayon audio va video axborot texnologiyalari materiallar, elektron adabiyotlar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Ushbu vaziyatda ta'lif-tarbiya jarayonlari samaradorligi o'quvchining intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bog'liq.

Elektron resurslar jamlanmasi o'quvchida ijodiy fikrlash, tarbiyaviy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Elektron resurslar garchi pedagoglarning ta'lif imkoniyatlarini oshirsada lekin o'qituvchi o'rnini to'la bosa olmaydi. **Elektron formatdagি tarbiya resurslarining afzalligi quyidagilardir:**

- axborotlarning jamlanganligi;
- ko'rgazmaliligi;
- turli animatsiyalardan foydalanilganligi va h.z;

O'qitish jarayonidagi didaktik tamoyillarga - o'quv materialining ishlilligi va tizimliligi, ko'rgazmaliligi, tushunarligi, ilmiyligi kiradi. Axborot texnologiyalarini ta'lif muassasasları ta'lif-tarbiya ishlarini boshqarish tizimida qo'llash o'qituvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- resurslarini o'zlashtirishi oshadi;

- Ta'lim oluvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari, ularning ma'naviy kamoloti darajasi to'g'risida ma'lumotlar olish, ulardagи o'sish ko'rsatkichlarini kuzatish, bashorat qilish va zarur holatlarda tuzatishlar kiritish va h.z. Bularning barchasi ta'lim muassasi ta'lim tizimini takomillashtirishga va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan vositalardir.

Umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitishda yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etishda asosiy vazifa yangi axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning moddiy-texnik bazasini yaratish hisoblanadi.

"Tarbiya" fanini o'qitishda elektron darsliklarning afzalliklari ma'lumotlarni jonli taqdim etish imkoniyati va multimedia texnologiyalarini asosida sizga mos modellarni yaratishga imkon beradi.

Innovatsiyalar, muhim ahamiyatga ega bo'lib, u doimo dolzarbdir. Innovatsiya tashabbus va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbollni hisoblanadi. Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatlari erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bu borada prezidentimiz SH.M. Mirziyoev quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edilar: "**Hammamiz yaxshi tushunamizki, oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni bajarish uchun kadrlar bilan ishlashning butun tizimini takomillashtirishga doir bir qator ishlarni albatta amalga oshirishimiz kerak**".

Pedagogik texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirishga imkon yaratadi. Axborot texnologiyalaridan

tarbiya fani o'qituvchilaridan ham bu vazifalar kuchli ma'suliyat talab qiladi. Barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi ilk maktab yoshidan boshlangandagina ijobji natija berishi sir emas. Oilasi, el-yurti tinch, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalanayotgan bugungi kun yoshlari esa o'z bilim va tafakkurlari, izlanish va intilishlari, hayot bilan hamnafas ekanliklari, ayniqsa, axborot texnologiyalaridan boxabar ekanliklarini namoyon eta olishlari davr talabi hisoblanadi. Sabab har bir dars jarayonida mashg'ulotni qiziqrli va samarali tashkil qilinishida, o'quvchilar diqqatini to'liq jamlay olishi, o'qituvchining ko'zlangan maqsadiga erishishida AKTdan foydalanish samarali natija bermoqda. Chunki axborot oqimidan oqilona foydalanish o'quvchi fikr doirasining kengayishiga amaliy yordam beradi. O'quvchilarda uzliksiz o'z ustida mustaqil ishslash imkoniyati tug'iladi. Hozirgi kunda respublikamiz maktablarining 90% ga yaqini eng zamonaviy o'quv laboratoriya uskunalarini, kompyuter sinflari, elektron darsliklar, uslubiy qo'llanmalar bilan jihozlangan. Kompyuter texnikasi faqatgina tor doirada "Informatika" fanidagina emas, balki uni boshqa fanlarni o'qitish jarayoniga, ayniqsa, elektron darsliklar asosida harakati, didaktik, ko'rgazmalilik, tovushli, sermazmun tarzda qo'llash ustida ketmoqda. Hozirgi kunda ta'limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda. "Tarbiya" fani darslarida AKTni qo'llash o'quvchilarga milliy tarbiya asoslarini singdirishda, ularning tasavvurlarini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Demak, axborot - kommunikatsion texnologiyalari o'quvchilarning mustaqillik va o'zini boshqarish hamda rivojlanishiga yordam beradi. Asosiysi, AKT o'quvchilarning kommunikativ ko'nikma va malakalarini rivojlanishiga va ular o'rtaсидagi hissiy muloqotni o'rnatishga yordam beradi, kompyuter bilan ishsha o'rgatadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyaladan foydalanish dars mavzusining muammoli

masalalarga diqqatni qaratish imkonini beradi<sup>104</sup>. Dars jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali tashkil etish o`ziga xos sifat va samaradorlikni ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash zamon talabiga aylanayotgan ushbu jahhada ta'lim jarayonini hozirgi fan-texnika yutuqlaridan orqada qolmasligi uchun uning talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Bu o`z navbatida o`qituvchilar oldida ham yangi talab va vazifalar qo`yiladi. Eski an'anaviy uslubdagi darslar yoshlarimiz talablariga javob bermayotganligi sababli har bir zamonaviy o`qituvchi zamon talablariga javob berishi lozim. Har bir pedagog-o`qituvchi necha yillik tajribaga ega bo`lishidan qat'iy nazar doimiy o`z ustida ishlashi lozim. Sababi o`qituvchi yoshlar bilan hamnafas fikrlamasa, zamon yangiliklariga va talablariga yoshlarga nisbatan ilg`or, uning ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati samarasiz bo`lib, o`quvchilar oldidagi nufuzini yo`qotadi.

Yuqorida keltirilgan holatlar bo'yicha xulosalangan natija sifatida ta'lim sifatini oshirishning bir necha omillari mavjudligini ko`rish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko`nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal qilib bo`lmaydi<sup>105</sup>. O`quvchi shaxsni mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlar bilan bog`liq vazifalarini ta'limni shaxsga yo`naltirilgan tizimi-vositasida amalga oshiriladi.

<sup>104</sup> Мавлонова Р, Тўраева Ў, Холикбердиев К. Умумталим мактабларида ахборот-коммуникацион мухитни шакллантириши ва ривожлантирилса электрон ахборот-коммуникацион мухитни шакллантириши ва ривожлантириш электрон ахборот таълим ресурсларининг ўрни ва аҳамияти // "Халқ таълими" журнали, - Т.: 2016. 4-сон.

<sup>105</sup> Педагогика. - М.: "Академия", 2002. - Б.5-6. 2. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. - Т.: "Молия", 2006. -Б. 12-14.

## 2. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi

XXI asrdagi misli ko`rilmagan texnik kashfiyotlar insoniyatning o`zaro muloqotini kundan -kunga osonlashtirmoqda. Ammo shu bilan birga internet tizimining butun dunyoni egallashi, axborot globallashuvining rivojlanishi turli xil shakl va mazmundagi tahdidlarni kuchaytirayotganligi bizga sir emas. Mafturaviy tahdidlar ommaviy madaniyat, keyin virtual madaniyat, so`ngra virtual tahdidga aylandi. Turli g`arazli maqsadlarni ko`zlayotgan kuchlar yoshlar ongini egallashda ijtimoiy tarmoqlarni o`ziga qurol sifatida tanlamoqda. Xorijiy internet manbalari, mobil aloqa, kompyuter o`yinlari, video va kino mahsulotlaridan foydalanuvchi o`smir-yoshlar kerakli axborot bilan birga jamiyatimizning axloqiy tartib-qoidalariga zid, milliy mentalitetimizga begona bo`lgan shafqatsizlik, zo`ravonlik va boshqa g`oyalar targ`ibotiga ham duch kelmoqda. Natijada yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish zaruriyati tobora dolbzarlashmoqda. Bugungi zamonaviy jamiyatni biz haqli ravishda "kommunikasiyalar davri", "axborot davri", "elektron asri", "axborot inqilobi" tarzida atashimiz mumkun. Mazkur jarayonda maktab o`quvchilari, o`smir-yoshlar uning eng katta iste'molchisi hisoblanadi. Albatta axborot texnologiyalari yoshlar uchun bilimlarni egallash uchun muhim omil hisoblanadi. Endilikda o`quvchilar media vositalari orqali dunyodagi turli ma'lumotlar, bilimlar, jarayonlar bilan bemalol tanishish imkoniyatiga ega. Bugun dunyodagi ijtimoiy vaziyat va umumiy psixologik iqlim shundayki, o`quvchilar majburiy ta'lim dasturlari kabi internet vositalari dunyoqarashni shakllantirishning ajralmas qismiga aylandi. Natijada axborot texnologiyalardan foydalananish imkoniyatlarining kengayishi o'sib kelayotgan avlodning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ikki xil shaklda: ijobjiy va salbiy ta'sir ko`rsatmoqda. Kommunikasiya vositalari ta'lim uchun mo'ljalanganmi yoki dasturlashtirilgan o`yin yoki mashg`ulotmi har ikkala holatdayam, undan foydalangan har bir shaxs uning ta'sirida bo`ladi va nimanidir o'rjanadi. Insoniyat xuddi o'rgimchak to'riga tushganday internet

tarmog`iga bog`lanib qolayotganligi keyingi o`n yilliklarda yoki keyingi asrda qanday oqibatlarga olib kelishini bashorat qilish mumkun. Qadim zamonlardan o`zaro aloqalarni o`rnatish masalasi insonni o`ziga jalg qilgan. Ammo bugunning o`tmishdan farqi shundaki, hozirgi dunyoda o`zaro muloqotni o`rnatish shakllari tobora ko`payib, murakkab va progressivlashib ketgani sababli har qanday ma'lumot, hattoki eng ahamiyatsiz voqealar ham, ular qayerda sodir bo`lishidan qat'iy nazar bir zumda umumjahon oshkoroligiga aylanadi. Hozirgi zamonaviy dunyo shunday tuzilganki, hatto odamlarning yolg`izlik holatida ham aloqa amalga oshiradi<sup>106</sup>.

Kommunikasiya – bu matematika, fizika, psixologiya, biologiya va tilshunoslikning sintezi orqali shakllangan yangi ilmiy sohadir. **Charl`z Kolining** so`zlariga ko`ra, kommunikatsiya bu mexanizm bo`lib, uning asosida inson aloqasi shakllanadi va har qanday fikrining namoyon bo`lishi, uni vaqt va makonda saqlash ushbu mexanizm vositasida rivojlanadi.

Bugungi kunda o`quvchi dunyoqarashini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o`rni katta. Maktab o`quvchilari dunyoqarashining shakllanishida ishtirok etadigan omillar ichida ijtimoiy tarmoqlar omili boshqa omillarga nisbatan yuqorilab ketmoqda. Hozirda virtual muloqotning ko`plab turli usullari va yo`nalishlari paydo bo`lmoqda. Shu o`rinda ijtimoiy tarmoqlar haqida tushuncha berib o`tadigan bo`lsak, ijtimoiy-tarmoq-internetda ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish va tashkil qilish uchun mo`ljallangan platforma, onlayn xizmat yoki veb-sayt tushuniladi. "Ijtimoiy tarmoq" tushunchasi 1954 yilda paydo bo`lgan va uning mazmuni zamonaviy bo`lmagan. **Djeyms Barnes** tomonidan "ijtimoiy tarmoq" tushunchasi quyidagicha talqin qilinadi: ijtimoiy obyektlar (odamlar va tashkilotlar) va ular o`rtasidagi aloqalar bo`lgan guruhlaridan tashkil topgan ijtimoiy tuzilma". Oddiy qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq -bu bir-birini tanigan kishilarning aniq

<sup>106</sup> Шодмонов Ш.А. Умумий ўрга таълим мактабларида ўкувчиларнинг дунёкарасини социал тармоклар воситасида ривожлантириш технологияси (10-11-сифлар мисолида) 13.00.01 –Педагогика низарияси. Педагогик таълимотлар тарихи. Т.2021.- 15.(175)

bir guruhi. Kompyuter texnologiyalari bilan bog`liq birinchi ijtimoiy tarmoq - elektron pochta texnologiyasi bo`lib, u 1971 yilda paydo bo`lgan. Ushbu texnologiya **ARPANET** (angl. Advanced Research Projects Agency Network) tarmoq`ida harbiylar tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, 1988 yilda **IRC** paydo bo`ldi.- Internet Rear Chat paydo bo`ladi va bu tarmoq real vaqtida muloqot qilish imkonini berdi. Ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishidagi yangi pog`ona internet tarmoq`ining ixtiro qilinishi bo`lib, 1991 yilda insoniyat uchun internetga kirish imkoniyati paydo bo`ldi. Ma'lumot sifatida aytishimiz mumkunki, O`zbekiston internet tizimiga 1996 yilda ulanadi. 1995 yilda **Classmates.com**. o`z davrining eng zamonaviy birinchi ijtimoiy tarmoq`i yaratilgan va nihoyatda tez ommalashdi. Hozirgi kunda Classmates.com. tarmoq`i dunyodagi eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlardan biri sifatida media davrining boshlab berdi. Bugungi kunda dunyoda 50 milliondan ortiq foydalanuvchisiga ega **Facebook** tarmoq`i 2004 yilda paydo bo`lgan. Bir necha yil ichida Facebook dunyodagi eng muhim ijtimoiy tarmoqqa aylandi. Statistik ma'lumotlarga ko`ra mazkur ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni 700 millionga yetdi. Doimiy yangilanishlar va yangi imkoniyatlar ijtimoiy tarmoqlarni ko`plab internet foydalanuvchilari uchun jozibador qildi. 2003-2004 yillarda **LinkedIn**, **MySpace** va **Facebook** AQSh da ishga tushirilgan.

Internet tizimi taqdim etilayogan imkoniyatlariga qarab bir necha guruhlarga bo`lish mumkun:

- ◆ Shaxsiy muloqot (Classmates.com)
- ◆ Ish bilan bog`liq muloqot (LinkedIn)
- ◆ Yangiliklar (Reddit)
- ◆ Video (Youtube)
- ◆ Audio (Last.fm)
- ◆ Foto (Flickr)
- ◆ Ko`ngilochar (MySpase)
- ◆ Zakladki (Delicious)

- ◆ Xaridlar(Groupon)
- ◆ Blogging (Tumblr)
- ◆ Geolokatsiya (Foursquare)
- ◆ Savol –javob servislari (Answers.com)
- ◆ Virtual dunyolar (Second Life)
- ◆ Tematik resurslar (Slashod) va h.z.

Shuningdek ijtimoiy tarmoqlarni yana quyidagicha tasniflanish mumkun:

- ochiq;
- yopiq;
- aralash.

Bir qator ijtimoiy tarmoqlar, jumladan, Facebook ham to'liq ochiq ommalashgan bo'lib, foydalanuvchining sahifasiga ro'yxatdan o'tmasdan kirish va istalgan ma'lumotni ko'rish mumkun. Ko'pchilik ochiq tarmoqlarni tanqid qiladi. Ammo ijtimoiy tarmoqlarning ijobiyligi jihatlarni ham aytib o'tishimiz lozim. Oshkorali kni maqsad qilmaydigan yopiq loyihamar keng qamrovda ommalashmagan bo'lib, bu holat mavzulari asosan yopiq turdag'i muloqotga xosligi bilan izohlanadi. Shu sababli qoidaga ko'ra bunday guruhlarga kirish uchun ishtirokchidan taklifnomalar talab qilinadi.

Aralash tarmoqlarni rivojlantirish qiyin, sababi to'siqlarga duch kelishga o'r ganmagan foydalanuvchilarning yangi turdag'i ijtimoiy tarmoqlarga o'r ganishi biroz mushkul. Geografik joylashuviga ko'ra ijtimoiy tarmoqlarni quyidagicha tasniflash mumkun:

- hududsiz (InterNations);
- hududuiy birlik;
- mamlakat(Ozone);
- dunyo(hi5).

**Facebook** - dunyodagi eng mashhur ijtimoiy tarmoq bo'lib, 2004 yilda **Mark Sukerberg** tomonidan tashkil qilingan. Hozirgi kunda foydalanuvchilari soni 1,3 milliard kishidan oshmoqda.

**Odnoklassniki** - Rossiyada 2006-yil mart oyida **Albert Popkov** tomonidan yaratilgan uchinchi eng mashhur tarmoq. Foydalanuvchilari soni 200 mlndan oshgan. Loyiha 2013 yil iyuldan ingliz tilida ham o'z faoliyatini boshladi.

**Instagramm, (Instagamm)** - bu yangi ijtimoiy tarmoqning asosiy vazifasi foydalanuvchilar o'rtasida foto va video almashish hisoblanadi. Bu ijtimoiy tarmoq nihotda ommalashgan bo'lib, bunga mukkasidan berilganlar har bir o'tkazgan davrini ochiq namoyish qilishga o'tishgan.

**Twitter** - foydalanuvchilarga beb - interfeys, sms tezkor xabarlar yoki uchinchi tomon dasturlari yordamida qisqa matnlari eslatmalarni yuborish imkonini beruvchi tizim. Twitterning o'ziga xos xususiyati postlarning jamoatchilik uchun ochiqligidir. Bu mikroblogging deb ataladi. Twitter eng ko'p tashrif buyurilgan 10 ta saytdan biri sifatida tan olingan.

Ijtimoiy tarmoqlar har xil bo'lsada bir qator umumiyligi xususiyatlarga ega:

- ro'yxatdan o'tish (foydalanuvchi tomonidan o'zi haqida kiritiladigan, keynchalik esa uni shu orqali idenifikasiya qilish mumkun bo'lgan ma'lumot);
- tizimga kirish (foydalanuvchi ismini ko'rsatib, parolni kiritadi va o'z shaxsini tasdiqlaydi);
- qo'shimcha sozlashlar(masalan, o'zingiz haqida qiziqarli ma'lumotlar, qiziqliqlari bo'yicha).

### 3. O'smir-yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikning avj olishi va uning salbiy jihatlari

Har yili o'tkaziladigan 119-Amerika Psixologiya Assotsiasiyasi tomonidan taqdim etilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yopiq va kontaksiz interovert o'smirlar ijtimoiy tarmoqlar yordamida ijtimoiy ko'nikmalariga ega bo'lishi mumkun. Xususan, bu uyatchan odamlar monitor ekranini, internet aloqasi bilan o'zini xavfsiz his qilish mumkun. Bu ijtimoiy tarmoqlar ijobiyligi psixologik xususiyatga ega. Ushbu texnologik olamda yanada qiziqarli

shundaki, siz faqat bir marta tugmachani bosish bilan istalgan paytda mavjud bo`lgan ko`p sonli hamfikrlarni topish imkoniyati mavjud.

Bunday saytlardan madaniyatli ravishda foydalansila, shubhasiz, u odamlarni jipslashtiradi, ularni mehribon, to`g`ri so`z va hozirjavob bo`lishga ko`maklashadi. Britaniya psixologiya jamiyati taqdim etgan tadqiqotlarga ko`ra bahosi past bo`lgan o`quvchilar ijtimoiy axborot vositalaridan foydalansa, ular boshqa odamlar bilan birlashib, muloqot qilish orqali depressiv va tushkun kayfiyatlardan qutulishi mumkun ekan. Har bir hodisa singari ijtimoiy tarmoqlarning ham inson uchun ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Internet-muloqotning chegaralari yo`qligi endi o`sib kelayotgan bolalar yoshiga mos bo`lмаган ма'lумотларни олишида cheklowlarning yo`qligi ularning ruhiyatiga, salbiy ta'sir ko`rsatib, bolalarcha beg'uborligini yemiradi. Ammo shunga qaramasdan biz taraqqiyot mahsuli hisoblangan ijtmoiy tarmoq xizmatidan voz kecha olmaymiz.

Bugun ijtmoiy tarmoqlar bolalarning "hayot mazmuni"ga aylanib, ularning butun ongini, fikru xayolini egallamoqda. Ijtmoiy tarmoqlardagi muloqot, o`smir-yoshlarni turli guruhlarga, subkul'turalarga qo'shib, o`smirlarning beqaror psixikasiga, hattoki hayotiga ta'sir qilishi mumkun.

O`smirlar uchun ijtmoiy tarmoqlarda muloqot qilishning yana bir salbiy jihat - haqiqiy dunyoda kommunikasiya imkoniyatlarining cheklanganligidir. Internet tizimida bola o`zi uchun har qanday rolni tanlashi mumkun. Nuqsonli inson ham o`zini mukammal obrazda namoyon qila oladi. Tarmoqdagi sun'iy do`stlar o`smirlarning haqiqiy do`stlikning samimiyatini bilishiga imkoniyatdan mosuvo qiladi. O`smirlarning o'tish davrida uning o`z hayotiy tamoyillari shakllanmaganligi sababli tasdiqlanmagan ba`zi dalillarga ishonishi mumkun.

Ijtmoiy tarmoqning ikkinchi salbiy jihat shundaki, muloqotning puch xayollaridir. Tarmoq ortida mutlaqo boshqa odam yashiringan bo`lishi ehtimoldan holi emas. Ijtmoiy tarmoqning eng xavfli tomoni -muloqot

sohasida voqelikdan voz kechish. Interneta qaramlikning eng xavfli tomoni u o`zining haqiqiy hodisali hayotini interneta o'tirishga almashtiradi. Ota-onha tomonidan farzandi uchun ijtimoiy foydali mehnat shaklini tanlab berishi orqali ularni tarmoq aloqalariga mukkasidan ketishlarining oldini olishlari mumkun bo`ladi.

Bugungi kunda ijtmoiy tarmoqlarning ahamiyatini to`g`ri tushuna olgan ko`plab mamlakatlar asta-sekinlik bilan bolalarni undan uzoqlashtirish yo'llarini ko`rishmoqda. AQSh dagi Kremniy vohasida xususiy maktablarda so`nggi texnologik yangiliklarni yaratayotgan yoshlar yetishib chiqayotganligiga qaramasdan, maktab o`quv dasturlarida texnologik qurilmalarga minimal darajada o`rin berilgan. **Boulz** bu borada "Kambag`al ota-onalarning farzandlari ekran vaqt bilan katta bo`layotgan paytda, boylarning farzandlari umuman ularsiz o`smoqda" - deydi. AQSh ning Kaliforniya shtati universitetining psixologiya bo'yicha professori **Larri Rozen** 25 yil davomida yangi texnologiyalarning insonlarga bo`lgan ta'siri muommosi bo'yicha o`tkazgan tadqiqotlariga ko`ra ijtmoiy tarmoqlarda ko`p vaqt o`tkazish, unga mukkasidan ketish o`smirlarning salomatligiga salbiy ta'sir ko`rsatishini aniqlaydi. Uning ta'kidlashicha, ijtmoiy tarmoqga berilib ketgan o`smirlarda uyqusizlikdan azob chekish va depressiyaga moyillik kuchli bo`ladi. Psixolog ularda yana narsisizmga moyil ekanligini asoslaydi. Uzog`i bilan 15 daqiqaga tarmoqdan uzoqlashadigan maktab o`quvchilarida boshqalarga qaraganda o`zlashtirish ko`rsatkichlari past ekanligini ta'kidlaydi. Ijtmoiy tarmoqlarning juda katta imkoniyatlarga ega texnologik yutuq ekanligini inkor qilib bo`lmaydi. Ammo bu imkoniyatlardan me'yordan ortiq, maqsadsiz foydalansh baxtsizliklar olib kelishi mumkun. Jumladan, kompyuter o`yinlarining barchasi inson uchun zarar deb aytish noto`g`ri. Ushbu mo`jiza imkoniyatlaridan intizomli, me'yorli foydalansila, insonga salbiy ta'sir qilmasligi mumkun. Bu borada psixolog, valeolog, pedagoglarning fikrini tahlil qiladigan bo`lsak, ular ijtmoiy tarmoqlarni insonni yalqov va

axmoq qilib qo'yishi mumkinligi, inson psixikasiga zararli oqibatlari mavjudligini ta'kidlaydilar. Matalik faylasuf **Edvard de Bono** o'z fikrlarida chalkashmaslik uchun internetdan foydalanishga qarshi ekanligini quyidagicha izohlaydi: "Ijtimoiy tarmoqlar ichida internet xavfli, chunki ko'p miqdorda ma'lumot olayotganda biz fikrlashdan to'xtaymiz. Biz bilgan narsalar yetarlidek tuyuladi". Olim ijtimoiy tarmoqlarda berilgan ma'lumotlarning to'g'riliqiga ishonish, katta hayotga qadam qo'yayotgan o'quvchilar uchun o'ta xavfli ekanligi, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar yalqovlikni yuzaga keltirishini alohida ta'kidlaydi. Olimning fikricha, ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash uchun offlays rejimi yaxshiroqdir. Shuningdek, u ijodiy fikrlashni o'rgatadigan chinakam makon mакtab bo'lishi lozim deydi. Bononing fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilarni internet tizimiga berilib ketishining oldini olish maktab ta'lim tizimini yaxshilash va ota-onalarning ota-onalik burchiga ma'suliyatli yondashuvini talab qilishini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Ijtimoiy tarmoqning bir turi hisoblangan Facebook foydalanuvchilari haqida Michigan universitetida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Facebookda foydalanuvchilarning ushbu tarmoqning ular kayfitiga ta'siri tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra internet saytlariga ancha kam kiradigan foydalanuvchilarga qaranganda ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanuvchilar ko'proq baxtsiz va umuman hayotdan qoniqish hissi pastligi aniqlangan. Internet tizimi orqali kiber qo'rqtishning usullari turlicha bo'lib, bularga zo'ravonlik, tahdid, shantaj va dahshatga solish kabilarni kiritish mumkun. Internetni hamma uchun xavfsiz qilishni maqsad qilgan "Enough is Enough" nomli tashkilotning so'rov natijalariga ko'ra ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalanuvchi yoshlarning 95%ni kiber qo'rqtishning guvohi bo'lgan va 33%ni o'zlar u什bu hodisaning qurboni bo'lganligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarning yana bir salbiy jihatni e'tiborga loyiq bo'lмагan narsalarni ideallashtirishga, buning natijasida o'smir-yoshlарimizda haqiqiy

qadriyatlar tushunchasining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Insonning ijtimoiy tarmoqdagi muloqotga bog'lanib qolishi psixosomatik kasalliklarni yuzaga keltirishi bizga ma'lum.

Belgradlik **Snejina Pavlovich** "Facebook" ijtimoiy tarmog'ida xati do'stлari orasida qiziqish uyg'otmaganligidan keyin psixiatrik shifoxonaga yotqizilgan. Shifokorlar bu kasallikni "Snejina sindromi" deb atashdi, chunki bemorning hatti-harakati zamonaviy dunyoda insonning odatiy ehtiyojidan qoniqmasligidan odatiy stress sifatida izohlanadi. Tadqiqotchi **D.Boyd** tomonidan AQSh ning 16 ta shtatida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ijtimoiy tarmoqlar tomonidan keltirib chiqadigan qo'rquv haqida xulosa chiqaradi. Bular: jinsiy zo'ravonlik va axborotning maxfiyligi bilan bog'liqligini aniqlaydi.

Daniyadagi davriy matbuotning kontent tahlili **M.Larsenga** ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq eng ko'p ko'rsatilgan muommolarning ro'yxatini quyidagicha tuzishga imkon berdi. Bular: jinsiy zo'ravonlik va pedofiya, qo'rqtish, tahdid, millatchilik g'oyalarini targ'ib qilish hisoblanadi.

Rossianing janubidagi virtual tarmoqlar jamiyatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda **S.V.Bondarenko** deviant xulq-atvorning quyidagi shakkarni o'z ichiga oladi: hakerlik, maxfiylik, rejimini buzish, kiberterrorizm, kompyuter pedofiliysi kabilarni o'z ichiga oladi. O'smir-yoshlarning o'z joniga qasd qilishlarida ko'rsatkichlarning o'sishiga ijtimoiy tarmoqlarning sezilarli ta'siri borligi olimlar tomonidan aniqlangan. Jumladan, "**VKontakte**" ijtimoiy tarmog'ida hayotdan ixtiyoriy ketish usullari va unga tashviqot qilinadigan materiallar umumiyligi materiallarning uchdan bir bir qismini tashkil qiladi. Shu o'rinda ota-onalarning o'z joniga qasd qilish tashviqoti ularning farzandlariga ta'sir qilishini anglamasliklari sababi sifatida ijtimoiy tarmoqlarda buning uchun juda murakkab usullar qo'llaniladi.

Bugungi kunda o'quvchilar dunyoqarashining rivojlchanishiga ta'sir qiladigan eng muhim omillardan biri bu-ijtimoiy tarmoqlarga qattiq bog'lanib

qolish yoki unga tobek hisoblanadi. Tobek, ya'ni addiktivlik (ing. tilidan addicton-tobelik, moyillik) bu-shaxsning biror bir narsaga hirs qo'yishidan iborat zararli odati bo'lib, biror bir narsa, hodisa yoki vositaga ruju qo'yish oqibatida psixik o'zgarishlarga olib keluvchi holatdir. Tobek xulqning kushandas, bu oddiy hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish<sup>107</sup>. Biz haqli ravishda yoshlarimizning ijimoiy tarmoqlarga tobekini global muommo sifatida ko'rsata olamiz. Bu borada amerikalik olim **Kimberli Yangning** olib borayotgan sa'y-harakatlari maqtovga loyiq. U internetga tobe insonlarga yordam tariqasida maslahat markazi tashkil qilib, "Internetning ta'siri" mavzusida ko'plab seminarlar tashkil qiladi. O'zining 3 yillik tadqiqot natijalarini "Internetda yo`qolganlar" mavzusidagi asarini chop qiladi. Bu kitobda internet-addiktllikning belgilari, ya'ni simptomlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Internetga tobekning eng muhim sababi bolaning bo'sh vaqt ota-onalar tomonidan nazoratda bo'lmasligi, ota-onalarning o'z ish va tashvishlariga, muommolariga o'ralashib farzandlari uchun vaqt ajrata olmasliklari, farzandlarining histuyg'ulari bilan qiziqmasliklari bilan bog'liq. Oiladagi muhitning nosog'lomligi, ota-onalarning tarbiyalanganlik holatining me'yorida emasligi, doimiy oilaviy janjallar bolalarni ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, bu muhittidan qochish uchun bolalar vrtual borliqda vaqt o'tkaza boshlaydi. Bola shu orqali o'ziga yetishmagan muloqotni topadi. Natijada bolalar hal yetarli psixologik himoya mexanizmlariga ega bo'limgaganliklari sababli vrtual borliqqa sho'ng'iy boshlaydi. Vrtual borliqqa tobek bolalarda bezovtalik, uyqusizlik, tajovuzkorlik, ovqatlanish va dam olish tartibining buzulishi, vaqt o'lchovini yo`qotib qo'yish kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Sababi endi ularni tarmoq boshqara boshlaydi. Mahalliy tadqiqotchilarimizdan **N.M. Dalimova** "Kompyuter o`yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari" (2010) mavzusidagi tadqiqotlarida addektivlik

faktori o`quvchilarining kompyuter o`yinlariga tobe bo`lib qolishi sabablari, omillari va xususiyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

"Addektiv xulq" atamasining kelib chiqishini tahlil qiladigan bo`lsak, XX asrning 80-yillar oxirlarida adabiyotlarda paydo bo`la boshlaydi. **S.A.Kulakov** bu atamaga keng izoh kiritadi. Rus olimlari **S.P. Korolenko** va **T.A. Donskixlar** (1990 y) fikricha, addektiv xulq "insonning hayotini boshqara boshlaydi, uni ojiz qilib qo'yadi, tobekiga qarshi kurashishga xalaqt beradi". **L.G.Leonova** va **N.L.Bochkarov**alarning (1998 y) ta'kidlashicha, mazkur jarayon insonni shunchalik qamrab oladiki, uning hayotini boshqara boshlaydi. O'sib kelayotgan yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga bo'lgan tobekligi "o'zini -o'zi yemiruvchi xulq"ning bir shakli sifatida qaralmoqda. **S.P.Korolenko** va **T.A.Donskix**, **A.G.Amburova**, **Ye.G.Traynina**, **Yu.V.Popov**lar "addektiv xulq" -deviant xulqning bir shakli sifatida qarash lozimligini ta'kidlashgan. Mahalliy tadqiqotchilarimizdan **Sh.Shodmonov**ning ta'kidlashicha shu kungacha addektiv xulqning quyidagi shakllari ustida tadqiqot ishlari olib borilgan:

alkogalizm, narkomoniya (S.N.Buranova, V.N.Chernisheva, L.K.Faktorova, O.M.Ovchinnikov);

ishga tobek (A.Fernxeym, P.Xeyven);

kompyuter addiksiasi (K.Yang, M.S.Ivanov,A.E.Voyskunskiy);

muzikaga tobek (L.A.Juravleva);

o`yinlarga tobek (L.K.Fortova, V.Xritoforov, Z.Kekelidze) va boshqalar.

Bolalarning fikrlashi kattalarnikidan ko'proq egiluvchanligi ularni ijtimoiy tarmoqda yovuz niyatli kuchlarning o'ljasiga aylanishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kundagi bolalar xulqidagi salbiy o'zgarishlar zamonaviy hayotning turli ko'rinishlari: jadal hayot sur'atlarida ma'lumotlarning betartib qilinishi, bo'sh vaqtidan oqilona foydalana olmaslik oqibatida zerikish kabi sabablar ta'sirida yuzaga kelmoqda.Bu omillar bola dunyoqarashi shakllanishida salbiy holatlarni yuzaga keltiradi.

<sup>107</sup> Змановская Е.В. Девиантология (психология отклоняющего поведения). –М.: Academia, 2003. –53 (289 с).

#### **4. Maktab o`quvchilari dunyoqarashini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning amaliy masalalari**

Zamonaviy dunyoda internet insoniyat taraqqiyotida tub burilish yasagan, eng muhim ixtirolardan bo`lib jamiyatdagi muhim roli va ahamiyat tufayli misli ko`rilmagan sur'atlarda tez rivojlanayotgan ommaviy vositalardan biri hisoblanadi. Internetning qulayligi geografik, ma'lum darajada siyosiy, va madaniy to`sqliarni yengib o`tib, butun dunyo yoshlari bir-biri bilan bog`lanib, dunyoning o`zlarini hohlagan turli chekka hududlaridan kerakli bo`lgan ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud. O`smir-yoshlar shunday imkoniyatlarga egaki, ular dunyodagi eng so`nggi yangiliklar va ilmiy yutuqlar bilan tanishishlari mumkun. "Axborot asri" deb atalgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuvi internet tizimi orqali yuz bermoqda. Internet yoshlarga qanday yashash, fikrlash, o`ylashni o`rgatmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar o`quvchilarning ijtimoiylashuvida samarali omildir. O`quvchilarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kelayotgan tahdidlardan saqlashda hamda saqlanish ko`nikmalarini shakllantirishda ularni ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan ongli va intizomli foydalanishlarida "Tarbiya" fani o`qituvchilari va ta'lim muassasasi tomonidan quyidagi amaliy yordam yushtirilishimaqsadga muvofiqdir:

- o`quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda ilg`or pedagogik va axborot kommunikasiya vositalardan unumli foydalanish;
- o`quvchilarning ta'lim-tarbiya olish jarayonida turli chalg`ituvchi vositalarning zararli oqibatlarini tushuntirish bo`yicha targ`ibot va tashviqot ishlarini olib borish;
- o`quvchilar ongiga ta'sir etishga yo`naltirilgan tahdidlarga nisbatan immunitet hosil qilishga yo`naltirish;
- o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish va h.z.

- internet vositasida o`quvchi dunyoqarashini rivojlantirishning usul va vositalari.

#### **O`quvchilar dunyoqarashini rivojlantirishning samarali shakl va metodlari:**

1. Ijtimoiy ongni hosil qiluvchi metodlar: axloqiy ma'naviy suhbat, bahs.
2. Odatlantirish, namuna ko`rsatish.
3. Tarbiyada rag`batlantirish va jazolash metodlari (shakli: ma'qullah, ishonch bildirish).

**Ijtimoiy ongni hosil qiluvchi metodlar.** Bunda o`quvchilarda internet tizimi asoslariga oid nazariy va amaliy bilimlar va ko`nikmalarni shakllantirishga oid ma'naviy-axloqiy suhbat va bahslar tashkil qilinadi. Jumladan, "Interetning mening hayotimdagи o`rnи" mavzusida suhbat yoki munozarali dars tashkil qilish mumkun. O`quvchilarga bu usulda axloqiy tarbiya berishda o`quvchining to`g`ri yo`nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko`rsatadigan muhit (oilasi, do`stlar davrasi) ham hisobga olingandagina shaxsnинг butun hayotiy faoliyati davomida amalga oshadi. O`quvchiga to`g`ri axloqiy bilim berish asosida unda axloqiy me'yorlar, e'tiqod va qarashlar hamda axloqiy qadriyatli munosabatni shakllantirish mumkun bo`ladi. Axloqiy bilim berishda o`quvchining yosh xususiyatlari, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to`g`risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o`zlashtirilgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabati hisobga olinishi lozim bo`ladi. Axloqiy tarbiya berish tamoyillari:

- ta'lim va tarbiya jarayonida o`qituvchi-murabbiylarning so`zi va amalining birligi(shaxsiy namuna);
- insonparvarlik, o`quvchi shaxsiga hurmat va talabning to`g`ri qo`yilishi. Jamiyatning axborotlashuv jarayonida o`quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirishda muayyan vositalar muhim rol' o`ynaydi.
- Bugungi kunda o`quvchi va o`qituvchi uchun ham ma'lumot almashish muhim sanaladi. Finlyandiya Milliy ta'lim rejasida mediata'larning maqsadi

ta'lim oluvchilarga medianing jamiyatdagi o'rni, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni berish, media materiallardan oqilona, ongli foydalanish, ular borasidagi o'z nuqtai nazarini ifodalash va media bilan hamkorlikga erishish malakalarini takomillashtirishdan iborat. Internet tarmog'idan me'yordan ortiq foydalanish, foydalanuvchilarda unga nisbatan tobeklikni yuzaga keltiradi. Internetga tobeklik bo'sh vaqtning ko'p vaqtini egallagan holda, o'quvchilarining ijtimoiy foydali va sevimli mashg'ulotlarini tark etishiga, o'quvchi o'zlashtirish ko'rsatkichining pasayishiga sabab bo'ladi.

Internetga qaramlik elektromagnit nurlanish, bo'g'imglarning ortiqcha toliqishi, ko'zning zo'riqishi, stress va boshqalar. Bugungi kunda o'quvchilarining 90%i internet tizimidan oqilona foydalanish ko'nikmalariga ega emas. Ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan ijobiy foydalanish muommosi o'quvchining axloqiy tarbiyalanganligi, o'qituvchi-pedagoglarning bola tarbiyasiga ma'suliyatli yondashuvi hamda ota-onalarning tarbiyaviy salohiyatiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish metodlarini sanang?
2. O'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarali jihatlarini sanang?
3. Elektron formatdagi tarbiya resurslarining afzalligi nimada?
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fani darslarida AKTni qo'llash asosida milliy tarbiya asoslarini singdirish va shu asosda ularning tasavvurlarini boyitishda imkoniyatlari haqida qanday fikr dasiz?
5. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi holatining ijobiy va salbiy jixatlarini tahlil qiling?
6. Bugungi kunda o'quvchi dunyoqarashini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o'rnini qanday baholaysiz?

## **13- MAVZU: TARBIYA FANIDA PEDAGOGIK MANBALAR BILAN ISHLASH**

### **Reja:**

1. O'zbek xalq pedagogikasida "Avesto" qadimiy yozma manba sifatida
2. Sharq mutafakkirlarining tarbiya masalasiidagi didaktik qarashlari
3. Uzluksiz ta'limda ijtimoiy fanlarni integrativ o'qitish asosida fuqarolik tarbiyasini shakllantirish muammolari

**Tanch iboralar:** texnogen sivilizatsiya, milliy tarbiya, xalq pedagogikasi, tarbiya shakllari, ruhoniylilik ta'limoti, notiqlik, donolik, kult, darslik.

### **1. O'zbek xalq pedagogikasida "Avesto" qadimiy yozma manba sifatida**

Markaziy Osiyo xalqlari o'z ajdodlarining tarbiyaviy qarashlari borasidagi yondashuvlarini o'rganishda "Avesto" eng qadimiy yozma hisoblanadi. Uch ming yillik tarix silsilasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan xalq pedagogikasi namunalarini Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, dini, madaniyati, xalq pedagogikasi, ya'ni ajdodlarimizning bola tarbiyasini borasidagi boy tajribalari haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi yozma manba "Avesto" misolida o'rganish ahamiyatlidir. Sababi dunyoga ko'plab qomusiy olimlarni yetkazib bergen ilm-fan va madaniyatda yuksak darajada rivojlangan ona zaminimizning tamaddunida farzand tarbiyasi borasidagi boy merosi asos bo'lganligi shubhasizdir. Millat va jamiyat taraqqiyoti asosi tarbiya masalasi bilan chambarchas bog'liq masala ekanligi insoniyat tajribasida o'z isbotini topgan. Qaysiki xalq axloq masalasiga qadriyatli yondashsa, milliy tarbiya poydevorini mustahkam asoslarda barpo qilsa, shubhasiz, jamiyat barqaror rivojlanadi va taraqqiyotga erishadi. Qadimgi ajdodlarimizning oilada bola tarbiyasi masalasiidagi yondashuvlarini tahlil

qilishda, avvalo, diniy qadriyatlar va xalq pedagogikasiga oid manbalarni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Mahalliy olimlarimizdan **K.U. Najmidinova** o'z tadqiqotlarida Markaziy Osiyodagi oila va oilaviy tarbiya haqidagi tarixiy manbalarni 7 bosqichga bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Aynan Zardushtiylikdagi bola tarbiyasi masalasini, islomgacha bo'lgan davrni birinchi bosqichga kiritadi<sup>108</sup>.

**R.Vohidov, X.Eshonqulovlar** o'z tadqiqotchilarida Avesto diniy kitob bo'lish bilan birga yana etnologik manba ekanligini alohida ta'kidlaydila. Mahalliy etnolog olimlarimizdan **A.Ashirov**<sup>109</sup> o'z tadqiqotlarida ushbu din ba'zi marosim va odatlarining islom an'analarini bilan sinkretik tarzda hayotimizda yashayotganligi masalasiga e'tiborini qaratadi. Xorij olimlaridan **I.V.Rak, V.Koster, M.Boys, A.O.Makolevskiy** kabi ko'plab olimlar dinning mohiyati, urf-odatlari, marosim va an'analarini, uning nopolikliga qarshi kurashda va boshqa dinlarning shakllanishiga ta'sir qilishidagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" nafaqat diniy kitob balki unda o'sha davr ijtimoiy hayoti, jamiyat tuzilishi, moddiy olam haqidagi falsafiy qarashlar mazmuni, kasbning inson faoliyatidagi o'rni, ayollarning jamiyatda tutgan o'rni, oila va farzand tarbiyasidagi qarashlarni o'z ichiga oladi.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining majburan islomlashtirilishi bir qator an'analarning butunlay yo'qolishiga olib keldi. Kohinlarning katta qismi Avesto matnlarini (kanonlik tarzida) o'qiy olmasligi ko'p marosim va ibodatlarning ma'nosi butunlay yo'qolib ketishiga olib keladi natijada Zardusht tomonidan rad etilgan turli xurofat va odatlar bilan to'ldirilgan. Zardushtiylarda oila tarbiyasi masalasiga nihoyatda katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, zardushtilar jamoasida nikoh bir umrga muhrlangan bo'lib, bir

<sup>108</sup> Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятиниг ўрни. Монография. Ташкент. «Адолат» 2016. - Б. 6-7.

<sup>109</sup> Аширов А. "Авесто" ва зардуштйларнинг оила турмуш маросимлари хакида / Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2002. №1. -Б. 50.

erkakga ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh mumkin bo'lмаган. Er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq qoralangan. Begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilingan, jazolangan va nikohdag'i er uchun "xarom" hisoblangan.

Avestoshunos **H.Homidovning** ta'kidlashicha Avestoning Yasht qismida Axura Mazda va Zardushtning kelin kuyovlarga da'vati va murojatlari keltirilgan<sup>110</sup>. "Avestoda doimiy badantarbiya bilan shug'ullanish, kunda yuz-qo'lni bir necha bor yuvish, qo'lni yuvmasdan turib tananing boshqa a'zolarini ushlamaslik, sochni toza tutib tirnoqlarini tozalab yurish haqida maslahatlar berilgan. Nafaqat diniy duolar, balki chorvachilikning rivojlanishi, ko'payishi, bog'lar barpo etilishi (agronomiya), yerni sug'orish va ularni yetishtirish (melioratsiya haqida), tabiiy boyliklar va uning atrofidagi hududlarni muhofaza qilish (ekologiya), salomatlik (tibbiyot), vatanni, chorva mollari va aholini tashqi dushmanlardan himoya qilish (harbiy san'at), oila, erkak va ayolning burchi va ularning huquq va majburiyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bularning barchasi bu bebaho merosni ajdodlarimizning qomusiy ne'mati, deyish huquqini beradi. Ushbu din ta'limotida inson mutlaq yovuzlikga qarshi kurashda Xudoning yordamchisi bo'lib xizmat qilish uchun yaratilgan va unga iroda kuchi berilganligi e'tirof qilingan. Ezgulik va yovuzlik obyekti bo'lgan inson faqat tug'ma donishmandlik o'lchovi bilan o'z tanlovini qilishda mutlaqo erkinligi har bir inson nima yaxshi nima yomonligini vijdon yordamida aniqlay olishi aytildi. "Donolik", ya'ni, aql tushunchasi Zardusht ta'limotida to'g'ri tanlash va ma'naviy yuksalish quvvatini bildiradi. Ushbu dinda bola tarbiyasi masalasiga ona qornidayoq e'tibor qaratilgan. Jumladan, ayol qornidagi go'dak to'rt oy o'n kunlikda vujudiga ruh ungan deyilgan<sup>111</sup>. Dinda qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Unda ko'p bolali ojalarga davlat hisobidan

<sup>110</sup> Хомидов Х. "Авесто" фазлари. -Т., 2001. -Б. 59.

<sup>111</sup> Авесто. А.Махкамов таржимаси. -Б. 154.

nafaqa tayinlash lozimligi, bir yo'la 2-3 tuqqan ayollar mukofat olishga sazovor ekanligi uqtiriladi<sup>112</sup>.

**"Avesto" da bolalarga ta'lif va tarbiya berish shakllari quyidagicha amalga oshirilgan:**

- diniy-axloqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- o'qish va yozishga o'rgatish.

Zardushtiylikda ruhoniylig ta'lifoti 7 yoshdan erta boshlangan va 15 yosh yetuklik davriga yetgan hisoblangan. Miloddan avvalgi I ming yillikda yozma tilning yo'qligi sababli ta'lif og'zaki tarzda amalga oshirilgan. Dinga tegishli urf-odatlarini amalga oshirish, marosim paytida xudolarni chaqirish va ularni ulug'lash uchun she'r yozish san'ati o'rganilgan va o'rgatilganligi alohida ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki adolat tushunchasi davlat strategiyasida ham zardushtylarning kundalik hayotida ham kul't rolini o'ynagan. Adolatsiz odamlar yovuzlikning xizmatkorlari hisoblangan va ular shafqatsizlik bilan kurashishi lozim bo'lgan. Zardushtiylik matnlarida adolatl hukm qiladigan va pora olmaydigan qozi o'z ishida Axura Mazdaga, nohaq hukm qilgani esa Axru Manyuga o'xshab ketishi qayd qilingan. Markaziy Osiyo xalqlari Zardushtiylikga e'tiqod qilgan davrda tabiatni e'zozlash nihoyatda yuksak darajada ta'minlangan. Suv, havo, tuproq, olov e'zozlanib ularni nafaqat ish bilan hatto fikr bilan ham bulg'ash ta'qilangan. Zardushtylarning uylari juda toza va ozoda poklanishi nafaqat maxsus diniy urf-odatlar yordamida, balki ijodiy mehnat orqali ham sodir bo'ladi deb ishonilgan. Ushbu dinda mehnatsevarlik rag'batlantirilgan. Jumladan "Qachonki egatlarda urug' ekilsa, devlar o'rinalaridan ko'padilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar. Qachonki bug'doy xirmonga uyulsa devlar nobud bo'ladilar"<sup>113</sup> deyilishi, birinchidan, chorvador aholining dehqonchilikga

rag'batini oshirish bo'lsa, ikkinchidan, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash ham hisoblangan.

"Avesto"da ta'lif tizimining turli bosqichlarida kitob o'qishning afzalligi haqida "Ko'ngil bilan o'qigan kishi poklik va ehtiyyotkorlik beradi" yoki "Haomadan nurli farzandlar, solih surriyotlar dunyoga keladi" deyiladi. "Haoma nasklarni o'rganuvchilarga shon-shuhrat va hikmat ato etadi". Bu zardushtilikda kitob ilm olishning asosi vositasi bo'lganligidan, ilm olish rag'batlantirilganidan dalolat beradi. Islom dini bilan qiyosiy taqqoslaydigan bo'lsa zardushtiylikda islomdag'i kabi ilm olish nihoyatda rag'batlantirilganligining guvohi bo'lamiz. Avestodagi ta'lif va tarbiya haqidagi fikrlar, ustozning talabaga, ustozning donishmandga, donishmandning yosh avlodga qaratilgan nasihatlari asosida 3 ming yil avvalgi ta'limiylar tarbiyaviy jarayon yondashuvlarini o'rganish mumkin. Jumladan "Andarz-u danag mard" qo'lyozmasida donishmand o'g'liga yuzlanib, pand-nasihat qiladi, o'rgatadi, buyuradi: "O'g'lim! Qo'rquvni his qilmaslik uchun gunohnsiz bo'ling. Boy bo'lish uchun aqli bo'ling. Yaxshi do'stlar borligiga shukr qiling. Qarindoshlar va do'stlarga itoat qiling va ustozingiz bilan janjallashmang... Xotiningiz va bolalaringizga eng yaxshi va mehribon munosabatda bo'ling va o'rgating"<sup>114</sup>...deyilgan. Zardushtiylikda oila boshlig'i birinchi navbatda oilaviy tarbiyada nasihat berish, keyin esa o'z farzandlariga ta'lif berish majburiy vazifasi hisoblangan. Avesto matnlarida o'g'ilning burchiga quyidagilar kirishi belgilangan:

- yaxshi va aqli do'stlar topish;
- o'g'irlilik qilmaslik;
- doimo rostgo'y bo'lish;
- o'z ishi va so'ziga javobgar bo'lish;

Zardushtiylar orasida ta'lif tizimining boshlang'ich bo'g'inda ta'lif 7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olgan. Yetti

<sup>112</sup> Абай. Слова назидания / Пер. сказ. – Алматы: «Рауан», 1995. –С. 135.

<sup>113</sup> Авесто. А.Махкамов таржимаси -Б. 231.

<sup>114</sup> Зардуштийлик матнлари. О.М. Чунакова таржимаси. «Восточная». Ран. 1997.

yoshgacha bolalarga tizimli ta'lim berilmagan bo'lib faqat zardushtiylikning qonuniyatlari bilan tanishtirilgan. Bu yoshgacha zardushtiylar o'z bolalarini Axriman (yovuz rux) gunohlari va ta'siridan uzoqda deb hisoblashgan. Bola yetti yoshgacha to'lgan paytda muqaddas belgililar bilan maxsus kiyim kiygan va yetti yoshda bola yaxshi va yomonni ajrata olishini hisobga olib, unga ma'lum vazifalar yuklatigan.

Zardushtiylik diniga ko'ra farzand ota-onalarining salbiy jihatlari uchun javobgar hisoblanmagan, balki ota-onalar farzandlarining noto'g'ri tanlovidan himoya qila olmasalar ular javobgar hisoblangan. Ota-onalarga qaratilib shunday deyiladi: "**Agar farzand yomonlikga moyil bo'lib tug'ilgan bo'lsa bu sizning muammoingiz siz shunday bolalarga loyiqsiz, chunki ularni siz tarbiyalagansiz**" deyiladi. Ya'ni bolalarga johil va ahmoq sifatida munosabatda bo'lmashlik kerakligi uqtirilgan. Zardushtiylik dinida farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berilganligidan quyidagi so'zlar dalolat beradi: "Ey, **Axura Mazda, ruhingni turli-tuman narsalarda gavdalantirgansan, Aql berib, hayotni tanaga kiygansan. Har kim o'ziga yoqadigan yo'lni tanlashi uchun amallar va ta'limotlarni yaratdi**". Zardushtiylarning madrasa kabi ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'limning natijasi san'atning 7 turini mukammal egallash hisoblangan. **Bular: o'qish, sanash, kamondan otish, otda chopish, diniy qonunlar, qiroat va qo'shiq aytish.** Yozish va hisoblash ta'limning eng past darajasi edi. Notiqlik va "shirin so'z" boshlang'ich ta'limning eng yuqori darajasi hisoblangan. Voizlar (notiqlar) kotiblar va xattotlarga qaraganda jamiyatda yuqori mavqega ega bo'lgan. Yozishni, sanoqni yaxshi bilgan kishilar hunarmandlar qatoriga qo'yilgan. Notiqlar esa din yetakchilari darajasiga ko'tarilgan. Zardushtiylar jismoniy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishdan maqsad yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va yosh avlodni mehnatga tayyorlash edi. O'g'il bolalarga kurash, ot egarlash, ot minish, chorva boqish va ularni qaroqchilardan himoya qilishda qulol-yarog'lardan foydalanish o'rgatilgan. Ta'lim tizimida bilimlarni

o'zlashtirish, dars olish va dam olish vaqtining aniq belgilanishi diqqatga sazovordir. "Ilmni kunning boshida va oxirida, kechaning boshida va oxirida olishi, aql-idrokda to'la bo'lishi, oxir-oqibat xudolarni ulug'laydigan, ular sharafiga samimiyo so'z aytishi kerak. U kecha va kunduzda maroqli dam olishi, shundan so'ng o'tmisht donishmandlarining barcha merosini o'zlashtirish uchun ilm yo`liga intilishi kerak"<sup>115</sup> -deyiladi.

Boshlang'ich ta'limni olgan har bir yosh mashg'ulot yakunida Axuramazda nomiga qasamyod qilingan. "**Yaxshi amallarni bajarishda sobitman va tavba qilishda barcha gunohlardan yuz o`giraman. Men qalbimning olti xususiyatini yomonlikdan saqlagan holda, amallarning pokligini asrayman: tafakkur quvvati, so'z qudrati, ish kuchi, ehtiyyotkorlik, aql va donolik**"<sup>116</sup>. Ko'rinish turibdiki, zardushtiylik dinida ilm kuchiga chin dildan ishonganlar, natijada jamiyat hayotida ilm-fan, donolik g'alaba qozonishiga ishonganlar. Demak bizning qadimiy ajdodlarimiz sog'lom avlod tug'ulishi haqida qayg'uribgina qolmay, uning go'daklik chog'ida jismoniy tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilganligiga "Avesto" guvohlik beradi. Ular vatanparvarlik, axloqiy, aqliy, jismoniy, jinsiy, mehnat va tadbirkorlik tarbiyasiga alohida e'tibor berib, yosh avlodda rostgo'ylik, mehr-oqibat, xayrixohlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga intildi.

#### **Zardushtiylar quyidagi ta'lim usullaridan foydalanganlar:**

**Og'zaki taqdimot.** "Avesto" matnlari va tahrirlari og'zaki xotiradan og'zaki ravishda harb va dastur orqali tushuntirilgan. Matnlarni taqdim etish shakllari: an'analar, afsonalar, maslahatlar, tarbiya, qo'shiqlar. O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlar berilgan. Unda "O'qituvchi va murabbiylar tomonidan takror (ikki marta) kuylash, yaxshi oo'qish, bandlar, zandlar (boo'limlar, paragraflar) bilan aytish, savol-javob, "Avesto" nasklariga javob berish majburiy edi.

<sup>115</sup> Авесто. А.Махкамов таржимаси. -Б. 121.

<sup>116</sup> Авесто. Хорде Авеста (Кичик Авеста) / Авесто матнини тайёрлаш, таржима, сўзбоши, М. В. Чистяков шархи. - СПб., 2005. с-81.

**Vizual.** Xususan, sanoq (arifmetika) o'rgatishda barsam tayoqchalari ko'rgazmali quroq vazifasini o'tagan; astronomiyani o'qitishda - osmon jismlarini ko'rsatish va kuzatish; san'atni o'rganishda - cholg'u asboblari, san'at asarlari, binolar, qoyatosh rasmlari va boshqalar ko'rgazmali quroq bo'lib xizmat qilgan.

**Amaliy.** Og'zaki va ko'rgazmali usullar orqali olingen bilimlarni mustahkamlash uchun o'quv jarayonida amaliy usullar (mashqlar, topshiriqlar, muloqot, o'z-o'zini tarbiyalash) ham qo'llanilgan. Jumladan, harbiy qurollardan foydalanish, ot minish, kurash, she'r o'qish va qo'shiq aytish, cholg'u asboblarida chalish, notiqlik, rasm chizish, qoyatosh rasmlari, dasturxon bezash, mehmonlarni qabul qilish, shaxmat va nard o'ynash, ko'zali ichimlik tayyorlash, otashkada xizmat qilish va h.z. O'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash muloqot (suhbat) orqali amalga oshirilgan va o'quv vazifasini bajarish darajasi tahlil qilingan.

**O'z-o'zini tarbiyalash.** "Avesto"ning "Gohi" va "Yashti" qismlari o'z-o'zini tarbiyalash tarzida yoddan o'rgatilgan, o'qish jarayonida talaffuzga, og'zaki nutqni rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Ular sahnalashtirish, ovoz va tovush apparatlarini takomillashtirish maqsadida ibodatxonalarda akustika qoidalariiga rioya qilgan holda qurilgan tebranish, ovoz tovushini ta'minlaydigan maxsus xonalarda mustaqil ravishda qiroat va notiqlik san'atini o'rganganlar. "Avesto"ga xos bo'lgan xat ruhoniylar tomonidan sir tutilgan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi qismlarining bugungi kungacha saqlanib qolgani yoddan o'rgangan va bu qismlarni xotirada saqlaganlarning xizmatlaridir.

Ayni paytda yoshlарimizni jamiyat talablari asosida tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Kitob mutoala qilish jarayoni kamaymoqda, ommaviy madaniyat ta'sirining kuchayishi shubhasiz, ular dunyoqarashining shakllanishi va kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda, zardushtiylarning tarbiya masalasidagi

nasihatlari, yondashuvlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatiga ega. Ajodolarimizning pedagogik qarashlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida barkamol avlod tarbiyalashda foydalanish mumkin. Avesto nafaqat diniy manba balki Markaziy Osiyo xalqlari pedagogikasi mazmun-mohiyati, o'qitishning shakl va usullari bayon qilingan birinchi tarixiy-pedagogik yodgorlik sifatida juda qimmatlidir.

## 2. Sharq mutafakkirlarining tarbiya masalasidagi didaktik qarashlari

Markaziy Osiyo xalqlarining xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Oysuluv", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho", "Qirqqiz" kabi xalq dostonlarida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vafo, muhabbat,sadoqat kabi axloq kategoriyalari ulug'langan. "Alpomish", "Qizjibek" va "Manas" kabi mashhur dostonlarimizda nikoh tuzishga oid odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Masalan, uning qizga munosib yoki nomunosib ekanligini aniqlash uchun o'zaro ot poygasi, kamondan nishonga urish, uzoqqa o'q uzish, kurash tushish kabi bellashuvlar o'tkazilgan. Ushbu talablar yigit kishining har tomonlama o'z ustida muntazam ishlashi, jismonan sog'lon bo'lishini ta'minlagan omillardan hisoblanadi. Shuningdek bu tanlov "Qiz quvmoq", "Tortishmachoq", "Oltibaqon" kabi xalq o'yinlarida o'z ifodasini topgan<sup>117</sup>. Ushbu dostonlar qadimgi davrda yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilganligi, oilaviy hayotga tayyorlash an'analari haqida bizga to'liq tasavvur beradi.

**Islomda manbalarida tarbiya masalasi.** "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingen bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, riyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi<sup>118</sup>. Islom manbaları Qur'oni Karim va Hadisu shariflarda bola tarbiyasi ota-onalarning eng ma'suliyatli va uzoq davom etadigan burchi hisoblanadi. Islom ulamolaridan Shayx Muhammad

<sup>117</sup> Ҳасанов С. Хоразм мәтирифати – олам кўзгуси. – Т.: «Ўқитувчид», 1996. 304-6.

<sup>118</sup> Шайх Мухаммад Юсуф Мухаммад Содик. Бахтиёр онла. Хилол-нашр. Т.: 2015. -Б. 339.

Yusuf Muhammad Sodiq boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi, ammo tarbiya ma'suliyati bardavom bo'lishini alohida ta'kidlaydi.Bunda olim ota-onalarning olloh tomonidan berilgan farzandlariga shukronaligi ham aynan tarbiya ma'suliyatini sharaf bilan ado etishlari orqali yuzaga chiqadi deydi.Islomda bolani alloh taolaga itoat qiladigan banda qilib tarbiyalash lozimligi ota-onaning asosiy burchi ekanligi ta'kidlanadi. Qur'oni Karimning "Niso" va "Baqara"suralarida oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya masalalariga alohida urg'u berilgan<sup>119</sup>.

**Ibn Sino.** Chuqur bilimlarni tezroq egallash uchun u jamoaviy ta'limni, o'rganishni oqilona deb hisobladi, bu uning davri uchun ayniqsa muhim edi. Ibn Sinoning fan va ta'lim haqidagi fikrlari shuni ko'rsatadiki, "u ilm-fanning insoniyat jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnnini ko'rsatishga tinim bilmay intilgan, o'quv fanlarini mazmunli o'zlashtirish, nazariy bilimlarni hayotga tatbiq etish, shaxsning mustaqil fikrlesh qobiliyatini rivojlantirish uchun kurashgan tafakkur sohibidir. Ibn Sino ta'lim tarbiya haqida mulohaza qilganida ularni quyidagicha tasniflaydi:

- 1) aqliy rivojlanish va tarbiya;
- 2) axloqiy tarbiya;
- 3) estetik tarbiya;
- 5) mehnat ta'limi.

**Abu Nasr Farobiying tarbiyaviy qarashlari.** Nasr Farobi o'rta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim bo'lib tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan ijtimoiy bilimlarning diniga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi. U o'zining "Baxt saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida "Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. Baxt -saodat esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritilishini aytadi. Forobiy davlatni komil inson boshqarishi lozim degan fikri ta'kidlaydi. Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim - tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim - tarbiya usullari va

boshqaradigan podsho tabiatdan quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi:

1. Sog`-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi.
  2. Tabiatni nozik, farosatli bo'lishi.
  3. Xotirasi mustahkam.
  4. Zehni o'tkir.
  5. O'z fikrini tushuntira oladigan notiq.
  6. Bilim-ma'rifikatga havasli.
  7. Taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi.
  8. Haq va haqiqatni, odil va haqo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan.
  9. O'z qadrini biluvchi va oriyatlari.
  10. Mol dunyo ketidan quvmaydigan.
  11. Adolatparvar.
  12. Qatiyatli, sabotli, jur'atli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi<sup>120</sup>.
- Forobiy bu fazilatlarni har bir komil insonda bo'lishini aytadi. Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlarga bo'ladi. Bunda u, kishilarning diniga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy hususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidoriga, bilim ko'nikmalariga e'tibor berishlik zarur deydi. U o'zining "Baxt saodatga erishuv yo'llar haqida risola" asarida "Davlatning vazifasi insonlarni baxt – saodatga olib borishdir, - deb yozadi. Baxt -saodat esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritilishini aytadi. Forobiy davlatni komil inson boshqarishi lozim degan fikri ta'kidlaydi. Forobiy ta'lim tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lim - tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zarurligi, ta'lim - tarbiya usullari va

<sup>119</sup> Мухиддин С. Оила ва шаръий никоҳ одоблари. – Т.: «Моварооннах», 1999. – 80-б

<sup>120</sup> Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Т.: Янги аср авлоди. 2016. -Б. 320.

uslubi haqida fikr yuritadi. Mutafakkirning "Fozil odamlar shahri", "Baxt saodatga erishuv to`g`risida", "Ixso - al - ulum", "Ilmlarning kelib chiqishi", "Aql ma'nolari to`g`risida" kabi asarlarida ijtimoiy - tarbiyaviy qarashlari o`z ifodasini topgan.

Forobiy o`z ishlarida ta'lism - tarbiyani uziyi birlikda olib borish haqida ta'lim bergan bo`lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o`z o`rnii va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi. Forobiy "Baxt - saodatga erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish tartibi haqida fikri muhim erishuv to`g`risida" asaridagi bilimlarni o`rganish lozim. Undan so`ng, umuman, jonli tabiat o`simlik va hayvonlar haqidagi ilm o`rganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga yolg`iz o`zi erisha olmasligi shu sababli boshqa insonlar bilan aloqada bo`lish, ularning ko`maklashuvchi yoki munosabatlarga muxtoj bo`lishini aytadi. Uning fikricha tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o`qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhimdir. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarни o`zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o`qituvchi lozim. Bunga Forobiy ta'lism - tarbiyani to`g`ri yo`lga qo`yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lism - tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan komolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun-qoidalarni to`g`ri bilib oladi va hayotda to`g`ri yo`l tutadi, boshqalar bilan to`g`ri munosabatda bo`ladi, jamiyat tartib qoidalariiga rioya etadi. Demak, Forobiy ta'lism - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta'lism va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan Markaziy Osiyo olimlaridan sanaladi. U ta'lism - degan so`z insonga o`qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya - nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo`lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o`rgatishdir, deydi. Abu Nasr

Forobiy yana quyidagicha izoh beradi: "**Ta'lism - xalqlar va shaharliklar o`rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o`rtasidagi tug`ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish.** Ta'lism faqat so`z va o`rgatish bilangina bo`lsa, tarbiya amaliy ish tajriba bilan, ya`ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo`lgan ish - harakat, kasb - hunarga berilgan bo`lishi, o`rganishidir"-deydi. Demak, buyuk mutafakkir ta'lism-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Insonning kamolga yetishida ham aqli, ham axloqiy tarbiyaning o`zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Bunda Forobiy tavsiya etgan ta'lism - tarbiya usullari hozirgi davrda ham o`z ahamiyatini yo`qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.

**Alisher Navoiyning tarbiyaviy qarashlari.** 30 dan ortiq yirik asarlar muallifi Alisher Navoiy o`z asarlarida komil inson tarbiyasi masalasiha alohida urg`u beradi. Jumladan, u tarbiya natijasida bolaning jamiyatga nafis tegadigan kerakli va yetuk kishi bo`lib o'sishiga ko`p urg`u beradi.U tarbiyani erta juda kichik yoshdan boshlash lozimligi, tarbiya insonga o`zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishiga yordam berishini ta'kidlaydi. Mutafakkir tarbiyani ona qornidaligidayoq boshlash lozimligini ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham jonzotlar orasida faqat insongina ta'lism-tarbiya tufayli barcha maxluqotlardan ajralib turadi. Biroq unda yoshlik davridanoq yovuzlik, adovat, hasad, tuhmatchilik va yolg`onchilik kabi illatlar shakllansa, uni har qancha tarbiya etilgani bilan bartaraf etib bo`lmaydi. Shuningdek, Navoiy faqat ta'lismotlar orqali insonga ta`sir etib bo`lmasligini yaxshi biladi. Ba`zan insonga yomon xulqli va badfe'llar davrasida bo`lmoqlik ham yaxshi ta`sir ko`rsatishini aytib o`tadi. Negaki inson yaxshi muhitda yashasa, yaxshilar qadriga etmasligi mumkin. Navoiy asarlaridan yaxhilarga alohida hurmat ko`rsatish, shu bilan birga badfe'l odamlar bilan ham murosaga kelishlik

insonga xos fazilat ekanligini tushunish mumkin. Ma'lumki Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lish demakdir<sup>121</sup>. Adibning asarlarida hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar ezgulik, yovuzlik, do'st va dushman, diyonat va xiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettiradi.

Shuxlug', charx em gagidin qil adab, birla adib

Tifni andoqki, zajr aylar falak birla adib<sup>122</sup>.

Navoiyning "G'aroyib us -sig'ar" asaridan olingen mazkur misralarda bolaga yoshligidanoq yetarli va to'g'ri ta'llim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog'li mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondashish zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, adib "Devoni foni" asarida shunday misralarni keltiradi:

*Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi,*

*G'ubori rohi piron to'tiyo kun dar javoniho*<sup>123</sup>

Bunda ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug'lar izi tuprog'ini ko'zingga to'tiyo qil deyiladi. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo'lish, ular suhbatidan o'rganish insonni komillikga erishtiradi. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'llim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi<sup>124</sup>.

Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniylik axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida komil inson qanday axloqiy sifatlarga ega bo'lishi lozimligini aks ettiradi.

**Jadidchilik harakati.** Turkiston tuprog'ini ma'naviy qoloqlikdan olib chiqish, ma'rifat orqali mustabid tuzumga qarshi sharafli kurashga bel bog'lagan vatanparvar, fidoiy jadidchilar har birimiz uchun yuksak, sharafli

<sup>121</sup> Алишер Навоий "Хикматлар". Ўзбекистон. – Т. 2011. – Б.3.

<sup>122</sup> O'sha manba. Б.19.

<sup>123</sup> Алишер Навоий. "Хикматлар". Ўзбекистон. – Т. 2011. – Б. 375.

<sup>124</sup> Sodiqova Sh.B. Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 2021.I-soni. -Р. 96-97.

burchni ado etgan ajdodlar timsoli sifatida o'rnak bo'la oladi. A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat, M.Abdurashidxonov kabi xalqi va millati uchun ezgu maqsadda zaxmat chekkan ziyoli, vatanparvarlar o'zligini, kimligini anglagan xalq kimlargadir qaram va mute bo'lib yashamasligini juda yaxshi tushungan. Turkistondagi ma'rifatchilik harakatlari juda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan va tahlil qilingan. Mahalliy tadqiqotchilardan **D.Rajapova** jadidchilarining jamiyatda ayollar o'rni, ta'lim olish masalasidagi qarashlarini ilmiy tahlil qilgan bo'lsa, **K. Pardayeva**<sup>125</sup> uzlusiz ma'naviy tarbiya jarayonida **Avloniy** asarlaridan foydalanishning samaradorligi borasida ilmiy izlanishlar olib boradi. **B.Qosimov, B.Jo'rayev, Sh.Rizayevlar** o'zlarining ilmiy maqolalarida Avloniy asarlarini tahlil qilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan **Baldauf Ingeborg** Markaziy Osiyoda jadidchilar tomonidan amalga oshirilgan yangi islohatlar borasida ilmiy izlanishlar olib boradi<sup>126</sup>.

O'z xalqini ma'naviy uyg'oqlikga chaqirgan, jaholatga qarshi ma'rifat yo'li bilan kurashgan jadidchilarimizning yuksak orzusi bitta, ya'ni, o'z vatani ozodligi va ravnaqi hisoblangan. IX-XII, XIV-XV asrlarda uyg'onish davrini Yevropadan oldin boshlab bergen xalq XVII-XIX asrlarda aqidaparastlik, mutassiblik oqibatida taraqqiyotdan orqada qola boshladи. Bu borada birinchi prezidentimiz haqli ravishda « *Nega bu millat buyuk siymolarni yetishtirib, XVII-XIX asrlarga kelib to shu choqgacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabit etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lganmikan?*<sup>127</sup> »-degan asosli fikrlarni bildiradilar. Jadidchilik XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim

<sup>125</sup> Нардаева К.Узлуксиз мазнавий тарбия жарабинида Абдулла Авлоний асарларидан фойдаланиши савадороригина. / "Абдулла Авлонийнинг илмий педагогиги караашлари" мавзусида халқаро илмий конференция материалилари. 2020 йил 10 июль–Т.: ТДПУ, 2020.

<sup>126</sup> Балдауф Ингеборг. Джадидизм в Центральной Азии: плане реформизма и модернизма мусульманском мире. Халқаро конференция материалилари. Т.: Мазнавият, 2001, 44-45 б.

<sup>127</sup> Каримов И.А. Тарихий хотираисиз келажак йўқ. -Т.: Шарқ, 1998. -Б. 9.

ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat. Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini taraqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyorolar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetganla. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida eski usul mакtablaridagi ko'rko'rona yodlatishga asoslangan, ilmni tor doirada, faqat diniy ilm bilan bog'layotgan mutassibona qarashlarga qarshi jadidchilarimiz o'zbek xalq pedagogikasiga o'qitishning yangi samarador usullarini olib kira boshladilar.

**Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari.** Abdulla Avloniy taniqli o'zbek pedagogi, o'zbek matbuotining zabardast vakillaridan bo'lib, uning yozgan asarlari asosan tarbiyaning dolzarb masalalari, ma'rifatparvarlik g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda to'quvchi-hunarmand oilasida tug'ilib, dastlab eski usul mакtabida, keyin madrasada tahsil oladi.U bir qancha tillar: arab, fors va rus tillarini o'rgangach, ushbu tillardagi asarlarni bemalol mutoala qilishni boshlaydi. Jadidchilar tarbiyada asosiy vosita sifatida teatrden unumli foydalanishgan. Turkistondagi ilk teatrni Behbudiy Samarqandda ochgan bo'lsa, Toshkentda Abdulla Avloniy tomonidan 1913 yilda Turon truppasiga asos solinadi. Teatrden tushgan mablag'lar yangi usul "jadid" mакtablarini ochish, bolalarni savodli qilish va ularda mutassiblikdan holi bo'lgan keng dunyoqarashni shakllantirishga sarflanad. Avloniy 1908 yilda Mirobodda yangi usul mакtabini olib, 1909-yilda xayriya jamiyatini tuzadi va yetim bolalarga dars berishni boshlaydi. 1901-1917 yilgacha bo'lgan davrda o'zbek mакtabi tarixida va pedagogikasida katta rol o'yagan 10 dan ortiq qo'llanma yozadi. Bu shubhasiz, pedagogikani yangi bosqichga ko'taradi. Jumladan, "**Birinchi muallim**" kitobi boshlang'ich mакtabga mo'ljallangan bo'lib, ta'limning oddiydan murakkabga tamoyili asosida yozilgan. "**Ikkinchi muallim**" esa, birinchi kitobning davomi va takomillashtirilgan shakli hisoblanadi.

1917 yilda ma'rifatparvarning ijtimoiy, axloqiy va tarbiyaviy qarashlari bayon qilingan "**Turkiy guliston yoxud axloq**" kitobi nashr etiladi. Mutafakkirning "**Turkiy guliston yoxud axloq**" asari 2 qismidan iborat bo'lib, bunda yaxshi va yomon fazilatlarning tavsifi, o'z davrining og'riqli masalalarin: jaholat, qonunsizlik, zulm va shu bilan birga qulllik va turg'unlikni bayon qiladi. Ushbu asarni yaratishda adib xalq pedagogikasining ijobjiy tajribalaridan unumli foydalanadi. U bola tarbiyasini tug'ilishidan boshlanib hayotining oxirigacha davom etishini,ya'ni tarbiya bir umr davom etadigan jarayonligini ta'kidlaydi. **Tarbiyani kim va qayerda berishi kerak?**-degan savolni qo'yib bu jarayon uydan, ya'ni ota-onadan boshlanadi va mакtabda, madrasada davom etadi deydi. Avloniy fikricha, tarbiya - bu ota-on, o'qituvchi, mudarrislar va davlatning muhim vazifasidir. Mutafakkir o'qituvchining ta'limiga, iste'dodi, dunyoqarashining kengligiga, shaxsiyatiga katta ahamiyat beradi. Avloniy asarlarida xalqchillik, insonparvarlik yuqori darajada bo'lib, bola tafakkurining rivojlanishida barcha ta'lim subyektlarini sababchi ekanligini "**Turkiy guliston yoxud axloq**" asarida quyidagicha asoslaysidi: "*Onasining sochi patak, otasi do'mbirachi bo'lsa, muallimi bir so'm pulga muhtoj bo'lsa bola qayerga borsin*"<sup>128</sup>. Ushbu fikrlari orqali adib savodsiz, poraxo'r ma'suliyatsiz muallim, bilimsiz va qorin g'amidan boshqasini bilmaydigan ota-onna jamiyatga qanday bolalarni tarbiyalab berishi mumkin degan og'riqli masalani ko'taradi. **O'z davrida zamонавија ta'lim-tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishga beqiyos hissa qo'shgan ushbu jadid ma'rifatparvarlari ilgari surgan ushbu g'oyalar yosh avlod tarbiyasi bilan nafaqat oila, balki butun jamiyat va mamlakat shug'ullanishi mumkinligi va muhimligini, shaxs barkamolligi, ma'naviy tarbiyasi har doim ham ma'rifat ahli, ma'sullar uchun asosiy dolzarb muammo sanalib kelishini ko'rsatadi**<sup>129</sup>. O'qituvchi fikrlash kuchining

<sup>128</sup> Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т., "Ўқитувчи", 1992

<sup>129</sup> Шеризаров З. Абдулла Авлонийнинг маънавий-ахлоқий қарашлари. «Scientific Progress» Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 6. www/scientific progress. uz.-P.8-13.

kengligi dunyoqarashiga bog`liqligini ta`kidlaydi. Uning fikricha ustozning so`zlari ularning ishlariga zid bo`sса, demak shogirdlar bunday axloqiy ta`limotga ishonishmasligini aytadi. Abdulla Avloniy vatan ozodligini ustun qo`yib unga olib boradigan yo`lni bilim va ma`rifat sifatida baholaydi. Asarda vatanparvarlikga katta e`tibor qaratilgan. Adib vatanni shunchaki sevish bilan cheklanmasdan, u bilan faxlanish kerakligi, insonning vatanni sevishi uning amallarida va o`z yurti yuksalishiga doir harakatlarida namoyon bo`lishi lozimligini ta`kidlaydi. Xalqning o`z milliy tilini yo`qotishi millat ruhini yo`qotishi bilan tenglashtiriladi. Jadidchi til pokligini himoya qilishga va saqlashga chaqiradi<sup>130</sup>. Avloniy 100 dan ortiq she`rlar yozgan bo`lib ularda XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti tasvirlangan. Bu dardli ijod namunalarida taraqqiyat parvar jadidchi dunyo xalqlari hayotida muhim o`zgarishlar bo`layotgan davrda, o`z yurtini jonsiz va vayronaga aylangan fonda ko`radi, ya`ni bir tomondan jaholat, ikkinchi tomondan qashshoqlik hukmronlik qilayotgan maskan. 1912 yilda yozilgan **“Dunyo Fojiasi”** she`rida dunyoda insonga adolatsizliklar bo`lib, haqiqat chetda qolgan taqdirdayam bir kun o`z yurtining yorug` kunlarga erishishiga, ozod bo`lishiga, haqiqatning qaror topishiga ishonadi. Adib insonlarni axloqiy go`zallikga, ma`naviy boy bo`lishga undaydi. 1919-1920 yillarda Afg`onistonda bosh konsul bo`lib, o`zini iste`dodli diplomat sifatida ko`rsatadi. U tinchlik va xalqlar o`rtasidagi do`stlik uchun xizmat qildi, ma`suliyatli topshiriqlarni bajardi, buning uchun u bir necha bor mukofatlandi. 1925-1930 yillarda O`rta Osiyo Kommunistik (SAKU), O`rta Osiyo qishloq xo`jaligi maktabida dars beradi. So`ngra O`rta Osiyo davlat universiteti pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasи profesori, so`ng mudiri bo`lib ishlaydi. Maktabning 7-sinf o`quvchilar uchun xristomatiya yaratdi va unda o`zbek va xorijiy yozuvchilarning tarjimai hollari, hamda eng yaxshi asarlaridan parchalar keltiradi. U o`z davrining og`riqli masalalarini tanqid qilishdan to`xtamaydi. Turli taxalluslar ostida

<sup>130</sup> O'sha manba. P. 12.

ko`plab tanqidiy she`rlar va maqolalar yozadi. Uning yoshlarga o`rnak bo`ladigan ibratli jihat shundaki, doimo o`z xalqiga, vataniga sadoqati, o`z dardi bilan emas balki xalqi va yurti tashvishi bilan yashaganligi, o`z davridagi insonlardan tafakkuri, dunyoqarashi kengligi bilan ildamroq, zamon bilan hamnafas bo`lgan taraqqiyat parvarligi hisoblanadi. Savodsiz bolalarni o`qitishdek sharaflı ishga qo`l urgan jadidchi yangi usul maktablari orqali ilg`or g`oyalarni yosh avlod ongiga singdirish orqali yuksak maqsadini amalga oshiradi. Avloniyning mehnatlari munosib taqdirlanib, o`zbek madaniyatni va adabiyotini yuksaltirishda, malakali xodimlar tayyorlashdagi uzoq yillar davomidagi mehnati uchun 1925 yilda “Mehnat Qahramoni” unvoni, 1930 yilda mehnatsevarligi, ilmiy asarlari uchun “Qizil professor” va “O`zbekiston maorifi zarbdori” unvonlari berildi.

Abdulla Avloniy 1934 yilning 25 avgustida Toshkentda vafot etadi. Abdulla Avloniy butun umrini maorif sohasiga baxshida etgan xalqparvar ma`rifatchi sifatida tarixda munosib iz qoldirdi. Uning pedagogik qarashlari hozirgi kunda ham o`zining dolzarbli bilan ahamiyatli bo`lib, barkamol avlod tarbiyalashda, o`sib kelayotgan yosh avlodda chinakam insoniy tuyg`ularni shakllantirishda, farzandlarimizni umuminsoniy ezgu g`oyalarni ruhida tarbiyalashda, pedagog-murabbiylarning ma`suliyatli va sharaflı vazifalariga vijdonan yondashishlarida dasturamal bo`lib xizmat qiladi. Avloniy siymosi doimo avlodlar xotirasida vatanparvarlik, xalqparvarlik, fidoiylik timsoli bo`lib qoladi.

**Komil Xorazmiy.** XIX asr o`zbek ijtimoiy va adabiy hayotining yirik vakillaridan bo`lgan Komil Xorazmiy o`z asarlarida ma`rifat, axloqiy kamolot, vatanparvarlik g`oyalarni ilgari suradi. U ilm - ma`rifatning xalq, jamiyat faravonligiga, insonning axloqiy kamolotida tutgan o`rni, axloqiy nafosat tarbiyasining uzviy birligi haqidagi pedagogik qarashlarini bayon etadi. Uning fikricha ilmu hunar, ma`rifat insonning axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma`naviy hayotining rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Insondagi kamtarlik

eskirmaydigan, eng go`zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo`lganlar obro`-e'tiborli komil insonlardir. Shoir, tarixshunos hamda xattot Munis Xorazmiy tilga erk bermaslik joizligini aytadi. Uning fikricha, ortiqcha so`zamonlik kishi boshiga oltin o`rniga qattiq tosh bo`lib tegishi mumkin. Shu bilan birga xalqniadolatli, ongli, bilimli bo`lishga, jaholatdan yiroq turishga da`vat etadi. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo`lishga, ularni hurmat qilib e`zozlashga chorlaydi. Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki xozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

**Jaloliddin Davoniy** ota-onaning bolani tarbiyalashdagi axamiyatiga keng to`xtalgan. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq-odob qoidalarini, muayyan bir kasbni egallashiga ko`makkashishi ilm-fan va kasb-hunar egallashining moddiy asosi bo`lmish oziq-ovqat, kiyim-kechak, kerakli buyum va jihozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko`rsatishi kerak.

**Sadiy Sheraziyning** pedagogik qarashlarida bola qobiliyatli va kamqobiliyatli bo`lishi mumkin. Qobiliyat o`z-o`zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo`lmasa, boladagi qobiliyat so`nadi, tarbiyani 3 asosiy - aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo`ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ya`ni oilaviy tarbiyaga kata e'tibor beradi. Sadiy Sheraziy ota-onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga nasihat ta'sir etmaydi.

Inson o`zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko`rishni orzu qilgan hazrat **Alisher Navoiy** buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi: "Odami ersang demagil odami - Onikim yo`q xalq g`amidin g`ami".

Ma'lumki, xar bir inson o`zligini anglash orqali o`z millatini anglash tomon rivojlanib boradi, chunki milliy o`z-o`zini anglash - kishilarni harakatga keltiruvchi ichki ma`naviy-ruhiy salohiyat hisoblanadi. Bu salohiyat

halqaro darajadagi o`zlikni anglashga, o`z millatini, o`z madaniyatini va qadriyatlarni saqlab qolishga, ularni zamon sivilizatsiyasining ajralmas qismiga aylantirishga intilishini kuchaytiradi.

G`arb pedagogikasining rivojlanishida buyuk chek o`qituvchisi **Yan Amos Komenskiy** (1592 - 1670) katta rol o`ynagan. Uning asarlari orasida "Onalar maktabi", "Buyuk didaktika" kabi asarlari e'tiborga molikdir. Yan Amos Komenskiyning pedagogikada yaratgan eng muhim yangiliklaridan biri sinf-dars tizimini tashkil qilishi, yiliga 1200 soatlik o`qitish tizimi, tanaffus, dam olish, bayram kunlarini kiritganligi bo`lgan. Ta'limning kuchiga so`zsiz ishongan Komenskiy ta'limni 3 ta maqsadga eriishga qaratilgan bo`lishi kerak deb hisoblaydi:

1. Aqliy tarbiya- o`zini va atrofdagi dunyoni bilishi.
2. Axloqiy tarbiya- o`zini o`zi boshqarish
3. Diniy tarbiyasi -Xudoga intilish.

U ta'limda qat`iy hisob-kitob qilishni talab qildi. Pedagog o`z faoliyatini bolalarning yosh xususitlariga qarab yo`naltirishi lozimligini aytadi. Uning asarlarida ilgari surilgan pedagogik qarashlar XVII asrdan boshlab ommaviy ta'lim vositasiga aylanadi.

1746-1827 yillarda yashab o`tgan shvetsariyalik **Iogann Geynrix Pestalozzi** o`qituvchilarga o`quvchilarni o`qitishning ilg`or nazariyasini taklif qildi. Turli jamg`armalar tashkil qilib umrini yetim bolalarga ta'lim-tarbiya berishga yo`naltiradi. Uning qabri ustiga "Hammasi boshqalar uchun hech narsa o`zi uchun"-degan bitiklar bitilgan.

Rus mutafakkirlari, faylasuflari, yozuvchilar: **V. G. Belinskiy** (1811 - 1848), **A.I.Gersen** (1812-1870), **N.G.Chernishevskiy** (1828-1889), **N.A.Dobrolyubov** (1836 - 1861), **N.I.Pirogov** (1810 - 1881), **L.N.Tolstoy** (1828 - 1910) kabilar bolalarni tarbilashda o`z yondashuvlarini bildirishgan. Shular jumlasidan, L.N.Tolstoy ta'lim-tarbiyada bolaning erkinligini asosiy tamoyil deb hisoblagan. U o`qituvchilar va o`quvchilar o`rtasidagi

munosabatlarning yangi turini chiqib, majburlashni istisno qilgan holda, rivojlanish g'oyasini himoya qiladi. Uning qarashlarida insonparvarlik g'oyasi ustuvor hisoblangan va rus pedagogikasi rivojlanishida alohida o'rin egallagan.

### **3. Uzluksiz ta'limdi ijtimoiy fanlarni integrativ o'qitish asosida fuqarolik tarbiyasini shakllantirish muammolari**

Fuqarolik tarbiyasi tushunchasi tarbiya va madaniyat tushunchalari bilan uzviy bo'lib, fuqarolik tarbiyasi Vatanga sodiq bo'lish, xizmat qilish, insonning shaxsiy erkinligi va g'oyalari bilan bog'liq. Fuqarolik madaniyati esa, tarixiy jihatdan aniqlangan rivojlanishi darajasini nazarda tutadi va faoliyatni tashkil etish turlari va shakllarida namoyon bo'ladi. Bu tushunchalarning tarixiy tadrijiy rivojlanishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qadimgi davrga fuqarolik madaniyati tushunchasi I.Nidermanning ta'kidlashicha, Rim notig'i va faylasufi Mark ijodida ko'zga tashlanadi. O'z mazmuniga ega mustaqil tushuncha sifatida ilk bor XVII asrda S.Pufendorf asarlarida keltirilgan. Huquqiy madaniyat insonning ichki va tashqi dunyosini shakllantiradi va shaxs sifatida uni namoyon qilishga yordam beradi.

Respublikamizda ham so'nggi yillarda o'quvchilarining fuqarolik tarbiyasini rivojlanirish, ularni milliy, komil inson ruhida tarbiyalash, yoshlarga xavf solayotgan masifikuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy jihatlarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari ishlab chiqilmoqda. Bu kabi huquqiy asoslarda yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbazarlikning oldini olish tizimini takomillashtirish, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarни kuchaytirish<sup>131</sup> ustuvor vazifa etib belgilangan. Shunga muvofiq o'quvchilarda huquqiy immunitetni rivojlanirish, dars va darsdan tashqari

<sup>131</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr.

mashg'ulotlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyatini yanada kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolik madaniyati xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga, fuqarolik tarbiyasini rivojlanirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Shaxsning huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabati, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg'usini, qonunlarni bilish va unga qat'iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo'lib kelmoqda.

O'zbekiton Respublikasi qonun hujjalarda "Talimning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarining huquq ta'lim hamda tarbiyani takomillashtirish" zarurligi alohida ta'kidlangan. Shuning uchun huquqiy ta'lim tarbiyaning maqsadi har bir o'quvchiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlaridan kam bo'lmagan hajmda olish imkoniyalarini berishi zarur bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarda ijtimoiy va gumanitar fanlar bo'yicha o'quvchilarda rivojlaniriladigan umumiy kompetensiyalar sirasiga ijtimoiy moslashuvchanlik va faol fuqarolik kompetensiyasi kiritilgan. Bu kompetensiya ijtimoiy va gumanitar, jumladan tarix fanlarida o'quvchida bo'lishi kerak bo'lgan, fuqarolik tarbiyasini shakllantirish va rivojlanirishga qaratilgan quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lish belgilab qo'yilgan:

- ◆ o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qiladi, jamoaviy hamkorlikda ishlay oladi;

- ◆ ma'lumotlar yoki fikrlar asosida o'z xulosasini taqdim qiladi;
- ◆ ijtimoiy fanlar bilan bog'liq jarayonni tavsiflashda muhim qadamlarni aniqlay oladi (masalan, qonun loyihasi qanday qilib qonunga aylanishi);
- ◆ shaxs sifatida doimiy ravighda o'z-o'zini rivojlantiradi, ma'naviy kamolotga intiladi;
- ◆ o'z fikr va qarashlarini bayon etishda egallagan bilimlaridan foydalana oladi;
- ◆ turli vaziyatlarni huquqiy jihatdan to'g'ri baholab, maqbul qaror qabul qila oladi, hushyorlik va ogohlilik kundalik amaliy harakatiga aylantira oladi;
- ◆ burch va majburiyatlarini anglaydi, ularga rioya qiladi;
- ◆ nazariy bilimlaridan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta oladi;
- ◆ jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qiladi, yordamga muhtojlarga saxovatli bo'ladi.

Uzluksiz ta'linda ijtimoiy fanlarni integrativ o'qitish asosida, fanlararo va fan ichidagi mavzulararo integratsiyani takomillashtirish orqali yuqorida keltirilgan kompetensiyalarni takomillashtirish, fuqarolik tarbiyasini va unda huquqiy madaniyatni rivojlantirish murakkab hamda davomiylilik xususiyatiga ega jarayon hisoblanadi. Lekin bu jarayon uchun o'quvchilik yillari poydevor bo'lib hisoblanai.

Maktablarda "Tarbiya", "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi", "Davlat va huquq asoslari", "Iqtisodiy bilim asoslari", shuningdek, ta'lim muassasasining yo'nalishiga ko'ra bir qator ijtimoiy va gumanitar fanlari o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Binobarin, bu fanlarni o'qitishda o'quvchilar barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, uning jismoniy layoqati hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadi. Aytish joizki, bu fanlarni o'qitishda o'quvchilar barkamol shaxs qiyofasida aks

etuvchi ma'naviy-axloqiy sifatlar, uning jismoniy layoqati hamda ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki haqidagi malumotlar bilan tanishadi, xarakterlariga xos xususiyatlarni tanqidiy baholaydi va salbiy hulq atvorlarini yo'qotishga harakat qiladi.

Huquqiy bilimga ega bo'lgan insonda huquqiy madaniyat shakllangan bo'ladi. Shu sababli maktab o'quvchilarida huquqiy ongni shakllantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang'ich maktablarda shu vazifani ilk huquqiy tushunchalarni ularning ongiga singdirishdan boshlash maqsadga muvofig. Huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan huquqiy biimlarni belgilangan davlat ta'lim standartlaridan kam bo'lмаган hajmda olish imkoniyatlarini berishdan iborat. O'quvchilarida fuqarolik tarbiyasini rivojlantirishda "tarixiy ta'lim", "huquqiy ta'lim" tushunchalari ko'proq ishlataladi. Chunki bu bosqichda u aniq amaliy xususiyatga ega bo'lib, insonparvarlik, Vatanparvarlik, tarixiy o'tmishta nisbatan muhabbat, jamiyat taraqqiyotiga xissa qo'shish, qonunga bo'y sunuvchi shaxsni shakllantirish kabi tarbiyaviy vazifalarini hal qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni fuqarolik pozitsiyasi va o'zini o'zi qadrlash kabi insoniy tushunchalar bilan boyitiladi. Madaniyat tushunchasini ilmiy keng ma'noda insonning yashash shakli va usuli, u o'zi uchun yaratgan sun'iy muhit bo'lib, bu ma'naviya va ahloqiy qadriyatlar, tarbiyaviy ishlar integratsiyasi bilan amalgalashiriladi. Har bir tarixiy davr ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zgarib turadigan madaniyatning ma'lum bir turi bilan tavsiflanadi. Madaniyatni tor ma'noda insonlarning hayot strategiyasidagi ma'naviy salohiyati deyish mumkin. U faoliyati davomida ahloqiy, estetik va huquqiy rivojlanishning turli aloqa usullari, shakllari va natijalarini o'z ichiga oladi. Madaniyat ko'plab insonlar hamkorligida yaratiladi, ularning ijodiy harakatlari va o'zaro muloqot samarasi madaniyatni vujudga keltiradi va bunda eng asosiy vosita ta'lim hisoblanadi. Ushbu tushuncha mazmun mohiyatini tushunishga nafaqat

pedagogik, shuning bilan birga psixologik, huquqiy, ijtimoiy, madaniy, falsafiy va antropologik bilimlar ham ta'sir ko'rsatadi. Milliy ta'lif tizimida o'quvchi huquqiy madaniyatini rivojlantirish uchun o'quv jarayonidagi pedagogik vositalarni samarali qo'llash bilan bir qatorda, o'quvchining o'zini individual namoyon etishi, o'zini o'zi rivojlantirish uchun sharoit yaratish, buni amalga oshirishiga yordam beradigan shaxsiy yondashuvini belgilab berish maqsadga muvofiq.

"Huquqiy ta'lif" atamasi XX asrda paydo bo'lgan, ammo huquq doim ta'lifning tarkibiy muhim qismlaridan biri bo'lib kelgan. Insonni fuqaro sifatida tarbiyalash, unda ijtimoiy madaniyatni qayta ishlab chiqish uni tarbiyalashdan boshlanadi. Inson tug'ulganidan boshlab madaniy va ijtimoiy qadriyatlar asosida jamlangan avlodlar tajribasiga duch keladi. Bu qadriyatlarni o'zlashtirish bilan insonning shaxsiy rivojlanishi boshlanadi. Ko'p holatlarda "madaniyat" tushunchasi ma'lum bir tarixiy davrlarni, muayyan jamiyatlarni, xalqlar va millatlarni tavsiflashda ishlataladi.

Bugungi kunda "madaniyat" tushunchasining to'rtta asosiy tasnif mavjud:

- ◆ umumiy va mavhum bo'lgan ziyoli, salohiyatlari, ma'naviy va estetik jarayonni belgilash;
- ◆ sivilizatsiya tushunchasi bilan mos kelgan holda, jamiyatning qonunlari, tartib-qoidalari, ahloqiy va boshqa jihatlarini namoyon qilish;
- ◆ turmush tarzining muayyan jamiyatga xos xususiyatini ifodalash;
- ◆ musiqa, adabiyot, rasm, teatr, kino va boshqalar yo'nalishlardagi intellektual, badiy faoliyat shakllari va mahsulotlar majmuini belgilash va hokazo.

Guruqlar birlashgan tirik mavjudotlarning tizimini ishlab chiqish va atrof - muhitiga barqaror tashkilotning biologik turi bu madaniyatdir. Madaniyat komponentlarining o'ziga hosligi va kobilatsiyashganligi siyosiy, iqtisodiy, estetik ijtimoiy-madaniyat bular huquqiy madaniyatning asosiy tushunchalaridir. **V.V Golovchenko**ning izlanishlari ortidagi fikricha

umuminsoniy qadriyatlar huquqiy amaliyot asosida qurilishi kerak. Huquqiy bilimlar tizimini, ishonchini, qonuniy xulq- atvorini motivatsiyaga bo'lgan ehtiyojini oshirib borishga undash jamiyatga yetuk shaxsni ta'minlashga yordam beradi. Ularni kelajakdag'i jismoniy axloqiy rivojlanishi shart sharoitlarni innovatsion g'oyalar bilan boyitish, tinchlik va shaxsiy g'oyalarini strategiyasini olg'a surish ruhida tarbiyalash, har bir o'quvchida millat o'tmishi va kelajagini mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirib borish ularni ta'lif orqali tarbiyalash uchun zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish faol fuqarolik pozitsiyasini ta'minlaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki shaxsning faoligi muhitning tizimliligi amaliyotda qo'lanihilish imkonini bermoqda. Huquqiy taraqiyot maqsadlari o'ziga hos progresslar o'qtuvchilarning huquqiy maqsadlari ta'limiylar maqsadga mos kelishi lozim.

Fuqarolik tarbiyasining asosiy predmeti huquqiy madaniyat. O'quvchilarning huquqiy madaniyatni madaniyatning boshqa sohalari va o'ziga xos mazmuni bilan murakkab organik birlikda rivojlanadi. Insonning ichki tuyg'usi huquqiy va ma'naviy madaniyatning bir ko'rinishidir. Bu ijtimoiy foydali fazilatlar kundalik hayotda o'z ifodasini namoyon etadi. Ijtimoiy faoliyat qonunlarini bilish va to'g'ri qo'lashga asoslanadi. Huquqiy madaniyatning ko'p qirrali ekanligini bilgan holda, ularning ba'zilarini qisqartirish uning shaklanish vazifasini ham toraytirib qo'yishi mumkun. Huquqiy madaniyatni o'ziga xos tizim deyilsa, uning rivojlanish imkoniyati barqaror ekanligi qadriyatlarimizdan ma'lumdir. Shaxsning barkamol rivojlanishi uchun huquqiy madaniyat o'ziga xos impuls bo'lib uning yordamini bilan rivojlanish yuksalish. Bu huquqiy madaniyat jamiyatning huquqiy madaniyati bilan uzviy bog'liqidir.

Huquqiy madaniyat insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qadriyatlarga asoslanadi. Maktab o'quvchisining jamiyatni qadriyat munosabat tizimiga kiritishning eng past darajasini joriy etish mazkur funksiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Bu vazifaga huquqiy normalar

axloqiy ko'rsatmalar fuqarolik fazilatlari shaklantirish kiradi. O'quvchida tasdiqlash yoki rad etish kabi ko'rinishda baho berishi ifodalanadi. Baholash faoliyati tegishli axloqiy va huquqiy qadriyatlar (erkinlik, tenglik,adolat, insonparvarlik va boshqalar) bilan bog'liqdir. Yosh o'quvchining huquqiy madaniyatining huquqiy ijtimoiylashtiruvchi funksiyasi jamiyat bilan ziddiyatsiz munosabatlar uchun zarurdir. Axloqiy va huquqiy qadriyatlarning vazifasi huquqiy bilimga ongli munosabatni shaklantirishdan iborat. Boshlang'ich mакtab yoshidagi shaxsning o'z o'zini tarbiyalash jarayonlarni faolashtirigan dasturni amalga oshirish pedagogic faoliyatning eng zarur maqsadidir. N. G. Levkovskaya fikricha, jamiyatda yusak madaniyati ulug' fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar huquqiy madaniyat darajasini rivojlantirish zarur. Ushbu funksiya shaxsni jinoiy va huquqbuszar jamoalar ta'siridan himoya qiladi. O'quvchining huquqiy madaniyatining kommunikativ muloqatni ta'minlovchi funksiya - jamiyatning asosiy insoniylik xususiyatlaridan biri ekanligini S.V. Shiron o'z izlanishlarida ta'kidlagan. Chunki muloqot barcha hayotiy jarayonlarga ta'lluqli bo'ladi, axloqiy va huquqiy qadriyatlarni rivojlantirish shartini amalga oshiradi, mакtab o'quvchisida yosh shaxsni, faol fuqarolikni shakllantiradi. Individuval huquqiy madaniyat eng yuqori ko'rsatkichi sifatida shaxsning ijtimoiy huquqiy faoligini oldindan aniqlab beradi. Biz qonuniy xulq- atvor deganda, tadqiqotlarga ko'ra, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlari, ko'nikmalari, qonunga rioya qilish foydalanish qo'llash harakatlarini tushunamiz.

"Huquqiy madaniyat" mazmuni faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lish bilan izohlanmaydi, u shaxslarning qonunlarga amal qilishi va ularga bo'y sunish madaniyati hamda o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji ham demakdir. Huquqiy madaniyat turli majorolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etishni ham nazarda tutadi. Mакtab o'quvchilarida huquqiy

madaniyatni tarkib toptirish jarayoni amaliy ahamiyatga ega bo'lib, biroq o'quvchilarida huquqiy madaniyatni shakllantirish tezkorlik bilan amalga oshmaydi. Buning uchun avvalo o'quvchilarida huquqiy tasavvur, tushuncha, bilim va yetarli cha ma'lumot tarkib topishi lozim.

Jamiyatning asosini tashkil etishda aqlan teran, axloqan pok, sog'lom, iymon etiqodli, o'z xaq huquqilarini, burch va ma'suliyatlarini chuqr anglovchi yoshlarni voyaga yetkazish, o'quvchilarining huquqiy immunitetini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Yosh avlodning huquqiy tarbiyasini shakllantirishda dolzarb masala shuki: mamlakatda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, huquqiy jamiyat asoslarini rivojlantirishdir.

Huquqiy madaniyati yuqori darajada bo'lgan shaxs "...jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaalari nisbatini teran anglovchi hamda o'z amaliyotida bu nisbatda muvozanat buzmaligiga qat'iy rioya etuvchi subyektdir". "Huquq" va "huquqiy" tushunchalar negizida qanday axloqiy ma'naviy -axloqiy sifatlar mavjud bo'lishi to'g'risida o'quvchilarida yetalicha tushunchalar mavjud emas. Huquqiy jamiyat O'zbekistonning haqiqiy adolatli, inson kelajagini ta'minlovchi inqirozli vaziyatlardan chiqishning haqiqiy vositasidir. Ongli ravishda ong orqali o'quvchi borliqni aks ettirib, axloqiy qadryatlarni ham ong yordamida idrok etadi. Axloqiy qadryatlar ong maxsuli bo'lib, huquqiy hulqi va faoliyati mazmuniga aylanadi. O'quvchining bilim olishiga qiziqishini oshirish, o'quv bilim faolligini oshishini o'qitishning innovatsion ta'lim texnologiyalariga asoslanishini mustahkamlaydi. O'quvchilarда axloqiy yondashuv madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy muhitning ta'sirini ham hisobga olish kutilgan natijaga erishish imkonini beradi. O'quvchilarining fuqaro sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar qatoriga: ijtimoiy muhitda ro'y bergen holatlar, ularning yo'nalishi, mazmun mohiyati, jamiyatda muhim o'rinn egallagan ma'naviy axloqiy fikrlar ta'sir ko'rsatadi. Huquq fanlarini

o'qitishda umumiylar o'rta ta'limga muktabalarida innovatsion ta'limga texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

O'quvchining huquqiy immunitetini, ularning ijtimoiy munosabatga kirishish tuyg'ulari, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida shakllanishi va rivojlanishi, muloqotning barcha sohalarida moslashish va individuallashtirish jarayonlarini uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rniда shuni aytish kerakki, uzuksiz ta'limga fuqarolik tarbiyasini shakllantirishga poydevor yaratish uchun tarbiya, madaniyat, ahloq va me'yор kabi tushunchalarni ijtimoiy fanlarni integratsion o'qitishda amalga oshirish, tarbiyaning umumiylarini majmualarini o'quvchi shaxsida qaror toptirish talab etiladi. Inson qay darajada ko'proq ijtimoiy, siyosiy va huquqiy bilimga ega bo'lsa, tarixiy dunyoqarash rivojlansa shu darajada fuqarolik madaniyati shakllangan bo'ladi. O'quvchilarda huquqiy imminitetni rivojlantirish muhim ijtimoiy – pedagogik masala hisoblanadi. Fuqaro, fuqarolik jamiyat, ijtimoiy tizim, fuqarolarning huquq va majburiyatları to'g'risidagi bilimlar huquqiy imminitetni rivojlantirish asosida shakllantiriladi. Shaxs, oila, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tushunib farqlashda huquqiy imminitetni o'quvchilarda shakllanganligi muhim ro'l o'ynaydi.

O'quvchilarning fuqarolik tarbiyasini ularning ijtimoiy munosabatga kirishish tuyg'ulari, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida muloqotning barcha sohalarida moslashish va individuallashtirish asosida takomillashtirilgan. O'quvchilarda o'ylab harakat qilish, insonlar bilan muloqot qilish, boshqa insonga yordam ko'rsatish, xayotiy vaziyatini tushunish, jamiyatda umumiylar yashash va qonunlarga rioya qilish kabilalar huquqiy imminet shakllanishi natijasida xosil bo'ladi.

Demak, o'quvchiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan bilimlarni belgilangan davlat ta'limga standartlaridan kam bo'limgan hajmda olish

imkoniyatlarini berish shaxsga yo'naltirilgan ta'limga tarbiyaning maqsadi hisoblanadi. Huquqiy fuqarolik davlatini o'quvchilarning huquqiy ongini oshirmsandan turib tasavvur etib bo'lmaydi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Mustaqillikgacha milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilish qanday jarayonlarda namoyon bo'lgan?
2. Milliy tarbiyaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab bering?
3. Fuqaro va fuqarolik tushunchalarining mohiyatini tahlil qiling?
4. Sharqda milliy tarbiyaga asos bo'luvchi qarashlarni keltiring?
5. E'tiqodda tarbiya masalasi qanday namoyon bo'ladi?
6. Komil inson tarbiyasida Farobi qarashlarining asosini nimalar tashkil etadi?
7. Jadidchilik namoyondalarining shaxs tarbiyasidagi qarashlarida qanday o'xshashlik va tafovutlar majud?
8. G'arb pedagogikasida tarbiya masalasidagi qanday yondashuvlar mayjud?
9. Uzluksiz ta'limga ijtimoiy fanlarni integrativ o'qitish asosida fuqarolik tarbiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering?

## **14-MAVZU. TA'LIM KLASTERI TARBIYA FANLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA NISBATAN INNOVATSION YONDASHUV SIFATIDA**

**Reja:**

1. Ta'limg klasterining nazariy asoslari
2. Ta'limg klasteri sharoitida tarbiya fanlarini o'qitishning samaradorligini oshirish
3. Ta'limg klasteri subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabat mexanizmi
4. Tarbiya fanlari bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish metodikasi
5. "Oila-mahalla-oliy ta'limg" tarbiya tizimining o'rni va ahamiyati

**Tayanch so'z va iboralar:** klaster, ta'limg klasteri, klaster tuzilmasi, sinergetik, uzviylik, uzlusizlik, izchillik, ijtimoiy buyurtma, klaster faoliyati mexanizmlari, to'g'ri kasb tanlash

### **1. Ta'limg klasterining nazariy asoslari**

Umumta'limg muassasalarida kadrlar taqsimotining to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi natijasida yuzaga kelgan oliy ma'lumotli pedagog-o'qituvchilar taqchilligi masalasi, bevosita, uzlusiz ta'limg tizimida nazarda tutilgan ta'limg turlari o'rtasidagi uzlusizlik, uzviylik va integratsiyaning ta'minlanmaganligi, hududlarda kadrlarga bo'lgan talabning istiqbol rejaliari mavjud emasligi bilan yuzaga keldi. Umuman, bu muammo keng qamrovli va ko'pqirrali ijtimoiy masala bo'lib, uning yechimi ham bir yoki ikki sababning qondirilishi bilan o'z ijrosini topa olmaydi. Bu masala hududiy hokimliklar va ularning tasarrufidagi tegishli bo'linmalarning ayni masala bo'yicha tizimli ish olib borishi natijasida o'zining ijobjiy yechimini topishi mumkin. O'z navbatida

pedagogik ta'limg tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'limg turlari o'rtasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur.

Tarbiya fanlarini o'qitish jarayonlarining jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, muammolar va ularni hal qilishda ta'limg turlari va ta'limg mazmunini integratsiyalashda uzlusiz pedagogik ta'limg klaster modeli asosida rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Klaster tushunchasiga, uning tarixiy taraqqiyoti va davriy o'zgarishlar mazmuni bo'yicha keltirilgan tavsiflarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, iqtisodiyotdagi klaster nazariyasining asoschisi amerikalik iqtisodchi, Garvard biznes maktabi professori **M.Porter** klasterning shakllanish mexanizmini o'zaro raqobatbardoshlikni o'sishiga sabab bo'ladijan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi, deb tushuntiradi va ushbu hamkorlikning davlat iqtisodiyotidagi rolini aniqlab beradi.

Rus olimasi **T.I.Shamova** esa klasterni alohida soha (ta'limg, iqtisodiyot va b.) sifatida tasavvur qilib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi, deb tushunadi.

Yana bir rus olimasi **L. Bespalova** klasterni ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funktional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma, deb hisoblaydi.

Ta'limg sohasiga klaster yondashuvining kirib kelishi innovatsion jarayon bo'lib, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda yangi innovatsion jarayonlarni tahlil qilishda asosiy o'zgarishlar bilan boshlang'ich o'zgarishlar o'rtasidagi chiziqni topish oson emasligi qayd qilingan. Shuningdek, innovatsiyalarning ijobjiy natjalarini ta'limg turlari o'rtasida taqsimlashda tenglik tamoyili shart bo'lmaydi. Bugungi kunda sohalar rivoji va samaradorligini innovatsiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Xuddi shuningdek, ta'limg, xususan, umumiy o'rta ta'limg

tizimida, mutaxasislarni kasbga yo'naltirishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan yangi innovatsion yondashuvlar sifatida quyidagi larni keltirib o'tishimiz lozim:

- pedagogika sohasidagi oliy ta'lismuassasalarida talabalarni bo'lajak o'qituvchi qilib tayyorlashda tarbiya fanini o'qitishning asosiy maqsadlarini shaxsga va kasbga yo'naltirilgan ta'limga, ijtimoiy tartibga asoslangan ilmiy, texnik va innovatsion faoliyatga yo'naltirish;
- o'quv -biluv jarayonini tartibga soluvchi va amalga oshiruvchi me'yorlarni har bir muassasa va hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan holda amalga oshirishi bilan bog'liq yangi tizimni ishlab chiqish;
- tarbiya fanlarini o'rganish jarayonida olingan bilimlarning integratsiyalashuvi va bir qator fanlarni muammoli-modulli o'rganishning dastlabki shartlarini yaratish;
- yangi yondashuvlar asosidagi innovatsion va tajriba-sinov ishlarni faol amalga oshirish va ommalashtirish;
- o'quv jarayonida ta'lismoluvchilarining mustaqil o'qishga yo'naltirish va ta'lismoluvchilariga rahbarligida axborotlarni mustaqil izlash, o'zlashtirish malakalarini amaliyotga joriy etish;
- jamiyatning zamонавијија ijtimoiy-madанија rivojlanish darajasiga mos ravishda ta'lismoluvchini zarur moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash;
- ta'lismoluvchilar o'rtasida o'zaro manfaatli aloqadorlikning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish;
- jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zgaruvchanligini inobatga olgan holda, kerak paytda kasbini almashtirishga qodir, bir vaqtning o'zida bir nechta turdosh mutaxassisliklarni egallash bo'yicha samarali mexanizmlardan foydalanish;
- kasbiy va o'quv jarayonlariga demokratlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosidagi vakolatni berish jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish va hokazo.

Umumiy o'rta ta'lismuassasalarida tarbiya fanlarini o'qitishda bu kabi innovatsion yondashuv, agar u haqiqiy rivojlanish jarayonining mantig'iga mos keladigan bo'lsa, albatta, samaradorlikni oshiradi. Ayniqsa, ta'lismuassasalarining boshqaruv tuzilmasida ta'limiy va tarbiyaviy bilimlarni o'qitish bo'yicha mayjud muammolarga nisbatan munosib innovatsion yondashuvlar joriy qilinsa, mayjud vaziyatni oldindan baholay olish, hodisalarning rivojlanishini to'g'ri taxmin qilish, o'z vaqtida choralar ko'rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Aytishimiz kerakki, ta'lismoslashuvchani qaror toptiradi. Zero, klasterli integratsiya jarayonlari moddiy, moliyaviy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha ta'limiy va tarbiyaviy resurslarni jaib qilinganligi bilan eng kuchli mexanizmdir.

Klaster moslashuvchani tarzda o'z tuzilmalari uchun boshqaruv tizimini qurish, o'zaro ishonchni ta'minlash uchun haqiqiy rivojlanishni oldindan aytish (prognozlash) imkonini beradi. Ta'lismoslashuvchani tizimining tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlari bo'lishi, mazmunli faoliyat, umumiy va maxsus boshqaruv funktsiyalari, dasturlari, texnologiyalari va usullari, ishtirokchilarining kadrlar salohiyatini rivojlantirishi bilan bog'liq jarayonlar klaster muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Yevropa ta'lismoslashuvchani tizimining asoslaridan biri bo'lgan klaster modeli bu mamlakatlarda, xususan, Rossiyada bu yo'nalish bo'yicha nazariy tadqiqotchilar guruhi shakllangan va ilmiy tadqiqotlar olib borilganligini ko'rsatadi, ammo ularni nashr qilish sur'ati bir oz past ko'rsatkichni tashkil qiladi. O'quv klasterlarining modellari Yevropa amaliyotida yetarli darajada mavjud. Klaster siyosati Rossiya amaliyotida asosan ularni shakllantirish va rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asnosida rus olimasi **T.I.Shamova** ta'limni rivojlantirishga klaster yondashuvi individual subyektlar va umuman klaster ishtirokchilarining o'ziga xos afzalliklarini kuchaytiradigan ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshiriladigan subyektlarning o'z-o'zini va o'zaro rivojlantirishga asoslanganligini ko'rsatadi.

Ta'lim klasterlarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish turli yo'naliishlarda, jumladan, kasbiy ta'limga nisbatan klasterni shakllantirish bo'yicha B.Pugacheva va A.V.Leontevlar, faoliyat va pedagogik loyihalash nazariyasi bo'yicha V.V.Davidov, V.P.Bespalko, G.I.Ibragimov, B.Ts.Lednev, M.I.Maxmutov va V.A.Slesteninlar, uzlusiz ta'lim kontseptsiyasi bo'yicha B.S.Gershunskiy, G.V.Muxametzyanova va A.M.Novikov, V.M.Goremikolar, kasb-hunar maktablarida ta'limning ijtimoiy sheriklik va boshqaruv muammolarini ochib beruvchi tadqiqotlar bo'yicha P.F.Anisimov, G.V.Muxametzyanova, G.I.Ibragimov, Ye.A.Korchagin, V.P.Panasyuk va A.S.Subetto kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqotchi **N.A.Sharay** fikriga ko'ra, ta'lim klasteri ta'lim resurslarini tashkil etishning integral tizimi sifatida qaraladi. Ta'lim klasterlari modelining yagona tipologik xususiyatlari **M.Yu.Barishnikov, I.I.Chinnova, A.V.Simonov**lar tomonidan taklif qilingan.

**L.V.Ovsienko, I.V.Zimina, N.N.Klintsova** kabi olimlarning tadqiqotlarida ta'lim klasterlari ijtimoiy sheriklik doirasida oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari, ishlab chiqarish tashkilotlarining tarmoq aloqalar o'rtasidagi faoliyat sifatida tushuniladi. Aynan shu mazmun bugungi kunda pedagogik ta'lim sohasiga kirib kelgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri faoliyatida o'z aksini topmoqda.

Tadqiqotchi **G.E.Zaxidov** tomonidan ham klasterni shakllantirish usullari normativ-huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy-kommunikativ sohalar bo'yicha tahlil qilingan.

Yuqorida biz keltirib o'tgan **M.Porter**ning klaster nazariyasi bugungi kunga kelib o'zining mazmun-mohiyatini birmuncha o'zgartirdi. Chunki dunyo bozorida raqobat va ishlab chiqarish munosabatlari kun sayin keskinlashmoqda. M.Porter faqatgina jug'rofiy omillarni klasterlarni shakllantirish bilan bog'liq asosiy shart deb bilgan bo'lsa, endilikda mutaxassislar bu boradagi omillarning yanada ko'p ekanligini qayd etmoqda. Klasterlarni hududiy yoki boshqa omillar bilan chegaralash global miqiyosda faoliyat olib borish va raqobat muhitida turg'un qolishga to'sqinlik qila boshladi.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika kabi sohalarni klasterlashtirish rivojlangan. Ta'limga nisbatan klasterlashtirish modelini tatbiq qilish so'nggi yillarda ko'zga tashlanmoqda, ayniqsa, G.I.Muxamedov, Sh.Q.Mardonov, U.N.Xodjamqulov, Ya.X.G'afforov, J.E.Usarov, Sh.I.Botirova, S.A.Toshtemirova, N.M.Koshanova, Q.Sh.Maxmudov kabi o'zbek pedagoglarining ilmiy faoliyatlarida pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uning amaliy tatbig'i borasida salmoqli fikrlar bayon qilingan.

Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon beradi. Demak, klaster yondashuvi bu:

- alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;

- ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma;

- zamonaviylik va muntazam yondashuvdan kelib chiqqan holda bir tashkilotning tuzilishiga birlashtirilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan soha xo'jalik subyektlarining majmui;

- ishlab chiqarish va ta'lim dasturlarining ehtiyojlarini birlashtirish;
- ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi;
- tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli;
- turli ta'lim muassasalarini (bolalar bog'chasi-maktab-kollej-OTM) integratsiyalashuvi natijasida ta'lim tizimini izchillik printsipi asosida qayta tashkil etish.

Ilmiy adabiyotlarda "klaster" tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, "pedagogik ta'lim klasteri" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **pedagogik ta'lim klasteri** – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlarning texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

Pedagogik ta'lim klasterini umumta'lim muassasalarida Tarbiya darslariga nisbatan tatbiq qilish "ta'lim – ilm-fan – ta'lim vositalari – texnologiya – boshqaruva – biznes" kabilidan iborat innovatsion zanjirni hosil qiladi va uni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq qilish bugungi pedagogikamizning oldidagi muhim vazifalaridan biri. Ta'lim majmuasini tashkil qiluvchi bo'g'inlar o'rtaida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va samaradorlik nuqtai nazardan, ma'lum hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash tobora zaruratga aylanayapti. Aynan shu zaruratni amalga oshirish uchun ta'limga klaster modelini tatbiq etish jarayonlarida, birinchi navbatda, xorijiy tadqiqotlarning natijalari chuqur tahlil qilingan holda ushbu natijalarni milliy ta'lim tizimimizga moslashtirilgan samarali usul va vositalarini ishlab chiqish lozim.

Klaster nazariyasi barqaror rivojlanish strategiyasining mavjudligi klasterni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun muhim omillardan biri bo'lib,

klasterga ko'shimcha tuzilmalarni qo'shish uning faoliyatini yanada rivojlantiradi, shunindek, klasterning mavjud tuzilmalarini olib tashlash uning faoliyatini halokatli oqibatlarga olib kelmasligi bilan qulaydir. Klaster tizimlarining global miqyosdagi asosiy afzalliklari unda ochiqlik, moslashuvchanlik va nisbatan oson boshqarish imkoniyatlarining mavjudligi bilan ko'zga tashlanadi.

## 2. Ta'lim klasteri sharoitida Tarbiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish

Ma'lumki, iste'molchi talablariga javob beradigan mutaxassis faqatgina oliy o'quv yurtida muayyan bir yo'nalishdagi kompetentsiyalarni egallashi bilan ta'minlanmaydi, bu bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning dastlabki bo'g'inlari o'z aksini topishi lozim. Oliy va umumiylar o'rta ta'lim o'rtaсидаги klaster tuzilmasini tashkil qilish bu maqsadni amalga oshirishda samarali tendentsiya hisoblanadi. Umumta'lim mактабларда tarix fanlarining uslubiy birlashmalarda ta'lim klasteri faoliyatini yo'lga qo'yish texnologiyasi asosida umumta'lim maktablarida klaster tuzilmasi ishlab chiqish uch bosqichda amalga oshiriladi.

Quyida umumiylar o'rtaсидаги ta'lim maktablarida Tarbiya darslari sifatini oshirishda ta'lim klasterni tashkil etish bosqichlari va har bir bosqichdagi texnologik jarayonlarni mazmunan izohlab ko'rsatish mumkin:

Birinchi bosqichda klaster tarkibi aniqlanadi. Bunda uning negizi – yirik tizim, ya'ni oliy o'quv yurti yoki unga o'xshash tizimlar aniqlanib, ulardan vertikal bo'yicha o'zaro bog'liq bo'lgan quyi va yuqori turuvchi tizim kabilarning texnologik zanjirlari tuziladi. Ular o'rtaсидаги umumiylar orqali ijtimoiy buyurtma hamda ta'lim xizmatlarini yaratuvchi yetkazib beruvchilar va tashkil qiluvchilar aniqlanadi. Birinchi bosqichning so'ngida esa, barcha tizimlarning umumiylar manfaatlari asosida faoliyat samaradorligi uchun qo'shimcha ichki gorizontal zanjirlar shakllanadi. Tajriba shuni

ko'rsatmoqdaki, klaster chegaralarini aniqlash eng murakkab vazifalardan biri hisoblanib, hamma vaqt tadqiqotning maqsadi va kontseptual yondashuvini belgilab olish muhim shartlardan biri bo'lib qoladi.

Ikkinci bosqichda klaster ichida ichki tarmoqlararo bo'limlar, ayniqsa, klaster faoliyati uchun samarali bo'lgan maxsus usul, shakl, vosita va texnologiyalar, axborot, kapital hamda infratuzilmani ta'minlovchi bo'limlar ajratiladi.

Uchinchi bosqichda esa, klaster ishtirokchilarining xatti-harakatiga ta'sir etuvchi (qoidalar, me'yorlar, rag'batlantiruvchi omillarni shakllantiruvchi) hukumat va boshqa qonunchilik tuzilmalari, ya'ni, oly va o'rta maxsus, xalq ta'limi vazirliklari kabi vakillik organlari aniqlanadi, ular o'rtasida shartnomalar aniqlanadi. Umumiyligi va xususiy manfaatlardan va talablardan kelib chiqib qo'shma dasturlar ishlab chiqiladi. Tashkiliy-pedagogik jarayonlar keltiriladi. Istiqbol natijalar belgilanadi.

Demak klaster ko'p vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, unda turli, ba'zan maqsadli bo'limgan tuzilmalarni klasterga birlashtirish, ularning oddiy birikmalariga to'g'ri kelmaydi. Klasterning barcha qismlar yig'indisi sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Klaster qismlarini bir butunga uyg'unlashtirishning yangi printsiplari ham mavjud bo'lib, u klasterga kiritilgan qismlarning umumiy rivojlanish suratini belgilab beradi. Rus tadqiqotchisi S.V.Krivix ta'kidlaganidek, "Tashkilotning umumiy tamoyillari bo'yicha murakkab ijtimoiy, geosiyosiy yaxlitlikni qurishda to'g'ri yondashuvlarni ishlab chiqish uchun evolyutsion darajadagi butunlik katta ahamiyatga ega".

Ta'lim majmuasining asosiy mahsuloti raqobatbardosh kadrlar va ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Ta'lim klasterining pirovard maqsadi ta'lim va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan. Bu esa tizimda boshqaruv, tuzilma va sifat bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar bilan birga mutaxassislarni tayyorlash tizimida ayrim tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlarni ham talab qiladi.

Ayni paytda, bu boradagi ishlarning barcha bosqichlarida yangi shakllar va usullarni izlash, ta'limning barcha turlarini maqsadning umumiyligi va manfaatlarning xususiyligi bo'yicha aloqadorligini kuchaytirish, ular o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash masalasi yotadi.

Endi ta'lim klasterining samarali rivojlanishi qanday shart-sharoit va omillarga bog'liqligi bo'yicha to'htalib o'tsak. Rus tadqiqotchilari nigohidagi ta'lim klasterining muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar va omillar quyidagilardan iborat:

**D.A.Yalovning** fikriga ko'ra, talabga javob beradigan texnologik va ilmiy infrastrukturaning mavjudligi;

**V.P.Tret'yakning** fikriga ko'ra, qatnashchilarning o'zaro hamkorlikka ruhiy jihatdan tayyorligi;

**A.A.Migranyanning** fikriga ko'ra, klaster subyektlari o'rtasida axborot almashishni ta'minlovchi kuchli axborot texnologiyalari va boshqalar ta'lim klasterini muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlaydi.

Bularga qo'shimcha ravishda klasterni rivojlantirishning mustahkam hududiy strategiyasining mavjud bo'lishi; tajribadan o'tkazishga yo'naltirilgan loyihalarni boshqarish va amalga oshirish usulini muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyati va hokazolar ham ta'lim klasteri muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tarbiya darslarida sifatli ta'lim oluvchini ta'minlash uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

ta'limni klasterlashtirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, ularda samaradorlikka erishish uchun mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashtirish;

subyektlarda targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovatsion jarayonni to'la anglab yetishlariga erishish;

hamkorlik ko'p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish;

klasterni rivojlantirishning puxta o'ylangan strategiyasini, loyihasini muvaffaqiyatli boshqarishning usul va yo'llarini ishlab chiqish;

qatnashchilar o'rtasida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish lozim, va bu klasterning muvaffaqiyat garovidir.

Lekin bu juda keng ko'lAMDAGI tashkiliy jarayon bo'lib, ko'p vaqt va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Suni ta'kidlab kerakki, klasterni rivojlantirishning aniq samaralari 5-7 yilda ko'zga tashlana boshlaydi.

Tarbiya darslariga nisbatan klaster yondashuvi muassasa boshqaruv organlariga tizim ichida samarali o'zaro ta'sir o'tkazish uchun muayyan vositalar bilan ta'minlash, muammolarni yaxshiroq tushunish, mintaqada tarix fanlarini samarali o'qitishni rivojlantirishning ilmiy asoslarini rejalashtirish imkonini beradi. Bularning barchasi ta'lim klasterining katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hodisa ekanligi haqidagi fikrlarni tasdiqlaydi, bu tizim integratsiyalashuv orqali yangi sinergetik sifatga erishish imkonini beradi. Ta'lim klasteri tizimning tarixiy bilimlarga bo'lgan raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhit va shart-sharoitni yaratgan holda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati ortib boradi.

Bu jarayondagi butun tadbirlar majmui ilmiy va kasbiy kadrlarni tayyorlashning asosiy poydevori bo'lgan ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ammo klaster doirasida birlashgan subyektlarning barchasi ham darhol haqiqiy natija bera olmasligini unutmaslik lozim. Buning uchun klaster ishtirokchilari bu yo'nalishdagi bilimlarini takomillashtirishi, uning nazariy va amaliy asoslarini bilan tanishishlari muhim.

Ta'lim klasterining nazariy asoslarini keltirib o'tishni davom ettirgan holda uning ijtimoiy sohada ahamiyatini pedagogik ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashda deb tasniflash mumkin. Shu bilan birga o'quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni ommalashtirishda, uzluksiz

ta'lim tizimda pedagog kadrlarni tayyorlashni hamkorlikda loyihalash yo'nalishlarida ko'zga tashlanadi.

Ta'lim klasteri mazmuni va sohaning o'ziga xos spetsifikasidan kelib chiqib, Tarbiya darslarida quyidagi yo'nalishlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq: ta'lim yo'nalishi, ta'lim vositalari yo'nalishi, ta'lim va fan yo'nalishi, tarix ta'limi va iste'molchilar yo'nalishi hamda ta'lim sifatini boshqarish yo'nalishi.

Yuqoridagi tasnifda pedagogik ta'lim sohasi faoliyati to'laqonli qamrab olingen bo'lib, har bir yo'nalish o'z ichida o'zaro tarmoqlanadi. Bu yo'nalish va tarmoqlar mazmuni ta'lim turlari o'rtasidagi ta'limiy, ilmiy, uslubiy, ta'lim vositalari va boshqaruv bilan bog'liq hamkorlikning barcha shakl, usul va texnologiyalarini o'zida jamlaydi. Shu o'rinda umumta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan klaster modelining yo'nalishlari mazmunini izohlab o'tish maqsadga muvofiq.

Ta'lim yo'nalishida maktablarda Tarbiya darslaridagi mavjud muammolarni aniqlash, tasniflash va bartaraf etish, o'quv-uslubiy salohiyatning vertikal va gorizontal harakatlanish mexanizmlarini ishlab chiqish, dars mashg'ulotlari sifatini boshqarish va nazorat qilish, o'quv-uslubiy samaradorlikni aniqlashning sodda va eng maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish hamda joriy qilish, o'quv-uslubiy sohada ta'lim turlariaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Ta'lim vositalari yo'nalishida esa, tarbiya fanlari o'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv qo'llanmalarning mazmuni va sifatini boyitish, savyasini ko'tarish, dars mashg'ulotining yordamchi adabiyotlari va didaktik ta'minotini takomillashtirish, axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishga erishishni asosiy shartlardan biri sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

Ta'lim va fan yo'nalishida bular o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, ilmiy sohada ta'lim turlariaro tyutorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, OTM va


umumta'lum maktablari hamkorligida binar ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish, OTM ijtimoiy fanlar kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan ilmiy ishlamalar tayyorlash va uning umumta'lum maktabi tarix fanlari pedagog-o'qituvchilari tomonidan amaliyatga tatbiq qilinishi nazarda tutiladi.

Keyingi yo'nalishda turli ta'lif va iste'molchilar yo'nalishi o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, Tarbiya darslarida nazariy va amaliy asoslar uyg'unligini ta'minlash, globallashuv shiddatini inobatga olgan holda ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan amaliyatga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish amalga oshiriladi.

Ta'lif sifatini boshqarish yo'nalishida esa, darslarni innovatsion boshqaruv borasida yangi usullarni ishlab chiqish, barcha ta'lif iste'molchilari manfaatlarini muvofiqlashtiruvchi sifatni yaratish, innovatsion usul va vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayonlarida tatbiq qilish lozim bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'limga nisbatan ko'plab yangicha yondashuvlar, innovatsiyalar joriy etilib, biz taqdim qilayotgan ta'lif klasteri o'ziga xos belgi bilan ulardan ajralib turadi. Klaster munosabatlarda butunlikning o'ziga xos tizimli belgilarini quyida keltirib o'tildi (7-rasm).

Ta'lif klasterining o'ziga xos sinergetik belgisi ham mavjud bo'lib, bunda tashqi ta'sirlardan kelib chiqadigan va mavjud oddiy tizimlardan farqli o'laroq, klasterlar asosan ichki resurslar hisobiga ishlaydi.



7-rasm. Ta'lif klasterining o'ziga xos belgilari

### 3. Ta'lif klasteri subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabat mexanizmi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, klaster (ingliz tilidan cluster - klaster) birlashma, bu tushuncha ostida bir necha xil elementlar, mustaqil deb hisoblash mumkin bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan birlashmalar tushuniladi. Muassasa, tuman, shahar, mintaqa, respublika darajasida ta'lif tizimini klasterlashtirish tashqi va ichki aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, ta'lif oluvchilarning umumiyligi, kasbiy, huquqiy saviyasi yuqori bo'lgan mutaxassis shaxs bo'lib yetishishiga qaratilgan, mintaqaning boshqaruv siyosatiga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy sohalariga

faol ta'sir ko'rsata oladigan vakolatlarini shakllantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratadi.

Demak, ko'p darajali murakkab tizim sifatida umumta'lim muassasalariga tarix fanlari uslubiy birlashmalarida ta'lim klasterini quyidagi asoslarda ishlashi maqsadga muvofiq:

- tizimlilik - bunda ta'lim klasteri yaxlit, murakkab, ko'p bosqichli tizim sifatida qaralib, klaster tizimlarining asosiy afzalliklari moslashuvchanlik va nisbatan oson boshqarish mexanizmiga ega ekanligidir;
- barqarorlik - bunda ta'lim klasteri tashqi ta'sirlarga bardosh bera olish xususiyatiga ega bo'lgan ichki resurslar hisobiga ishlaydi va universal vositalar yordamida yanada kengaytirilishi va zamonaviylashtirilishi mumkin;
- sinergetik ta'sir - bu ta'lim klasteri ichki va tashqi omillarining birlgiligidagi o'zaro ta'siri hisoblanadi. U ta'lim klasterining har bir tizimi uchun o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini boshqarishga imkon beradigan sinergetik ta'sir orqali rivojlanishiga sharoit yaratadi;
- moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik – yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim klasteriga yangi tizimlarni qo'shish uning faoliyatini yanada takomillashtiradi va aksincha, unda mavjud bo'lgan tizimlarni olib tashlash uning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan halokatlari oqibatlarga olib kelmaydi.

Ta'lim klasteri, odatda, boshqa ijtimoiy tizimlarga qaraganda tezroq rivojlanadi, lekin o'z faoliyati davomida u yuqori darajadagi butunlikka tezda erisha olmaydi. Buning asosiy sababi har qanday ta'lim klasterida subyektlarning avlodlari, ya'ni o'quvchi, o'qituvchi, iste'molchi, ish beruvchi va boshqalar juda tez o'zgarib turishidir, shu bilan birga ta'lim klasteriga kiritiladigan har bir tashabbus, loyiha unga o'z ta'sirini o'tkazib, uning faoliyatiga yangi omillarni kiritish, uni belgilangan yaxlitlikka erishishdagi maqsadini yoki muddatini o'zgartirishga olib keladi. Shuning uchun ta'lim klasterinig rivojlanishi nafaqat obyektiv, balki subyektiv omillar bilan ham belgilanadi.

Har qanday ta'lim klasterida juda ko'p beqaror tizimlar mavjud bo'lib, bu beqarorlik uning salbiy tavsiflanishiga olib kelmaydi. Beqarorlik markazi keyinchalik klasterni yanada rivojlanish manbai bo'lishi mumkin bo'lgan obyektni aniqlaydi. Shuning uchun rus olimi T.M Pozdeeva ta'kidlanganidek, ta'lim klasterini boshqarishda bunday beqarorlikning o'choqlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega va ularni yaratilgan tizim modeliga qo'shish maqsadga muvofiq.

Umuta'lim muassasalarida Tarbiya darslarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va tahsil olayotgan o'quvchilarining kompetentsiyalarini shakllantirishning klaster modeli subyektlar (oliy ta'lim va umumiyo'rta ta'lim muassasalari)ning o'zaro birlgilidagi loyihalashtirilgan dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish bilan amalga oshiriladi. Pedagogik ta'lim tizimni rivojlanishning strategik yo'nalishlaridan biri ta'lim salohiyati, psixologik va pedagogik fan va klaster subyektlarining ta'lim amaliyotini integratsiyasini ta'minlash va rivojlanishga qaratilgan klaster modeliga o'tish hisoblanadi. Ta'lim klasteriga muvofiq, klaster - doimiy pedagogik tafovutning milliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlanishdan manfaatdor bo'lgan va shartnomalar asosida o'zaro hamkorlik qiladigan muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy birlashmasidir.

Klaster negizida yuqori vakillik organlari, ijtimoiy institutlar va turli darajadagi (tuman, shahar, viloyat) ma'lum sohalarda tashkil etilgan subyektlar mavjudligi yuqoridagi fikrlarimizda ta'kidlab o'tildi. Demak, klasterning mintaqaviy tuzilmalari tarkibida mahalliy hokimiyat organlari, ijro etuvchi ma'muriy organ (mahalliy ma'muriyat), shahar hokimiyati, ijtimoiy institutlar, ta'lim tizimi, madaniyat, yoshlar siyosati, jismoniy tarbiya va sport muassasalar, tashkilotlar va ijtimoiy jamoatchilik kabilardan iborat bo'ladi. Ta'lim klasteri tuzilmasida esa mintaqaviy ta'lim tizimi boshqaruv organlari, oliy ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, umumiyo'rta va maktabgacha ta'lim muassasalari, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, ilmiy

tekshirish institutlari, ilmiy tadqiqotchilar, madaniy tashkilot va obyektlar, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar, o'quvchilar, bolalar, ijtimoiy muhit va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish, shuningdek, ota-onalar jamoatchiligi hamkorligidagi aniq maqsadlar yo'lida birlashgan subyektlar faoliyat olib boradi. Ta'lim klasteri mintaqada barcha ta'lim oluvchilar salohiyatiga tashqi ta'sir o'tkazish orqali ta'lim samaradorligin oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish istagida bo'lgan, o'z ichki salohiyatiga ishonadigan, turli sohalardagi bo'lajak mutaxassis uchun bir maydon yaratadi.

Ta'limda klaster yondashuvini tatbiq etishimiz uchun, ta'lim kontekstida klaster sharoitini yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Klaster sharoiti esa, barcha ta'lim turlarining xususiy va umumiy manfaatlarini inobatga oladigan hamkorlikdagi o'quv dasturlari orqali amalga oshiriladi. Har bir ijtimoiy buyurtma iste'molchisi zarur bo'lgan vaqtida boshlab o'z buyurtmasiga ta'sir o'tkaza boshlashi, uning ta'lim olishdagi faoliyati davomida ma'qul bo'ladigan, ixtisoslashgan dasturlar, ta'lim xizmatlarini joriy etib borishi va o'z navbatida ularni rag'batlantirib borishi ijtimoiy buyurtmaning iste'molchi talabiga muvofiq tayyorlanishini ta'minlaydi. Demak, ijtimoiy buyurtma bu ta'lim klasterini yaratish va rivojlantirishning asosiy vektoridir. Ta'lim muassasasini tizimli rivojlantirishga qaratilgan rahbarlar doimiy ravishda ijtimoiy tartibni o'rganish va tahsil qilish, taklif etilayotgan dasturlar va loyihalarning sifatini iste'molchilarning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlash uchun uning o'zgarishini taxmin qilishi muhimdir. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish shakllari, vositalari, texnologiyalari va usullari maktab bitiruvchilarning innovatsion kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatlari moslashuvini ta'minlaydigan ijtimoiy buyurtma va mehnat sohasi talablarini amalga oshirishni ta'minlash uchun mo'ljallangan ta'lim klasterining zamонавиј universal vositasi bo'lishi kerak.

#### **4. Tarbiya fanlari bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish metodikasi**

"Maktab-laboratoriya" tajriba maydonchalarida tarixiy bilimlar bo'yicha iqtidorga ega o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirishda yuqoridagi nazariy asoslar bilan bирgalikda bir qator metodikalarni ham taqdim qilish maqsadga muvofiq. Odatta o'quvchilarda umumiy va maxsus qobiliyatlar vujudga kelishini belgilab beruvchi mexanizmlar mavjud bo'lib, ularni pedagogik jarayonlarda turli uslublar orqali takomillashtirib borish zarur. Tug'ma layoqat belgilari insonga xos bo'lsada, o'quvchi faoliyati davomida qulay shart-sharoitlar bilan rivojlantirilib borilsagina, iqtidorli o'quvchining shakllanishiga asos bo'ladi.

O'quvchida biror soha yoki faoliyatga nisbatan kuchli qiziqish bilan unda muayyan biror yo'nalishga moyillik, intilish paydo bo'ladi, uning bu mayillik xususiyatini aynan shu yo'nalishga tegishli bilimlar, topshiriqlarni, qiziqarli ma'lumotlarni chalg'imay, uzoq muddat davomida bilishga intilishi, bajarishga qiziqishida ko'rish mumkin. O'quvchi uchun aynan o'zi qiziqqan va shu sohada faoliyat yuritish, bilim olish, topshiriqlarni bajarish kabi jarayonlar hayot mazmuniga aylana boshlagan yo'nalishni yanada shakllanishiga qulay sharoitlar yaratilsa, kelajakdagagi istiqbolli kasbiy faoliyati ta'minlanadi. Qobiliyatning vujudga kelishi bevosita kuchli ijtimoiy ta'sirlar orqali ham shakllanadi, oiladagi muhit, masalan, oilada musiqaga, rasm chizishga moyillik tug'diradigan ta'sir mavjud bo'lsa, bolada asta-sekin shu sohaga qiziqish va qobiliyat shakllana boshlaydi. Ayniqsa, ijtimoiy ta'sir umumta'lim maktablarida pedagog-o'qituvchining dars jarayonini olib borish qobiliyati o'quvchining shu o'quv faniga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, dars jarayonini tashkillashtirishi, rejali, maqsadli, erkin muloqat tarzida, kutilayotgan natijalarga asoslangan holda tashkil qilinishi o'quvchining shu fanga nisbatan qobiliyatini shakllanishiga olib keladi.

Tarbiya fanlarida iqtidorli o'quvchilar bilash ishlash quyidagi ta'limgarayonlarida olib boriladi:

- 1) o'quv jarayonlarida;
- 2) sinfdan tashqarimashg'ulotlarda;
- 3) tarix fanlari to'garaklarida;
- 4) maxsus kurslarda;
- 5) hamkorlikdagi tuzilmalarda tashkil qilingan jarayonlar va b.

Bu kabi ta'limgarayonlarida pedagogik faoliyat uslublari quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- shaxsni rivojlanishi uchun turli imkoniyatlarni yaratish;
- sinfdan tashqarimashg'ulotlarning samaradorligini oshirish;
- individuallashgan va tabaqalashgan ta'limgarayonlari shug'ullanish;
- qo'shimcha ta'limgarayonlari erkin tanlash;
- ota-onalarni o'quvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlashga jalb qilish va hakozo.

O'quv jarayonlarida iqtidorli o'quvchi bilan ishlash bevosita pedagog-o'qituvchining ma'suliysi va mahorati bilan amalga oshiriladi. Iqtidor bilan ishlash pedagogdan barcha usul, metod va texnologiyalardan tizimi foydalanishni talab qiladi, bu muayyan bir mavzuning mazmuni, mashg'ulot tarkibiy qismlarining o'zaro mutanosibligini, keng qamrovli yondashuvlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Qo'llanilayotgan metodik tizim o'quvchining yosh xususiyatlariga, ta'sir ko'rsatish doirasiga va albatta istiqbolli natijalarga mos kelishi lozim.

Shuning bilan birga sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchidagi qobiliyat yanada rivojlanib, buning natijasida iqtidor toifalari tashxislana boradi. Quyida Tarbiya fanida sinfdan tashqari mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari va metodik tizimi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Tarbiya fanlarida o'quv jarayoni bilan birga sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tarixiy jarayonlarni, tarixiy-madaniy joylarni o'rganishda ijodiy-fikrlash qobiliyatini

shakllantirish samarali uslubdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ko'p variantli ish turlari, tiplari, janr va uslublaridan foydalanish o'quvchining tarixiy merosimizni mulohazali, ijodiy o'rganishga yordam beradi. Mashg'ulot rahbari har bir mashg'ulotga puxta tayyorlangan, muayyan mavzu yuzasidan o'quvchining mulohaza yuritish, tasavvur qilish, ijodiy fikrlashiga turtki bo'ladigan yozma va og'zaki muloqatni tashkil qilishi kutilgan natijaga olib boruvchi usullardan hisoblanadi. O'quvchilarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli olib borilishi, jumladan, tarixiy yo'nalishdagi mashg'ulotlarda, milliy qadriyat, milliy merosga bo'lgan hurmatni oshirishga, tarixiy-ilmiy bilimlarni egallashlariga, xususiyatlarini anglashga xizmat qiladi. Unda idrok qilish, tasavvur qilish, mulohaza yuritish, tahlil va qiyoslash kabi ijodiy qobiliyatlar shakllana boshlaydi. Bu faoliyat davomida mashg'ulot rahbari o'quvchiga beriladigan topshiriqlar usulini turli metodlar bilan boyitishi, beriladigan savollarni qisqa javoblar bilan kifoyalanadigan emas, balki keng mulohazaga, erkin fikrlashga, ko'p variantli javoblar keltiriladigan savollar majmuini tayyorlash metodikasiga ham e'tibor berishi lozim. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda SCAMPER usulini qo'llash orqali o'quvchidagi ijodiy va kreativ fikrlashni shakllantirish mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim. Bu usul 1997 yilda Bob Eberle tomonidan taklif qilingan bo'lib, zarur bo'lgan hollarda biror yangilikni yaratish yoki mavjud holatni yaxshilash uchun shu yo'nalish bilimlari bilan innovatsion tafakkurni uyg'unlashtirish amalga oshiriladigan samarali uslubdir. Bunda o'quvchida muayyan mavzu bo'yicha mustaqil fikr shakllangunga qadar savollar beriladi. Bu savol variantlari orqali guruhning tasavvurini bilish va to'g'ri yo'naltirish imkoniyatini paydo bo'ladi. Tarbiya fanlarida SCAMPER savollaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

S - o'rnini almashtirish. Mavjud tarbiyaviy jarayonning sababi, mohiyati, maqsadi, jarayonni borishi, tuzilishi, natijalari kabi xususiyatlarining qaysi qismlarini qanday o'zgartirgan bo'lar edingiz?

**C** - birlashtirish. Tarbiyaviy jarayon ahamiyatini yanada takomillashtirish uchun unga qo'shimcha qanday xususiyatlarni, obyekt yoki subyektlarni birlashtirish mumkin?

**A** - moslash. Obyektga birlashtiriladigan xususiyatlarni davrning siyosiyijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga bog'liq holda qanday moslashlashtirish mumkin?

**M** - me'yor (kamaytirish, kattalashtirish, o'zgartirish). Tarbiyaviy jarayonni jiddiy tus olmasligi, salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun qanday holatda o'zgartirish, obyekt va subyektlar hajmini kamaytirish yoki ko'paytirish mumkin?

**P** - boshqa makon va zamonda foydalanish. Aynan shu tarbiyaviy jarayon boshqa davrning qaysi jarayoniga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin?

**E** - yo'qotish. Tarbiyaviy jarayonning tuzilishi, obyekt yoki subyektlaridan qaysi qismini olib tashlash uning ijobiy natijasiga ta'sir ko'rsatmaydi yoki salbiy oqibatini kamaytiradi?

**R** - qayta tartiblash. Tarbiyaviy jarayonni tubdan o'zgartiring?

SCAMPER savollarining ahamiyati fikrlarni umumlashtirish jarayonida o'quvchilar vazifaning turli jihatlarini, eng muhimi o'quv jarayonlarida, kundalik malakalarida ko'p uchratmaydigan, uni ijodiy va nostandard fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradigan xususiyatlari mavjudligidadir. Ushbu savollar o'quvchini boshqacha fikrlashga majbur qiladi, bu o'z navbatida o'quvchining g'oyaviy tizimini shakllanishiga olib keladi.

Bu texnologiya nafaqat sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, o'quv mashg'ulotlarida ham samarali bo'lib, bunda o'qituvchi dars vaqtining taqsimotini to'g'ri taqsimlagan holda, rejali tashkil qilishi bu usulni maqsadiga erishishiga olib boradi. Bu texnologiya ko'plab yo'nalishdagi o'quv fanlarining tarkibiy qismlariga mos keladi va yuqori natija beradi.

Sinfdan tashqari amalga oshiriladigan mashg'ulotlarning pedagogik tizimi quyidagilarga yo'naltiriladi: fikrlashning an'anaviy qolipidan chiqqan

holda erkin, mustaqil fikr bildirishga imkon yaratish, idrok qilish, anglash orqali muammo yechimini obyektiv hal qilish, intellektual-ijodiy qobiliyatlarni faollashtirish, motivatsion mezonlarni takomillashtirish, qobiliyatlarning o'ziga xosligi kabilar.

O'quvchilardagi ijtidor toifalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradigan o'quv jarayoni yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlar metodikasida usul va texnologiyalar bilan bir qatorda didaktik ta'minotning ahamiyati ham katta. Didaktik ta'minotda pedagog o'z mashg'ulotida turli didaktik uslublardan samarali foydalanishi tavsiya etiladi, jumladan, axborot, ma'lumot, dalil, suhbat, diolog, monolog, manbalar bilan ishslash, tasvirlash, bashorat qilish, mulohaza yuritish, taqqoslash-solishtirish, klasterlashtirish, tahlil qilish kabi didaktik metodlar bilan bir qatorda ijodiy tasavvur qilish, syujetli, rolli, muloqotli didaktik o'yinlar ahamiyatini rivojlantirish ham o'quvchilarda qobiliyat darajalarini yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Ijtidorli o'quvchilar bilan kichik guruxlarda ishslash ham samarali metodikalardan biri bo'lib, ushbu metodikaning mohiyati kichik guruhlar 5-7 nafar o'quvchidan iborat holda olib boriladi va har bir kichik guruh parallel holda muhokama uchun berilgan masalalarga bирgalikda javob tayyorlaydi. Muammolarni muhokama qilish jarayonlarida guruh vakillari faol ishtiroy etadi, bir-birlarining fikrlarini ma'qullaydi, qarshi chiqadi, to'ldiradi va hokazo. Bu uslub o'quvchidagi yuqori hissiy kayfiyatni yaratishga, o'quvchilarni qiziqarli va xilma-xil ishlarga undashga imkon beradi, o'quvchi o'zini berilgan imkoniyatlar orqali sinovdan o'tkazadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, fan to'garaklarida loyihali o'qitish metodikasining ham ahamiyati katta. Bu metodika berilgan vazifani ijodiy o'zlashtirishga asoslanilgan bo'lib, ko'pincha o'quvchilarni mustaqil faoliyatida o'z aksini topadi. Loyiha mahsuloti o'quvchi tomonidan tayyorlangan nutq, hisobot, taqdimot, tezis, ijodiy ko'rgazma kabilar bo'lishi mumkin. O'quvchiga taqdim qilinadigan loyiha vazifasi tabiatan shaxsga

yo'naltirilgan bo'lishi, o'quvchi faoliyati davomida o'zi egallagan malakasidan yoki boshqa o'quvchilar tajribalaridan o'z ishida foydalangan holda tayyorlashi mumkin. Loyihaning maqsadi va vazifalari, unga yordam beradigan metodik va texnologik tizim o'qituvchi tomonidan yetkaziladi. Vazifa yuzasidan manbalarni yig'ish, tahlil qilish, solishtirish, o'z xulosalarni bayon qilish orqali o'quvchi loyihami muvaffaqiyathi bajarishga yo'naltiriladi. Buning natijasida o'quvchi o'z ishidan qoniqishni his qila boshlaydi, o'quv jarayonidagi faoliyati samarali tus oladi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda Yevropada keng qo'llaniladigan maxsus kurslardan foydalanish metodikasi ham eng samarali usullardan biri. Maxsus kurslar o'quv jarayoni tashkil etadigan shakllardan biri bo'lib, o'quvchilarga o'z ilmiy loyihamarini bajarish, umumta'lism dasturlarini yoki o'zlarini tanlagan yo'nalish, soha bilimlarini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu kabi tashkil qilingan maxsus kurslarning ahamiyati o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatini shakllantirish bo'lib, bundan kutiladigan natija tanlangan yo'nalish bo'yicha iqtidorli o'quvchilar sonini ko'paytirish, o'quvchilar o'qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilash, tanlangan yo'nalishlarda individual yutuqlar portfoliosini yaratish, zamon talablariga o'quvchini moslashtirish kabilar. Iqtidor bilan ishlashga mo'ljallangan maxsus kurslar o'quv mashg'ulotlarida ko'rib chiqilmagan, o'quvchi tomonidan yosh xususiyatlarga to'g'ri keladigan qiziqarli mavzularni muhokama qilishga asoslaniladi. Bu jarayonda o'quvchi qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashni, muammolar sabab va mohiyatini mustaqil idrok qilishni, o'quvchini turli shakllarda ishlashini talab qiladi.

Sohalarga yo'naltirilagan bo'limlar bosqichma-bosqich bir necha o'quv yiliga rejalashtirilishi mumkin:

Birinchi bosqichda rahbar tomonidan o'quvchining imkoniyatlari, qiziqishlari, motivatsion darajasi aniqlanadi. Bu orqali rahbar keyingi faoliyat

loyihasini ishlab chiqadi, qiziqish va qobiliyatiga mos mavzularni shakllantiradi;

Ikkinci bosqichda o'quvchining yaxshi natijaga erishishi, o'zlashtirish imkoniyatini oshirish uchun maslahat yordamini bera boshlaydi. Agar o'quvchi biror mavzu loyihami ustida ishlashga moyilligi bo'lsa, uni ishslash uslublaridan biri sifatida maxsus kursning maqsad va vazifalari, natijalari bilan tanishtiradi:

Uchinchi bosqichda maxsus kurs mashg'ulotlari boshlanadi. Mashg'ulotlar muammoli o'qitishga yo'naltirilgan holda olib boriladi, bundan kutiladigan natija olingan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishdir;

Maxsus kursning so'nggi bosqichi ko'rilgan mavzu va yo'nalish loyihasi bo'yicha ijodiy mustaqil ishlarini tayyorlash bo'lib, tayyorlangan mahsulot turli shakllarda (tezis, taqdimot, ma'ruza, nutq, esse, hikoya, ijodiy ish kabilar) ilmiy konferentsiyalar, tanlovlari, ko'rgazmalarda himoya qilinadi.

Bugungi kunda ko'pgina Yevropa davlatlar umumta'lim maktablarida shu kabi kurslarni tashkil qilish, o'quvchining erishgan yutuqlar portfoliosini yaratish ta'lim muassasasi samaradorligini oshiruvchi ustivor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'quvchining fikrlash qobiliyatini aniqlash va shakllantirishda maslahat berishga xizmat qiladigan maxsus tashkil qilingan mashg'ulotlar ham samarali bo'lib, bu kabi mashg'ulotlar "Kelajagim garovi", "Intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish", "Ijodiy fikrni tezislashtirish", "Yutug'im sirlari", "Shaxsiy portfolio" kabi mavzularda tashkil qilinishi tavsiya etiladi.

Yuqorida keltirilgan barcha metodik tizim asosan pedagog-o'qituvchi ma'sulligida olib boriladi. Ta'lim muassasida o'quv jarayonlarini samarali tashkil etishda pedagogik qobiliyat muhim o'rinn tutadi. Dars jarayonlarini muvaffaqiyatli o'tishi o'quvchilarning unga tayyorgarlik darajalari bilan bog'liq, mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning ham hoxish-istakdarini, yosh va ruhiy xususiyatlarini inobatga olish, mashg'ulotlarni turli

innovatsion shakl, usul, texnologiya va vositalar yordamida tashkil etish, bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishgan ilg'or tajribalarni doimiy o'rganib, tatbiq etib borish, ommalashtirish, bilimli, zukko maktab bitiruvchisiga talabgor oliv o'quv yurtlari bilan mustahkam aloqani o'rnatish muhim.

Pedagog-o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini o'zaro uslubiy, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan kuzatishi va atroficha tahlil qilish kompetentsiyalariga ega bo'lishi, o'zlarini olib boradigan mashg'ulotlarning har bir bosqichini to'g'ri tashkil etish, bu jarayonda usullarni to'g'ri tanlay olish, ilmiy-uslubiy kamchiliklarni o'z vaqtida to'g'ri anglagan holda bartaraf etish yo'llarini o'zlashtirish bilan xarakterlanadi.

Tarbiya fanlari bo'yicha o'quvchilar qobiliyatini shaklantirish va yanada takomillashtirish uchun ta'limning turli shakl va usullaridan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lajak pedagog-o'qituvchilarga sifatli ta'limning asosiy vazifalari bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- o'quvchilarning individual, madaniy va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish va shaxsiyatni rivojlantirishni tarkibiy qismlarga ajratishni ta'minlaydigan yangi pedagogik texnologiyalarning bazaviy va mintaqaviy standartlari asosida ishlab chiqish;

- shaxs manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash, ta'limni insonparvarlashtirish;

- ta'lim shakllari xilma-xilligi, bilish asoslari va shakllari orqali demokratlashtirishni rivojlantirish;

ta'limning huquqiy asoslarini ta'minlash va hokazo.

Tarbiya fanlarini o'qitishni quyidagicha amalga oshirilishi uning samarali tashkil qilinganligini belgilab beradi:

- o'quv xonalarining holati, ko'rgazmali qurollar va jihozlar bilan ta'minlanganligi, mashg'ulot har bir qismining to'g'ri taqsimlanishi, davomatning yuqori darajasi;

- uy vazifasining bajarilish darajasi, unda yo'l quylgan xato va kamchiliklarni ustida ishlash;

- o'tilgan mavzuning yangi mavzuga izchilligi, savollarning mantiqiy bog'liqligi;

- dars jarayonida foydaniladigan samarali metod va texnologiyalar;
- o'qituvchining notiqlik va fasilitatorlik qobiliyati;
- o'quvchilarning yangi mavzularini o'zlashtirish darajasi, uni aniqlashda o'qituvchining mahorati,

- nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi;

- yangi mavzuni mustahkamlash jarayonlarining samaradorlik darajasi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi;

- o'quv fani mavzulari uchun muammoli vaziyatlarni, misollarni ishlab chiqish;

- mavzular izchilligini ta'minlaydigan topshiriqlar mazmuni, metod, texnologiya va vositalari, didaktik materiallarni tanlash qobiliyati;

- mashg'ulotlarni o'tkazish va pedagogik faoliyatda o'z-o'zini tahlil qilish, uning natijalaridan keyingi mashg'ulot ishini takomillashtirishda foydalanish, bu bo'yicha ilmiy-metodik ishlarni olib borish;

- mashg'ulotlarda o'quvchilar faoliyati, ularning o'rganishga moyilligi, o'quvchilar intizomi, o'zlashtirish darajasi;

- uy vazifasining bajarish uchun kerakli yo'riqnomalarning berilishi, qo'yilgan maqsadga erishilganlik bo'yicha xulosasi.

Ta'lim klasteri asosida mutaxassislarni tayyorlashda yuqorida keltirilgan barcha pedagogik va texnologik jarayonlar bevosita oliv o'quv yurti kafedralari bilan maqsadli hamkorliklar asosida olib borilsa, ko'zlangan maqsadga erishish dinamikasi yanada ortadi.

Umumta'lim maktablarida ta'lim klasteri asosida tashkil qilingan "maktab-laboratoriya"larida o'quvchilarning bilimlar bo'yicha iqtidorini rivojlantirishga, iqtidorli o'qituvchi bilan shug'ullanadigan pedagog

mahoratini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratish lozim. Bunda maktab o'qituvchilarining o'quv jarayonlari sifatini ta'minlash maqsadida uslubiy tavsiyalar, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlandi. Shu bilan birga ta'limga turlari orasidagi integratsiyani yanada takomillashtirish maqsadida bu jarayon faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bo'lajak pedagoglar, ya'ni talabalar ham jalg etildi. Oliu o'quv yurtining faol, tashabbuskor talabalardan tashkil topgan guruxlari amaliy-tajribalarda Tarbiya fanlaridan fanlaridan oliy ta'limga muassasasida olayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini sinab ko'rishga, shu bilan birga, umumta'limga maktebalarida ta'limga sifati samaradorligini oshirishga o'z hissalarini qo'shamdi. Amaliy-tajribalar davomida talabalar tomonidan ham umumta'limga maktebalarida yangi pedagogik texnologiyalar asosida qo'shimcha dars mashg'ulotlari tashkil qilinadi.

Ta'limga va tarbiya uyg'unligi ta'limga samaradorligining muhim tamoyillaridan biri ekanligini inobatga olib, o'quvchilardagi iqtidor toifalarini shakllantirishda yuqorida keltirilgan ta'limga uslublari bilan bir qatorda tarbiyaning o'z-o'zini boshqarish, nazorat qilish, tarbiyalash, rivojlantirish kabi uslublarini ham unumli foydalanan samarali usullardan hisoblanadi. O'quv va sinfdan tashqarimashg'ulotlarda o'quvchilardagi iqtidor qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan tarbiyaviy metodlar ham tugallamaganlik, mulohazali davom ettirish, tasodifiy suhbat, o'z-o'zini taftish qilish kabi ta'sirlarni o'zida aks ettirishi lozim.

"Maktab-laboratoriya"larda yangi innovatsion-integratsion loyihalarni amaliy-tajribalariga tatbiq etishdan asosiy maqsad ham pedagogik ta'limga bilan bevosita va bilvosita shug'ullanuvchi muassasalar maqsadli hamkorligini o'rnatish orqali umumta'limga maktebalarida ta'limga va tarbiya samaradorligini oshirishga ko'maklashish; hududning pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini sifatlari qondirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilish; yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish;

pedagogik ta'limga sohasidagi integratsiya, innovatsiya, uzviylik, uzlusizlik, izchillik, samarali vorisiylikni ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ta'limga va tarbiya uzviyligini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish; pedagog kadrlar tayyorlashda o'rta ta'limga, OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanishga imkoniyat yaratish; pedagogik ta'limga rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash; ta'limga, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izzlab topib, ta'limga tatbiq etish va hokazolardir.

Shunday qilib, mutaxassislik fanlarini samarali o'qitishda ta'limga jarayonini birgalikda takomillashtirishga, uzlusiz ta'limga tizimini yaratishga qaratilgan "maktab-laboratoriya"larni tashkil qilish ta'limga turlari va ta'limga mazmuni o'rtasidagi integratsiya muammosini bartaraf qilishga, o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalarini to'liq ta'minlanishga, bo'lajak mutaxassislarning kompetentsiyalarining takomillashuviga katta imkon yaratadi. Bu "maydon"da ta'limga jarayoni ishtirokchilari o'rtasida ta'limga tizimining insonparvarlik, demokratik tamoyillariga asoslangan muhit shakllanib, u shaxsga yo'naltirilgan, o'z-o'zini bilish va rivojlantirishga asoslangan ta'limga tashkil etishga yordam beradi.

##### 5. "Oila-mahalla-oliy ta'limga" tarbiya tizimining o'rni va ahamiyati

Globallashuv jarayonida dunyoning kun sayin o'zgarib blorayotgan ijtimoiy manzarasi istiqlolimiz egalari bo'lgan yoshlar tarbiyasida yanada hushyor va sergak bo'lishimizni taqozo etmoqda. Binobarin, tarbiya har qanday ijtimoiy makonda har doim uzlusiz davom etib boradigan jarayon sifatida hoyat muhim ahamiyatga molik, dolzarb masala bo'lib kelgan. Bilamizki, vaqt o'tishi bilan bola tarbiyasining ilk oilaviy bosqichi (5-6 yoshlarda) sekin-asta ijtimoiy tarbiya (maktab, litsey, kasb-hunar makrabi) bosqichiga o'ta boshlaydi. Biroq, bu bosqich oilaviy tarbiyani mutlaqo inkor etmaydi, balki avvalgi bosqichni yangi ijtimoiy sharoitlarda yanada keng

miqyosda davom ettirishga xizmat qiladi. Ammo “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”<sup>132</sup>

Oliy o’quv yurtiga kirgan talaba, eng avvalo, tolibi ilmdir. Talabaning el yurtga sadoqati, fidoiyligi, vatanparvarligi ilm istashida, ilm izlashida, ilm topishida va bilim cho’qqilarini egallashida namoyon bo’ladi. Milliy pedagogikamizning jonkuyar vakillaridan bo’lgan G’aybulloh as-Salom va Saydi Umirov o’zlarining “Tolibnoma” risolasida talabaning o’quv yurtidagi faoliyatining uch muhim jihatiga – o’quv jarayoni, yotoqxonada yashash, jamoat ishlariga to’xtalib, “bular o’zaro chambarchas bog’liq, tutash ildizlar bo’lib, bir-birini to’ldiradi, boyitadi, taqazo etadi. Aslida uchovi ham ta’lim-tarbiya ataluvchi yaxlit, murakkab jarayonning uch tarkibiy qismi. Shu uch jihatga birdek e’tibor bergen talabandan kelgusida jamoatchi chiqishini uzoq yillik tajribalar ko’rsatib turibdi”<sup>133</sup>, deb ta’kidlaydilar. Agar mana shu “uchlik” asosida talaba tarbiyasida muhim o’ringa ega bo’lgan “oila-mahalla-oliy ta’lim muassasasi” uchligiga nazar tashlasak, ular o’rtasida nechog’liq yaqinlik borligi o’z-o’zidan anglashiladi. Ma’lumki, olilada bola tarbiyasi bilan asosan ota-onalar, mahallada mahalla fuqarolari, fuqarolar yig’ini raisi, diniy masalalar bilan shug’ullanuvchi vakil, mahalla posbonlari va ularga ko’maklashuvchi uchastka inspektori hamda tuman hokimining mahalladagi yoshlar bilan bevosita shug’ullanuvchi o’rinbosari, olyi ta’lim muassasasida Yoshlar ishlari bo’yicha prorektor, Ma’naviyat bo’limi, fakul’tet dekanlarining ma’naviy ishlari bo’yicha o’rinbosarlari, yiriklashtirilgan gruhlarning tyutorlari, Ota-onalar kengashi, Yoshlar Ittifoqining boshlang’ich tashkiloti va talabalar turar joylarida maxsus ta’sis etilgan tarbiyachi-pedagoglar kabi tuzilmalar shug’ullanadi. Masalaning amaliy jihatlari haqida gapiradigan bo’lsak, shaharlik talabalar tarbiyasida mahalla va oilaning o’rni masalasida unchalik muammo yo’q. Viloyatdan kelgan talabalar esa ota-onasidan, o’zi

unib-o’sgan mahallasidan yiroqda. Shunday ekan, bu o’rinda ularga guruh tyutorlari alohida yondoshishlari, ularga bir muddat ramziy ma’noda, otalik-onalik qilishlari kerakki, haligi talaba o’zini ota-onasidan mehridan ayro his qilmasin. Tyutor-tarbiyachining chinakam pedagogik mahorati shu yerda ikki oradagi masofani yo’qqa chiqarishi g’oyat muhim. Shu bilan birga, o’quv yurtlari qoshidagi muqobil tuzilmalar ham mazkur masalarda mas’uliyatni o’z zimmalariga olishlari ham zarurdir. Zero, hayotning o’zi talbalarda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, odamiylik, olijanoblik fazilatlarini mustahkam qaror toptirishda mustaqil hayot davomiyligini ta’minlaydigan tarbiya maskani bo’lmish mahalla va olyi ta’lim dargohi oldiga ana shu kabi mas’uliyati vazifani qo’ymoqda. Bola tarbiyasida mahallaning o’rni ham katta. “Bir bolaga yetti mahalla ota-onalik qiladi”, degan naql ham beziz aytilmagan. Mahalla O’zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko’rsatayotgan, aholi yashaydigan ma’muriy-hududiy birlik, uyushma sifatida tarbiya jarayonida bevosita ishtirok etadi. Ammo, gapning rostini aytganda, talbalar turar joyida istiqomat qilayotgan yoshlar bilan shu hudud mahallasi o’rtasida yetarli darajadagi aloqa mavjud emas. Holbuki, talabalar turar joyi ma’muriy-hududiy jihatdan shu mahalla tarkibiga kiradi. Demak, bu boradagi bo’shilqni tuldirish kerak bo’ladi. Buning uchun yotoqxonadagi talalbalri mahalla faoliyatiga faol aralashuvini ta’minlash ham zarur ko’rinadi. Toki ular mahallada o’zlarni o’gay va begona his qilmasinlar. Bu o’rinda, asosiy tashabbus mahalla ahli tomonidan bo’lishi milliy tarbiya nuqtai nazaridan tushunarli bo’lsa kerak. Ta’bir joiz bo’lsa, mahallarda tarixan tarkib topgan, halqimizga xos bo’lgan ma’naviy qadriyatlar ana shunday hayotiy-amalii faoliyat natijasida yuzaga chiqadi. Zotan, mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, to’y-tomosha, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo’lish kabi fazilatlar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Biz, “...hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’navit qo’rg’oni bo’lmish”

<sup>132</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – сингилмас кун. – “Маънавият”, Тошкент, 2008 йил, 62-бет.

<sup>133</sup> Гайбуллоҳ ас-Салом, Сайди Умр. Толибнома. – “Шарқ”, 1996 йил, 17-бет

oila, "chinakam milliy qadriyatlar maskani" bo'lmish mahalla va yuksak ma'naviyatli, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'lmish oliy ta'limga muassasasi haqida bilganimizcha, idrokimiz yetganicha fikr yuritdik. Bugun ko'plab mafkuraviy hurujlar turli yo'llar bilan mamlakatimizga kirib kelib, yoshlarimiz ongu shuuriga salbiy ta'sir etib, ularni to'g'ri yo'ldan og'dirishga haraka qilayotganligi hech kimga sir emas. Yoshlarimizni bunday illatlar va yomon ko'zlardan asrashda ta'limga tarbiyaning turli vositalari hamda omillarini izlab topish g'oyat muhim ekanligini barchamiz anglab turibmiz. Hech shubha yo'qki, "oila-mahalla-oliy ta'limga muassasasi" kabi tarbiya tizimini takomillashtirish, uning ilmiy, amaliy va pedagogik jihatlarini puxta ishlab chiqish istiqbolda yanada yaxshi samaralar beradi. Holbuki, "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'limga tarbiyadir"<sup>134</sup>.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Klaster tushunchasi bo'yicha bildirilgan tavsiflarni tahlil qiling?
2. Mutaxassislarni kasbga yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan yangi innovatsion yondashuvlarni keltirib o'ting?
3. Ta'limga nisbatan klaster modelini tatbiq qilish bo'yicha qanday xorijiy tajribalarni bilasiz?
4. Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni tahlil qiling?
5. Ta'limga nisbatan klaster yondashuvi bo'yicha fikringizni izohlang?
6. Klasterli yondashuv asosida Tarbiya fanini o'qitish tizimini rivojlantirish bo'yicha qanday taklif va tavsiyalar berish mumkin?
7. Pedagogik ta'limga klasteriga ta'rif bering?

<sup>134</sup>Ўзбекистон Президент Шавкат Мирзиёевинг мамлакатимизда таълимтарбия тизимини токомиллаштириш, илм-фан соҳаси ривожини жаддаплаштириши масалалари мухокамаси бўйича ўтказилган видеоселектор йиғилишинига нутқидан. - <https://mirziyo.uz/taraqqiyotning-tamal-toshi-millatni-buyuk-qiladigan-kuch-ilm-fan-va-talim-tarbiyadir/>

8. Ta'limga klasteri sharoitida Tarbiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish usullarini sanab o'ting?
9. Umumta'limga maktablarida Tarbiya darslari sifatini oshirishda ta'limga klasterini tashkil etish bosqichlari nimalardan iborat?
10. Ta'limga klasterini muvaffaqiyatlida faoliyatiga qanday shart-sharoitlar va omillar ta'sir ko'rsatadi?
11. Ta'limga klasterini Tarbiya darslarda qanday yo'nalishlarda tashkil qilish maqsadga muvofiq?
12. Ta'limga klasteri subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabat mexanizmi qanday amalgaga oshiriladi?

## 15-MAVZU TA'LIM KASTERI SHAROITIDA TA'LIM OLUVCHILARNI TO'G'RI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH METODIKASI

### Reja:

1. Ta'lism klasteri sharoitida ta'lism oluvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish mazmuni va shartlari
2. Bo'lajak mutaxassislarini to'g'ri kasbga yo'naltirishda o'zaro hamkorlikning ahamiyati

**Tayanch so'z va iboralar:** ta'lism klasteri, to'g'ri kasbga yo'naltirish, faoliyat turlari, talablar, hamkorlik tamoyillari, samaradorlik mexanizmlari, afzalliklar, sub'ektlar munosabati, axborot-texnologik, ilmiy-uslubiy, moliyaviy, xususiy, ijtimoiy shartlar, tavsiyalar, takliflar

### 1. Ta'lism klasteri sharoitida ta'lism oluvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish mazmuni va shartlari

Ta'lism klasterini shakllantirish va tashkil etish uchun mahalliy hokimiyatning vakolatlari klasterining tuzilishi ijtimoiy buyurtma tayyorlanishining birinchi shartidir. Keyingi o'rinda oliy ta'lism muassasasining ta'lism tizimi aks ettirilib, u yangi shakllanadigan mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan quyidagi tamoyillarni hisobga olishi va maqsadga muvofiq ravishda ishlatishi kerak bo'ladi: har bir o'quvchining tanlayotgan mutaxassisligini o'zgartirish yoki oliy ta'lism muassasasida o'qish davrida bir nechta mutaxassisliklarni olish imkoniyatini amalga oshirishda o'z ta'lism yo'nalishini tanlash va amalga oshirishda faol ishtirok etish imkoniyati mavjud bo'lgan individual ta'lism. Bunda oliy ta'lismning sifatli

maktab bitiruvchilariga bo'lgan asosiy talabi ularning oliy ta'limdagi nazariy va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, ta'limdandan keyingi faoliyatda olgan kompetentsiyalarini umumta'lism maktablarida muvafaqiyatli boshlashi va muayyan lavozimda qo'llay olish qobiliyati namoyon bo'ladi. Mazkur yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borgan olim S.M.Cherdantsevning fikriga ko'ra bunday ko'nikmalar amaliyot davomida shakllantirilishi lozim, bu esa bir tomondan, professional bilimlarni boyitishga imkon beruvchi ta'lism jarayonining ajralmas qismi bo'lsa, boshqa tomondan, kelajakda mutaxassisning ishlashga yaroqliligini baholash uchun "sinov muddati" bo'lishi mumkin degan xulosani beradi.

Bugungi kunda umumta'lism muassasalarida o'quvchilarga tarbiya fanlari pedagog-o'qituvchisi kasbini tanlashga yo'llash masalasining nazariy asoslari va uni amalga oshirish yo'llari yoritib berilmayapti. Hatto o'quvchining bo'lajak ijtimoiy fan o'qituvchisi kasbini tanlashga yo'llash tushunchasi, uning ahamiyati yetkazilmayapti.

Shu o'rinda aytish kerakkii, ta'lism oluvchini to'g'ri kasbga yo'naltirishsh tushunchasida uch xil faoliyat turini nazarda tutadi:

- a) kasbni targ'ib qilish (bu ishni maktabning boshlang'ich davridan boshlash taklif qilinadi);
- b) kasb haqidagi konsultatsiya (bunda o'quvchilarning qaysi kasbga qiziqaga boshlaganligini dastlabki o'rganish ko'zda tutiladi);
- v) kasb tanlashda o'quvchilarga yordam berish (bunda o'quvchini o'zi tanlagen sohadagi ishga dastlabki tayyorlash ishlarini olib borish tavsiya qilinadi).

Yana bir olim **Golomshtok** esa, maktablarda olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishlari mazmunida ikki xil faoliyatni alohida ajratib ko'rsatadi: o'quvchilardagi qiziqish moyillik va qobiliyatni ularning rivojlanishini bilish maqsadida o'quvchilarni muntazam kuzatishni; o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun yoshlarning kasbga qiziqishlari

hamda kelgusidagi o'qishlari masalasida maktablar tomonidan tashkil qilinadigan konsultatsiyalarni ko'zda tutadi.

Bo'lajak tarbiya fanlari o'qituvchisi kasbini tanlashga yo'llash ishlarini to'g'ri tashkil qilish asosidagina yoshlarga hayot yo'lini va kasbni to'g'ri tanlashda muvaffaqiyatli yordam berish mumkun bo'ladi. Kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini to'g'ri tashkil qilish jamiyat barcha sohalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Kasb tanlashga yo'llash ishlari quyidagi talablar asosida tashkil qilinadi:

1. Maktabda o'quv -tarbiya ishlarini jarayonida bolalarda umumiy mehnat, shu jumladan, avvalo aqliy va jismoniy mehnatga qiziqishni uyg'otish zarur.

2. Umummehnat tayyorgarligini matabning boshlang'ich sinfigan boshlash lozim. Umummehnat tayyorgarligining mazmunini va metodini o'quvchilarning yosh xususiyatlari asosida o'zgartira borish va bu bilan bolaning o'sishi darajasida moslikga erishmoq kerak.

3. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash ishlari ular shaxsini muntazam va har tomonlama o'rghanish asosida olib borilmog'i zarur. Bu jarayon, o'z navbatida o'quvchilarning qiziqishlarini ma'lum kasbga yo'naltirish hamda ular bilan kasbni tanlash yo'llarini aniqlashda individual munosabatda bo'lish imkoniyatini beradi.

4. O'quvchilar bilan maktabda olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishlari mamlakatimiz xalq xo'jaligi talablaridan, yoshlarni ishga joylashtirish va o'qishni davom ettira olishlarining real imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarning qiziqishlari va moyilliklari asosida kasb tanlashlariga erishish lozim. Shuning uchun ularni mehnat turlari va kasb turlari bilan tanishtirish va ularga kasb tanlash yo'llarini ko'rsatib berish darkor.

## 2. Bo'lajak mutaxassislarni to'g'ri kasbga yo'naltirishda o'zaro hamkorlikning ahamiyati

Kasbga to'g'ri yo'naltirish maktab jamoasi ayniqsa murabbiy, ota-onalar, korxona va boshqa tashkilotlarning birgalikdagi hamkorligini talab qiladi. O'quvchilarning kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan qiziqishlari mavhum harakterda emas, balki aniq, amaliy natija beradigan harakterda bo'lishi kerak.O'quvchining kasbga bo'lgan mayli uning shaxsiy xususiyatlari bilan qarama-qarshi bo'lib qolgan holda, bunday o'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatib, uning qiziqishlarini o'zgartirish lozim.

O'quvchi va o'quvchilar o'rtasida ongli istiqbol, keng imkoniyatlar, axborot va kasbiy mahoratni rivojlantirish muhitining paydo bo'lishi, oliv ta'lim tizimining moslashuvchanligi, unga muvofiq ta'lim mazmuni va bilimlarni rivojlantirish, kasbiy malakalarni egallash usullari shaxsning ehtiyojlari yoki da'volari darajasiga mos keladi. Bilim avtomatik ravishda talab qilinadi va o'quv rejasining qat'iy qoliplari bilan belgilanmaydi, bu esa o'qitishning motivatsiyasi va bilimlarni o'zlashtirishning samaradorligini oshiradi. Muayyan kasbiy yo'nalishga va mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga mos mutaxassislarni tayyorlashda tezkor javob berish qobiliyati bilan bog'liq oliv ta'lim tizimining dinamikligi, ularning sinergetikasi o'quvchilarning bilim, me'yoriy-axloqiy, axborot-kommunikativ, loyihibaviy-faoliyat, refleksiv-baholash sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Umumta'lim maktablarida o'quvchining qobiliyatları, qiziqishlariga qarab ularni kasb tanlashdagi yo'nalishi takomillashtirish bo'yicha mavjud muammolarni ta'lim klasteri sharoitida hal qilish samarali bo'lib, kasb tanlashlardagi muammolarni yechimi bo'yicha quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- o'quvchilarning kasb tanlashga ma'lum bir malaka va qobiliyat talab qilinishi inobatga olgan holda, kasbiy tayyorgarlikni ishlab chiqarish uzviyligi bilan bog'lash;
- o'quvchining to'g'ri kasb tanlash imkoniyatini ta'minlagan holda, oilada bolaligidanoq ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash;
- o'quvchi qobiliyatini inobatga olib, erkin kasb tanlash imkoniyatini berish;
- ta'lim klasteri subyektlari o'rtasidagi maqsadli va har biriga manfaatlari hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali kasb tanlashda mavjud mutaxassisliklar haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lish;
- o'quvchini kasb tanlashda faqatgina shaxsiy manfaatlarni hisobga oladigan emas, Vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirish orqali, jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, kerakli kasbga yo'naltirish;
- o'quvchini kasbga yo'naltirishda qobiliyat va imkoniyatlarni hisobga olishning muhimligini, kishining to'g'ri kasbni tanlashining hayotda qanchalik ahamiyatli ekanligi bo'yicha seminar, davra suhbatlari tashkil qilish kabilari.

Shuning bilan birga umumta'lismi tizimida o'quvchilarning ma'lum bir yo'nalishda bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirish uchun quyidagi mexanizmlarni amalga oshirish muhim: faol pedagogik texnologiyalar orqali o'quv dasturlariga kiritilgan ish texnologiyalarini, haqiqiy amaliyot texnologiyasini simulyatsiya qiluvchi shakl va usullarda vakolatlarni ongli ravishda egallashni; belgilangan maqsadga erishishda kasbiy, malakaviy, ijodiy va kreativ qobiliyatni shakllantirishga yordam beradigan bir qator texnologiyalar, ijtimoiy loyiha, tashkiliy va faol o'yinlar hamda bularga amaliyotchilarni jalb qilish bilan modellashtirish va b.

Shunday qilib, umumta'lim muassasalarida Tarbiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish uchun klaster mexanizmining afzalligi, sifatlari muktab bitiruvchi iste'molchisi oliy o'quv yurti va ish beruvchilarning bitiruvchilarning malakasiga bo'lgan talablarini yanada aniqroq tushunishga

yordam beradi, oliy o'quv yurti tomonidan umumta'lim muassasasi faoliyatining sifati bilvosita baholanadi.

Ta'lim klasteri sharoitida mutaxasislarni kasbga yo'naltirishda asosiy ishtirokchilari sifatida quyidagi subyektlarni ko'rish mumkin. Viloyat pedagogika instituti mintaqaviy ta'lim tizimini klaster modeli asosida rivojlantirish markazi vazifasini bajaruvchi tashkilot hisoblanadi. Markazning tarkibiy bo'linmasi mintaqaviy darajadagi umumiylig o'rta ta'lim va akademik litsey muassasalaridan iborat bo'lib, klaster modeli asosida ular faoliyatini yanada takomillashtirish natijasida bitiruvchilarning aynan shu viloyatdagi yoki boshqa hududdagi oliy ta'lim muassasalarida tarix o'qitish metodikasi va boshqa yo'nalishlardagi ta'limga muvaffaqiyatli davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lishi kutiladi. Umumta'lim muassasalarida o'zaro hamkorlik asosidagi klaster modelini tashkil qilish, iste'molchilar talablariga javob beradigan ijtimoiy buyurtma yetkazib beruvchilarning faoliyat mexanizmlari va bundan kutiladigan ta'lim klasteri subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabat mexanizmida o'z aksini topadi (8-rasm).

Ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan klaster tuzilmasi tarbiya fanlarini o'qitishda mavjud turli muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladigan loyihalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish o'z faoliyatini keng jasoatchilikka namoyon qiladi. Umumiylig o'rta ta'lim muassasasi uchun klaster modelining afzalligi, oliy o'quv yurti va ish beruvchilarning maktab bitiruvchilarining malakasiga bo'lgan talablarini takomillashtirishga yordam beradi. Klaster yondashuviga murojaat qilish zarurati klasterning mintaqaviy kasb-hunar ta'limi tizimining samaradorligini oshirish maqsadida manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shakli sifatidagi afzalliklari bilan izohlanadi.

### Ta'lif kontekstida klaster ta'sirida raqobatbardoshlikni va samaradorlikni oshirish

Samaradorlikni oshirish	Yuqori natijaga imkoniyat yaratish	Faoliyatni yengillashtirish, kuchaytirish va konavtirish
Umumiy va xususiy maqsad lardan iborat samarali hamkorlik vujudga keladi; ta'lif sifati samara dorligini oshiradi; iste'molchi talabidagi ixti sosliklar yaratiladi; samarali tajribalar nati jasida tizimli zanjir faoliyati yaxshilanadi; fan, ta'lif va ishlab chiqarish integratsiyasidan samarali foydalaniladi;	Innovatsion g'oyalar asosi da yuqori ko'rsatkichga erishish imkonini yaratadi; samarali hamkorlik nati jasida yangi innovatsion resurslar yaratiladi; ta'lifning texnologik faoliyatini rivojlanti radi, istiqbolli natija larni belgilaydi; sub'ektlar bilim, ko'nik ma va malakalarini kombinatsiyalashuvni uchun imkon yaratadi;	Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytiradi; raqobat maydonini ken gaytirishni osonlashtiradi; inson kapitaliga e'tibor kuchayadi; faoliyatning barcha bosqichlari tashkiliy nazorat ta'minlanadi; ijtimoiy buyurtmaga bo'lgan ehtiyoj tizimli hal etiladi;

#### 8-rasm. Ta'lif klasterining afzallikkleri

Mintaqaviy darajada klaster modelini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda umumta'lismuassasalarida tarbiya fanlarini o'qitish samaradorligini oshirishning asosiy shartlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- axborot-teknologik sharti - ta'lif sifatini boshqarish va samaradorligini oshirishning avtomatlashtirilgan (tezkor aloqa va axborot almashunuvini ta'minlaydigan) tizimini yaratish;
- ilmiy-uslubiy sharti - ilmiy asoslangan boshqaruv modeli, klasterli yondashuv asosida umumta'lim sifati, ta'lif sifatini baholash va samaradorligini oshirish jarayonlarini axborot va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- moliyaviy sharti - ta'lif sifatini boshqarish va samaradorligini oshirish bo'yicha klaster modeli doirasida ishlab chiqilgan keng qamrovli loyihalarni tatbiq etishga davlat, mintaqaviy va muaasasa byudjetlardan investitsiyalar jalb qilish;

- xususiy sharti - ta'lif sifatini boshqarish va samaradorligini oshirishdagi barcha ishtirokchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetentsiyalari hamda maktab menejmenti bo'yicha rivojlantirish, malakalarini oshirish va qayta tayyorlash;

- ijtimoiy sharti - mintaqadagi ta'lif sifatini boshqarish va samaradorligini oshirish uchun ta'lif tizimida muassasa, shahar, viloyat va davlat boshqaruvining yagona axborot maydonini (Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri platformasini) yaratish va hokazo.

Ta'lifni rivojlantirish nazariyasining klaster modeli faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ta'lif sifati va xususiyatlarini zamонавија jamiyatda jamoat talablariga, muayyan hududlarning manfaatlari hamda ta'lif ehtiyojlariga qaratilgan mintaqaviy darajalarda hal qilinishi bilan bog'liq quyidagi bir qancha takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- ◆ ta'lif turlari o'rtaida o'zaro hamkorlikni kengaytirish orqali hududning Tarbiya fani pedagog-o'qituvchilari va o'quvchilari o'rtasidagi raqobatbardoshlik ustunliklari ko'tariladi;
- ◆ Tarbiya darslarida uzoq muddatli innovatsiyalari va samarali tajribalarini ommalashtirish orqali mintaqaning muvaffaqiyatli strategik yo'nalishlarini belgilovchi yetakchilarni aniqlash imkonini yaratiladi;
- ◆ ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta'minlaydigan o'quv muassasi xodimlarining malaka darajasini oshirish orqali ilmiy-tadqiqot imkonini beradigan ilmiy tashkilotlarni belgilanadi;
- ◆ bir hududdagi ta'lif muassasalarining umumiy maqsadidan kelib chiqib, maktab sharoitida Tarbiya darslarida iqtidorli o'quvchilarni aniqlashning, ular miqdorini oshirishning ta'lif sifatiga ijobiyligi ta'siri keyingi paragrafda taqdim qiladigan mexanizm asosida amalga oshiriladi.

#### Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim oluvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish mazmuni tushuntirib bering?
2. Ta'lim oluvchilarni to'g'ri kasbga yo'naltirish shartlari nimalardan iborat?
3. Tarbiya fanlarini kasbga yo'naltirib o'qitishda qanday muammolar ko'zga tashlanadi?
4. Ta'lim oluvchini to'gri kasbga yo'naltirishsh tushunchasining qanday faoliyat turlari mavjud?
5. Kasb tanlashga yo'llash ishlari qanday talablar asosida tashkil qilinadi?
6. Kasbga to'g'ri yo'naltirishda asosiy hamkorlarning faoliyat mexanizmlari qanday amalga oshiriladi?
7. Tarbiya fanini o'qitish bo'yicha mutaxasislarni to'g'ri kasbga yo'naltirish tavsiyalar bering?
8. Umumta'lim tizimida o'quvchilarning tarix yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirishning qanday mexanizmlarini amalga oshirish mumkin?
9. Mintaqaviy darajada klaster modelini tashkil asosiy shartlari nimalardan iborat?
10. Ta'limni rivojlantirish nazariyasining klaster modeli faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqing?

## **MAVZULARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI**

- 1. "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konseptsiyasi" qachon tasdiqlandi?**

# O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 avgustdagи farmoniga muvofiq;

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 422-son qarori bilan.
- 2. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiysi qachon qabul qilingan?**

# O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyundagi 422-son qaroriga asosan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi farmoniga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 23 avgustdagи 422-son qarori bilan.
- 3. Uzlksiz ma'naviy tarbiya -**

davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodaylat ta'lim muassasalari;

ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi;

# barcha javob to'g'ri.

**4. Globallashuvning yoshlarga bo`lgan salbiy, buzg`unchi mafkuraviy ta'sirini qaysi jarayonlarda ko`rishimiz mumkin:**

yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi hamda yoshlarning bo'sh vaqtini o'tkazishida;

yoshlarning mehnatga bo`lgan munosabati hamda yoshlarni ruhiyatidagi begonalashuvda;

yoshlarning qadriyatlarga bo`lgan munosabati hamda yoshlarni islam dini ma'naviyatini bilmasligida;

# barcha javob to'g'ri.

**5. Tarbiya - bu**

shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon;

insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo`lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisi;

insonning insonligini ta'minlaydigan qadriyatdir;

# barcha javob to'g'ri.

**6. Ta'lim turlari quyidagilardan iborat:**

maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim;

oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim.

# barcha javob to'g'ri.

**7. "Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i muktabdir" – qaysi mutafakkir ta'kidlagan?**

Abdulla Avloniy;

Abdurauf Fitrat;

# Mahmudxo'ja Behbudiy.

**8. Maqolni davom ettiring "Boylik – bir oylik, salomatlik....."**

# bir umrlik

bir tumanlik

oltindan qimmat

mening boyligim

**9. Abu Ali ibn Sino shogirdlariga vafotidan oldin qanday tabiblarga tashlab ketishi haqida aytgan?**

Sog'lik, toza havo, sport, kayfiyat

Badantarbiya, sport, mijoz, to'g'ri ovqatlanish, sog'lik

Toza havo, sayr, mijoz, kayfiyat, ovqatlanish

# Ozodalik, badantarbiya, parhez, mijoz, kayfiyat

**10. Donishmand shogirdlariga: "Dunyodagi inson uchun eng yaxshi narsa nima?" degan savol berdi. To'g'ri javob qanday edi?**

# Pok qalb

Komil aql

Yaxshi o'rtoq

Chora-tadbir

**2. Turli tashqi ta'sirlar natijasida sodir bo'ladigan jismoniy yoki ruhiy toliqish nima deyiladi?**

# Charchoq

Stress

Qo'rquv

G'azab

**3. "Do'stlik qiyin kunlarda sinovdan o'tadi. O'zaro hamkorlik do'stlik emas, u shartlarga asoslangan o'zaro kelishuvdir. Unda do'stlik rishtalari bo'lmaydi". Fikr kimga tegishli?**

# Aflatun

Abu Nasr Farobiy

Uilyam Shekspir

Mahatma Gandhi

**4. "G'aflat uyqusidagi insonlar" qanday insonlar hisoblanadi?**

O'zining kim ekanligini anglab yetmaydigan insonlar

Ertasi haqida qayg'urmaydigan insonlar

Loqayd va befarq insonlar

# Barcha javoblar to'g'ri

**14. O'zbekistonda qancha aholi internet tarmog'idan foydalanadi?**

14.1 mln

12.2 mln

20.5 mln

# 22.2 mln

**15. Dunyo aholisining necha foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishiadi?**

40-50%

60-70%

# 55-60%

45-50%

**16. "Begona mehmonlar" hikoyasida ota o'g'liga insonni kibrlantiradigan narsalar haqida nasihat qilgan edi?**

Aql, boylik, go'zallik, sog'lik

Boylit, ilm, martaba, husn

# Pul, martaba, go'zallik, mijoz

Boylit, mehr, amal, husn

**17. Donishmanddan: "Qanday odam mukammal odam?" deb so'rashganida, qanday insonni eng mukammal inson deb javob bergan?**

Tarbiyalri odam

Bilimli odam

# Iymoni mustahkam odam

Yaxshilik qiladigan odam

**18. "Yaxshi hayot harakat bilan hisoblashadi" fikri muallifi kim?**

Sofokl

# Arastu

Suqrot

Aflatun

**19. "Talabaning muvaffaqiyati siri" hikoyasidagi talabaning muvaffaqiyati siri nimada edi?**

# O'qiganini takrorlash

Sabr bilan mehnat qilish

Maqsad sari intilish

Barchasi to'g'ri

**20. Qanday qilib faol fuqaro bo'lish mumkin?**

Saylovlarda ishtirok etib

Qonunlarga amal qilib

Boshqalarni hurmat qilish va ko'maklashish

# Barcha javoblar to'g'ri

**21. "Tolerantlik" qaysi so'zning ma'nodoshi hisoblanadi?**

Rostgo'ylik

# Bag'rikenglik

Halollik

Yaxshilik

**22. Tarbiya qancha mukammal bo`lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo`lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo`lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo`lmaydi. Kimning so'zlari?**

# Shavkat Mirziyoyev

A.Avloniy

M.Behbudiy

A.Navoiy

**23. Ma'naviyat —**

# insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir

inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo`nalishga soladigan yengilmas kuchdir.

jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, turmush tarzi, g'oyalardir.

an'analar, qadriyatlar, turmush tarzi, g'oyalalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushunchalar tashkil etadi.

**24. Ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hma tarixiy yodgorliklardir. Shuning barobarida ilm-fan taraqqiyoti, mahalla, oila, ta'lif-tarbiya -**

# ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy omillar hisoblanadi.

ma'naviyatni shakllantiradigan qo'shimcha omillar hisoblanadi

ma'naviyatni shakllantiradigan yetakchi omillar hisoblanadi

ma'naviyatni shakllantiradigan dastlabki omillar hisoblanadi

**25. Ksenofobiya so'zi qaysi tildan olingan?**

# yunoncha

arabcha

lotincha

forscha

**26. Ratifikatsiya so'zining ma'nosi nima?**

qonunlashtirish

bekor qilish

# tasdiqlash

imzolash

**27. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida qonunni nechinchi moddasi O'zbekistonda prozelitiztik harakatlar taqiqlanishi haqida edi?**

# 4

5

6

8

**28. Irqiy kamsitishni barcha turlarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konfensiyyaga nechta davlat a'zo bo'lgan?**

# 182

180

175

170

**29. Davlat xujjatidir o'quv rejasi – barcha umum ta'lim mактабларida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lган davlat xujjatidir. Bu qaysi hujjat**

# O'quv rejasi

O'quv dasturi

O'quv yuklama

**30. ....davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying**

# davlat akkreditatsiyasi

davlat ta'lim muassasasi

davlat ta'lim standartlari

**31. .... davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lган mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying**

davlat akkreditatsiyasi

# davlat ta'lim muassasasi

davlat ta'lim standartlari

**32. ..... davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying**

davlat akkreditatsiyasi

davlat ta'lim muassasasi

# davlat ta'lim standartlari

**33. ..... ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying**

# davlat ta'lim talablari

davlat ta'lim standarti

ta'lim turlari

**34. ..... shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying**

# malaka

bilim

ko'nikma

**35. ..... malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi. Nuqtalar o'rнига kerakli atamani qo'ying.**

# mutaxassislik

soha  
kasb

36. .... davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying

# nodavlat ta'lim tashkiloti  
davlat tashkilotlari  
chet el tashkilotlar

37. .... aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying

# tarbiya  
ta'lim  
tajriba

38. .... ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.

# ta'lim  
tarbiya  
tajriba

39. .... yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiytadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtiroychilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.

# ta'lim kampusi  
ta'lim turlari  
ta'lim sohasi

40. .... ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.

# ta'lim-tarbiya jarayoni ishtiroychilar  
pedagoglar  
talabalar

41. .... ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying

# ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi  
ta'lim tashkilotlari ichki nazorati  
ta'lim sifati inspeksiyasi

**42. .... darslik, mashq daftari, o`qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasidan iborat majmua. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying**

# o'quv-metodik majmua  
o'quv qo'llanma  
o'quv uslubiy qo'llanmalar

**43. .... davlat ta'lif standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan, o'quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta'lif oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma'lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o'quv nashri. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.**

# darslik  
o'quv qo'llanma  
monografiya

**44. .... darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta'lif standartlariga muvofiq o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash hamda o'quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying**

# mashq daftari  
rasm daftari  
albom

**45. .... darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalilaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying**

# o'qituvchi uchun metodik qo'llanma  
o'quvchilar uchun mashg'ulotlar  
derslik

**46. .... axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lif standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yorita oladigan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lif olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot-ta'lif resursi. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying**

# darsliklarning multimediali ilovalari  
ilovalar  
multimedia

**47. U an'anaviy bo'lib va asosan o'qituvchining axborot-berish, talabalarning bilimini qabul qilish, toplash va xotirasida saqlash bilan belgilanadi**

# og'zaki-ko'rgazmali (illyustrativ) yondoshuv

og'zaki yondashuv

ko'rgazmali yondashuv

**48. Milliy g`oya fanlarida darslar ko`proq monolog, ya'ni faqatgina o`qituvchi yoki seminar darslarida bitta talabaning gapirishi bilan emas, balki, dialog tarzida o`tkazilgani ma'qulroq.** Bu metod kim tomonidan taklif qilingan

# E.A.Aleksandrov

A.Ekabsons

P.Torres

**49. Ma'ruza g`oyaviy tarbiyaning og'zaki shakllaridan biri.** Unda eng muhim jihat ilmiy saviyaning yuqori, mazmunan chuqur bo'lishida. Ta'rif nima haqida

# og`zaki bayon

yozma bayon

suhbat

**50. Kim tomonidan ta'lif metodlari va o'qish metodlari ajratiladi**

# M.I.Maxmutov

P.Qodirov

A.Inoyatov

**51. Qaysi metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi**

# evristik va tadqiqotchilik

evristik

tadqiqot

**52. Qaysi metod boshqa metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi:** o`qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o`quvchilarning yodida saqlanishini taxminlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduksiya).

# reproduktiv ta'lif metod

tadqiqot metodi

evristik metod

**53. Qachondan boshlab o`quvchilarning bilish faoliyati xarakteriga mos ta'lif tasnifi yaratildi.**

# o'tgan asrning 80-yillaridan

o'tgan asrning yetmishinchchi yillari

o'tgan asrning oltmishinchchi yillari

**54. Qaysi metod namoyish etish, tasvirlash, kuzatuv, ekskursiya kabi shakllarda amalga oshiriladi**

# ko'rgazmali metod

tadqiqot metodi

ko'rgazmali yondashuv

**55. Qaysi so'zning yunoncha tarjimasи "tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li" kabi ma'nolarni anglatadi.** Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda "maqsadga erishish usullari" deya sharhlangan.

# metod

yondashuv

qoida

**56. Ta'lim metodi – zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir. Ushbu ta'tif kimga tegishli**

# V.I.Zagvyazinskiy

S.Medvedov

P.Sellen

**57. .....bu ta'limiy maqsadga erishish yo'lidagi o'qituvchi va talabalarning bиргаликдаqиладиган harakatlarining tartibi. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying**

# pedagogik usul

metodologik asos

odatiy usul

**58. ..... maqsadga yetishishda muayyan to'siqni yengish uchun qo'llaniladigan chora tadbirlar. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.**

# usul

qoida

bilim

**59. Qaysi metoda o'qituvchi avval faktlarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi va umumlashtiradi?**

# induktiv metod

deduktiv metod

inklyuziv metod

**60. Qaysi metoda o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir**

induktiv metod

# deduktiv metod

inklyuziv metod

**61. "Fan va san'atning afzalligi" risolasi kimga tegishli?**

# Abu Nasr Forobiy

Beruniy

Ibn Sino

**62. ..... ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan bирgalikdagi faoliyatları tushuniladi. Nuqtalar o'rniga kerakli atamani qo'ying.**

# ta'lim usuli

ta'lim sifati

ta'lim sohasi

**63. Tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalananish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi nima deb ataladi?**

# o'zlashtirish

bilish

ko'nikma

**64. Axborotdan foydalananish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash nima deb ataladi?**

#O'rganish

o'qitish  
bilim olish

**65. Ma'naviy madaniyatni tarbiyalashga oid axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarini o'rgatuvchining o'zi va o'rgangan darajada boshqalarning takrorlay olishini turli vosita va usullarni qo'llab amalga oshirish faoliyatidan iborat jarayon bu.....**

o'rganish  
# o'rgatish  
bilim olish

**66. Axborotning ma'no-mazmunini idrok qilish, undan ko'rsatilgan tartibda mustaqil foydalana olish bu....**

# tushunish  
bilish  
o'rganish

**67. Axborotning ma'no-mazmunini, undan foydalanish tartibini turli vosita va uslublarni qo'llab, tushuntiruvchining o'zi tushungan darajada o'quvchilarga etkazish faoliyatidan iborat jarayon nima?**

# tushuntirish  
bilish  
o'qitish

**68. Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari bo'yicha nechhi soatlik dastur, o'quv rejasi belgilangan?**

# 240  
360  
200

**69. "Hikmatlar" asari muallifi kim?**

# Ahmad Yassaviy  
Beruniy  
Naqshbandiy

**70. Sirli, muammoli, tilsimli, tushuntirib bo'lmaydigan jumboq bo'lib, kishidan butun iroda, tasavvur va tushuncha, bilimlarini ishga solgan holda yechimini topishga undaydi bu nima?**

# topishmoq  
maqol  
matal

**71. "Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi" Ushbu fikrlar qaysi asarda uchraydi?**

# "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"  
"Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch"  
"Fozil odamlar shahri"

**72. Kim tarbiya xususida shunday yozadi: "Yolg'iz insonga emas, barcha jonlik mayjudotlarda ta'lim-tarbiya ta'siri ko'z oldimizda ko'rilib, buning natijalari butun dunyoga tarqalib turmoqda. O'qitish-o'rgatish bu yon tursin, suhbatni o'zi ham, suhbatdoshlarga o't bilan suvdek tez o'tadi. Shuning uchun ham har kimga, suhbat yo'ldoshlariga qarab baho beriladi"?**

# Alixon to'ra Sog'uniy  
Moturidiy

73. Quyidagi atama pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi?

- # didaktika
- pedagogika
- metodika

74. Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida" Qarori qachon qabul qilingan?

- # 2013-yil 8-may
- 2015 yil 7 may
- 2016 yil 6 may

75. Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" Qarori qachon qabul qilingan?

- # 2000-yil 16-oktabr
- 2015 yil 7 may
- 2016 yil 6 may

76. Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" Qarori qachon qabul qilingan?

- # 1999-yil 16-avgust
- 2015 yil 7 may
- 2016 yil 6 may

77. ....o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Nuqtalar o'rniغا kerakli atamani qo'ying.

- # yakuniy davlat attestatsiyasi
- test
- akreditatsiya

78. Vazirlar Mahkamasining "2005 — 2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llannmalar nashr etish dasturi to'g'risida" Qarori qachon qabul qilingan?

- # 2004-yil 22-noyabr
- 2015 yil 7 may
- 2016 yil 6 may

79. Muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiyligi vaqtini muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat nima

- # o'quv dasturi
- o'quv reja
- o'quv yuklamasi

80. Tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi, faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- # hamma javob to'g'ri;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

**81. ....davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.**

davlat ta'lim muassasasi;  
# davlat ta'lim standartlari;  
davlat ta'lim talablari.

**82. davlat ta'lim muassasasi — bu ....**

# davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo`lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.

**83. ....ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarining jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.**

davlat ta'lim standartlari;  
davlat ta'lim talablari  
# davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;  
davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo`lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassas.

**84. .... aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon.**

ta'lim  
ta'lim-tarbiya jarayoni;  
# tarbiya.

**85. ... alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo`lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.**

eksternat tartibidagi ta'lim;  
norasmiy ta'lim;  
# inklyuziv ta'lim.

**86. Inklyuziv ta'lim –**

alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo`lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo`lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi;  
# barcha javob to'g'ri.

**87. .... o`quv dasturlarini mustaqil ravishda o`zlashtirishni o`z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.**

# eksternat tartibidagi ta'lim olish  
norasmiy ta'lim olish;  
inklyuziv ta'lim olish.

## GLOSSARY

**Avtoritar pedagogika-** prinsipi shundan iboratki, o'qituvchi subyekt, ta'lif oluvchi esa ta'lif va tarbiya obyekti hisoblanadi. Bolani boshqarish vositalari (tahdid, nazorat, tartib, taqiq, jazo) puxta ishlab chiqilgan.

**Amaliy dars-bu** o'quv mashg'ulotlarining shakllaridan biri, ilgari olingan bilim va shakllangan ko'nikmalarga asoslangan, maktab o'quvchilari kognitiv vazifalarni hal qilishadi; hozirgi ularning ijodiy faoliyati natijalari; ko'proq o'zlashtirish tarixni o'rganish uchun murakkab kognitiv texnikalar o'tgan.

**Boshqaruvning tashkiliy tuzilishi**-boshqaruv tizimining qismlarining o'zaro bog'liqligi.

**Darslik**-bu o'quvchilarning o'quv tayyorgarligi darajasiga, ularning yosh imkoniyatlarga mos keladigan ma'lum bir ta'lif bosqichida o'rganish uchun tanlangan va tizimlashtirilgan materialni o'z ichiga olgan maktab o'quvchilarini o'qitish uchun kitob.

**Didaktika pedagogika**, ta'lif va tarbiya nazariyasining ajralmas qismi bo'lib, o'quv jarayoni qonuniyatlarini, ta'lif mazmuni masalalarini, o'qitishning tamoyillari, maqsadlari, usullari va tashkiliy shakllarini, darsning uslubiy muammolarini, umumiylarini, kasb-hunar ta'limi qonunlarini ochib beradi.

**Didaktik o'yin** - o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan o'yin.

**Darsning maqsadi** -sozlamalari qisqacha tuzilgan bashorat qilingan ta'lif, ta'lif va o'qituvchi erishmoqchi bo'lgan rivojlanish natijalari kognitiv faoliyatni tashkil etish orqali sinfda muayyan tarixiy o'quv materiallari bilan maktab o'quvchilari.

**Dars-o'quv** ishlarini tashkil etishning asosiy shakllaridan biridir maktab. Darslarning bir nechta turlari mavjud: o'rganish darsi yangi, birlashtirilgan,

takrorlanadigan, nazorat. Har bir dars turi ichida turlarning cheksiz xilmayxilligi bo'ladi.

**Dastur-asosiy** ta'lifning qisqacha mazmuni mavzuni o'rganishning mazmuni, vazifalari va usullari ularga erishish uchun. O'zgaruvchan ta'lif sharoitida dasturlar muallif tabiatiga ega, rivojlanishda qo'llanma bo'lib xizmat qiladi taqvim-tematik va dars rejalari, shakllarni tanlashda va o'qitish usullari, uni farqlash.

**Davlat ta'lif standarti** -ta'lifning asosiy sifatini tavsiflovchi parametrlar tizimi ijtimoiy tartibni aks ettiruvchi umumiylarini ta'lif va shaxs va ta'lif tizimining imkoniyatlarini hisobga olgan holda erishish; tomonidan qabul qilingan asosiy parametrlar tizimi ta'lifning davlat normasi sifatida ijtimoiy va haqiqiyning imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxs va ta'lif tizimi. Umumiylarini Davlat standarti normalar va majburiy minimal tarkibni belgilaydigan talablar umumiylarini ta'lifning asosiy o'quv dasturlari, ta'lif oluvchilarning o'quv yukining maksimal miqdori, darajasi ta'lif muassasalarini bitiruvchilarini tayyorlash, shuningdek ta'lif jarayonini ta'minlashning asosiy talablari.

**Gipoteza**-bu qo'shimcha eksperimental va nazariy tekshirishni talab qiladigan ilmiy asoslangan taxmin.

**Grammatika maktablari**- Ushbu maktablarda lotin tili, din va huquq bilan bog'liq mavzular o'qitildi. Qadimgi Yunonistonda bu boshlang'ich maktablarning (grammatika maktablari), qadimgi Rimda, ilg'or maktablarning nomi edi.

**Guruh**-bu o'zaro hamkorlik jarayonida shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarni qondiradigan, bir-biriga teng darajada foydali bo'lgan odamlar to'plami.

**Intervyu**-bu ta'lif oluvchilar uchun savollar yaratish uchun uslub va tarixiy xarakter bilan xayoliy suhabatda javoblar.

**Kompetensiya**-bu bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati va amaliy tajriba asosida muvaffaqiyatli harakat qiling kasbiy vazifalarni hal qilish.

**Konspekt** - bu ko'proq yoki kamroq batafsil, izchil kitob, maqola, ma'ruza va boshqalarning mazmuni taqdimoti manbalar.

**Ko`rgazmali qurollar**-bu quyidagilarga bo'lingan o'qitish vositalari: tasviriy-odamlarni, obyektlarni, hodisalarni ko'paytirish va turli xil vizual yordamida o'tmishdagi hodisalar vositalar (fotosuratlar, maketlar, chizmalar va boshqalar.), shakllantirish tarixiy dalillarning realistik tasvirlari; shartli-miqdoriy va sifatni aks ettiruvchi tarixiy jarayonning jihatlari, dalillarni joylashtirish makon va vaqt, ularning muhim xususiyatlari, sababiy munosabatlar, o'tmishning shartli tasvirlarini shakllantirish va nazari bilim.

**Kuzatish**-hodisalarning individual belgilarini aniqlash va baholash qobiliyati. Kuzatish-bu pedagogik hodisani maqsadli idrok etish, uning jarayonida tadqiqotchi aniq dalilik materialga ega bo'lish.

**Loyiha**- faoliyati intellektualning alohida turidir-faoliyat, uning o'ziga xos xususiyatlari bor: mustaqil ravishda olingen ma'lumotlarni tushunish unga shaxsiy munosabat orqali moddiylashtirilgan tomoshabinlar oldida uning muhokamasi natijasi.

**Loyiha usuli**-bu o'quv tizimi bo'lib, unda ta'lim oluvchilar loyihalarning tobora murakkab amaliy vazifalarini rejalashtirish va bajarish jarayonida bilim va ko`nikmalarga ega bo'ladilar.

**Metodologiya**-bu aniq natijani kafolatlamaydigan umumiy didaktik tavsiyalar to`plami. Metodologiya-qurilish tamoyillari, ilmiy va kognitiv faoliyatning shakllari va usullari haqidagi ta'limot.

**Modellashtirish**-bu hayotiy obyektlar, hodisalar va qurilgan obyektlar modelini qurish va o'rGANISH.

**Model** - "o'rINBOSAR", "o'rINBOSAR" sifatida ishlataladigan obyekt, jarayon yoki hodisaning tasviri, tavsifi, diagrammasi.

**Modul** - bu ma'lum chegaralar bilan cheklangan, ma'lum bir funksiyani boshidan oxirigacha bajarilishini ta'minlaydigan ajralmas funksional tizim; funksional va tizimli ravishda mustaqil birlik, mustaqil qism.

**Modulli dastur** - bu ma'lum bir o'quv intizomining barcha modullari yig'indisida integratsiyalashgan didaktik maqsadga erishiladigan vositalar, texnikalar tizimi; modulli texnolsosiy vositasi.

**Musiqa maktabi** - qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Asosiy maqsad-aqliy va estetik tarbiya berish.

**Munozara** - bu guruhda qaror qabul qilish jarayonini faollashtirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etish usuli; ta'lim oluvchilarni haqiqatni jamoaviy izlashga faol jalb qilish orqali o'quv jarayonining intensivligi va samaradorligini oshiradigan o'qitish usuli.

**Mentalitet** - bu o'ziga xos xususiyatlari va fazilatlar to`plami, umumlashtirilgan fikrlash tarzi, atrofdagi ijtimoiy-siyosiy voqelikni bir xilda idrok etish, unda ijtimoiy guruhlar, qatlamlar va sinflarga xos bo'lgan jamiyatdagi muayyan belgilangan me'yorlar va xulq-atvor namunalariga muvofiq baholash va harakat qilish qobiliyati. Aholi.

**Mahorat** - yuqori darajadagi mukammallik.

**Metodik fikrlash** - bu metodologik nazariyalar va aniq ta'lim sharoitlariga muvofiq tarixiy ta'lim maqsadlarini amalga oshirishning samarali usullarini tushunish va izlashga qaratilgan fikrlash.

**Muammo** nazariy yoki amaliy masaladir bu qaror talab, tadqiqot.

**Mahorat** - bu yuqori darajadagi avtomatizm bilan bajariladigan harakat va o'rganilayotgan masalalarning o'ziga xosligiga, o'ziga xosligiga befarq manbalardan.

**Majoziy rivoyat** - bu taqdimot usuli bu odatdagи tarixiy hodisaning rivojlanishini qayta tiklaydi muayyan davrda majoziy shaklda. Menejment-bu tuzilmani saqlab qolish, rejimni saqlash tizimining elementi, funksiyasi; ma'muriyat, o'qituvchi va ta'lim oluvchilar jamoalarining belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan ilmiy asoslangan harakatlari Majoziy rivoyat-bu majoziy shaklda qayta tiklanadigan taqdimot usuli odatda tarixiy hodisaning rivojlanishi muayyan muddat ichida.

**Mahorat** - ongli va aniqlikka tayyorlik harakatlar (aqliy va amaliy) va ta'lim oluvchining qobiliyati ushbu harakatlarning umumiyligini izchil qo'llash.

**Nazorat** - bu boshqaruvning asosiy harakatlaridan (funksiyalaridan) biri, rejalashtirilgan rejalarning bajarilishini ta'minlash uchun bajarilgan ishlarning sifati va tuzatilishini aniqlash jarayoni.

**Notiqlik (ritorika)** - nutq san'ati sifatida notiqlik ilmi.

**Odobli** - jamiyatda o'zini tutish qobiliyati, yaxshi xulq-atvor; yaxshi xulq-atvor, to'g'ri nutq, turli vaziyatlarda boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan odamning xushmuomala, muloyim xattiharakati.

**Portfolio** - mutaxassis o'z ishining barcha sohalarini va yutuqlarini ko'rsatishi mumkin bo'lgan usullar yoki vositalar to'plami; sa'y-harakatlar, taraqqiyot, yutuqlarni namoyish etadigan asarlar to'plami; ta'lim faoliyatini kuzatish uchun foydalaniladigan tizimli va maxsus tashkil etilgan dalillar to'plami tadqiqot predmet-bu obyektni o'rganish jihatni; maxsus tanlangan alohida tomonlarni, o'rganilayotgan ularishlarni ko'rish imkonini beruvchi burchak.

**Pedagogikaning predmeti** - bu maxsus ijtimoiy muassasalarda (oilaviy, ta'lim va madaniy ta'lim muassasalarida) maqsadli ravishda tashkil etilgan haqiqiy yaxlit pedagogik jarayon sifatida ta'lim.

Pedagogik jarayonning tamoyillari-pedagogik faoliyatni tashkil yetishning asosiy talablari bo'lib, uning yo`nalishlarini ko'rsatadi.

**Pedagogikaning obyekti** - bu maqsadli faoliyat jarayonida inson shaxsining rivojlanishini belgilaydigan vogelik hodisalari.

**Palaestra** - qadimgi Yunonistondagi gimnastika maktabi, 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar o'qigan davlat yoki xususiy yopiq ta'lim muassasasi. O'quv dasturiga beshkurash: yugurish, kurash, sakrash, nayza va disk uloqtirish kiritilgan.

**Panteistik dunyoqarash** - panteizm Xudo va dunyonи birlashtiradigan va ba'zan ularni aniqlaydigan falsafiy ta'limotdir.

**Pedagogika** - bu pedagogik jarayon (ta'lim) rivojlanishining mohiyati, qonuniyatlar, tendensiyalari va istiqbollarini inson hayoti davomida rivojlanish omili va vositasi sifatida o'rganadigan fan.

**Pedagogika metodikasi** - bu pedagogik bilimlar, uni olish jarayoni, ta'lim va tarbiya tizimini o'zgartirish yoki takomillashtirish uchun tushuntirish va amaliy qo'llash usullari haqida o'qitish.

**Qo'shimcha ta'lim** - bolalar, o'smirlar va ta'lim oluvchilar ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim oluvchilar tomonidan qo'shimcha ta'lim dasturlarini mustaqil tanlash va ishlab chiqishga qaratilgan.

**Rivojlanish** - tashqi va ichki, nazorat qilinadigan va nazoratsiz omillar ta'siri tufayli insonning tanasi, psixikasi, intellektual va ma'naviy sohasidagi miqdoriy va sifat o'zgarishlari jarayoni; moyilliklarni, insoniy xususiyatlarni amalga oshirish jarayoni.

**Rasm** - bu vizual o'qitish vositasi. O'qitish metodikasida tarix, quyidagilar mavjud: tipologik, tipik tasvirlangan tarixiy hodisalar; episodik (voqealarga asoslangan), yagona tadbirlarga bag'ishlangan.

**Suhbat** - bu kerakli ma'lumotlarni olish yoki kuzatish paytida yetarli cha aniq bo'limgan narsalarni aniqlashtirish uchun ishlatiladigan mustaqil yoki qo'shimcha tadqiqot usuli.

**Seminar** - tarix darslarining shakllaridan biridir, o'rta makkab o'quvchilarining mustaqil ishi ustunlik qiladi yangi materialni o'rganishda, uni tizimlashtirish va umumlashtirish.

**Syujet hikoyasi** - bu jonli hayotni qayta yaratadigan taqdimot usuli, yagona tarixiy dinamik rivojlanayotgan tasvir hodisa. Hikoya syujeti ziddiyatga asoslangan vaziyat, qaysi izchil qo'zg'atish bosqichlarini o'tadi.

**Ta'lim** - bu bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, maqsadli yoki o'z-o'zidan o'rganish natijasida tajribani shakllantirish jarayoni.

**Texnologiya** - bu xom ashyo va ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ishlash usullari, ularning ilmiy tavsifi; ilmiy bilimlar tizimi, ulardan foydalanish ma'lum didaktik sharoitlarni, o'qitish vositalari va usullarini modellashtirib, aniq ijodiy g'oyani amalga oshirishga imkon beradi. Tarix o'qituvchisining uslubiy kompetensiyasi-bu o'qituvchining muvaffaqiyatlari kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va pedagogik obyektlar bilan ishlash usullarining maqbul kombinatsiyalari tizimi.

**Tolerantlik** - birovning fikriga, xulq-atvoriga, turmush tarziga bag'rikenglik; ularning ta'siriga sezgirlikni kamaytirish orqali moslashuvchan qobiliyatlarni kamaytirmsandan salbiy jismoniy yoki ruhiy sharoitlarga toqat qilish qobiliyati.

**Tyutor** - o'qituvchi-maslahatchi.

**Tabiiy ta'lim prinsipi** - bu ta'lim va tarbiyaga bolaning tabiatiga mos xarakter berish va unga xos bo'lgan kuchlarning rivojlanishini ta'minlash uchun izchil istak.

**Tadqiqot muammosi** - bu kashf etilishi, isbotlanishi kerak bo'lgan fanga noma'lum narsani anglatuvchi kategoriya; shoshilinch psixologik va pedagogik muammoni hal qilish.

**Ta'lim** - jarayon sifatida - maktabgacha, umumiylar, kasb - hunar va qo'shimcha ta'lim muassasalarida, shuningdek bilim, ko'nikma, ko'nikma, bilim va amaliy faoliyat tajribasi, qiymat yo'nalishlari va munosabatlar tizimini o'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'zlashtirish; natijada ta'lim tizimida erishilgan daraja, bilim, ko'nikma, ko'nikma, faoliyat va munosabatlar tajribasini rivojlantirish; tizim sifatida - ketma-ket ta'lim standartlari to'plami, ularni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari tarmog'i, ta'limni boshqarish organlari.

**Ta'lim dasturi** - umumiylar, kasb-hunar ta'limi mazmuni darajasi va yo'nalishini belgilaydigan o'quv yoki kasbiy hujjat.

**Ta'lim texnologiyasi** - bu rejalashtirilgan o'quv natijalarini taqdim etishdan iborat kompleks, tinglovchilarning hozirgi holati uchun diagnostika vositalari, o'quv modellari to'plami, ushbu aniq sharoitlar uchun maqbul modelni tanlash mezonlari.

**Ta'lim muassasasi** - qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim muassasasi sifatida ro'yxatdan o'tgan muassasa, va amalga oshiruvchi yoki bir yoki bir necha asosiy uchun o'quv jarayonini amalga oshirish uchun faraz va qo'shimcha ta'lim dasturlari va (yoki) ta'lim va ta'lim oluvchilar ta'lim mazmunini ta'minlash.

**Trening** - bu ikkita o`zaro bog'liq faoliyatni o'z ichiga olgan maxsus tashkil etilgan jarayon: o'qitish-ta'lim oluvchilarning o'quv ishlarini tashkil yetish, ularning motivatsiyasi va kognitiv faoliyat tajribasini shakllantirish, ta'lim va o'qitish mazmuni tizimli va tizimli ravishda uzatish-ta'lim mazmuni va ta'lim va ta'lim tajribasini o'zlashtirish ta'lim oluvchilarning bilim faoliyati. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining umumiy tamoyillari - ta'lim sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy tamoyillari.

**Tadqiqot obyekti** - bu bilish jarayoniga kiritilgan haqiqiy obyektning aloqalari, munosabatlari, xususiyatlari; biluvchidan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan, lekin u tomonidan aks ettirilgan ma'lum bir xususiyatlari va munosabatlar to'plami ma'lum bir qidiruv maydoni bo'lib xizmat qiladi olib boradigan va ushbu sohada maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxs.

**Ta'lim usuli** - bu o'quvchida shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchining maqsadli o'zaro ta'siri usuli. Ta'lim usuli - bu usulning xususiy ko'rinishi, alohida harakat, ta'lim usulining ajralmas qismi.

**Tadqiqot usuli** - bu empirik va nazariy bilish va voqelik hodisalarini o'rganish texnikasi, tartibi va ishlashi.

**Ta'lim muassasasini rivojlantirish konsepsiysi** - bu istalgan holatga o'tish jarayoni sifatida ma'lum bir ta'lim muassasasini rivojlantirish jarayoni haqidagi tasavvur, model, g'oyalar, g'oyalar to'plami.

**To'garak ishi** - bu bolalar uchun qoshimcha ta'lim shakli; turli yo'nalishdagi to'garaklar, seksiyalar va klublarni tashkil etish; sinfdan tashqari va sinfdan tashqari ishlarning shakli.

**Ta'lim** - keng ijtimoiy ma'noda-to'plangan ijtimoiy-madaniy tajriba, axloqiy me'yorlar va qadriyatlarning avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydigan barcha davlat institutlarining shakllantiruvchi ta'sirlari to'plami; keng pedagogik ma'noda - o'zaro munosabatlarni ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimida shaxsni maqsadli shakllantirish jarayoni. o'qituvchilar va ta'lim oluvchilar; tor pedagogik ma'noda-shaxsning ma'lum fazilatlari, xususiyatlari va munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus o'quv faoliyati.

**Ta'lim metodi** - o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lumot mazmuniga yo'naltirilgan faoliyatni tartibga solish yo'lidi.

**Ta'lim faoliyati** - ijtimoiy tajribani odamdan odamga, avloddan-avlodga o'tkazish uchun o'z-o'zidan yoki maqsadli faoliyat.

**Tarbiyaviy ish** - bu barkamol shaxsiy rivojlanish muammolarini hal qilish uchun ta'lim muhitini tashkil etish va o'quvchilarning turli faoliyatini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat turi.

**Ta'lim sohasidagi davlat siyosati** - bu yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, kattalar ta'limi sohasidagi qonun hujjatlari va amaliy chora-tadbirlar majmuidir.

**Ta'lim tizimi** - bu ta'limning dastlabki konsepsiyasida ifodalangan rejalashtirilgan natijalarga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar, pedagogik yo'naltirilgan usullar, sharoitlar va vositalar tizimi bo'lib, unga erishish uchun u yaratiladi.

**Manba** - turli xil dalillar tarixiy hodisalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va jarayonlar.

**Makon**-bu makon tarixiy voqealar sodir bo'ladi.

**Ta'limni modernizatsiya qilish** - keng qamrovli ta'lim tizimining barcha qismlari va barcha sohalarini yangilash talablariga muvofiq ta'lim faoliyati zamonaviy hayot, eng yaxhisini saqlab qolish va ko'paytirish mahalliy ta'lim an'analari.

**Tushuntirish** - monologik, yaxlit, asosli tarixiy dalillarning muhim xususiyatlarini taqdim etish, ularning sabab-oqibat munosabatlari va naqshlari, qiymati hukmlar.

**Darsdan tashqari** - (darsdan tashqari) ish-bu jarayon tarixiy o'tmishti doiradan tashqarida o'rganayotgan ta'lim oluvchilar o'quv dasturi va ixtiyoriy dastur talablari asos. U turli shakllar, manbalar, kenglik bilan ajralib turadi fanlar va ta'lim oluvchilarning mustaqilligi.

**Tasavvur**-bu murakkab aqliy jarayon o'tmishti hislar asosida yangi tasvirlarni yaratishdagi bilim.

**Tasviriy tafsif** - bu yorqin yaxlitlikni qayta yaratish texnikasi nisbatan tarixiy dalil tasviri.

**Tahlil** - obyektni, hodisani uning tarkibiy qismlariga ajratish asosida biror narsani ko'rib chiqish, o'rganish.

**Tushuntirish** - monologik, yaxlit, asosli tarixiy dalillarning muhim xususiyatlarini taqdim yetish, ularning sababiy munosabatlari va naqshlar, qiymat hukmlar.

**Taqvim-tematik reja** - qisqa yoki kengaytirilgan asosiy darslarning dars ro'yxati va ularning savollari, tushunchalar, bilim qobiliyatları, darsliklar, shakllar ta'lim mavzulari yoki bo'limlari doirasida tekshirish va nazorat qilish ularni amalga oshirishning kalendrar sanalarining ko'rsatkichi.

**O'rganishning empirik darajasi** - bu dalillarni o'rganishdir tashqi va bu tasvirlar asosida shakllanish tarixiy voqealar, hodisalar, jarayonlar.

**Uzluksiz ta'lim** - bu hamma narsani to'liq qamrab oladigan, vaqt yo`nalishda individuallashtirilgan, har kimga uni olish uchun o`z dasturini amalga oshirish imkoniyatini beradigan ta'lim hodisasiidir.

**Universitet** - ta'lim sohalarida keng oliy va oliy o`quv yurtidan keyingi kasb-hunar ta`limi o`quv dasturlarini amalga oshiradi oliy o`quv yurti hisoblanadi.

**Umumiy ta'lim muassasasining o`quv dasturi** - haqiqiy o`quv dasturini va ishchi o`quv dasturini o`z ichiga olgan va asosiy o`quv dasturining standartlariga muvofiq tuzilgan hujjatdir.

**Uslubiy ijodkorlik** - bu o`qitishning yangi, pedagogik ahamiyatga ega va mos usullarini izlash va yaratish uchun maxsus faoliyat turi.

**Umumlashtiruvchi xususiyat** - bu qisqa, ixcham texnika, muhim xususiyatlarni, sabab-oqibat munosabatlarini va eng muhimlarining tarixiy ahamiyatini oddiy sanab o'tish tarixiy dalillar, tushunchalar va qonunlarning mazmuni ijtimoiy rivojlanish.

**Usul** - o`qituvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyat usulidir.

**Xotira** - bu amalga oshiradigan psixofiziologik jarayon yodlash, saqlash va ko`paytirish funksiyalari.

**Xulq-atvor madaniyati** - bu shakllangan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo`lgan shaxs fazilatlari, axloq, axloq, estetik madaniyat normalariga asoslangan shaxsnинг jamiyatdagi kundalik harakatlari majmui.

**Xulosa** - yozma yoki og`zaki kitob, ta'lim yoki ilmiy muammoning asosiy qoidalaring qisqacha mazmuni.

**O`quv dasturi** - bu har qanday o`quv intizomini yoki uning qismini, qismini mazmuni, ko`lami, o`rganish va o`qitish tartibini belgilaydigan o`quv nashridir.

**O`qitish** - bu ijtimoiy-tarixiy tajribaning turli shakllaridagi bilim, ko`nikma va malakalarni egallashga va ularni ongli ta'lim jarayoni natijasida

yoki hayotiy tajriba orqali yangi muammolarni hal qilishda qo'llashga qaratilgan inson faoliyati.

**O`qitish texnologiyasi** - bu didaktik jarayonning ilmiy asoslangan loyihasini amalga oshiradigan va an'anaviy o`qitish usullariga qaraganda ancha yuqori samaradorlik, ishonchlilik va natijalar kafolatiga ega bo`lgan turli xil pedagogik faoliyat.

**O`qitish** - bu asosan o`quvchilarning bilim faoliyatini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat turi; o`qituvchining o`quv jarayonidagi faoliyati.

**O`qituvchining kasbiy malakasi** - bu o`qituvchining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi va uning professionalligi xususiyatlari.

**O`quv jarayoni** - bu obyektiv qonunlarga muvofiq amalga oshiriladigan va tinglovchilarning ma'lum xususiyatlarini shakllantirishga olib keladigan o`quv vazifalari va o`quv elementlarining (o`qitish va o`rganish) maqsadli ketma-ket o`zgarishi.

**O`qitish usuli** - bu o`qituvchilar va ta'lim oluvchilarning birgalikdagи o`zaro bog`liq faoliyati usuli bo`lib, uning davomida didaktik vazifalar hal qilinadi.

**O`qituvchi** - ta'limni amalga oshiradigan, boshqa shaxsning yashash sharoitlari va shaxsiy rivojlanishi uchun javobgarlikni o`z zimmasiga olgan shaxs.

**O`qitish usullari** - bu o`zaro bog`liq faoliyat usullari o`quv jarayonida o`qituvchilar va ta'lim oluvchilar maqsadlariga erishish.

**O`rganish** - tezlikning ko`rsatkichidir va bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirish sifati o`quv jarayoni. O`rganish-bu o`zaro bog`liq va o`z ichiga olgan murakkab jarayon harakatlanuvchi komponentlar: o`quv maqsadlari, tarkib, o`qitish va o`quv faoliyati, ta'lim natijalari.

**O`qitish vositasi** - uslubiy kategoriya, ajralmas qismdir usul, ya`ni, o`qituvchilar va ta'lim oluvchilarning o`qitish usullari, ichida ta'limning o`ziga

xos xususiyatlariga mos keladigan texnikalar bilan kombinatsiya tarixiy material.

**O'quv-uslubiy to'plam** - to'plam darsliklar, uslubiy nashrlar, audiovizual muayyan dasturlarga mos keladigan o'quv qo'llanmalari va darsliklar.

**Fikrlash usuli** - monologik taqdimot mantiqiy zanjir bilan taqdim etilgan nazariy ma'lumotlarning ta'lim muammosining mohiyati bo'yicha savol-javoblar.

**Fikrlash** - bu ijodiy aks ettirishning bir shakli inson tomonidan haqiqat, bu natijani keltirib chiqaradi hozirgi vaqtida haqiqatda yoki mavzuda mavjud emas.

**Metod** - tarixiy tadqiqotlar jarayonida aniq maqsadga olib boruvchi usullar va jarayonlar yig'indisidan iborat.

**Strukturna** - bu dars qismalarining nisbati va o'zaro bog'lanishi bo'lib, ular o'z vazifasi va o'qituvchi bilan o'quvchilar faoliyati xarakteri bilan farq qiladi.

**Ko'nikma** - ta'lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini muayyan sharoitda maqsadga muvofiq bo'lgan harakat usullaridan foydalaniib, muvaffaqiyatlari bajarish qobiliyati.

**Malaka** - ta'lim oluvchilarning mehnat jarayonidagi harakatini aniq, tez va maqsadga muvofiq tarzda avtomatik ravishda bajarish qobiliyati.

**Kompetensiya** - ta'lim oluvchilarning egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqati.

**Usul** - metodning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llaniladigan va alohida qadam.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

### Huquqiy-meyoriy hujjatlar va rahbariy adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiysi. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 iyundagi 422-soni.

2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi. Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi I 059-soni qaroriga 1- ilova. QHMMB: 09/20/1059/0017-soni.03.20.2020.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyulda "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-soni Qarori.

4. "Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi". O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi // Samarqand gazetasi, 2016 yil, -B. 3.

5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 y. 23 sentabr.

6. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi I 059-soni qaroriga 1- ilova.QHMMB: 09/20/1059/0017-soni.03.20.2020.

7. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 7 iyundagi 422-soni qaroriga 3- ilova.Umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiysi. <https://lex.uz/ru/docs/4885018>

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyulda 422-soni "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

9. O'zbekiston Respublikasi prezidentining Yoshlarni ma'naviy -axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash va ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha 2018 yil 14 avgustdag'i (PQ -3907 sonli) qarori
10. O'zbekiston Prezident Shavkat Mirzièevning mamlakatimizda ta'limtarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. - <https://mirziyo.uz/taraqqiyotning-tamal-toshi-millatnibuyuk-qiladigan-kuch-ilm-fan-va-talim-tarbiyadir/>
11. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият 2008.
12. Ислом Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: "Ўзбекистон". 1998.
13. Каримов И.А. Хавсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд. – Тошкент, "Ўзбекистон", 1998.
14. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Т.: Шарқ, 1998.
15. Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳақиқий кафолоти, Тошкент, "Шарқ" нашриёт- матбаа концернининг Бош таҳририяти, 1993.
- Asosiy adabiyotlar:**
16. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т.: "Ўқитувчи", 1992.
17. Абдалова С.Р. Талабаларнинг мустақил таълимими назорат қилиш йўллари. // Xalq ta'limi № 1. 2008
18. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Т.: Янги аср авлоди, 2016.
19. Авдулов А.Н., Кулькин А.М. Классификация информационных технологий / Грант РФФИ, проект № 02. 2006.
20. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогические мастерство . Т. Молия, 2002.
21. Алишер Навоий "Хикматлар". Ўзбекистон. – Т. 2011.
22. Акрамова Г.Р. Ўқувчиларнинг мустақил билим олишларини ташкил этишнинг назарий асослари // Халқ таълими № 5. 2011.
23. Аминова М.М. Ҳозирги давр ёшлар тарбиясининг долзарб муоммолари // ЎЗМУ хабарлари. 2018. 12-сон.
24. Арзиматова И.М. Глобаллашувнинг ёшлар маънавий тарбиясига салбий таъсири // Мураббий илмий - маърифий журнали. 2021. № 2. 2021..
25. Атаева Т.К. Олий таълим тизимида талабаларга инглиз тили фанини ўқитишнинг замонавий асослари // ЎЗМУ хабарлари. Тошкент 2018. 12-сон.
26. Аширов А. "Авесто" ва зардуштийларнинг оила турмуш маросимлари ҳақида // Ўзбекистонда ижтимои фанлар. 2002. № 1.
27. Авесто. А.Маҳкамов таржимаси.
28. Авесто. Хорде Авеста (Кичик Авеста) / Авесто матнини тайёрлаш, таржима, сўзбоши, М. В. Чистяков шарҳи. - СПб., 2005.
29. Абай. Слова назидания. / Пер. сказ. – Алматы: «Рауан», 1995.
30. Akbarov B. Klastyer tizimi umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirishning asosiy omili sifatida // Halq ta'limi. 2019.
31. Бакаев И.Ф. Совершенствование комплексного применения технических средств в условиях кабинетной системы обучения в средней школе.// дисс. канд. наук. автореферат. Москва.1984.
32. Балдауф Ингебог. Джадидизм в Центральной Азиив плане реформизма и модернизма мусульманском мире. Халқаро конференция материаллари. Т.: Маънавият, 2001.
33. Бердяев Н.А. Философия свободного духа. М.: Республика, 1994  
Бердяев Н.А. Философия свободного духа. М.: Республика, 1994.

34. Бегимқулов У.Ш., Джураев Р.Х., Исянов Р.Г. ва бошқалар. Педагогик таълимни ахборотлаштириш: назария ва амалиёт. Ўзбекистон фанлар академияси "Фан" нашриёти. Тошкент -2011. Монография.
35. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург, 2001
36. Бейлинсон В. Г. Арсенал образования: характеристика, подготовка, конструирование учебных изданий. М.: Книга, 1986.
37. Болотов В.А., Сериков, В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – 2003. – № 10.
38. Vinogradova M.D., Pervin I.B. Maktab o'quvchilarining kollektiv kognitiv faoliyati va ta'limi. - M., 1977.
39. Горемыко М.В. Управление качеством общего образования региона на основе кластерного подхода // Дис.канд.пед.наук. - Москва, 2010.
40. Давлатшин М.Г., Ш.Дўстмуҳамедова, М.Мавлонов ва бошқалар. Ёш ва педагогик психология. Ўқув қўлланма. Тошкент-2007.
41. Дистервег А. Избранные педагогические сочинения. М.: Учпедгиз, 1956.
42. Жабборова О.М., Умарова З.А. Болалар педагогикаси мазмунни ва уни кластер усулида ўқитиш // Педагогик таълим кластери: муаммо ва ечимлар. Халқаро илмий-амалий анжуман, ТВЧДПИ, 2021.
43. Жаббарова О., З. Умарова Бошланғч таълимда "Тарбия" фанини ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Чирчик, 2021.
44. Зардустийлик матнлари. О.М. Чунакова таржимаси. "Восточная". Ран. 1997.
45. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико методологический аспект) // Высшее образование сегодня. – 2006. – № 8.
46. Зуев Д. Д. Проблемы школьного учебника: XX век. М.: Просвещение, 2004.
47. Ирисбаева М.Н. Таълим-тарбия жараёнларида тарихий-миллий ва замонавий педагогик технологиялар интеграцияси 13.00.01 - Педагогика назарияси. Педагогик таълимотлар тарихи. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд – 2020.
48. Иксанова Г. М. О качестве учебников и обеспеченности ими организаций общего среднего, технического и профессионального образования: выступление на правительственном часе 18 мая 2015 года.
49. Иноқов К.К. Таълим-тарбия сифатини бошқаришда ҳамкорлик педагогикасининг аҳамияти // ЎзМУ хабарлари. Тошкент. 2018. 12-сон.
50. Исмоилова З.Қ., Ш.А Раупова. Муаммоли таълим технологияларининг таълим жараёнидаги ўрни // Journal "irrigatsiya va melioratsiya" №3 (13). 2018.
51. Ишмуҳамедов Р. Таълимда инноватсиян технологиялар. Тошкент, Истеъодод, 2008.
52. Исмаилова Ш. Олий таълимда талабалар мустақил таълимими ташкил қилишнинг услубий масалалари. // Ta'lim muammolari № 3. 2009.
53. Комаров Э. Я., Литман А. Д. Мировоззрение М. К. Ганди. - М., 1969.
54. Кусаинов А. К. Оценка качества современной учебной литературы // Ценности и смыслы. 2019. № 1 (59).
55. Koshanova N.M. Didactic requirements for textbooks in modern pedagogy (on the example of the subject «education») // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Year: 2022 Issue: 06 Volume: 110.

56. Кошанова Н.М. Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш механизмлари // пед. фан. фалсафа док. (PhD). Чирчиқ. 2022.
57. Koshanova N.M. Teacher actions in professional direction of secondary school children // European Science Review № 3–4 2020 March – April.
58. Коменский. Буюк Дидактика.Т.: Ўқитувчи. 1975.
59. Лернер И. Я. Содержание образования в средней школе как объект теоретического рассмотрения // Пути совершенствования содержания образования и учебно-воспитательного процесса в средней школе. М., 1981.
60. Лекторский В.А. Человек и культура. Ибранные статьи // монография. СПб. 2018.
61. Маҳкамова М.У. Талабаларда ахборот маданиятини шакллантиришнинг моҳияти. //ЎзМУ хабарлар.Тошкент .2018-сон.12-сон.
62. Мавлонова Р, Тўраева й, Холиқбердиев К. Умумтаълим мактабларида ахборот-коммуникатсиян мұхитни шакллантириш ва ривожлантиришда электрон ахборот-коммуникатсиян мұхитни шакллантириш ва ривожлантириш электрон ахборот таълим ресурсларининг ўрни ва аҳамияти // "Халқ таълими" журнали , -Т.: 2016. 4-сон.
63. Мирзахмедов Б. Физикадан муаммоли тажриба бажаришда ўкувчи ўкув ижодий фаолияти ва уни бошқариш технологияси // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2007.
64. Музаффарова, Л.Н. Инновацион технологииялар ва интерактив усуллар: университетларда улардан фойдаланиш турлари ва усуллари / Л.Н.Музаффарова. - Матн: тўғридан-тўғри // Ёш олим. - Но 4 (15).
65. Muhamedov G.I., Xodjamqulov U.N., Toshtemirova S.A. Pedagogik ta'lim innovacion klastyeri // Monografiya. – Toshkent, 2020.
66. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Монография.Тошкент «Адолат» 2016.
67. Никулина Н.Ю. методика преподавания истории в средней школе. Учебное пособие. Калининград. 2000.
68. Носиров О.Н. Таңқидий фикрлаш технологиясининг шаклланишида кластер методининг роли./ Педагогик таълим кластери:муоммо ва ечимлар.Халқаро конференция.Чирчиқ. 2021.
69. Пардаева К.Узлуксиз маънавий тарбия жараёнида Абдулла Авлоний асарларидан фойдаланиш самарадорлиги. /"Абдулла Авлонийнинг илмий педагогик қарашлари" мавзусида халқаро илмий конференци материаллари. 2020 йил 10 июль– Т.: ТДПУ, 2020.
70. Полвонов Ж.А. Тарих фанини ўқитишда синфдан ташқари ишларнинг аҳамияти/ "Илм-фан ва таълимда инноватсияёндашувлар, муоммолар, таклиф ва ечимлар" кўп тармоқли 18-сонли республика илмий-онлайн конференцияси.2021 йил.30-ноябрь. 1-қисм.
71. Педагогика: учебник для студ. высш. учеб. заведений [Текст] / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов; под ред. В.А. Сластенина. М.: Издательский центр «Академия», 2008.
72. Попов И.И., П.Б. Храмцов, Н.В. Максимов. Введение в сетевые информационные ресурсы и технологии. Учебное пособие. М.: РГГУ, 2001ю
73. Розин В. М. Учебник: вчера, сегодня, завтра // Общество и книги: от Гутенberга до Интернета. М.: Традиция, 2001.
74. Рожков М. И. Организация воспитательного процесса в школе [Текст]: учеб. пособие для студентов вузов / М. И. Рожков, Л. В. Байборо́дова - Москва: ВЛАДОС, 2000.

75. Рустамова Н.Р. Media culture as a developing factor of rational thinking of secondary school students//European Journal of Science and Research Reflection in Educational Sciences (EJRRES), Special Issue – Great Britain, 2019. №3.
76. Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент "Ўқитувчи". 1995.
77. Смирнов В. И. Учебная книга в системе дидактических средств // Университетская книга, 2001. № 11.
78. Сумина Т.Г. Теория воспитательной работы. Курс лекция. Екатеренбург. РГППУ. 2010.
79. Сластелин В.А. И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов. Педагогика. Учебник.-М.: Издательский центр. "Академия", 2013.
80. Сухомлинский В. А. Сердце отдаю детям. - Киев, 1969.
81. Сайидаҳмедов Н. Технологик ёндашув устуворлиги. "Ma'rifat" газетаси. 2003 йил 19 февраль.
82. Sodiqova Sh.B Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. 2021. 1-son.
83. Toshtemirova S.A. Umumta'lim muassasalarida ta'lim klasterlerini joriy qilishning nazariy asoslari va amaliy jixatlari // Uslubiy qo'llanma. -T.: 2020.
84. Toshtemirova S.A., G'afforov Ya.X., Abduraxmonova J.N. Mutaxassislik fanlarini kasbga yo'naltirish metodikasi // Toshkent. 2021..
85. Toshtemirova S.A. Klasterli yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish // Toshkent: 2021.
86. Tolipova J.O., G'ofurov A.T.-Biologiya o"qitish metodikasi. Akademik litsey va kasb-hunar kolledjlari o"qituvchilar uchun o'quv metodik qo'llanma.- T.: 2004 yil.
87. Тошпўлатов, Я.Гаффоров. Тарих ўқитиш методикаси. – Т.: "TURON-IQBOL". 2010.
88. Усаров Ж.Э.-Б. 18. Таянч ва фанга оид компетенциялар асосида таълим мазмунини такомиллаштириш ва ўқувчилар компетентлигини ривожлантириш (физика фанини ўқитиш мисолида)//13 00 02 DsC дисс.Тошкент 2019.
89. Усаров Ж.Э. Роль науки в формировании современной виртуальной реальности // Материалы международной научно-практической конференции. - Саратов, 30 декабря 2018 г.
90. Ушинский К. Д. Педагогические сочинения: В 6 т. - М., 1988.
91. Ҳасанов С. Хоразм маърифати – олам кўзгуси. – Т.: «Ўқитувчи», 1996.
92. Ҳашимов. Ш.Ж. Ҳашимова С.Х. Маънавий глобаллашув ахборотлашган жамият ва ёшлар тарбияси //Мураббий илмий - маърифий журнали. 2021.№2. 2021.
93. Халперн Д. Психология критического мышления.4-е международное издание. Санкт-Петербург. Москва-Харьков-Минск. 2000.
94. Холиков А. Педагогик маҳорат. Низомий номли ТДПУ. Ўқув кўлланма. Тошкент.2010. Иқтисод-Молия.
95. Ҳужамбердиева Д.С. Малака ошириш тизими тингловчиларида касбий компетентликни ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари // Замонавий таълим. – Тошкент, 2018. - № 4.
96. Ходжамқулов У.Н., Н.Пердешова. Синфдан ташқари ишларни ташкил этиш:усул ва шакллар// ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES/VOLUME 2/ISSUE 3/2021.
97. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta'lim innovacion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. avtoref... – Chirchiq, 2020.

98. Шайх Мұхаммад Юсуф Мұхаммад Содиқ .Баҳтиёр оила.Хилолнашр.Т.: 2015.

99. Шодмонов Ш.А. Умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларнинг дунёқарашини социал тармоқлар воситасида ривожлантириш технологияси (10-11-синфлар мисолида) пед фалс. док автореф. Т. 2021.

100. Шерназаров З. Абдулла Авлонийнинг маънавий- ахлоқий қарашлари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 6.www/scientificprogress.uz.

101. Якубова Х.С., Мухамедова Х.Б. Трудовое воспитание, как социальное явление в педагогике // В сборнике: Высшее и среднее профессиональное образование России в начале 21-го века: состояние, проблемы, перспективы развития Материалы 12-й Международной научно-практической конференции. В 2- книгах., 2018.

102. Ўзбек тилининг изоҳли лугати.2 жилдлик,II том,-М.: «Рустили нашиёти»,1991.

103. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8-Том. -Т., 2004.

104. Қаршибоев Ҳ. Олий таълимда талабалар мустақил ишларини ташкил этиш. - // "TA'LIM MUAMMOLARI". № 4. 2009.

105. Қодиров Х.О. Ўқувчиларда миллий ментал хусусиятларни шакллантиришнинг инновацисион механизmlарини такомиллаштириш зарурияти // ЎзМУ хабарлари. Тошкент. 2018. 12-сон.

106. Қурбонова Г.А. Замонавий ўқитувчининг педагогик маҳорати ва педагогик бурчи // Замонавий таълим. Илмий журнали. 2017. 2-сон.

107. Файбуллоҳ ас-Салом, Сайди Умр. Толибнома. – “Шарқ”, 1996.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
1-MAVZU: "TARBIYA FANINI O'QITISH METODIKASI" FANINING MAQSAD VA VAZIFASI .....	8
1. Globallashuv jarayonida inson tarbiyasi global muammo sifatida.....	8
2. Mamlakatmizda ta'lim sohasidagi islohatlar mazmuni va samarasi.....	13
3. "Tarbiya" fani me'yoriy asoslari va ularning mazmuni .....	22
4. "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	31
2-MAVZU: TARBIYA FANI DARSLIKLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR .....	36
1. Darslik - o'qitishning asosiy vositasi sifatida.....	36
2. Darslikning tarkibiy didaktik tuzilishi.....	41
3. Darslikka qo'yiladigan talablar .....	54
3-MAVZU: TARBIYA FANINING DIDAKTIK ASOSLARI .....	59
1. Didaktika tushunchasi. Ta'limning tadrijiy rivojlanishida didaktikaning ahamiyati .....	59
2. O'qituvchi kompetentligining ta'lim sifatidagi ahamiyati.....	61
3. O'qitish usullariga qo'yiladigan didaktik talablar .....	68
4. O'qituvchi pedagogik faoliyat subyekti sifatida.....	75
4-MAVZU: DARS. UNING TURLARI VA TUZILISHI. DARSGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR .....	80
1. Dars - ta'limning asosiy shakli sifatida.....	80
2. Dars turlari va unga qo'yiladigan zamonaviy talablar .....	83
3. Darsning xususiyatlari .....	96
5-MAVZU: TARBIYA FANINI O'QITISH METODLARI VA KLASIFIKATSIYASI .....	102
1. Uslug va uslubiyot tushunchalari tasnifi .....	102
2. Tarbiya darslarining maxsus shakllari .....	106
3. Tarbiya darslarida interfaol usullar .....	111
6-MAVZU: TARBIYA FANI O'QITUVCHISIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR .....	125
1. Pedagog kasbining xususiyatlari, uning umumiy va kasbiy madaniyatni. O'qituvchining kompetentligi .....	125

2. Tarbiya fani o'qituvchisining pedagogik mahorati.....	131
3. O'qituvchining pedagogik texnikasi.....	141
<b>7-MAVZU: TARBIYA DARSALARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....</b>	<b>151</b>
1. Pedagogik jarayonni amalga oshirish texnologiyasi.....	151
2. "Tarbiya" fani darslarida "Taqidiy fikrplashni rivojlantirish" texnologiyasi samaradorligi.....	156
3. Tarbiya fanini o'qitishda muammoli ta'lif texnologiyasidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.....	160
<b>8-MAVZU: TARBIYA FANI BO'YICHA SINF DAN TASHQARI OLIB BORILADIGAN ISHLAR .....</b>	<b>177</b>
1. "Sinf dan tashqari ish" tushunchasining tarixi va uning mohiyati va shakllari.....	177
2. Sinf dan tashqari ishlarning ta'lif-tarbiyaviy ahamiyati, shakl va usullari .....	182
3. Sinf dan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchida kasbiy tarbiyani shakllantirish.....	190
<b>9 - MAVZU: TARBIYA DARSALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH .....</b>	<b>193</b>
1. Tarbiya darslarida mustaqil ta'limi tashkil qilish yo'llari.....	193
2. Tarbiya darslarida ta'lif oluvchilar mustaqil ta'limi faollashtirishda mediata'lif vositalaridan foydalanish.....	203
3. Mustaqil ishi bo'yicha maslahatlarni tashkil etish tartibi .....	207
<b>10 - MAVZU: TARBIYA FANI XONASINING O'QITUVCHI TOMONIDAN ILMIY-METODIK JIHOZLANISHI .....</b>	<b>212</b>
1. Ta'lif jarayoni sifatini oshirishda ta'lif xonasining o'rni va uni o'quv uslubiy ta'minlashga qo'yiladigan talablar.....	212
2. O'quv jarayonida texnik vositalardan foydalanishning ahamiyati.....	216
<b>11-MAVZU: TA'LIM MUASSASALARIDA SHAXSGA YO'NALТИRILGAN TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH .....</b>	<b>222</b>
1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lif mazmuni va texnologiyalari .....	222
2. Tarbiya ko'rghanlikni aniqlash (tashxislash) .....	226
3. Tarbiya fanini o'qitishda ko'rgazmali, tasviriy yordam vositalarini jalg qilish.....	233

<b>12-MAVZU: TARBIYA DARSALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....</b>	<b>241</b>
1. Axborot-kommunikatsi texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lif jarayonini tashkil etish metodlari .....	241
2. Globallashuv sharoitida ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi .....	250
3. O'smir-yoshlarda ijtimoiy tarmoqlarga tobeklikning avj olishi va uning salbiy jihatlari .....	255
4. Maktab o'quvchilari dunyoqarashini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning amaliy masalalari .....	262
<b>13- MAVZU: TARBIYA FANIDA PEDAGOGIK MANBALAR BILAN ISHLASH .....</b>	<b>265</b>
1. O'zbek xalq pedagogikasida "Avesto" qadimiy yozma manba sifatida .....	265
2. Sharq mutafakkirlarining tarbiya masalasidagi didaktik qarashlari ...	273
3. Uzluksiz ta'limda ijtimoiy fanlarni integrativ o'qitish asosida fuqarolik tarbiyasini shakllantirish muammolari .....	286
<b>14-MAVZU. TA'LIM KLASTERI TARBIYA FANLARINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA NISBATAN INNOVATSION YONDASHUV SIFATIDA .....</b>	<b>296</b>
1. Ta'lif klasterining nazariy asoslari .....	296
2. Ta'lif klasteri sharoitida Tarbiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish .....	303
3. Ta'lif klasteri subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabat mexanizmi ..	309
4. Tarbiya fanlari bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va rivojlantirish metodikasi .....	313
5. "Oila-mahalla-oliy ta'lif" tarbiya tizimining o'rni va ahamiyati .....	323
<b>15-MAVZU TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA TA'LIM OLUVCHILARNI TO'G'RI KASB TANLASHGA YO'NALTIrish METODIKASI .....</b>	<b>328</b>
1. Ta'lif klasteri sharoitida ta'lif oluvchilarni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish mazmuni va shartlari .....	328
2. Bo'lajak mutaxassislarni to'g'ri kasbga yo'naltirishda o'zaro hamkorlikning ahamiyati .....	331
<b>MAVZULARNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TEST SAVOLLARI .....</b>	<b>337</b>
<b>GLOSSARIY .....</b>	<b>360</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:.....</b>	<b>373</b>

## TARBIYA FANLARINI O'QITISH METODIKASI

60112100 – Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo`nalishi  
talabalari uchun darslik

Muharrir: U.N.Xodjamqulov

Tehnik muharrir: S. Melikuziva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: I. Xakimov

**Nashriyot litsenziya № 1961, 07.04.2022 y.**

Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. "Cambria" garniturasi, kegli 16. Offset  
bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 24,25.

Adadi 20 dona. Buyurtma № 2068313

**Olmaliq kitob business MCHJda chop etildi.**

